2026
ISSUE 2(1)

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI

xalqaro ilmiy-metodik jurnali

www.saen.uz
https://t.me/saen_2024
saen_2024@mail.ru



"FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI"

xalqaro ilmiy-metodik jurnali

2026-yil, 2(1)-son
Jurnal 2024-yildan chiqa boshlagan

Toshkent – 2026

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Bosh muharrir:
Shoumarov G'ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), akademik

Bosh muharrir o'rinbosari:
Qodirov Umarali Do'stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib:
Muqimov Alisher

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694

TAHRIR HAY'ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A'zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A'zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo'lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To'xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o'g'li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To'xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
Yusupov Ahmadbek Tadjiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
G'ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik

Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

MUNDARIJA

Saidov B.O. O‘zbek olimlari tomonidan migratsiya va migrant oilalarni o‘rganish……..	8
Jurayev B. O‘spirinlarda huquqiy ong va huquqiy savodxonlikni shakllantirishning dolzarb masalalari…….	15
Arzikulov D.N. Sport faoliyatining psixologik asoslari va uning tashkil etish omillari…..	21
Karimov X. Sportchilarda musobaqa oldidan hayajon va stressni boshqarish usullari…..	30
Berdiyeva H.M. Texnologiya fanida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning pedagogik asoslari…….....	38
Xaydarov Y.X. Kasbiy mahorat – ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil (“O‘zbekiston tarixi”ni o‘qitish misolida)……	44
Abdullayev A.Sh. Jamoaviy sport turlarida ijtimoiy-psixologik mexanizmlarning ishlashiga yangicha yondashuv (voleybol sport turi misolida)…….	49
Raximov A.A. O‘smir bokschilarda muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivlari shakllanishini belgilovchi psixologik jihatlar……..	59
Yuldasheva N.Sh. Interrelation of imposter syndrome, rigidity, and self-confidence characteristics across different age periods…….	64
Alimardanova R.N. Oilada onalik institutining ijtimoiy-psixologik ahamiyati…….	71
Mamatkulov D.E. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarida refleksiv faoliyatni tashkil etish va boshqarishning nazariy-metodologik asoslari.....	78
To‘rayeva S.S. Malaka oshirish tizimida tarbiya fani tinglovchilarining moslashuvchanlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini tashkil etish vositalari..	84
Saydaliyeva G.O. Turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlashning muammolari va yechimlari…….	90
Туракулова Д.Б. Психологическая стрессоустойчивость профессиональных спортсменов……	96
Abdullayeva M.I. Ilm-fan taraqqiyotidagi innovatsiyalar — Yangi O‘zbekistonni barpo etishning muhim omili……..	101
Raximova D.M. Ta’lim sifatini oshirishda pedagogik-psixologik yondashuvlar……	106
Ostonova G.O. O‘smirlik davrida antipatiyaning shakllanishi va namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari……..	112
Ondayev Sh.H. Profilaktika inspektorlarida kasbiy stress va emotsional zo‘riqishni kamaytirishda psixologik barqarorlikni rivojlantirish mexanizmlari……...	119
Mirraximov B. Axborot asrida yoshlar siyosiy madaniyatini o‘rganishning metodologik yondashuvlari……	125
G‘afurov S.A. Sun’iy intellekt yordamida test va viktorina yaratishning ta’limdagi afzalliklari…….	130
Худайбердиева Х.К. Творчество как совокупность таланта и её роль в формировании личности……	135
Ostonov F.O. Harbiylashtirilgan oliy ta’lim muassasalari talabalarida emotsional zo‘riqishlarning asosiy sabablari: ijtimoiy-psixologik tahlil……	143
Normuhammedov Z.N. Maktab ta’limida STEAM yondashuvni joriy etishning pedagogik texnologiyalari va samaradorligi……	149
Mavlyanova G.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari va internet saytlaridan foydalanish……..	158
G‘ofurova O.A. Oliy ta’limda raqamli texnologiyalar va zamonaviy pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish……...	164
Tursunova M.H. Emotsional holatlarning selektiv diqqat samaradorligiga ta’siri: klassik va zamonaviy nazariyalar qiyosiy psixologik tahlili……	171

Nabiyeva N.Sh. Akademik guruhlarda demokratik liderlikning psixologik muhit shakllanishiga ta'siri……	177
Нишанова Ф.А. Социально-психологические механизмы мотивации мужского абьюза и модель психологической помощи жертвам: эмпирическое исследование...	183
Abdubokiyeva A.B. Murakkab nuqsonli bolalar bilan ishlashdagi o'ziga xosliklar va zamonaviy usullar……	190

UDK: 316.347–053.6

Saidov Baxtiyor Odilovich,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), tadqiqotchi

O‘ZBEK OLIMLARI TOMONIDAN MIGRATSIYA VA MIGRANT OILALARNI O‘RGANISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada migrant oilalar o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilganligi ko‘rib chiqiladi. Migrant oilalar bugungi oilashunoslik va ijtimoiy-psixologik fanlar doirasida dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Maqolada migrant oilalarni o‘rganishning ahamiyati ta’kidlanib, ularning ijtimoiy va psixologik muammolari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: migratsiya, oila, xorij, psixologiya, migrant oila

ИЗУЧЕНИЕ МИГРАЦИИ И МИГРАНТСКИХ СЕМЕЙ УЗБЕКСКИМИ УЧЁНЫМИ

Аннотация. В статье рассматривается изучение мигрантских семей узбекскими учёными. Мигрантские семьи рассматриваются как актуальная проблема в рамках современной семейной и социальной психологии. Подчёркивается необходимость изучения мигрантских семей и анализируются их социально-психологические проблемы.

Ключевые слова: миграция, семья, зарубежные страны, психология, мигрантская семья

STUDY OF MIGRATION AND MIGRANT FAMILIES BY UZBEK SCHOLARS

Abstract. This article examines the study of migrant families by Uzbek scholars. Migrant families are considered a pressing issue within the fields of modern family studies and social psychology. The article emphasizes the importance of studying migrant families and analyzes their social and psychological challenges.

Keywords: migration, family, abroad, psychology, migrant family

O‘zbek olimlari tomonidan migratsiya jarayonining turli ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy jihatlari o‘rganilgan. Biroq, migrant oilalar muammolari ilmiy-tadqiqot ob’ekti sifatida yetarlicha tadqiq etilmagan. Xususan, oilada turmush o‘rtog‘i uzoq muddat mehnat migranti bo‘lgan o‘zbek oilalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hali to‘liq o‘rganilmagan. Umuman olganda, migrant oilalar mavzusi ilmiy tadqiqot sifatida sistematik tarzda o‘rganilmagan.

Migratsiya masalalari asosan iqtisod, huquqshunoslik, falsafa va siyosatshunoslik sohalarida ko‘rib chiqilgan. Mamlakatimizda kam sonli olimlar bu jarayonni ijtimoiy-gumanitar nuqtai nazardan o‘rganishga uringan. Shu jumladan,

R. Madalieva, T. Saidbaev, K. Kalanov, A. Rasulov, N. Kurbanov va F. Parmonovlar o‘z tadqiqotlarida migratsiya jarayoniga qisman yondoshganlar.

Bugungi kunda migratsiya jarayoni har bir xalqning etnik xususiyatlariga, yashash tarziga va kundalik hayot tartibiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Har bir migrant o‘z vataniga qaytgandan so‘ng rasmiy ravishda migrant hisoblanmasa ham, u chet davlatlarda o‘rgangan odat, ko‘nikma va tajribalarni oilasida qo‘llashni davom ettiradi. Shu sababli, migratsiya jarayonining oilaviy va ijtimoiy-psixologik ta’sirini chuqur o‘rganish muhim ilmiy vazifa sifatida qaraladi.

“Bu esa madaniyat, ma’naviyat, xalqning mental xususiyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi muqarrar. Ayni ana shu jarayonda oilaning turmush tarziga putur yetadi. Bunda ikki hil manzara aks etishi mumkin. Birinchisi, agar qaytib kelgan migrant ota bo‘lsa, butun oila uning ta’siriga tushib, jamiyat qonun-qoidalariga zid xatti-harakat tufayli atrofdagilardan alohida ajrab qolish. Natijada, farzand tarbiyasida notekisliklar yuzaga keladi” [1].

Ijtimoiy nazoratning zaiflashgan davrida oilada ham farzand tarbiyasiga mas’ul bo‘lgan ota mehnat migranti sifatida uzoq muddatga xorij mamlakatiga ketishi, farzandlarda deviant xulq-atvorning shakllanishiga keng imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, o‘smirlik davrida bolalarda turli ijtimoiy hodisalarga qiziqish kuchayadi, shuning uchun ularni nazoratsiz qoldirish xavfli bo‘ladi. Afsuski, mamlakatimizda migrant oilalar farzandlarini ijtimoiy nazorat qilish va ularni ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmi yetarli emas.

Majburiy mehnat migratsiyasi oilalarning iqtisodiy holatini yaxshilashga xizmat qilsa-da, uning ijtimoiy va psixologik teskari ta’sirini ham unutmaslik lozim. Ota chet elda o‘rgangan odat va tajribalarni oilasiga singdirishga harakat qiladi. Shu bilan birga, farzand yashab turgan jamiyatdagi tarbiya tizimi va axloq-odob qoidalarini anglab-anglamay tark etishga majbur bo‘lishi mumkin. Natijada, ba’zi hollarda farzandlar egoist xulqli shaxs sifatida tarbiyalanadi yoki oilasini tark etishga intiladi, chunki o‘zining yashayotgan jamiyatidagi qadriyatlar va oilasidagi qadriyatlar orasidagi nomutanosiblikni his qiladi.

Shu sababli, migrant oilalarda farzandlarning ijtimoiy va psixologik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va nazorat qilish tizimlarini rivojlantirish muhim ilmiy va amaliy masala hisoblanadi [1].

Tadqiqotchilarning xulosalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek oilalarida xorijda mehnat migranti sifatida ishlab kelgan shaxslarga psixologik yordam ko‘rsatish muhim hisoblanadi. Ulardagi transmadaniy xususiyatlarni shakllanish jarayonida o‘z-o‘zini anglash va moslashuv qobiliyatini rivojlantirish tizimini yaratish zarur.

D.N. Mo‘ydinov tomonidan migratsiya jarayonlarining jamiyat barqarorligiga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqotchining “tushkunlik modeli”ga ko‘ra, mehnat migranti sifatida ishlash uchun ketgan shaxs yangi ijtimoiy-madaniy muhitda turli salbiy hodisalar bilan duch keladi. Masalan, atrof-muhitning iflosligi, tabiiy ofatlar, psixologik stress va bosh og‘rig‘i kabi holatlar, uyga qaytish istagi va afsuslanish kabi psixologik reaksiyalarni keltirib chiqaradi.

Mo‘ydinov migratsiyaga sabab bo‘luvchi omillarni ikki toifaga ajratgan: yumshoq omillar, masalan, ishsizlik, qashshoqlik va ijtimoiy qoloqlik; va qattiq omillar, ya’ni shaxs inqiroziga olib keluvchi dramatik hodisalar.

Shuningdek, tadqiqotchi ijtimoiy tarmoqlar nazariyasiga e’tibor qaratadi. Unga ko‘ra, migrantlarning ortda qolgan qarindoshlari, do‘stlari va o‘zi ulg‘aygan atrofdagi insonlar bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liqligi mavjud. Migrantlar o‘z vatanida qolgan qarindoshlariga ish bilan bog‘liq ma’lumotlarni yetkazish, kam xarajatli yashash joylarini aniqlash va ijara uy topishda yordam berish orqali “migrant zanjiri” hosil qiladi. Ushbu zanjir faqat mehnat migratsiyasida emas, balki sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa sohalarda ham keng tatbiq etilmoqda [2].

Migratsiya jarayonining ortishini asoslovchi yana bir yondashuv — institutsional nazariyadir. Ushbu nazariya bo‘yicha migratsiyani qo‘llab-quvvatlaydigan va unga yordam beradigan institutlar sonining ortishi migratsiya jarayonini kuchaytiruvchi asosiy omil sifatida ko‘rsatiladi. Nazariyaga ko‘ra, qonuniy va noqonuniy yo‘llar orqali insonlarni migrant sifatida tashish sanoati shakllangan.

D.N. Mo‘ydinov tadqiqotlarida oilalarning migratsiya tufayli daromadlarini sezilarli darajada oshirganini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, kam daromadli oilalar o‘zlarini nisbatan kambag‘al his qilishi, ba’zilarni migratsiya yo‘nalishiga yo‘naltiradi. Bu holat daromad tengsizligini yanada oshiradi va migratsiya bo‘lmagan oilalarni ham shu jarayonga jalb qiladi. Tadqiqotchi, shuningdek, ayollar o‘rtasida migrantlar sonining ortayotganini ta’kidlab o‘tgan.

O‘zbek tadqiqotchilari mamlakatimizda qishloq hududlaridagi ichki va tashqi mehnat migrantlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun quyidagi vazifalarni belgilashgan:

mahallalarda ishchi kuchi yetishmaydigan hududlardagi bo‘sh ish o‘rinlari, ishning xususiyati, oylik maoshi va ishchilarning malakalari to‘g‘risida ma’lumotlarni e’lon qilish;

mehnat migrantlarining oilaviy a’zolariga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish;

xorijga ishga ketgan migrantlarning farzandlari ta’limi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish [3].

S.K. Alimov tomonidan migrantlarning ahloqiy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotchiga ko‘ra, migratsiya siyosati asosan immigrant davlat tomonidan amalga oshiriladi va bu jarayon ma’lum siyosiy, psixologik, huquqiy hamda etnik mezonlarga asoslanadi. Migrantlar oldida huquq va majburiyatlar mavjud bo‘lib, ularning majburiyatlariga o‘z oilasini moddiy ta’minlash, farzandlarini o‘qitish va ularni uy-joy bilan ta’minlash kiradi. Ya’ni, har qanday huquqiy vaziyat migrantlarda muayyan majburiyatni yuzaga keltiradi. Hozirgi kunda migrant va immigrant davlatlar o‘rtasida mehnat migrantlarining etnik xususiyatlarini hisobga olgan holda huquq va majburiyatlarni belgilash muhim hisoblanadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan migratsiya siyosati inson psixologiyasiga ta’siri nuqtai nazaridan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, migratsiya jarayoni yopiq siyosat sifatida amalga oshirilmasligi lozim, chunki shaxsning huquq va majburiyatlari har qanday davlat huquq tizimining asosiy tamoyillaridan biridir.

Ikkinchidan, migratsiya jarayoni davlat va shaxs, ularning manfaatlari tizimidagi nizolardan iborat psixologik munozaralarga sabab bo‘ladi. Ushbu muammoni to‘liq bartaraf etish ba’zida imkonsiz bo‘lib, uni “oltin oralik”dagi qarorlar orqali muvozanatlash zarur.

Uchinchidan, migrantlarning huquqlari va davlat siyosati o‘rtasidagi to‘qnashuvni bartaraf etadigan mexanizmni shakllantirish, shuningdek, imtiyozlar masalasini aniqlash va migrantlarning mas’uliyati hamda imkoniyatlari to‘g‘risida bilim va ko‘nikmalarini oshirish zarur.

To‘rtinchidan, migratsiya siyosati inson manfaatlariga moslashgan va u inson omili uchun xizmat qiladigan “ongli boshqaruv” shaklida yuritilishi lozim. Bugungi kunda bunday yondashuv ko‘plab immigratsion davlatlarda qo‘llanilmoqda. Shu siyosatni amalga oshirishda migrantlarning individual va etnik xususiyatlarini hamda demokratiyaning umuminsoniy prinsiplarini hisobga olish muhimdir.

Mehnat migrantlari boshqa davlatga kirganlarida o‘z yashashi uchun erkin joyni tanlash huquqini qo‘lga kiritadilar, shu bilan birga qabul qiluvchi jamiyatning qonunlariga, urf-odatlariga hamda milliy, etnik va dini qadriyatlariga hurmat ko‘rsatish kabi axloqiy majburiyatlarni ham o‘z zimmasiga oladilar. Har bir davlat qabul qilayotgan migrantlarni ularning etnik xususiyatlarini hisobga olgan holda huquq va majburiyatlarini belgilashi muhimdir. Shu bilan birga, davlat migrantlar bilan bog‘liq siyosatni ongli boshqarish huquqiga ega. Bu, o‘z navbatida, mamlakatga kirib kelayotgan migrantlarni ma’lum mezonlar asosida saralash, ularning individual xususiyatlarini hisobga olib turli sohalarga yo‘naltirish kabi amaliy choralarni o‘z ichiga oladi [4].

O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy tadqiqot institutida mehnat migrantlari oilalarida shaxslararo munosabatlarning pedagogik-psixologik omillarini o‘rganishga qaratilgan qisqa muddatli loyiha amalga oshirilgan. Tadqiqotda migratsiya jarayonining oilaviy munosabatlarga ta’siri alohida e’tibor bilan tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

oilaviy munosabatlar tizimida buzilishlar kuzatiladi, jumladan, katta avlod va kichik avlod o‘rtasidagi jonli muloqotning uzilishi, er-xotin munosabatlaridagi funksional muammolar, ishonchsizlik, ajralishlar va xiyonatlar.

ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarda muammolar yuzaga keladi, bu esa bolaning shaxsiyati, hissiy-irodaviy rivoji, shaxslararo munosabatlari hamda ota-ona obro‘si va boshqa oilaviy funksiyalarga ta’sir qiladi.

ota-ona yoki ularning birining nazoratisiz qolgan bolalarda shaxs tuzilmasida turli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Masalan, bolaning o‘z mansubligini anglashida muammolar paydo bo‘ladi, yaqinlariga nisbatan hissiy bog‘lanish buziladi, ota-onaning funksiyalari oiladagi to‘ng‘ich farzandga o‘tishi bilan bolaning kun tartibi va majburiyatlarida o‘zgarishlar yuz beradi, ta’limiy qiziqishlar so‘nishi kabi holatlar kuzatiladi [5].

Tadqiqotchilar mehnat migrantlarining o‘z yurtida qolgan farzandlari bilan pedagogik-psixologik eksperimental tadqiqot o‘tkazgan. Ota-onasi mehnat migrant bo‘lgan oilalarda ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik darajasi o‘rganilgan. Tadqiqot uchun ijtimoiy holatga ko‘ra sinaluvchilar quyidagi ikki guruhga ajratilgan: birinchisi — otasi mehnat migranti bo‘lgan va yolg‘iz onasi bilan qolgan bolalar; ikkinchisi — ota-onasi mehnat migranti bo‘lgan va buva-buvisi yoki yaqin qarindoshlari bilan qolgan bolalar. Tadqiqot Toshkent shahri va Samarqand viloyatida olib borilgan.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, yolg‘iz onasi bilan qolgan bolalarning kattalarga, buva-buvisiga, onaga, aka-opalarga va do‘stlariga bo‘lgan hissiy yaqinligi va shaxslararo munosabatlari ikkinchi guruhga nisbatan yuqori bo‘lgan. Bolalarning otasiga bo‘lgan hissiy bog‘liqligi sinaluvchilarning 46,1 % da yuqori aniqlangan. Shu bilan birga, ikkala guruhda ham otaga bo‘lgan ijobiy munosabatlar 21 % ni tashkil qilgan. Migrant oilalar farzandlari ota va onani er-xotin sifatida to‘liq qabul qilmaydiganligi aniqlangan. Otaning muntazam uzoqda bo‘lishi bolalarning idrokida oila yagona jamoa emasligi va ota-ona o‘rtasidagi munosabatning to‘la qonli emasligi haqidagi taassurotlarni shakllantiradi.

Ushbu omillar kelajakda bolaning ota-onaning hayot tajribasini takrorlash ehtimolini oshiradi va bolada noto‘liq oilani normal oila sifatida qabul qilish xatti-harakatini yuzaga keltiradi. Natijada oiladagi muhit farzand uchun mos bo‘lmasligi, oilaviy yahlitlikning yo‘qligi va ota-ona hamda farzandlar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarda muammolar bolaga nafaqat hissiy-emotsional, balki xulq-atvor jihatidan ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotchilar migrant oilalar farzandlari bilan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelgan:

1. Ota-onasi mehnat migranti bo‘lsa ham bolalarda ularga nisbatan emotsional hissiy bog‘langanlik, ijobiy munosabatda bo‘lishi kuzatilgan.
2. Bolalar onasi yoki boshqa qarindoshlari bilan qolganda ularning shaxslararo munosabati turlicha bo‘lishi aniqlangan.
3. Oilada ota yoki onaning farzand birga qolishi, bolaning ijtimoiy-psixologik holati, uning psixik hususiyatlari boshqa shaxs bilan qolgan bolalarga nisbatan ijobiy xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi.
4. Mehnat migrant sifati ota-onaning ikkalasi ham safarda bo‘lishi, bola uchun psixologik jihatdan og‘ir kechishi, o‘z olamiga kirib olishlik, ijtimoiy omillar sababli deviant xulqni shakllanishi yuzaga keladi.
5. Faqat otaning mehnat migranti bo‘lishi, bolada boshqa shaxslarga nisbatan emotsional bog‘langanlik darajasi past bo‘lishi aniqlangan. Demak oilada otaning bo‘lishi farzandlarda ishonch tuyg‘usi shakllanishiga va ularda shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda zamin bo‘ladi.

Ota-ona va qarindoshlari nazoratisiz qolgan bolalarda xulq-atvor buzilishi va o‘z hissiyotlarini boshqarish qobiliyatining pasayishi kuzatiladi. Tadqiqot davomida farzandlarning ota-onaga nisbatan saqlangan emotsional bog‘liqligini, ota-onasi uyga qaytgach, qayta tiklash mumkinligi aniqlangan. Shu bilan birga,

mamlakatimizda migrant oilalarning farzandlari uchun saqlangan bu hissiy bog‘liqlikni tiklash mexanizmi hozircha mavjud emas.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, migrant oilalardagi ayollarning 69 foizida ijtimoiy yakkalanganlik darajasi past, 23 foizida o‘rtacha, 7,6 foizida esa yuqori darajada aniqlangan. Oila boshlig‘i mehnat migranti bo‘lgan hollarda ayollarga yaqin qarindoshlari yordam berib turishi, ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishga yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, turmush o‘rtog‘ining uzoqda bo‘lishi ayollarda yakkalanganlik darajasiga sezilarli ta’sir qiladi.

Tadqiqotchilar ushbu holatni quyidagicha izohlashadi:

turmush o‘rtog‘ining uzoq muddat mehnat migranti bo‘lishi ayollarga ro‘zg‘or ishlaridan tashqari farzand tarbiyasi va ta’limi bilan bog‘liq masalalarni mustaqil hal qilishni talab qiladi, bu esa ularning psixologik holatini ta’sirlaydi va ko‘pincha muammolarni anglamay yuzaga keltiradi;

ba’zi oilalarda, turmush o‘rtog‘i uzoqda bo‘lsa ham, ijtimoiy tarmoqlar va telefondagi muntazam muloqotlar hamda oilaga pul jo‘natmalari er-xotin munosabatlarining ijobiy bo‘lishini ta’minlab, ayol uchun psixologik yordam vazifasini bajaradi;

uzoq vaqt mehnat migranti bo‘lgan turmush o‘rtog‘i tufayli ayollarda ijtimoiy-psixologik moslashuvni va hayotiy qiyinchiliklarni mustaqil hal qilish qobiliyatini shakllantirish uchun maxsus mexanizm yaratish zarur.

Tadqiqotchilar migrant oilalarni kompleks qo‘llab-quvvatlash maqsadida mahallalarda quyidagi choralarning joriy etilishini tavsiya qilganlar:

- mahalla tizimida migrant oilalar bilan ishlashni tashkil etish va ularning muammolarini hal etishda yordam beradigan samarali mexanizm yaratish lozim;

- migrant oila a’zolariga moddiy yordam ko‘rsatish, og‘ir sharoitda ishlayotgan xotin-qizlar va oilalarni qo‘llab-quvvatlash, ularni o‘z vataniga qaytarish, bilim va ko‘nikmalarini oshirish hamda oilaviy munosabatlarini tiklashda psixologik yordam berish, shuningdek ularga munosib ish o‘rinlarini ta’minlash muhim hisoblanadi;

- farzandlarni yaqin qarindoshlariga qoldirish bolalarning psixologiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi; nazoratsizlik esa ularning xulq-atvorida deviant holatlarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin;

- farzandlarning idrokida noto‘liq oila butun oila sifatida qabul qilinishi va uzoq muddat otasiz yashash odat tusiga kirishi bolalarning psixologik rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi;

- ayol migrantlarda ijtimoiy yakkalanganlik darajasi yuqori bo‘lib, ular ijtimoiy-psixologik yordamga alohida muhtoj ekanligi ta’kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Parmonov F., Sh. To‘rayev, Daminov I. Migratsiya: Musofir vatangadolar. Monografiya. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2015. – 112 b.

2. Muxiddinov E.M. Aholini ish bilan bandligini ta’minlashda mehnat migratsiyasining o‘rni. 2019. – 162 b.

3. Xolmuminov Sh., Abduramanov X. Qishloq aholining tashqi va ichki mehnat migrantlarini samarali tashkil etish // "Biznes-Ekspert", 2018-yil, 11 (131)-son, 57-62 b.

4. Alimov S. Migratsiya axloqi va migratsion siyosat: zamonaviy muammolar va ularning yechimlari // "NamDU ilmiy axborotnomasi", 2020-yil, 11-son, 151-156 b.

5. Madjidova D.A., Xusanova D.G', Bazarov A.A. Mehnat migrantlari oilalarida shaxslararo munosabatlarning pedagogik-psixologik omillari. – T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2021. – 88 b.

UDK 159.922.6

Jurayev Bahrom,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, psixologiya fanlari doktori(DSc), professor

O'SPIRINLARDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada o'spirinlarda huquqiy ong va huquqiy savodxonlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'rganilgan. Unda muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so'z borgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammoni o'rganish bugungi kunda ham juda dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: shaxs, o'spirin, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, qonun, huquqiy ta'lim-tarbiya.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ И ПРАВОВОЙ ГРАМОТНОСТИ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. В статье рассматриваются социально-психологические особенности формирования правосознания и правовой грамотности у подростков. В ней рассказывается о теоретических и практических аспектах проблемы, о научных исследованиях, проводимых учеными в связи с этим. Исследования, проведенные автором, показывают, что изучение данной проблемы остается весьма актуальным и на сегодняшний день.

Ключевые слова: личность, подросток, правосознание, правовая культура, правовая грамотность, право, юридическое образование.

RELEVANT ISSUES OF FORMING LEGAL CONSCIOUSNESS AND LEGAL LITERACY IN ADOLESCENTS

Annotation. The article deals with the socio-psychological features of the formation of legal consciousness and legal literacy among adolescents. It tells about the theoretical and practical aspects of the problem, about the scientific research conducted by scientists in connection with this. The studies conducted by the author show that the study of this problem remains very relevant today.

Key words: personality, adolescent, legal awareness, legal culture, legal literacy, law, legal education.

O'spirinlarda huquqiy ong va savodxonlikni shakllantirish — demokratik huquqiy davlat barpo etishning muhim poydevoridir. Bu boradagi dolzarb masalalar: zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ijtimoiy tarmoqlardagi huquqiy

nigilizmga qarshi kurashish, oila va ta'lim muassasalari hamkorligini mustahkamlash hamda huquqiy tarbiyani nazariyadan amaliyotga yo'naltirishdir.

O'spirinlar huquqiy madaniyatini yuksaltirishning asosiy yo'nalishlari:

- huquqiy tarbiyaning mazmuni. O'spirinlarga nafaqat huquq va majburiyatlarni o'rgatish, balki ularda qonunga hurmat ruhini shakllantirish va ijtimoiy mas'uliyatni his ettirish;

- zamonaviy yondashuvlar: Kibermakonda huquqiy savodxonlikni oshirish, internetdagi huquqbuzarliklarning oldini olish, interaktiv o'yinlar va huquqiy keyslardan foydalanish;

- Oila va maktab roli: o'quvchi-yoshlarning huquqiy ongini oshirishda oilaviy muhit va maktabdagi huquqiy ta'limning uzviyligini ta'minlash;

- huquqiy savodxonlikning ahamiyati: O'spirinlarning jinoyat va huquqbuzarliklardan himoyalanishi, o'z haq-huquqlarini bilishi va qonuniy javobgarlikni anglashi.

Jamiyatimizda aholiga, ayniqsa yoshlarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, ular ongida inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirish, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf qilish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, yoshlarning ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish, huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy himoya tizimini takomillashtirish masalalari davlatning muhim maqsadlari qatoridan joy oldi. Bu ishlarni amalga oshirishda biz avvalo eng kichik bo'g'inlardan, ya'ni maktab va bog'cha o'quvchilardan boshlashimiz, yoshlar bilan o'tkaziladigan ma'naviy va ma'rifiy targ'ibot ishlarini yanada jonlashtirishimiz lozim.

Respublikamizda so'nggi yillarda yoshlarning huquq va erkinliklari, ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi ishtirokini kuchaytirish, ta'lim olishi, turmush tarzini yaxshilashga yo'naltirilgan xuquqiy-meyoriy asos yaratildi. "Yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan yo'nalishida: yoshlarga oid normativ-huquqiy hujjatlarning yagona elektron bazasini shakllantirish va yangilanib borishini ta'minlash; qonun ijodkorligida yoshlarning yaqindan ishtirokini ta'minlash; jumladan, voyaga yetmaganlar, o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarning aniq choralarini ishlab chiqish..." vazifalar ijrosini ta'minlashda o'spirinlarning huquqiy savodxonligini kuchaytirishning psixologik omillarini aniqlash shakllanishining pcixologik mexanizmlapini aniqlash va takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish uchun mustahkam asos yaratildi.

Globallashayotgan dunyoda shaxs shakllanishiga qo'yilayotgan talablar qatorida huquqiy ong va huquqiy savodxonlikni shakllantirish hamda rivojlantirish

dolzarbligi ortib bormoqda. Shu sababli ham jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichida tahsil oluvchilarga ham talablar o‘zgarib bormoqda. Hozirgi ta’lim oluvchilarda qo‘yiladigan talablarning eng muhimlari ularda informatsion kompetentlik, menejerlik salohiyati, huquqiy madaniyat va huquqiy savodxonlikni oshirish talabini qo‘yadi. Chunki mamlakatimiz har bir fuqarosining o‘z huquq va burchlarini hamda mas’uliyatini puxta bilishi, buni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamog‘ini davrning o‘zi talab qilmoqda. Shaxsning dunyoqarashi va tafakkuri mamlakat hayotiga, yangilanishlarga mos ravishda o‘zgarib borishi, o‘z shaxsida yuksak huquqiy savodxonlik, qonunlarga hurmat, huquqiy normalarga so‘zsiz amal qilish, ularni hayotga to‘g‘ri tatbiq etish, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik, qonunlarga itoatkorlik, huquqiy faollik hamda tashabbuskorlikni namoyon etishini davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy muassasalarida fuqarolarning xuquqiy savodxonligi, huquqiy savodxonlik va savodsizlikning psixologik xususiyatlari, psixologik savodxonlikning shaxs ijtimoiylashuv omili sifatidagi huquqiy madaniyati, huquqiy ong, aholining huquqiy savodxonlik indeksi kabi yo‘nalishlarga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga qiynaladigan o‘spirinlarning fuqarolik huquqlarini anglab yetishi, shaxsiy va jamoat ishida faolligini namoyon etishiga to‘siq bo‘luvchi holatlarning huquqiy jihatlarini ta’minlash, ularda huquqiy savodxonlikning psixologik jihatlarini ilmiy tadqiq etish va keng qamrovli konstruktiv choralarini amalga oshirish zarurati kuzatilmoqda.

O‘zbekistonda huquqiy savodxonlikni ta’minlash borasidagi psixologik tadqiqotlar ko‘lami kam darajada tadqiq etilgan bo‘lsa-da, mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarda huquq psixologiyasining ba’zi muammolarini psixolog olimlardan M.X.Axmedova, Y.Y.Agzamova, N.G‘.Kamilova, G‘.A.Normurodov, B.M.Umarov, V.G.Shepotkin, U.D.Qodirov va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. Tahlil ko‘rsatadiki, respublikamizda huquqiy savodxonlikni ta’minlashning psixologik muammolaridan ko‘ra, boshqa yo‘nalishlar, ya’ni, jinoiy xulq-atvor xususiyatlari, huquq-tartibot yo‘nalishi xodimlari faoliyati psixologiyasi masalalari tadqiq etilgan, lekin aynan o‘spirinlarda huquqiy savodxonlik shakllanishining psixologik xususiyatlari ilmiy muammo sifatida o‘rganilmagan.

Bizning ilmiy tadqiqot ishimiz yuqoridagilardan biroz farqli ravishda o‘spirinlarda huquqiy ong va huquqiy savodxonlikni oshirishning ijtimoiy-psixologik omillarini o‘rganishga qaratilgan. Shu maqsadda tajriba-sinov ishlarida Qarshi davlat universiteti va Samarqand davlat universiteti talabalarini respondent sifatida tanlab oldik, ular jami 309 nafarni tashkil etadi. Tadqiqot ishida o‘spirinlarda huquqiy savodxonlikni oshirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida kuzatish, suhbat metodlari, shuningdek L.S.Mozjakovaning “Huquqiy savodxonlikni o‘rganish”, R.R.Muslumovning “Huquq va huquqiy ustanovkaga munosabatlarini o‘lchash”, D.S.Beznosovning “Huquqga munosabat” kabi metodikalari va empirik ma’lumotlarning normal taqsimlanish qonuniga mosligini tekshirishda Kolmogorov-Smirnov mezonidan foydalandik.

O‘spirinlik davri hayotning eng jo‘shqin va mas’uliyatli davri hisoblanib, ular jamiyatning o‘sib kelayotgan eng faol a’zolari sifatida oliy o‘quv yurtlarida tahsil

olish bilan birga xalq xo‘jaligining turli sohalarida ham faoliyat olib boradilar. Faoliyat jarayonida turli xil ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va huquqiy masalalarga duch keladi. Mavjud hayotiy muammolarning yechimini topishda, shaxsning haq-huquqlari va manfatlari to‘qnash kelishida ma’lum darajada fuqarolik huquqlarini himoyalashga zarurat tug‘iladi. Ushbu holatni inobatga olgan holda o‘spirinlarning huquqiy savodxonligi, ularning istiqbolda o‘z xatti-harakatlarining qonun va huquqiy-meyorlarga muvofiq amalga oshirilishini ta’minlash yuzasidan tadqiqot olib borildi. Buning uchun o‘spirinlarning yoshiga xos xususiyatlarida huquqiy savodxonlikni o‘rni bir qator psixologik jihatlarni inobatg olgan holda o‘rganildi. Quyida o‘spirinlarning huquqiy savodxonlikka bo‘lgan ehtiyojlari o‘rganilganligi natijalari aks etgan (1-jadval).

1-jadval

O‘spirinlarning huquqiy savodxonlikni tushunish to‘g‘risidagi munosabatlari

Baholash mezonlari	O‘spirinlar munosabat miqdori (nafar)	Foiz
Davlatning huquqiy asoslarini bilish	69	22,33
Huquq turlari va meyorlarini bilish	57	18,45
Qonun asosida insonlarning munosabatlarini tartibga solish	13	4,21
Insonning kundalik turmushi va hayot faoliyati uchun zarur bo‘lgan huquqiy meyoriy hujjatlarni bilish	100	32,36
Shaxsning qonun asosida o‘zini tartibga solishini bilish	43	13,91
Huquqshunoslik fanini o‘qiganligi	27	8,74

Bunga ko‘ra o‘spirinlarning huquqiy savodxonligi to‘g‘risidagi munosabatlarining umumiy xarakteristikasini taqdim etildi. O‘spirinlar tomonidan baholash mezonlaridan bittasi huquqiy savodxonlikning to‘liq ma’nosini ifodalaydi mazmunida taqdim etildi. Huquqiy savodxonlik tushunchasi to‘g‘risidagi o‘spirinlarning munosabatlari oltita mezon bo‘yicha baholandi. Mezonlar bo‘yicha o‘spirinlarning munosabatlari orasida “insonning kundalik turmushi va hayot faoliyati uchun zarur bo‘lgan huquqiy meyoriy hujjatlarni bilish” huquqiy savodxonlikning asosiy belgilovchisi sifatida e’tirof etilgan (100 nafar (32,36%)). Bu esa o‘spirinlar huquqiy savodxonlikning kundalik turmush va faoliyatini belgilangan meyorlarda amalga oshirilishini tavsiflash nuqtai nazardan izohlangan. Huquqiy savodxonlikni tavsiflovchi ustuvor izoh sifatida “davlatning huquqiy asoslarini bilish” e’tirof etilgan (69 nafar (22,33 %)). Aslida davlatning huquqiy asoslari meyoriy – huquqiy asoslarning barchasi uchun mas’ul va uning ta’minotchisi hisoblanadi. Ushbu o‘rinda huquqiy savodxonlikning ta’minlanishini hokimiyat bilan fuqaro munosabatlarini to‘laqonli tavsifini ifoda etgan holatlar belgilashi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, o‘spirinlar huquqiy savodxonlik deganda “huquq turlari va meyorlarni bilish” (57 nafar (18,45%)), “shaxsning qonun asosida o‘zini tartibga solishini bilish” degan javob berilgan (43 nafar (13,91%)), “huquqshunoslik fanini o‘qiganlik” (27 nafar (8,74%)) va “qonun asosida insonlarning munosabatlarini tartibga solish” (13 nafar (4,21%)) tarzda munosabat bildirganlar. O‘spirinlarning huquqiy savodxonlik tushunchasiga bildirgan munosabatlari o‘z navbatida respondentlarning ushbu yo‘nalishdagi da’vogarlik darajasini ham belgilab beradi. Mazkur natijalar o‘spirinlarning huquqiy savodxonlik tushunchasini asosan amaliy hayotiy ehtiyojlar bilan bog‘lab talqin qilishlarini ko‘rsatadi. Ularning javoblarida huquqiy bilimlarning kundalik faoliyatni tartibga solishdagi o‘rni ustuvor ahamiyat kasb etishi yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘spirinlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanish darajasi mavjud ijtimoiy tajriba hamda ta’lim jarayoni bilan chambarchas bog‘liqligini anglatadi.

Biz tadqiqot ishida o‘spirinlarda huquqiy ong va huquqiy savodxonlik shakllanishining ijtimoiy-psixologik asoslarini o‘rganib, olingan empirik va nazariy tahlillar asosida quyidagi xulosaga keldik:

O‘spirinlarning huquqiy savodxonlikka bo‘lgan ehtiyojlarining asosiy sababi kundalik turmushda o‘zlari va yaqinlari bilan bog‘liq huquqiy buzilishlar sababli ekan.

Tibbiy xizmat, transport xizmati, turar joylarning kommunal xizmatlar, ko‘chmas mulk opersiyalari va mulkchilik huquqlari bilan bog‘liq holatlardagi huquqiy buzilishlar o‘spirinlar huquqiy savodxon bo‘lishga zarurat tug‘dirgan holatlar ekanligi aniqlandi.

O‘spirinlarning munosabatiga ko‘ra huquqiy savodxonlikka bo‘lgan ehtiyojni shaxsning har doim huquqiy bilimlar olishga va boyitib borishiga zarurat hamda huquqiy masalalarga duch kelgandagina bilimlarga zarurat belgilagan.

O‘spirinlarning huquqiy savodxonlikka munosabatlarida insonning kundalik turmushi va hayot faoliyati uchun zarur bo‘lgan huquqiy meyoriy hujjatlarni bilish belgilovchi xarakterga ega ekan.

O‘spirinlarning ko‘pchilik qismi huquqning ayrim jihatlarini bilishlari, ba’zilari esa huquqning turli xil jihatlarini bilishlari orqali huquq bo‘yicha biror bir ma’lumotga ega emasliklari kuzatildi.

O‘spirinlarning huquqiy savodxonlikni ta’minlashda manbalardan foydlanuvchilar, huquqiy manbalarni tushunadiganlar, ammo foydalana olmaydigan va huquqiy manbalardan foydalanishni bilmaydiganlar toifasiga ajratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Джураев Б. Психологические особенности формирования юридической понятий у учащихся. НАУ Национальная ассоциация ученых, VII Международная научно-практическая конференция: «Отечественная наука в эпоху изменений: постулаты прошлого и теории нового времени» часть 8, 2(7) Екатеринбург-2015, 103-104с.

2. Ипполитова Н. В., Тургина Е. В. Формирование правовой грамотности студентов как педагогическийпроцесс // Вестник Южно-Уральского

государственного университета. Серия : Образование. Педагогические науки. Челябинск : Изд-во ЮрГУ, 2012. Вып. 16. № 14. С. 65–69.

3. Мануйлова Л. М., Максимов А. С. (2021) Формирование правовой грамотности подростков как педагогическая проблема // Наука о человеке: гуманитарные исследования. Том 15. № 3. С. 95–101.

4. Реан А.А. Семья, социальные установки иасоциальное поведение детей и подростков //Российский психологический журнал. 2015.Т. 12. № 1. С. 29-40.

5. Xatamov, F.F. Huquqiy savodxonlik falsafiy tadqiqot obyekti sifatida (ijtimoiy boshqaruv institutlari xodimlari misolida): Disser. avtoreferati. f.f.f. dok. (PhD). – Samarqand, 2019. – 44 b.

UDK 159.9:613.7



Arzikulov Dilshod Ne'matovich,
O'zbekiston Milliy universiteti
"Psixologiya" kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori

SPORT FAOLIYATINING PSIXOLOGIK ASOSLARI VA UNING TASHKIL ETISH OMILLARI

Annotatsiya. Maqolada sport faoliyatini tashkil etishdagi psixologik omillar atroflicha tahlil qilingan. Unda sportdagi hissiy va emotsional tajribalar, ularning insonning irodaviy quvvati va motivatsiyasi bilan bog'liqligi, shuningdek, faoliyatning g'oyaviy yo'nalishlari muhokama qilingan. Maqolada ommaviy sport, yuqori natijalar sporti va professional sport turlari psixologik jihatdan baholanib, ularning jismoniy va ruhiy rivojlanishga ta'siri ko'rsatilgan.

Shuningdek, irodaviy zo'riqish, psixologik barqarorlik, emotsional samaradorlik va jismoniy sifatlarning rivojlanishi hamda uning dinamikasi sport natijalari va individual rivojlanishdagi ahamiyati keng yoritilgan. Muallif sport faoliyatida psixologik motivlar va emotsional holatlarni hisobga olishning muhimligini ta'kidlaydi, bu esa samarali va barqaror sport tizimini yaratishda asosiy omil sanaladi.

Kalit so'zlar: faoliyat, hissiyot, iroda, irodaviy zo'riqish, motiv, jismoniy sifatlar, ommaviy sport, yuqori natijalar sporti, professional sport, jismoniy rivojlanish, rivojlanish dinamikasi, psixologik barqarorlik, emotsional motivlar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ФАКТОРЫ ОРГАНИЗАЦИИ СПОРТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В статье рассматриваются ключевые психологические факторы организации спортивной деятельности. Особое внимание уделено эмоциональным и психофизиологическим переживаниям спортсменов, их связи с волевыми усилиями и мотивацией, а также идейной направленностью активности. Оценены различные формы спорта — массовый спорт, спорт высших достижений и профессиональный спорт — с точки зрения их влияния на физическое и психическое развитие человека.

Рассмотрены такие аспекты, как волевые усилия, психологическая устойчивость, эмоциональная эффективность и развитие физических качеств,

а также их динамика, влияющая на спортивные результаты и индивидуальное развитие. Автор подчеркивает значимость учета психологических мотивов и эмоциональных состояний для создания эффективной и устойчивой системы спортивной деятельности.

Ключевые слова: деятельность, эмоция, воля, волевые усилия, мотив, физические качества, массовый спорт, спорт высших достижений, профессиональный спорт, физическое развитие, динамика развития, психологическая устойчивость, эмоциональные мотивы.

PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS AND FACTORS OF ORGANIZING SPORTS ACTIVITY

Abstract. The article examines the key psychological factors involved in the organization of sports activity. Particular attention is given to the emotional and psychophysiological experiences of athletes, their connection with volitional efforts and motivation, as well as the ideological orientation of activity. Various forms of sport — mass sport, elite sport, and professional sport — are evaluated in terms of their influence on the physical and mental development of an individual. The study considers such aspects as volitional efforts, psychological stability, emotional effectiveness, and the development of physical qualities, as well as their dynamics affecting sports performance and individual development. The author emphasizes the importance of taking psychological motives and emotional states into account in order to create an effective and sustainable system of sports activity.

Keywords: activity, emotion, will, volitional efforts, motive, physical qualities, mass sport, elite sport, professional sport, physical development, development dynamics, psychological stability, emotional motives.

Yangi O‘zbekiston sharoitida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish davlat siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu borada ommaviy sportni keng targ‘ib qilish, aholi, ayniqsa yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ommaviy sport nafaqat jismoniy salomatlikni mustahkamlaydi, balki insonning psixologik barqarorligi, ijtimoiy faolligi va milliy identichlikni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan sport faoliyatining psixologik asoslari va uning tashkil etish omillari nazariy jihatdan tahlil qilinishi, samarali modellar va metodikalarni ishlab chiqishda asosiy o‘rin tutadi.

Shu bilan birga, milliy o‘yinlarni qayta tiklash va rivojlantirish chora-tadbirlari, milliy madaniy meros va an’analarni saqlab qolish bilan birga, yoshlarning jismoniy va ma’naviy rivojlanishiga muhim hissa qo‘shadi. Milliy o‘yinlar nafaqat sport mahoratini rivojlantirish, balki strategik fikrlash, jamoaviy hamkorlik va irodaviy sifatlarni mustahkamlashda ham samarali vosita hisoblanadi. Pedagogik va psixologik nazariy jihatdan bu yo‘nalishlar sport faoliyatining kompleks xususiyatini ochib beradi va muvaffaqiyatli sport tizimini tashkil etishda asosiy omillardan biri sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy sport turlari bo‘yicha iqtidorli sportchilarni tayyorlash va ularning professional mahoratlarini oshirish masalasi ham dolzarb ahamiyatga ega. Bu jarayonda psixologik motivlar, irodaviy zo‘riqishlar, emotsional barqarorlik va jismoniy rivojlanishning dinamikasi sport natijalari va individual rivojlanishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Demak, sport faoliyatining psixologik asoslari va tashkil etish omillarini nazariy va amaliyot jihatdan o‘rganish, zamonaviy sportni rivojlantirish va ommaviyligini oshirishda muhim ilmiy-tadqiqot bazasini yaratadi.

Jismoniy tarbiya va sport yoshlarning jismonan va ma’nan barkamol bo‘lishi, milliy ruhda va zamonaviy bilimga ega faol avlod bo‘lib yetilishining muhim omillari hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, ...har bir ota-ona va har bir millat kelajak avlodni jismonan sog‘lom va ruhan barkamol qilib tarbiyalashni xohlaydi, va bu maqsadga jismoniy tarbiya va sportsiz erishib bo‘lmaydi [1,2]. Sport va jismoniy mashqlar orqali yoshlar iroda va xarakterini rivojlantirib, faoliyatda mas’uliyat va qat’iyatlik kabi fazilatlarga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport — millatning farovonligi va kuch-quvvati uchun qudratli fundament sifatida xizmat qiladi [3]. Davlat siyosatida yosh avlodni to‘laqonli tarbiyalash, ularni jismonan ham, ma’nan ham rivojlantirish, zamonaviy dunyo talablari darajasida raqobatbardosh insonlar qilib yetishtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan]. Shu bois mamlakatimizda sport infratuzilmasi kengaytirilmoqda, yangi sport muassasalari barpo etilayotir, maktab va mahallalarda sport bilan shug‘ullanish imkoniyatlari kengaymoqda, sportchilarni tayyorlash tizimi takomillashtirilmoqda.

Sport, shuningdek, yoshlarimizda milliy g‘urur va faxr tuyg‘ularini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega, xalqaro musobaqalarda erishilayotgan muvaffaqiyatlar esa mamlakatimizning nufuzini yuksaltirishga xizmat qiladi [6]. Shunday qilib, jismoniy tarbiya va sport nafaqat salomatlikni mustahkamlaydi, balki shaxs irodasi va ruhini rivojlantirib, yoshlarimizga baland maqsadlar qo‘yish va milliy faxr tuyg‘ularini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Har bir inson dunyoga kelibdiki, u qaysidir ma’noda birok bir faoliyat turi bilan shug‘ullanadi va unga bog‘lik holda shakllanadi va voyaga yetadi. Mutaxassislarning fikricha, shaxs shakllanishida eng muhim bo‘lib hisoblangan omillardan biri bu faoliyatdir.

Ma’lumki, inson hayoti davomida ko‘plab faoliyat turlari bilan shug‘ullanadi. Psixologiya fanida shaxs faoliyatini asosan uchta turga o‘yin, o‘qish va mehnat ajratilib o‘rganiladi. Faoliyat - insonning ehtiyoji tufayli yuzaga keluvchi, ongli tarzda boshqariladigan ichki va tashqi faolligidir.

Sport faoliyati ham inson faoliyat turlaridan biridir. Sport faoliyati bilan shug‘ullanish bir shaxsni emas, balki butun bir jamoani qolaversa, davlatni dunyoga tanituvchi eng muhim vositalardan biridir.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida odamning harakat qilishga va jismoniy sifatlarini o‘stirishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga doimo intilishi jismoniy mashqlarning asta – sekin zamonaviy sport turlariga o‘zgarib borishiga olib keldi.

Bugungi kunda zamonaviy sportni uch toifaga bo‘lish mumkin, ya’ni ommaviy sport, yuqori natijalar sporti va professonal sportdir. Shuni nazarda tutish kerakki, sportning har bir toifasi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadli yo‘nalishlariga ega bo‘ladi. Jumladan: ommaviy sport bilan shug‘ullanishdan ko‘zlangan asosiy maqsad - shug‘ullanuvchilar salomatligini mustahkamlash, ularni jismoniy va psixologik jihatdan rivojlantirish, shuningdek, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishdan iborat bo‘lsa, yuqori ko‘rsatkichlar sportida esa turli-tuman jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida sportchilarni eng yuqori jismoniy va psixik imkoniyatlarini aniqlash va qiyosiy baho berish asosiy vazifa hisoblanadi. Professional sport esa shou - tomoshaga, biznesning alohida sohasiga aylanib, katta pul topishning manbai bo‘lib bormoqda, bunda ba’zan kishilar, sog‘lig‘iga zarar yetkazib bo‘lsa-da, katta pul topishni maqsad qilib qo‘ymoqdalar.

Bundan tashqari sport faoliyati o‘z mohiyatiga ko‘ra ekstremal vaziyatlardan ham holi emas. Ma’lumki, sportda, hamisha aniq va ramziy xavf mavjuddir. Masalan, boks, kurash, dyuz-do kabi sport turlarida raqibdan og‘ir zarba olishning real xavfi bor. Bundan tashqari sportchini oldida yana bir shunday xavf borki, u ham bo‘lsa, raqibiga yutqazish xavfidir. Bunday ramziy xavf barcha sport turlarida mavjuddir.

Sport faoliyatida ma’lum bir natijalarga erishish quyidagi jihatlar bilan o‘zviy bog‘liq.

birinchidan, maxsus jismoniy mashqlarni bajarish davrida turli shakldagi muskullar faolligi namoyon bo‘lib, sport faoliyati mobaynida inson kerakli darajada jismonan chiniqadi, umumiy jismoniy tayyorgarlikga ega bo‘ladi;

ikkinchidan, sportchini tanlagan sport turi bilan bog‘liq bo‘lib, sportchidan muayyan ko‘nikma, malakalarini takomillashtirib borishga intilishi jismoniy mashqlarni bajarishda eng yuqori natijalarni ko‘rsatishga yo‘naltirilgandir;

uchinchidan, sportchini tanlagan sport turiga oid jismoniy mashqlarni bajarishda yuqori texnikasini egallash bilan bog‘liq bo‘lib, sportchidan maxsus va izchil tarzda davom etadigan uzoq vaqtli mashg‘ulotlarni talab etadi, bu jarayonda sportchi muayyan harakat malakalarini o‘zlashtiradi va takomillashtirib boradi, shu bilan birga ayni sport turi bo‘yicha shug‘ullanish uchun zarur bo‘lgan kuch, chidamlilik, tezkorlik, harakatlanishdagi chaqqonlik, epchillik va xarakterdagi irodaviy sifatlarga mardlik, jasurlik, qat’iyyatlilik, tashabbuskorlik, mustaqqillik, irodalilik, g‘alabaga ishonch va hokazo ega bo‘ladi;

turtinchidan, sport faoliyati sport kurashi bilan bog‘liqligi ya’ni, bu holat sport musobaqasi jarayonida alohida harakterga ega bo‘lib, sportchida jismoniy kuchlarini yuqori zo‘riqtirishga, katta kuch va hissiy – irodaviy kechinmalarining chuqurligi, psixik jarayonlarning keskin faoliyatini rivojlantirishga yordam beruvchi, sport faoliyatining zarur tarkibiy qismi bo‘lgan, sport musobaqalari jarayonida keskin tus oluvchi bellashuvlar bilan bog‘liq;

beshinchidan, jismoniy va ma’naviy kuchlarni namoyon bo‘lishi bilan bog‘liqligi ya’ni, sport faoliyatini murakkab tuzilishga egaligini maxsus malaka va ko‘nikmalarni maksimal darajada aniqlash, motor- harakatchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni doimiy ravishda yuqori darajada saqlab turish zarurligi. Shu

nuqtai nazardan sport faoliyati nihoyatda murakkab tarkibga ega bo‘lib, o‘ziga nafaqat musobaqalarda ishtirok etishni, balki izchil ravishda olib boriladigan tayyorgarlik mashg‘otlarini ham qamrab oldi;

oltinchidan; ongli ravishda bajarilishi bilan ajralib turuvchi juda katta mas’uliyat hissi, hamda eng yuqori va samarali natijalarini qo‘lga kiritish istagi, ushbu harakatni bajarishda rekord natijalarini qo‘lga kiritish istagi bilan mavjud. Sport faoliyati axborot va uni qayta ishlash jarayonlariga sportchining xotirasi va diqqatiga, uning irodaviy xatti -haraktlari va emotsional xolatiga nisbatan juda katta talablarni qo‘yadi.

Ma’lumki, sezgi va idroklar harakat faoliyatining asosi bo‘lib hisoblanadi. Harakatni faqat sezgilar orqali idrok etish mumkin. Shuning uchun ham sezgi organlarini rivojlantirish ayniqsa, muskul – harakat, muvozanat, kurish, eshitish, teri – tuyush sezgilarining ahamiyati kattadir.

Harakat faoliyati tasavvur, hayol, xotira ham o‘ziga xos ahamiyat ega. Har qanday harakatni esda qoldirish ong jarayon hisoblanadi. Harakatni oldin tasavvur qilmasdan turib uni bajarish qiyin. O‘quv – mashq jarayonidagi har bir harakatni umumiy tasavvur qilish tasodifan emas.

Kurash, boks, qilichbozlik, dzyu – do, futbol, baksketbol, voleybol va boshqa sport turlarida yuqori taktik mahoratga ega bo‘lish, turli vaziyalardagi holatlarni tez anglab, izchillik bilan qaror qabul qilishda tafakkrning o‘rni muhimdir.

Har qanday sport turida jismoniy mashqlar va sport mashg‘ulotlarini uzoq muddatda bajarib borish natijasida ixtisoslashtirilgan idroklar rivojlanadi. Jumladan: yugurishda “vaqtni his qilish”, suzishda “suvni his qilish”, futbol va sport o‘yinlarida “to‘pni his qilish”, siklik sport turlarida “makon va vaqtni his qilish”, boksda “oraliq masofani his qilish” va boshqalar.

Shuni ham alohida qayd etish kerakki, jismoniy mashqga o‘rgatishda va sport mashqi jarayonida shaxsni psixik jarayonlarini va emotsional irodaviy holatlarini hisobga olish muhimdir. Chunki,

1) kuch chidamlilik singari jismoniy sifatlarni shakllanishi va rivojlanishi ko‘piincha, irodaviy sifatlarning tuzilishiga, qisman esa, maqadga intilish va sobitqadamlikka bog‘iliq;

2) yangi harakat malakalarini shakllantirish va qayta o‘rganishning tezligi dinamik stereotipning tez shakllanishi, muskul-xarakat sezgilarini va idrokni anikligi, nerv sistemasining dinamikaligi va ildamligiga bog‘liqdir.

3) sportchining taktik faoliyati uning axborotlarini qabul qilish va qayta ishlashdagi individual xususiyatlariga, operativ tafakkur va boshqalarga bog‘lik.

4) musobaqalarda sportchining yaxshi natijalar ko‘rsata olmasligi ba’zan ularning yetarli jismoniy tayyorgarlikka ega emasliklaridan emas, balki o‘z kuchini to‘g‘ri safarbar qilish ko‘nikmalarini yo‘qligi, psixik zo‘riqishga bardosh bera olmasligidandir.

Har qanday ixtiyoriy xatti-harakat uni amalga oshirish uchun juda kam miqdorda bo‘lsa-da, kishidan irodaviy zo‘r berishni taqozo etadi. Odamning irodaviy intilishlari, ya’ni xatti-harakatlari uning mushaklari harakatlaridan farq qiladi. Albatta, har qanday irodaviy zo‘r berishda ham, sezilar-sezilmas darajada

muskul harakatlari mavjud bo‘ladi. Biroq, bu harakatlar irodaviy zo‘r berishlar uchun asosiy hisoblanmaydi, zero, irodaviy zo‘r berishlardagi asosiy jihat bu, ichki zo‘riqish holatidir. Irodaviy zo‘r berishlar doimo ongli ravishda amalga oshiriladi, sababi bajariladigan xatti-harakatning maqsadi va undan kutilayotgan natijani u yoki bu tarzda aniq tasavvur qilish bilan bog‘liqdir. Irodaviy zo‘r berishlar, irodaviy hatti-harakatni bajarishda duch keladigan to‘siqlarda yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Irodaviy zo‘r berishning jadalligi, uni bajarishda duch kelinadigan qiyinchiliklarga to‘g‘ri proporsionaldir.

Irodaviy zo‘r berish sub’ektiv jihatdan u yoki, bu qiyinchilikni bartaraf etish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos ichki holat sifatida his qilinadi. Biror-bir qiyinchilikning mavjudligi, irodaviy zo‘r berish namoyon bo‘lishining asosiy va zaruriy shartidir.

Sport faoliyati kuchli va yorqin emotsional kechinmalari bilan ajralib turadi. Sportni his tuyg‘ularsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Sport faoliyatining kuchli his tuyg‘ularga boyligi, ularning emotsional jozibadorligi - bu sportning inson shaxsiyatiga ijobiy ta’sir qilishidagi eng muhim shartlardan biridir. Ammo sportdagi emotsional kechinmalar boshqa his − tuyg‘ular kabi stenik yoki astenik bo‘lishi, ular insonning tabiiy jarayondagi xatti-harakatlariga xam ijobiy ham, salbiy ta’sir etishi mumkin.

Odamning nima qilmoqchi yoki nimaga erishishni belgilovchi faoliyat maqsadidan farqli ravishda motivlar u nima uchun aynan ana shu ishni bajarishni yoki shunga erishishni xohlashini tushuntiradi.

Motiv - bu o‘ta murakkab psixologik birikma bo‘lib, u mazmun jihatdan kishi tomonidan amalga oshiriladigan hatti-harakat va faoliyatning asosi bo‘lib hisoblanadi. Ya’ni mazkur harakatlarga sabab bo‘lgan asoslarni ifodalaydi.

Sport bilan shug‘ullanishga undovchi motivlarning asosiy psixologik xususiyatlari, shaxsni ma’lum bir sport turi bilan shug‘ullanishga yo‘naltirib unda qanoatlanish hissini paydo qiladi va bu xislarni ayni sport faoliyatidan ajratib bo‘lmaydi. Sport faoliyat motivlarini quyidagi bevosita va vositali jihatlarga ajratish mumkin.

Sport faoliyatining bevosita motivlari:

a) sportchi muskullaridagi faollikning namoyon bo‘lishidan o‘ziga xos qanoatlanish hislarini boshidan kechirish;

b) o‘z harakatlarining aniqligi, go‘zalligi, tezkorligi va chaqqonligidan estetik zavqlanish;

v) murakkab va xavfli mashqlari bajarish vaqtida o‘zini dadil, jiddiy va qat’iyatli ko‘rsatishga intilish;

g) sportning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan sport musobaqalarida ishtirok etishda paydo bo‘ladigan mamnuniyat;

d) rekord natijalariga erishish uchun intilishi, o‘zining sport mahoratiga ega ekanligini isbotlash, har qanday qiyinchilik bo‘lishiga qaramasdan g‘alabani qo‘lga kiritish.

Sport faoliyatining vositali motivlari:

a) kuchli, baquvvat va sog‘lom bo‘lishga intilish, ya’ni “sport bilan shug‘ullanaman, chunki u sog‘liqni mustahkamlaydi, odamni tetik va g‘ayratli qiladi” degan maqsadda;

b) sport bilan shug‘ullanish orqali o‘zini amaliy faoliyatga tayyorlash, ya’ni sport bilan shug‘ullanish orqali mehnat faoliyati samaradorligini orttirishga intilish;

v) o‘zida mas’uliyatni his qilish, ya’ni sport bilan shug‘ullanishning sababi “Jismoniy tarbiya” fanini maktab dasturiga majburiy qilib kiritilganligi;

g) sport faoliyati bilan shug‘ullanishni ijtimoiy ahamiyatini to‘g‘ri anglash orqali ya’ni, sport orqali o‘zini va yurtini butun dunyoga tanitish istagining paydo bo‘lishi.

Sport faoliyati motivlari bir-biridan nafaqat xilma-xilligi bilan farqlanadi, balki ularning rivojlanish dinamikasi sport faoliyati bilan uzoq va muntazam ravishda shug‘ullanish natijasida o‘rin alashinib o‘zgarib boradi. Rus olimi A.S. Puni sport faoliyati motivlari ustida maxsus tadqiqotlar o‘tkazishi orqali insonni sport faoliyati bilan shug‘ullanishga undovchi motivlar rivojlanish dinamikasini quyidagi uchta bosqichga ajratgan:

1. Sport faoliyati bilan shug‘ullanishning dastlabki bosqichi;
2. Tanlagan sport turiga ixtisoslashuv bosqichi;
3. Sport mahoratini egallash bosqichi.

Har bir bosqich sportchidan ma’lum bir maqsadlarga erishishni talab etadi. Jumladan:

1. Sport faoliyati bilan shug‘ullanishning dastlabki bosqichida dastlab sportchidan tanlagan sport faoliyat turining mazmun – mohiyatiga kirib borishni talab etadi. Bu faoliyatga undovchi motivlar quyidagicha xarakterga ega:

a) jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishga bo‘lgan turli xil qiziqishlar (o‘smir ko‘p hollarda bitta sport faoliyati turi bilan bir vaqtning o‘zida bir nechta turlari balan shug‘ullanadi. Aksariyat hollarda ular o‘zlarining sport mahoratini ko‘rsata oladigan sport turi bilan emas, balki umuman boshqa sport turi bilan shug‘ullanadi);

b) bevositaliligi (“jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishimga sabab men u darsni sevaman”);

v) muayyan sport turi bilan shug‘ullanish uchun ijtimoiy muhitning mavjudligi u bilan bog‘liqligi (“Sirdaryo bo‘yida yashayman-u, nega suzishni yaxshi bilmasligim kerak?”);

g) ma’lum darajada burchga nisbatan mas’uliyat hissini o‘zida aks ettirishi bilan bog‘liqligi (“Jismoniy tarbiya darsiga qatnashishim kerak edi”).

2. Tanlagan sport turiga ixtisoslashuv bosqichi davridagi asosiy motivlar quyidagicha xarakterga ega:

a) muayyan sport turiga nisbatan ijtimoiy qiziqish o‘yg‘onish va ortadi;

b) muayyan sport turiga nisbatan qobiliyatlarni namoyon qiladi va ularni taraqqiy ettirishga intiladi;

v) sportdagi yutuqlar tufayli emotsional kechinmalarning ortishi va mustahkamlashga intilishi;

g) maxsus bilimlarni kengaytirish, sport texnikasini takomillashtirish, mashqlanish holatini yuqori darajasini egallash.

Ushbu sifat jihatidan yangi bo‘lgan sport faoliyati motivlari o‘zining bir nechta xususiyatiga ko‘ra tavsiflanadi. Ular asosan sport ixtisosligi bilan bog‘liqdir. Sportchi muayyan sport turi bilan shug‘ullanish orqali shu soha egasiga aylanib boradi. Jumladan, shug‘ullanadigan sport faoliyati turi bo‘yicha uchinchi, ikkinchi va birinchi toifaga ega bo‘lish orqali sportchi gimnast, bokschi, futbolchi, mohir suzuvchi, kurashchi, basketbolchi va shu kabi sport malaka toifasiga ega bo‘ladi.

3. Sport mahoratini egallash bosqichi davrida sport faoliyatining asosiy motivlari sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

a) qiyin va murakkablashgan sport mahoratini yuqori natijalarini saqlab qolish va sport kurashi jarayonida yanada yuqori natijalarga erishish uchun intilish;

b) o‘zining sportda erishgan yutuqlari bilan Vataniga xizmat qilishga va halqaro musobaqalarda yurtining sporti sha’nini saqlab qolish, dunyo rekordlarini qo‘lga kirititshga itilish;

v) tanlangan sport turini rivojlantirishga intilish, uni taktik va texnik jihatdan boyitish, o‘z tajribalarini yosh sportchilarga o‘rgatish kabi ehtiyojlarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan motivlar.

Sport faoliyatining bu davrdagi motivlari o‘zining aniq ijtimoiy yo‘nalishlari bilan ajralib turadi.

Insonni sport faoliyati bilan shug‘ullanishiga undovchi motivlar sport faoliyatining g‘oyaviy yo‘nalishi asosini beligilab beruvchi xususiyatga ega bo‘ladi. Ma’lum ma’noda sport o‘yin bilan umumiy o‘xshashlikka ega, chunki sport faoliyatini motivlari aynan shularga kiradi.

Sport bilan shug‘ullanish – faqat rekordlargina emas, sport bilan shug‘ullanish bu insonni mehnatsevarlikka, o‘z ustida tinimsiz ishlashga, o‘z Vatani sha’nini himoya qilishga va har tomonlama taraqqiy etish uchun muhim vositalardan biri sifatida katta ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni jsimoniy taraqqiyoti masalasi bilan birga ma’naviy-axloqiy sifatlarini ham tarbiyalash imkonini beradi.

Sport tirik organizm faoliyati bo‘lib, murakkab tuzilishga ega va bir-biri bilan organik bog‘lanib ketgan quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

a) jismoniy mashqlar texnikasi, jismoniy rivojlanishni;

b) jismoniy tarbiyaning tashkiliy shakllarini;

v) jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini;

g) jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishga undovchi motivlarni.

Jismoniy rivojlanish vazifalarni jismoniy tarbiyani pedagogik jarayoni bilan cheklash mumkin emas, chunki insonni sport bilan shug‘ullanishga asosiy undovchi bu motiv hisoblanadi.

Jismoniy tarbiyaning pedagogik jarayonida sport faoliyati bilan shug‘ullanishga undovchi motivlarga ta’sir etmasdan turib, hech bir trener sportchini sport texnikasi va taktikasini puxta egallashga o‘rgata olmaydi. Bu pedagogik

jarayonni to‘laqonli amalga oshirishda trener sprotchini na faqat sport texnikasiga, balki uning ma’naviy-axloqiy qiyofasini ham shakllantirishga mas’uldir.

Yuqorida bayon etilganlardan, sportchilar shaxsining qaror topishi va shakllanishida sport faoliyati nihoyatda muhim rol o‘ynaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Murabbiylar sportchining tanlangan sport turi bilan shug‘ullanishga majbur etadigan motivlarning xususiyatlarini aniq bilishlari o‘ta zarur. Shuningdek, sportchilarning ehtiyojlarini qondira oladigan vaziyatlarni modellashtirish ham talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash yurt taraqqiyoti va halq faravonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016-yil 7-dekabr /Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.- 48 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlili, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majilisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 32 b.

4. Arzikulov D.N. va boshqalar. Psixologiya va sport psixologiyasi. – T: 2018. 280 b.

4. Gapparov Z.G. Sport psixologiyasi. // Jismoniy tarbiya instituti talabalari uchun darslik / O‘zRes oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.-T.: "Mehridaryo", 2011-345 b.

5. Родионов А.В. Практика психологии спорта. Tashkent, "Lider Press" 2008 г.

UDK 796.015.6

Karimov Xolmurod,
Qarshi davlat universiteti
"Psixologiya" kafedrasi professori, psixologiya fanlari nomzodi

SPORTCHILARDA MUSOBAQA OLDIDAN HAYAJON VA STRESSNI BOSHQARISH USULLARI

Annotatsiya. Maqolada sportchilarda musobaqa oldidan hayajon va stressni boshqarish usullari o'rganilgan. Unda mazkur muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so'z borgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammoni o'rganish bugungi kunda ham juda dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sport, sportchi, jismoniy va ruhiy yuklama, hayajon, stress, frustratsiya, kazusli vaziyatlar, irodaviy barqarorlik, moslashuv.

МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ВОЗБУЖДЕНИЕМ И СТРЕССОМ У СПОРТСМЕНОВ ПЕРЕД СОРЕВНОВАНИЯМИ

Аннотация. В статье изучены методы управления волнением и стрессом у спортсменов перед соревнованиями. В ней рассматриваются теоретические и практические аспекты данной проблемы, а также освещаются научные исследования, проведённые учёными в этой области. Исследования, проведённые автором, показывают, что изучение данной проблемы остаётся весьма актуальным и в настоящее время.

Ключевые слова: спорт, спортсмен, физическая и психическая нагрузка, волнение, стресс, фрустрация, казусные ситуации, волевая устойчивость, адаптация.

METHODS OF MANAGING EXCITEMENT AND STRESS IN ATHLETES BEFORE A COMPETITION

Abstract: The article examines methods of managing anxiety and stress in athletes before competitions. It discusses the theoretical and practical aspects of this issue and highlights scientific research conducted by scholars in this field. The studies carried out by the author show that the investigation of this problem remains highly relevant at the present time.

Keywords: sport, athlete, physical and mental load, anxiety, stress, frustration, critical situations, willpower resilience, adaptation

Sport zamonaviy tizimda yuqori raqobat, katta jismoniy va ruhiy yuklamalar hamda aniq natijaga yo'naltirilganlik bilan tavsiflanadi. Olimpiya o'yinlari, jahon va qit'a chempionatlari kabi nufuzli musobaqalarda ishtirok etish sportchilardan

nafaqat puxta jismoniy tayyorgarlikni, balki yuksak darajadagi psixologik barqarorlikni ham talab qiladi. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan so‘ng O‘zbekistonda sport sohasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, uning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, zamonaviy sport inshootlari barpo etildi, bolalar-o‘smirlar sport maktablari faoliyati izchil ravishda kengaytirildi. Milliy sportchilarning xalqaro maydonlarda munosib ishtirok etishi va yuqori natijalarni qo‘lga kiritishga intilishi ular zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Bunday sharoitda sportchilarda musobaqa oldidan yuzaga keladigan hayajon va stress holatlari alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki sportchining ruhiy holati uning mahorat darajasi va jismoniy imkoniyatlari to‘liq namoyon bo‘lishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Musobaqa oldi psixologik holat sport natijadorligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Hayajon ma’lum darajada sportchining funksional imkoniyatlarini safarbar etib, diqqatni jamlash va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi. Biroq uning ortiqcha darajasi harakat koordinatsiyasining buzilishi, texnik xatolarning ko‘payishi va irodaviy barqarorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois mustaqillik yillarida mamlakatimizda sport psixologiyasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda, murabbiylar va mutaxassislar tayyorlash tizimi takomillashtirilmoqda. Zamonaviy yondashuvlar asosida sportchining jismoniy tayyorgarligi bilan bir qatorda uning ruhiy barqarorligini ta’minlash, musobaqa oldi stressini boshqarish va optimal hayajon darajasini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Stressga barqarorlikni ta’minlash, frustratsiyaning stressogenlik ahamiyati, kazusli vaziyatlarda psixologik himoyani faollashtirish borasida O‘zbekiston olimlaridan D. Abdumadjidova, R.Abdurasulov, D.Boymirzayeva, U.Butayeva, F.Gaziyeva, N.Ismoilova, K.Kadirov, M.Karamyan, Z.Elov, D.Mamadiyarova, N.Sagindikova, Z.Fayziyev, F.Shermatov, G‘.Shoumarov, P.Ergashev, R.Ernazarova, U.Qodirov, O.Hayitov va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan. Bundan tashqari uzoq xorij olimlaridan stress holatining paydo bo‘lish asoslari, belgilari, mexanizmlari, stressning shaxs xulq-atvoriga ta’siri borasidagi izlanishlar A.Adler, A.Bandura, R.Kettel, K. Maslak, X.Murrey, G.Sallivan, G.Seleye, Z.Freyd, X.Frendenberger, E.Fromm, K.Xorni, E.Erikson va boshqalarning tadqiqotlarida atroflicha o‘rganilgan.

Stressning kuchli va uzoq ta’siri organizmda barqarorliKni saqlash mexanizmlari faollashuviga va enantiostaz (o‘zgarish orqali barqarorlik) holati yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. G.Seleye stressni uch bosqichli jarayondan iborat ekanligini asosladi va umumiy moslashuv sindromi deb nomladi: 1) Xavotir bosqichi – stressorning dastlabki ko‘rinishida paydo bo‘ladi. Qisqa vaqt davomida organizmning chidamlilik darajasi pasayadi, jismoniy va vegetativ funksiyalar izdan chiqadi. Keyin organizm zahirani ishga tushuradi va himoya jarayonlarining o‘zini boshqarish mexanizmlarini qo‘shadi. Agar himoya reaksiyasi samarali bo‘lsa, xavotir so‘nadi va organizm meyoriy faoliyatga qaytadi. Stresslarning aksariyati ushbu bosqichda hal etiladi. Bunday qisqa muddatli stresslar stressning o‘tkir reaksiyasi deb nomlanishi mumkin; 2) Qarshilik ko‘rsatish bosqichi – stressning

ta'siri uzoq davom etganda va organizmning himoya reaksiyasini ushlab turish zarurati paydo bo'lganda boshlanadi. Moslashuvchan zahiraning balanslashtirilgan sarfi yuz beradi; 3) Tugash bosqichi – organizmning o'ta kuchli va uzoq davom etuvchi stressorlar ta'siri bilan kurashish mexanizmlarining buzilishini aks ettiradi. Moslashuvchan zahiralar amalda kamayadi. Organizmning bardoshliligi pasayadi, oqibatda organizmda nafaqat funksional buzilishlar, balki morfologik o'zgarishlar bo'lishi mumkin [3;15-17].

Z.H.Fayziyev tomonidan kazusli vaziyatlarda sportchi emotsional holatini korreksiyalash borasida tadqiqot olib borilgan. Kazusli vaziyatlar sportchilar faoliyatini keskin o'zgartirishga qodir voqelik ekanligi, bunday vaziyatlar musobaqa jarayonidagi va o'yin paytida emotsional beqarorlikni, asabiy taranglikni, ayniqsa stress, affekt, depressiya kabi salbiy kechinmalar yuzaga keltirishi aytilgan. Kazusli vaziyatlarni yengishga tayyorgarlikni tashkil etish kazusli vaziyatlarni muvaffaqiyatli yengishni ta'minlovchi psixologik himoyani faol shakllarini ishlab chiqish va takomillashtirishni taqozo etishi aytilgan. Kazusli vaziyatlarda stressni yengish resurslariga shaxsga kazusli yoki stressli vaziyatni yengishga yordam beradigan, stressning salbiy ta'sirini kamaytiradigan, aynan o'ziga ishonch, o'zini va boshqalarni qabul qilish, jismoniy salomatlik, muammolarni hal qilish ko'nikmasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, stressni va zo'riqishni nazorat qilish ko'nikmalari va amaliy-psixologik bo'shashtiruvchi mashqlar to'plami keltirilgan [4;11-23].

Biz ilmiy tadqiqot ishimizda sportchilarda musobaqa oldidan hayajon va stressni boshqarish usullarini o'rgandik. Tajriba-sinov ishlarimizdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, sportda hayajon va stress tushunchalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lsa-da, mazmun-mohiyati jihatidan farq qiluvchi psixologik kategoriyalar sifatida talqin etiladi. Musobaqa faoliyati sharoitida hayajon sportchining organizm va ongini bo'lajak harakatga safarbar etuvchi funksional holatni ifodalaydi. U markaziy asab tizimi faolligining oshishi bilan bog'liq bo'lib, muayyan darajada natijadorlikni ta'minlovchi ichki resurslarni faollashtiradi. Shu nuqtai nazardan, hayajon musobaqa oldi tayyorgarligining tabiiy va zarur komponenti sifatida qaraladi.

Fiziologik jihatdan hayajon yurak urish tezligining oshishi, nafas olish ritmining tezlashishi, qon bosimining ko'tarilishi kabi reaksiyalar orqali namoyon bo'ladi. Psixologik jihatdan esa diqqatning jamlanishi, harakat dasturlarining faollashuvi yoki aksincha, ortiqcha qo'zg'aluvchanlik va fikriy parokandalik holatlari kuzatilishi mumkin. Ayniqsa, yuqori aniqlik va tezkorlik talab etuvchi sport faoliyatida sportchining musobaqa oldi hayajoni uning startga tayyorgarligi, reaksiya tezligi hamda harakat koordinatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Demak, hayajonning optimal darajasi sportchining natijadorligi uchun muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Stress esa musobaqa jarayonida yoki unga tayyorgarlik bosqichida tashqi (raqobat muhiti, tomoshabinlar bosimi, yuqori natija kutish) va ichki (o'z-o'zini baholash, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish) omillar ta'sirida yuzaga keladigan psixik zo'riqish holatidir. Agar stress darajasi sportchining moslashuv imkoniyatlaridan

oshib ketsa, u texnik xatolar, harakatlardagi nomutanosiblik va irodaviy barqarorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois sport musobaqalari sharoitida stressni boshqarish va uni konstruktiv faollikka yo‘naltirish masalasi ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

Musobaqa oldi hayajonining natijadorlikka ta’siri

№	Hayajon darajasi	Psixofiziologik holat tavsifi	Natijadorlikka ta’siri
1	Past daraja	Loqaydlik, safarbarlikning yetarli emasligi, diqqat susayishi	Natija past, start reaksiyasi sekinlashadi
2	O‘rtacha (optimal) daraja	Organizmning faol safarbarligi, diqqat jamlanishi, harakat aniqligi	Eng yuqori samaradorlik, texnik harakatlar barqaror
3	Yuqori daraja	Ortiqcha qo‘zg‘aluvchanlik, yurak urishining keskin tezlashishi	Harakat koordinatsiyasi buzilishi mumkin
4	Juda yuqori daraja	Nazorat yo‘qolishi, fikriy parokandalik	Texnik xatolar va natijaning pasayishi

1-jadvalda sportchilarda musobaqa oldidan hayajonning turli darajalari hamda ularning psixofiziologik holati va sport natijasiga ta’siri tizimli ravishda ko‘rsatilgan. Hayajon sport faoliyatida tabiiy va zarur psixofiziologik jarayon bo‘lib, u organizmni harakatga tayyorlaydi, diqqatni jamlash, harakatlarning aniqligi hamda irodaviy barqarorlikni ta’minlaydi. Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, hayajonning past darajasi sportchining funksional safarbarligini kamaytiradi, diqqat parokandaligi va reaksiyaning sustligi bilan namoyon bo‘ladi. Bu holat, ayniqsa, yuqori tezkorlik va aniqlik talab etiladigan vaziyatlarda sport natijasining sezilarli pasayishiga olib kelishi mumkin.

O‘rtacha, ya’ni optimal darajadagi hayajon esa sportchining markaziy asab tizimini samarali faollashtirib, organizmning ichki resurslarini muvozanatli safarbar etadi. Bu bosqichda diqqat eng yuqori darajada jamlanadi, harakat dasturlari aniq va muvofiq bajariladi, shu bilan birga psixologik resurslar ishonchli va barqaror bo‘ladi. Musobaqa oldidan sportchining ruhiy va jismoniy tayyorgarligi shu optimal hayajon darajasida mukammal namoyon bo‘ladi, bu esa yuqori sport natijalarini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Demak, o‘rtacha, ya’ni optimal darajadagi hayajon sportchi faoliyatining eng samarali psixologik holatini ifodalaydi. Aynan shu holatda organizm imkoniyatlari to‘liq va maqsadga muvofiq ravishda safarbar etiladi, markaziy asab tizimi faoliyati muvozanatlashadi hamda harakatlar aniq, tez va muvofiq bajariladi.

Yuqori va juda yuqori darajadagi hayajon esa organizmning ortiqcha qo‘zg‘aluvchanligi, fikriy parokandalik, harakat koordinatsiyasining buzilishi va nazoratning yo‘qolishi bilan bog‘liqdir. Bu holatda yurak urishi keskin tezlashadi, mushaklarda ortiqcha taranglik paydo bo‘ladi va texnik harakatlarning aniqligi pasayadi. Sportchida xatolar ehtimoli oshadi, startda kechikishlar va harakatlar noto‘g‘ri bajarilishi kuzatiladi. Shu sababli musobaqa oldidan hayajon darajasini to‘g‘ri baholash va uni optimal holatda ushlab turish sportchining yuqori samaradorligini ta’minlashda muhim strategik vazifa hisoblanadi. Shu bois, sportchining musobaqa oldidagi ruhiy holatini boshqarish masalasi alohida

ahamiyatga ega. Yuqori va juda yuqori darajadagi hayajonni pasaytirish, uni optimal holatga keltirish uchun psixologik tayyorgarlik usullaridan samarali foydalanish zarur. Bunday usullarga nafasni boshqarish mashqlari, autogen trenirovka, vizualizatsiya (musobaqa jarayonini ongda muvaffaqiyatli tasavvur qilish), musbat ichki nutq va diqqatni jamlash texnikalari kiradi. Shuningdek, mashg‘ulot jarayonida musobaqa sharoitiga yaqin vaziyatlarni yaratish orqali sportchining stressga chidamliligini oshirish mumkin.

Xullas, jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, sport psixologlari va murabbiylar musobaqa oldidan sportchining hayajon darajasini nazorat qilish, uni optimal darajada safarbar qilish hamda ortiqcha qo‘zg‘aluvchanlikdan saqlash uchun tizimli psixotexnik usullardan foydalanishi zarur. Bu esa nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki psixologik barqarorlikni ham ta’minlab, sportchining xalqaro musobaqalarda samarali ishtirokini kafolatlaydi.

2-jadval

Musobaqa oldi stressining sport faoliyatidagi o‘rni

№	Stress manbasi	Namoyon bo‘lish shakllari	Sport natijasiga ta’siri
1	Yuqori natija kutish	Ichki zo‘riqish, o‘z-o‘zini qattiq nazorat qilish	Qisqa muddatli safarbarlik, ammo charchash ehtimoli bor
2	Raqobat bosimi	Haddan ziyod ehtiyotkorlik yoki shoshqaloqlik	Texnik barqarorlikka salbiy ta’sir
3	Tomoshabinlar va jamoatchilik bosimi	Hayajon kuchayishi, diqqat bo‘linishi	Startda xatolar ehtimoli ortadi
4	Psixologik tayyorgarlik yetishmasligi	Ishonchsizlik, qo‘rquv	Natijaning barqaror emasligi

2-jadvalda sportchilarda musobaqa oldidan yuzaga keladigan stressning turli manbalari, uning psixofiziologik namoyon bo‘lishi hamda sport natijasiga ta’siri tizimli ravishda taqdim etilgan. Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, stress sport faoliyatida ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi dinamik psixofiziologik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi, uning ta’sir darajasi va sportchining moslashuv qobiliyati natijaga bevosita bog‘liq. Yuqori natija kutish manbasidan kelib chiqadigan stress ko‘pincha ichki zo‘riqish va o‘z-o‘zini qattiq nazorat qilish bilan namoyon bo‘ladi. Bu holat qisqa muddatli safarbarlikni ta’minlashi mumkin, ammo davomiyligi organizmni charchatib, harakat koordinatsiyasining susayishi va diqqatning parokandaligiga olib kelishi ehtimoli yuqori. Shunday qilib, sportchi uchun stressning miqdori va unga tayyorgarlik darajasi samaradorlikning asosiy tarkibiy qismiga aylanadi.

Raqobat va tomoshabinlar bosimi kabi tashqi stress omillari hayajonning ortiqcha kuchayishiga va fikriy parokandalikka olib kelishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, yuqori tezkorlik, aniqlik yoki murakkab texnik harakatlar talab etiladigan sport turlarida xatolar va harakatlarning aniq bajarilmasligi bilan namoyon bo‘ladi. Shu bois, musobaqa oldidan stressni baholash, uning turini aniqlash va konstruktiv usullar orqali boshqarish sportchilarning barqaror natija ko‘rsatishi hamda yuqori samaradorlikka erishishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu jadvalda

ko‘rsatilgan har bir stress manbasi va uning ta’siri sport psixologiyasida stressni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish uchun asosiy ilmiy-amaliy ma’lumot sifatida xizmat qiladi, bu esa sportchining musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikda optimal holatga keltirilishiga imkon beradi.

3-jadval

Hayajon va stressni boshqarishning sportdagi ahamiyati

№	Boshqaruv usuli	Psixologik ta’sir mexanizmi	Amaliy samarasi
1	Nafas olish mashqlari	Vegetativ tizimni barqarorlashtiradi	Yurak urishi meyorlashadi
2	Vizualizatsiya	Ijobiy harakat dasturini shakllantiradi	Ishonch va tayyorgarlik oshadi
3	O‘z-o‘zini ishontirish	Ichki dialogni ijobiylashtiradi	Ruhiy barqarorlik ta’minlanadi
4	Musobaqa simulyatsiyasi	Stressga moslashuvni kuchaytiradi	Real sharoitda o‘zini erkin tutish

3-jadvalda ko‘rsatilganidek, musobaqa oldidan hayajon va stressning samarali boshqarilishi sportchilarning texnik va psixologik tayyorgarligiga bevosita ta’sir qiladi. Sport psixologiyasida ushbu psixofiziologik holatlar organizmning funksional resurslarini safarbar etish va diqqatni jamlash uchun muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, hayajon va stressning ortiqcha darajada yuzaga chiqishi harakat koordinatsiyasining buzilishi, fikriy parokandalik va ruhiy barqarorlikning pasayishiga olib keladi, bu esa musobaqa natijasining sezilarli darajada kamayishiga sabab bo‘ladi. Shu bois, musobaqa oldidan stress va hayajonni boshqarishning ilmiy asoslangan va tizimli usullari sportchilar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Jadvalda keltirilgan boshqaruv usullari bir necha yo‘nalishni qamrab oladi. Nafas olish texnikasi sportchini fiziologik va psixik jihatdan optimal holatga keltirishga xizmat qiladi. Chuqur, ritmik va nazoratli nafas olish vegetativ nerv tizimini muvozanatlaydi, yurak urishi va mushak tonusini normallashtiradi, shu bilan musobaqa oldidan hayajonning ortiqcha ta’sirini kamaytiradi. Bu usul orqali sportchi diqqatini jamlab, harakat dasturini aniq va barqaror bajarish imkoniga ega bo‘ladi. Demak, nafas olish texnikasi sportchining musobaqa oldi ruhiy holatini samarali tarzda tartibga solishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. U organizmdagi fiziologik jarayonlarni barqarorlashtirib, emotsional zo‘riqishni pasaytiradi va markaziy asab tizimining faoliyatini muvozanatlaydi. Natijada sportchida ichki xotirjamlik, ishonch va nazorat hissi shakllanadi. Bu esa harakatlarning muvofiqligi, tezkorligi va aniqligini ta’minlab, texnik xatolar ehtimolini kamaytiradi. Shu bilan birga, diqqatning barqarorligi saqlanib, musobaqa sharoitida to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati yuksaladi.

Vizualizatsiya va o‘z-o‘zini ishontirish usullari psixologik tayyorgarlikda muhim rol o‘ynaydi. Vizualizatsiya, ya’ni harakatlarni ongda takrorlab tasavvur qilish markaziy asab tizimini faollashtirib, sportchining harakat dasturini barqaror bajarishini ta’minlaydi. Bu usul ishonchni oshiradi, stressga moslashuvni yaxshilaydi va musobaqa sharoitida ichki resurslarni samarali faollashtirish imkonini beradi. Vizualizatsiya orqali harakatlarni ongda aniq va mukammal tarzda takrorlash markaziy asab tizimini oldindan faollashtiradi, texnik elementlarni

barqaror bajarishga tayyorlaydi hamda ishonchni oshiradi. Bu esa stressga chidamlilikni kuchaytirib, musobaqa sharoitida ichki resurslarni to‘liq safarbar etishga yordam beradi.

O‘z-o‘zini ishontirish esa sportchining ichki dialogini ijobiy yo‘nalishda boshqarishga xizmat qiladi, ruhiy barqarorlikni mustahkamlaydi va musobaqa oldidan o‘z-o‘zini ishontirish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘z-o‘zini ishontirish ichki nutqni ijobiy mazmunda shakllantirib, shubha va qo‘rquvni kamaytiradi, ruhiy barqarorlikni ta’minlaydi. Natijada sportchi o‘z imkoniyatlariga ishonch bilan yondashadi va musobaqa jarayonida optimal funksional holatni saqlab tura oladi. Demak, vizualizatsiya va o‘z-o‘zini ishontirish usullari sportchining musobaqa oldi psixologik tayyorgarligida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, musobaqa simulyatsiyasi sportchini real raqobat sharoitlariga tizimli ravishda tayyorlashning samarali usuli hisoblanadi. U mashg‘ulot jarayonida musobaqaga xos bo‘lgan psixologik va tashkiliy omillarni sun’iy tarzda yaratish orqali sportchining moslashuv imkoniyatlarini kengaytiradi. Jumladan, tomoshabinlar shovqini, start signali, vaqt cheklovi, hakamlar nazorati, natijani darhol baholash kabi omillar qayta yaratiladi. Bu sharoitda sportchi faqat jismoniy emas, balki ruhiy bosim ostida ham harakat qilishga o‘rganadi. Natijada stressga chidamlilik, emotsional nazorat va diqqat barqarorligi bosqichma-bosqich shakllanadi. Musobaqa simulyatsiyasi, ayniqsa, start oldi hayajoni yuqori bo‘lgan sportchilar uchun katta ahamiyatga ega. Takroriy tajriba orqali organizm stress omillarini “tanish” holat sifatida qabul qila boshlaydi va ularga nisbatan reaksiya muvozanatlashadi. Natijada yurak urishi, nafas olish va mushak tonusining keskin o‘zgarishlari kamayadi. Shu tariqa, musobaqa simulyatsiyasi nafaqat texnik mahoratni mustahkamlaydi, balki sportchining psixologik tayyorgarligini ham oshiradi. U hayajon va stressning salbiy ta’sirini minimallashtirib, ishonch, ruhiy barqarorlik va harakat aniqligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu tariqa, ushbu jadvalda keltirilgan boshqaruv usullari kompleks va o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilganda, sportchining musobaqa jarayonida barqaror hamda yuqori samarador faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi. Nafas olish texnikasi fiziologik holatni meyorlashtirsa, vizualizatsiya va o‘z-o‘zini ishontirish psixologik tayyorgarlikni mustahkamlaydi, musobaqa simulyatsiyasi esa real raqobat muhitiga moslashuvni kuchaytiradi. Ushbu usullarning bir-birini to‘ldiruvchi xususiyati sportchining ichki resurslarini maqsadli va muvozanatli safarbar etish imkonini beradi. Tizimli yondashuv asosida tashkil etilgan psixologik tayyorgarlik jarayoni sportchida emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, ishonch va o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyatini shakllantiradi. Bu esa texnik va taktik harakatlarning aniq, tezkor va ishonchli bajarilishiga zamin yaratadi. Natijada musobaqa sharoitida tasodifiy omillar ta’siri kamayib, sportchining funksional imkoniyatlari to‘liq namoyon bo‘ladi.

Xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, sportchilarning yuqori natijalarga erishishi faqat jismoniy tayyorgarlik bilan cheklanmay, puxta yo‘lga qo‘yilgan psixologik tayyorgarlik tizimi bilan ham uzviy bog‘liqdir. Kompleks boshqaruv usullarini muntazam va ilmiy asosda qo‘llash xalqaro musobaqalarda

raqobatbardoshlikni oshirish, sportchining ichki imkoniyatlarini samarali safarbar etish va barqaror yuqori natijalarga erishishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Sportchilarda musobaqa oldidan hayajon va stressni samarali boshqarish yuqori natijalarga erishishda muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda umumiy sport turlari uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

1) Nafas olishni boshqarish mashqlari – chuqur, ritmik va nazoratli nafas olish yurak urishi va mushak tonusini meyorlashtiradi, ortiqcha hayajonni kamaytiradi va ichki xotirjamlikni ta’minlaydi. Bu mashqlar individual sportchilarda (masalan, yengil atletika, suzish) ham, jamoaviy sport turlarida (futbol, basketbol, voleybol) ham samarali.

2) Vizualizatsiya – harakatlarni ongda muvaffaqiyatli tarzda tasavvur qilish markaziy asab tizimini oldindan faollashtiradi, harakatlarning barqarorligini oshiradi va musobaqa sharoitiga psixologik moslashuvni ta’minlaydi. Individual sportchilarda texnika va reaksiya tezligini, jamoaviy sportchilar uchun esa harakat koordinatsiyasini yaxshilashda foydalidir.

3) O‘z-o‘zini ishontirish va ijobiy ichki nutq – salbiy fikrlarni ijobiy va konstruktiv fikrlar bilan almashtirish, qisqa motivatsion formulalardan foydalanish sportchining ishonchi va ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi. Bu metod har qanday sport turida stress va hayajonni kamaytirish uchun qo‘llaniladi.

4) Musobaqa simulyatsiyasi – real raqobat sharoitlarini yaratish. Start signali, vaqt cheklovi, tomoshabinlar shovqini yoki raqib harakatlarini takroriy qo‘llash orqali stressga chidamlilik va diqqat barqarorligi shakllanadi. Bu individual va jamoaviy sport turlarida musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikni kuchaytiradi.

5) Kun tartibi va tiklanishni to‘g‘ri tashkil etish – yetarli uyqu, to‘g‘ri ovqatlanish va relaksatsiya mashqlari ortiqcha emotsional va jismoniy taranglikni kamaytiradi, sportchining umumiy samaradorligini oshiradi.

Shu usullarni tizimli va muntazam qo‘llash nafaqat yuqori natijalarga erishish, balki sportchining stressga chidamliligini oshirish va ruhiy barqarorlikni saqlashda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arzikulov D.N., Gapparov Z.G., Vaxabova D.B. Psixologiya va sport psixologiyasi. Jismoniy tarbiya instituti talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. -T.: 2018. 280 b.

2. Karimov X.K. Tatbiqiy sport psixologiyasi. -Q.: “Fan va ta’lim”, 2025.

3. Морозов В.Н., Хадарцев А.А. К современной трактовке механизмов стресса. Журнал “Вестник новых медицинских технологий”. -2010, Т. XVII, №1. -с.15-17

4. Fayziyev Z.H. Kazusli vaziyatlarda sportchi emotsional holatini korreksiyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) disser. avtoref.: 19.00.05. -B.: 2020.

UDK 37.013:373.5:371.14

Berdiyeva Hanifa Meyliyevna,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
"Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim metodikalari" kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari nomzodi

TEXNOLOGIYA FANIDA O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada texnologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Texnologiya fanining o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini shakllantirish, kasblar haqida tasavvur hosil qilish va ularning qiziqish hamda qobiliyatlarini aniqlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, kasbga yo'naltirish jarayonida qo'llaniladigan samarali pedagogik metodlar va amaliy faoliyatning ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya fani, kasbga yo'naltirish, mehnat ta'limi, kasb tanlash, pedagogik metodlar, o'quvchilarning qobiliyati.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОФОРИЕНТАЦИИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические основы профориентации учащихся на уроках технологии. Анализируется роль предмета технологии в формировании трудовых навыков, ознакомлении учащихся с различными профессиями и выявлении их интересов и способностей. Также раскрывается значение эффективных педагогических методов и практической деятельности в процессе профессиональной ориентации.

Ключевые слова: технология, профориентация, трудовое обучение, выбор профессии, педагогические методы, способности учащихся.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF CAREER GUIDANCE FOR STUDENTS IN TECHNOLOGY EDUCATION

Abstract. This article examines the pedagogical foundations of career guidance for students in technology education. The role of technology lessons in developing students' practical skills, introducing them to various professions, and identifying their interests and abilities is analyzed. The importance of effective pedagogical methods and practical activities in the process of career guidance is also highlighted.

Keywords: technology education, career guidance, vocational orientation, professional choice, pedagogical methods, students' abilities.

Zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarni kelajak kasbini ongli ravishda tanlashga tayyorlashdan iboratdir. Jamiyat taraqqiyoti, ilm-

fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida mehnat bozori ham keskin o‘zgarib bormoqda. Bugungi kunda turli sohalarda yangi kasb va mutaxassisliklarning paydo bo‘lishi, ishlab chiqarish jarayonlarining modernizatsiyalashuvi hamda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi yosh avloddan yuqori darajadagi bilim, ko‘nikma va malakalarni talab etmoqda. Shu bois o‘quvchilarni kasb tanlashga ongli ravishda tayyorlash, ularda mehnatga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirish hamda kasbiy qiziqishlarini erta aniqlash bugungi ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘quvchilarning kasbiy yo‘nalishini shakllantirish jarayoni faqatgina yuqori sinflarda emas, balki umumiy o‘rta ta’lim bosqichining dastlabki davrlaridan boshlab izchil tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan maktab davrida o‘quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va moyilliklari shakllana boshlaydi. Mazkur jarayonda fanlararo integratsiya, amaliy mashg‘ulotlar hamda real hayot bilan bog‘liq faoliyat turlaridan foydalanish o‘quvchilarning kasblar olami haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. Shu jihatdan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan texnologiya fani o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning muhim pedagogik vositalaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Texnologiya fani o‘quvchilarda mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish, turli kasb-hunar turlari bilan tanishtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlari haqida dastlabki bilimlarni berishga xizmat qiladi. Ushbu fan orqali o‘quvchilar turli materiallar bilan ishlash, buyumlar yaratish, texnologik jarayonlarni bajarish kabi amaliy faoliyatlarda ishtirok etadilar. Bu esa ularda mehnat jarayoniga nisbatan qiziqish uyg‘otib, o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini anglashga yordam beradi.

Shuningdek, texnologiya darslari o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni jamoada ishlashga o‘rgatish hamda kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur fan doirasida tashkil etiladigan amaliy mashg‘ulotlar, loyihaviy ishlar va ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini ham yaratadi.

Shu sababli texnologiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish masalalarini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash, samarali metod va usullarni ishlab chiqish hamda ta’lim jarayoniga joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu esa o‘quvchilarning kelajak kasbini ongli tanlashiga, ularning kasbiy qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda jamiyat uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Texnologiya fani umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning amaliy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish hamda ularni kasb-hunar olami bilan tanishtirishda muhim o‘rin tutadi. Mazkur fan orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar, balki amaliy mashg‘ulotlar orqali mehnat jarayonini bevosita bajarish, texnologik jarayonlarni tushunish va turli buyumlar yaratish ko‘nikmalarini ham egallaydilar. Bu esa o‘quvchilarda mehnatga hurmat, mas’uliyat va ijodkorlik kabi muhim sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Texnologiya darslari o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish hamda yangi g‘oyalarni ilgari

surish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Dars jarayonida turli materiallar — yog‘och, metall, mato, qog‘oz va boshqa vositalar bilan ishlash orqali o‘quvchilar amaliy tajriba orttiradilar. Bunday faoliyat ularning qo‘l mehnatiga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ishlab chiqarish va texnologik jarayonlar haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi.

Shuningdek, texnologiya fani o‘quvchilarni turli kasblar bilan tanishtirish orqali ularning kasbiy dunyoqarashini shakllantiradi. Darslarda hunarmandchilik, sanoat, xizmat ko‘rsatish hamda zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq kasblar haqida ma’lumot berilishi o‘quvchilarda kelajak faoliyati haqida tasavvur hosil qiladi. Bu jarayon o‘quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash, ularni ma’lum kasbiy yo‘nalishga yo‘naltirish uchun muhim pedagogik imkoniyatlarni yaratadi.

Texnologiya darslari o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlashda ham katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulotlardagi faoliyati, ijodiy yondashuvi, topshiriqlarni bajarishdagi mas’uliyati va mehnat jarayonidagi ishtirokini kuzatish orqali ularning qaysi soha yoki kasbga moyilligini aniqlashi mumkin. Masalan, ayrim o‘quvchilar texnik faoliyatga, boshqalari esa dizayn, hunarmandchilik yoki ijodiy ishlarga ko‘proq qiziqish bildirishi mumkin. Bunday kuzatuvlar o‘quvchilarni kelajak kasbini ongli ravishda tanlashga yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, texnologiya fanida tashkil etiladigan loyiha ishlari, amaliy mashg‘ulotlar va ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Ular muayyan vazifani bajarish jarayonida rejalashtirish, muammolarni hal qilish, natijani tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni egallaydilar. Bu esa o‘quvchilarning kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik darajasini oshirish bilan birga, ularni zamonaviy mehnat bozorining talablariga mos ravishda shakllantirishga xizmat qiladi.

Texnologiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun turli metod va usullardan foydalanish zarur. O‘quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash nafaqat nazariy bilim berish, balki ularni amaliy faoliyatga jalb etish, turli kasblar bilan tanishtirish va mehnat jarayonini bevosita kuzatish imkoniyatlarini yaratish orqali amalga oshiriladi. Shu jihatdan texnologiya fanida kasbga yo‘naltirishning bir qator samarali usullari mavjud.

Amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish. Texnologiya fanining asosiy xususiyatlaridan biri uning amaliy yo‘naltirilganligidir. Dars jarayonida o‘quvchilar turli buyumlar tayyorlash, modellar yaratish, konstruktorlik ishlarini bajarish hamda texnologik jarayonlarni amalga oshirish orqali amaliy tajribaga ega bo‘ladilar. Bunday faoliyat o‘quvchilarning qo‘l mehnati ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ularni mehnatsevarlik va mas’uliyatga o‘rgatadi. Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilar o‘z qobiliyatlarini sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lib, qaysi faoliyat turi ularga ko‘proq mos kelishini anglay boshlaydilar.

Kasblar bilan tanishtirish. Texnologiya darslarida turli kasb va mutaxassisliklar haqida ma’lumot berish o‘quvchilarning kasbiy dunyoqarashini kengaytiradi.

O‘qituvchi dars jarayonida zamonaviy kasblar, ularning jamiyatdagi o‘rni, ahamiyati hamda ushbu kasblar uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar haqida tushuntirishlar beradi. Bu esa o‘quvchilarda kasb tanlashga bo‘lgan qiziqishni oshirib, ularni kelajak faoliyati haqida o‘ylashga undaydi. Shuningdek, kasblar haqida beriladigan ma’lumotlar o‘quvchilarning mehnatga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxona va ustaxonalarga ekskursiyalar uyushtirish. O‘quvchilarni ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita tanishtirish kasbga yo‘naltirishning samarali usullaridan biridir. Korxonalar, ustaxonalar, hunarmandchilik markazlari va ishlab chiqarish obyektlariga tashkil etilgan ekskursiyalar o‘quvchilarning kasblar haqidagi tasavvurlarini yanada boyitadi. Ular ishlab chiqarish jarayonini, texnologik uskunalar bilan ishlash tartibini hamda mutaxassislarning faoliyatini kuzatish orqali real mehnat muhiti bilan tanishadilar. Bu esa o‘quvchilarda ma’lum kasblarga nisbatan qiziqish uyg‘otadi.

Loyiha va ijodiy ishlar tashkil etish. Texnologiya fanida o‘quvchilarni turli loyiha va ijodiy ishlarga jalb etish ularning mustaqil fikrlashini, ijodiy yondashuvini va tashabbuskorligini rivojlantiradi. O‘quvchilar muayyan loyiha ustida ishlash jarayonida g‘oya ishlab chiqish, rejalashtirish, material tanlash, tayyor mahsulot yaratish kabi bosqichlarni bosib o‘tadilar. Bu jarayon ularda muammolarni hal qilish, natijani baholash va o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Natijada o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlari yanada mustahkamlanadi.

Ustoz-shogird an’analaridan foydalanish. Milliy pedagogik tajribada ustoz-shogird an’analari muhim o‘rin tutadi. Tajribali ustalar, hunarmandlar yoki turli soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar tashkil etish o‘quvchilarning kasb-hunar egallashga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Bunday uchrashuvlar jarayonida o‘quvchilar mutaxassislarning hayotiy tajribasi, kasbiy faoliyati va erishgan yutuqlari haqida ma’lumot olishadi. Bu esa ularni kelajak kasbini tanlashda yanada ongli va mas’uliyatli bo‘lishga undaydi.

Shu tariqa texnologiya fanida qo‘llaniladigan mazkur usullar o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini shakllantirish, ularning qobiliyatlarini aniqlash va kelajak kasbini ongli ravishda tanlashlariga ko‘maklashadi.

Texnologiya fani ta’lim jarayonida nafaqat o‘quvchilarga amaliy bilim va ko‘nikmalar berish, balki ularni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur fan orqali o‘quvchilarda mehnatga ongli munosabat, mehnatsevarlik, mas’uliyat va intizom kabi muhim fazilatlar shakllantiriladi. Texnologiya darslari amaliy faoliyatga asoslanganligi sababli o‘quvchilar bajarilayotgan ishga jiddiy yondashish, berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish hamda mehnat natijasini qadrlashni o‘rganadilar.

Dars jarayonida o‘quvchilar turli buyumlar yaratish, texnologik jarayonlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali sabr-toqatli bo‘lish, ishni puxta rejalashtirish va boshlagan ishini oxirigacha yetkazish kabi muhim ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Bunday faoliyat o‘quvchilarning irodaviy sifatlarini mustahkamlash bilan birga, ularda mustaqillik, tashabbuskorlik va mas’uliyat hissini rivojlantiradi. Shuningdek, texnologiya darslari jarayonida o‘quvchilar jamoa bo‘lib ishlash,

o‘zaro hamkorlik qilish, bir-birining fikrini hurmat qilish va umumiy natijaga erishish uchun birgalikda harakat qilish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni ham egallaydilar.

Texnologiya fanining yana bir muhim tarbiyaviy jihati shundaki, u o‘quvchilarni milliy qadriyatlar, an’analar va madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalaydi. Dars jarayonida xalq hunarmandchiligi, milliy amaliy san’at turlari hamda qadimiy kasb-hunar an’analari haqida ma’lumotlar berilishi o‘quvchilarda milliy merosga nisbatan qiziqish va hurmat tuyg‘usini shakllantiradi. Ayniqsa, milliy hunarmandchilik namunalarini o‘rganish va ularga oid amaliy mashg‘ulotlarni bajarish o‘quvchilarning estetik didini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Shu tariqa texnologiya fani o‘quvchilarning nafaqat kasbiy qiziqishlarini shakllantirishga, balki ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlashga ham katta hissa qo‘shadi. Bu esa yosh avlodni mehnatsevar, mas’uliyatli, ijodkor hamda milliy qadriyatlarni qadrlaydigan shaxslar sifatida kamol topishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, texnologiya fani umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda muhim pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Mazkur fan orqali o‘quvchilar turli mehnat faoliyatlari bilan tanishadi, amaliy ko‘nikmalarni egallaydi hamda o‘z qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Texnologiya darslarida amalga oshiriladigan amaliy mashg‘ulotlar, ijodiy loyihalar, modellashtirish ishlari va turli texnologik jarayonlar o‘quvchilarning nafaqat bilimlarini mustahkamlaydi, balki ularni mustaqil fikrlashga, yangi g‘oyalar yaratishga va mehnat jarayoniga ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi.

Shuningdek, texnologiya fanida tashkil etiladigan kasblar bilan tanishtirish ishlari, ishlab chiqarish korxonalari va ustaxonalarga ekskursiyalar hamda turli soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar o‘quvchilarning kasbiy dunyoqarashini kengaytiradi. Bunday faoliyatlar orqali o‘quvchilar mehnat bozorida mavjud kasblar, ularning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati haqida to‘liqroq tasavvurga ega bo‘ladilar. Natijada o‘quvchilarda kelajak kasbini ongli ravishda tanlashga bo‘lgan qiziqish va mas’uliyat hissi shakllanadi.

Texnologiya fani o‘quvchilarda mehnatsevarlik, intizom, sabr-toqat, ijodkorlik va mas’uliyat kabi muhim shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Amaliy faoliyatga asoslangan darslar jarayonida o‘quvchilar jamoada ishlash, muammolarni hal qilish, o‘z faoliyatini rejalashtirish va natijalarni tahlil qilish kabi muhim hayotiy ko‘nikmalarni egallaydilar. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik darajasini oshiradi.

Shu bois texnologiya fanini samarali tashkil etish, o‘quv jarayonida zamonaviy pedagogik metod va texnologiyalarni qo‘llash, amaliy mashg‘ulotlarning sifatini oshirish hamda o‘quvchilarni turli kasb-hunar faoliyatlari bilan yaqindan tanishtirish bugungi ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Texnologiya fanining mazmunini boyitish, uni real ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog‘lash hamda

innovatsion yondashuvlardan foydalanish orqali o‘quvchilarni kelajak kasbini ongli tanlay oladigan, raqobatbardosh va ijodkor shaxslar sifatida shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2018.
3. Qurbonov Sh., Saidov A. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
4. Raximov A. Mehnat ta’limi va kasbga yo‘naltirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.

UDK 37.013:94(575.1)

Xaydarov Yuldash Xazratovich,
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
"Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari nomzodi

KASBIY MAHORAT – TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MUHIM OMIL ("O'ZBEKISTON TARIXI"NI O'QITISH MISOLIDA)

Annotatsiya. Maqolada o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish ta'lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni joriy etishning muhim omili ekani yoritilgan. Shuningdek, "O'zbekiston tarixi" fanini zamon talablari darajasida o'qitishning jamiyatda yuksak ma'naviyatni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Mazkur yo'nalishda o'qitish jarayonidan aniq va amaliy misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy mahorat, kasbiy o'sish, ijodkorlik, modernizatsiya, innovatsiya, integratsiya, jamiyat, ma'naviyat, tarix ta'limi, ilm-fan, zamonaviy talablar, ta'lim, tarbiya

ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ МАСТЕРСТВО КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА)

Аннотация. В статье освещается значение повышения профессионального мастерства учителей как важного фактора внедрения современных подходов в систему образования. Также проанализирована роль преподавания истории Узбекистана в соответствии с современными требованиями в формировании высокой духовности общества. Приведены конкретные практические примеры из учебного процесса.

Ключевые слова: профессиональное мастерство, профессиональный рост, креативность, модернизация, инновации, интеграция, общество, духовность, историческое образование, наука, современные требования, образование, воспитание

PROFESSIONAL MASTERY AS AN IMPORTANT FACTOR IN IMPROVING THE QUALITY AND EFFECTIVENESS OF EDUCATION (CASE STUDY OF TEACHING THE HISTORY OF UZBEKISTAN)

Annotation. The article highlights the importance of improving teachers' professional mastery as a key factor in introducing modern approaches into the education system. It also analyzes the role of teaching the History of Uzbekistan in accordance with contemporary requirements in shaping high moral values in society. Relevant practical examples from the teaching process are provided.

Keywords: professional mastery, professional growth, creativity, modernization, innovation, integration, society, spirituality, history education, science, modern requirements, education, upbringing

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim ustunlaridan biri bilim, ta’lim va tarbiya tizimini tubdan isloh qilishdan iboratdir. Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida ushbu sohalarni rivojlantirish, ta’lim tizimini zamon talablari asosida modernizatsiya qilish hamda uni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimini isloh qilish, ilm-fan va jamiyatning o‘zaro aloqalarini mustahkamlash, ta’lim jarayonlarini innovatsion rivojlanish yo‘liga yo‘naltirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Fan va jamiyat integratsiyasini ta’minlash, ularning o‘zaro ta’sirini kuchaytirish uchun oliy ta’lim muassasalari hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilayotgan fanlarni zamonaviy talablarga mos ravishda modernizatsiya qilish, ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda ta’lim tizimini jahon standartlari darajasiga ko‘tarish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa ta’lim jarayonini yanada takomillashtirishni, o‘qitish metodikasini yangilashni hamda pedagoglarning kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirib borishni talab etadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonining dastlabki bosqichlaridayoq ta’lim tizimining holatini chuqur tahlil qilib, o‘quv rejalari, o‘quv dasturlari va o‘qitish metodikasini takomillashtirish zarurligini alohida ta’kidlagan edi. Jumladan, davlat rahbari shunday fikr bildirgan:

“Zamonaviy o‘quv reja va uslublarni joriy etish talab darajasida emas. Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni hamda zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o‘rgatish vazifalari hali sifatli va to‘liq holda yechilgani yo‘q” [1;45–46].

Mazkur fikrlar ta’lim tizimida mavjud muammolarni bartaraf etish, o‘qitish jarayonini zamonaviylashtirish hamda yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash zarurligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda jamiyat a’zolarida yuksak ma’naviyatni shakllantirish, o‘quvchi-yoshlarning yurt taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytirish, ularni Vatan ravnaqi va xalq farovonligi yo‘lida fidoyilik ruhida tarbiyalashda “O‘zbekiston tarixi” fanining o‘rni nihoyatda muhimdir. Shu sababli ushbu fan doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, innovatsion yondashuvlar hamda tarixni o‘rganishga yangicha tafakkur asosida yondashish usullarini o‘quvchi-yoshlarga yetkazib borish muhim ahamiyatga ega.

Bu jarayonda tarix fani o‘qituvchisining kasbiy mahorati muhim omil hisoblanadi. Pedagog o‘z bilim, malaka va ko‘nikmalarini muntazam ravishda takomillashtirib borishi zarur. Shu maqsadda tarix fani o‘qituvchilariga quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratish tavsiya etiladi:

o‘quvchilarga bilim berishga bo‘lgan kuchli pedagogik motivatsiya;

kasbiy o‘sish va malaka oshirishga doimiy intilish;

ijodkorlik va yangilikka ochiqlik;

pedagogik faoliyatda yuqori darajadagi mas’uliyatni his etish;

jamiyatda o‘qituvchi obro‘sini mustahkamlash orqali kasbiy mahoratini oshirib borish.

Masalan, VI sinfda “Tarix” fanini o‘qitish jarayonida O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan qadimgi Baqtriya va Xorazm davlatlari haqida qisqacha ma’lumotlar beriladi. Biroq ayrim darsliklarda davlatchiligimizning qadimiy ildizlari, O‘rta Osiyo mintaqasining jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri sifatidagi o‘rni va roli yetarlicha keng yoritilmaydi. Ushbu holatning sabablarini tarixchi olim, akademik Azamat Ziyoning ilmiy tadqiqotlari orqali yanada chuqurroq anglash mumkin. Olimning ta’kidlashicha, O‘zbekiston hududida hamda umuman O‘rta Osiyo mintaqasida qadimgi davrlarda mavjud bo‘lgan davlatchilik tarixini maxsus ilmiy yo‘nalish sifatida o‘rganish masalasi uzoq vaqt davomida yetarli darajada tadqiq etilmagan [2;3].

Shu bois tarix fani o‘qituvchisi mazkur masalalarni chuqur ilmiy manbalar asosida o‘rganib, o‘quvchilarga yetkazishi lozim. Bu esa pedagogdan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikni, ilmiy adabiyotlardan samarali foydalanish ko‘nikmasini talab etadi.

Xususan, o‘zbek davlatchiligi tarixini birlamchi yozma manbalar hamda arxeologik topilmalar asosida ilmiy jihatdan tizimli o‘rgangan taniqli olim, akademik Azamat Ziyoning 2000-yilda nashr etilgan “O‘zbek davlatchiligi tarixi” monografiyasi bu borada muhim manba hisoblanadi. Ushbu ilmiy tadqiqotda eng qadimgi davrlardan boshlab Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar bo‘lgan davrda o‘zbek davlatchiligi tarixining rivojlanish bosqichlari tizimli ravishda yoritilgan.

Mazkur monografiyada keltirilgan ilmiy ma’lumotlar o‘quvchilarga o‘zbek davlatchiligining qadimiy ildizlarini tushuntirishda katta ahamiyatga ega. Xususan, Somoniylar davri hamda Amir Temur davlati kabi tarixiy davrlarning davlat boshqaruvi tizimi, siyosiy va madaniy taraqqiyotdagi o‘rni haqida berilgan ilmiy ma’lumotlar o‘quvchilarning Vatan tarixiga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi. Bu esa ularda milliy g‘urur, tarixiy xotira va faol fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitishda “O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi” mavzusini tushuntirishda ham ayrim qiyinchiliklar mavjud. Darsliklarda berilgan ma’lumotlar ba’zan bu murakkab tarixiy jarayonni to‘liq ochib berish uchun yetarli bo‘lmaydi. Bu masala yuzasidan taniqli arxeolog olim, akademik Ahmadali Asqarov quyidagilarni ta’kidlaydi: so‘nggi yillarda o‘zbek xalqining etnogenezi masalasida ilmiy asosga ega bo‘lmagan ayrim qarashlar ham ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida tarqalmoqda. Bunday fikrlar o‘zbek xalqining tarixiy ildizlari va uning hozirgi hududlar bilan uzviy bog‘liqligini noto‘g‘ri talqin qilishga olib kelishi mumkin [3;4].

Shu sababli kasbiy mahoratga ega bo‘lgan tarix o‘qituvchisi ushbu mavzuni ilmiy asoslangan manbalar asosida tushuntirishi zarur. Bu borada akademik Ahmadali Asqarovning 2015-yilda “O‘zbekiston” nashriyotida chop etilgan

"O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi" monografiyasi muhim ilmiy manba hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda O‘rta Osiyo hududida kechgan etnogenetik jarayonlar, o‘zbek xalqining shakllanish bosqichlari, etnomadaniy rivojlanish hamda o‘zbek adabiy tilining shakllanishi kabi masalalar chuqur ilmiy asosda tahlil qilingan.

Bunday ilmiy manbalardan foydalanish o‘qituvchiga dars jarayonida tarixiy jarayonlarni kengroq va aniqroq tushuntirish imkonini beradi. Ijodkorlikka intiluvchi va kasbiy mahorati yuqori bo‘lgan pedagoggina murakkab ilmiy talqinlarni o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos holda sodda va tushunarli tarzda bayon qila oladi.

Yurtimizda tarix fanini ommalashtirish va keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida tashkil etilgan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi "O‘zbekiston tarixi" telekanali ham katta ahamiyatga ega. Ushbu kanalda O‘zbekiston tarixining kam o‘rganilgan jihatlari, arxeologik tadqiqotlar, tarixiy shaharlar, etnik jarayonlar va madaniy merosga oid ilmiy ma'lumotlar muntazam yoritib borilmoqda.

"Moziydan sado", "Shaharlar tarixi", "Etnik jarayonlar", "Aslida qanday?" kabi ko‘rsatuvlar yoshlarning tarix faniga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularni ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan tanishtirishga xizmat qilmoqda. Tarix fani o‘qituvchilari ushbu ko‘rsatuvlardan olingan ma'lumotlardan dars jarayonida samarali foydalanishlari mumkin.

Prezident Shavkat Mirziyoyev "Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston" asarida shunday ta'kidlaydi: "Ertangi kun tarixini bugun yozishimiz shart. Yangi davr uchun yangi g‘oyalar, tashabbuslar, puxta o‘ylangan istiqbolli rejalar va yangi marralar zarur".

Kasbiy mahoratga ega bo‘lgan tarix o‘qituvchisi o‘tmish voqealarini hozirgi zamon jarayonlari bilan qiyoslab tushuntira oladi, tarixiy parallellarni ko‘rsatadi hamda o‘quvchilarda tarixiy tafakkur va tarixiy empatiya ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy mahorati yuqori bo‘lgan pedagoglargina umumiy o‘rta ta'lim maktablarida "O‘zbekiston tarixi" fanini samarali o‘qitish jarayonida zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalaridan to‘laqonli foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday o‘qituvchilar tarix fanida erishilgan yangi ilmiy yutuqlarni, arxeologik va tarixiy manbalarga asoslangan tadqiqotlarni dars jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning tarixiy bilimlarini yanada boyitadi. Natijada o‘quvchilar nafaqat tarixiy fakt va voqealarni o‘zlashtiradi, balki ularni tahlil qilish, tarixiy jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash hamda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalariga ham ega bo‘ladilar.

Shuningdek, tarix fanini chuqur va ilmiy asosda o‘qitish yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani asrab-avaylash, ajdodlar merosiga hurmat bilan qarash kabi muhim fazilatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. O‘z navbatida, bu jarayon o‘quvchi-yoshlarda ona Vatanga sadoqat, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini mustahkamlaydi. Tarixiy bilimlar asosida shakllangan bunday fazilatlar

esa ularning jamiyat hayotidagi ijtimoiy faolligini oshiradi, mamlakat taqdiri va kelajagiga daxldorlik hissini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, tarix fanini zamonaviy metodlar asosida o‘qitish o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, tarixiy voqealarni qiyosiy tahlil qilish, o‘tmish tajribalaridan kelib chiqib kelajak haqida xulosalar chiqarish kabi muhim intellektual ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bu esa yoshlarning nafaqat tarix faniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, balki ularning keng dunyoqarashga ega bo‘lgan, mustaqil fikrlaydigan va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, tarix fani o‘qituvchisining kasbiy mahorati, ilmiy salohiyati va pedagogik tajribasi ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Faqatgina ijodkor, yangilikka intiluvchi hamda o‘z ustida muntazam ishlaydigan pedagoggina o‘quvchilarda tarixiy tafakkur, tarixiy empatiya va mustaqil tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantira oladi.

Demak, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “O‘zbekiston tarixi” fanini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida o‘qitish yosh avlodni yuksak ma’naviyatli, Vatan taqdiriga befarq bo‘lmagan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslar sifatida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarni qo‘llab-quvvatlaydigan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2017. – 45–46-betlar.
2. Mirziyoyev Sh. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2024. – 7-bet.
3. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent, 2000. – 3-bet.
4. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2015. – 3-bet.

UDK: 796.325:159.9

Abdullayev Akobr Shokir o'g'li,
Profi University "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi v.b. dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

JAMOAVIY SPORT TURLARIDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARNING ISHLASHIGA YANGICHA YONDASHUV (VOLEYBOL SPORT TURI MISOLIDA)

Annotatsiya. Mazkur maqolada voleybolchilarning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligiga ta'sir etuvchi raqamli tobelik va deidentifikatsiya jarayonlari empirik tahlil qilinadi. Natijalar sportchi identiteti va jamoa muhiti ushbu jarayonlarda hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: raqamli tobelik, deidentifikatsiya, sportchi identiteti, voleybolchilar, ekran vaqti, jamoa muhiti, ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik.

НОВЫЙ ПОДХОД К ФУНКЦИОНИРОВАНИЮ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В КОМАНДНЫХ ВИДАХ СПОРТА (НА ПРИМЕРЕ ВОЛЕЙБОЛА)

Аннотация. В статье анализируются цифровая зависимость и деидентификация как факторы, влияющие на социально-психологическую подготовку волейболистов. Результаты показывают значимость спортивной идентичности и командной среды в формировании психологической устойчивости спортсменов.

Ключевые слова: цифровая зависимость, деидентификация, спортивная идентичность, волейболисты, экранное время, командная среда, социально-психологическая подготовка.

A NOVEL APPROACH TO THE FUNCTIONING OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS IN TEAM SPORTS (USING VOLLEYBALL AS AN EXAMPLE)

Abstract. The article analyzes digital addiction and de-identification as factors affecting the socio-psychological preparation of volleyball players. The findings highlight the decisive role of athletic identity and team environment in maintaining athletes' psychological stability.

Keywords: digital addiction, de-identification, athletic identity, volleyball players, screen time, team environment, socio-psychological preparation.

Zamonaviy sport muhitida raqamli texnologiyalarning jadal kirib kelishi sportchilar hayot tarzida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, mobil telefonlar, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalardan nazoratsiz va me'yoridan ortiq foydalanish holatlari sportchilarning nafaqat funksional tayyorgarligiga, balki

ularning ijtimoiy-psixologik holati va musobaqaviy barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu jarayon ilmiy adabiyotlarda raqamli tobelik (digital addiction) tushunchasi orqali izohlanib, u shaxsning real ijtimoiy faoliyatdan chekinishi va virtual muhitga psixologik qaramligini kuchaytiruvchi omil sifatida talqin qilinadi.

Jamoaviy sport turlarida, xususan voleybolda, sportchi faoliyati faqat individual texnik va jismoniy tayyorgarlik bilan emas, balki jamoaga mansublik hissi, ijtimoiy identitet, o'zaro muloqot, emotsional barqarorlik va mas'uliyatni bo'lishish kabi ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik mexanizmlari bilan belgilanadi. Mazkur mexanizmlarning izdan chiqishi sportchining jamoa bilan psixologik bog'liqligini susaytirib, musobaqaviy faoliyat samaradorligiga bevosita tahdid soladi.

So'nggi yillarda sport amaliyotida kuzatilayotgan yana bir muhim muammolardan biri — sportchilarda deidentifikatsiya jarayonining kuchayishidir. Deidentifikatsiya sportchining o'zini jamoa a'zosi, sportchi roli va musobaqaviy vazifalar bilan psixologik jihatdan tenglashtirishdan uzoqlashuvi, ya'ni "men kimman?" munosabatining zaiflashuvi yoki buzilishi bilan namoyon bo'ladi. Ayniqsa, raqamli tobelikka moyil sportchilarda real sport muhitidan psixologik chekinish va virtual makonda kompensatsiya izlash holatlari deidentifikatsiyani jadallashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi uch yil davomida bevosita voleybol bo'yicha milliy terma jamoa darajasidagi sportchilarni 10 dan ortiq xalqaro va mahalliy musobaqalarga tayyorlash jarayonida ishtirok etdik va sportchilarni har tomonlama faol kuzatdik, ular bilan diagnostik hamda korreksion-rivojlantiruvchi suhbatlarni olib bordik. Ochiq gapirilgan jamoadagi shaxslararo musonabatlar tizimidagi nizolar, ijtimoiy bosim, tushunmovchiliklar, shart-sharoit yoki imkoniyatlardan qoniqmaslik kabi muammolar asosiylari emas ekanligi, qo'shimcha induktiv yondashuv asosida aniqlandi. Raqamli tobelik va deidentifikatsiya ko'rinmas tarzda sportchilarning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligiga real zararni yetkazib kelmoqda.

Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, raqamli tobelik va deidentifikatsiya alohida psixologik hodisalar bo'lib ko'rinsa-da, sport faoliyati kontekstida ular o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik mexanizmlarini izdan chiqaruvchi yagona destruktiv tizim sifatida namoyon bo'ladi. Biroq mavjud tadqiqotlarda ushbu ikki omilning aynan voleybolchilarning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligiga kompleks ta'siri yetarlicha tizimli va empirik asosda o'rganilmagan.

Shu munosabat bilan ushbu tadqiqotning maqsadi — raqamli tobelik va deidentifikatsiyaning voleybolchilarning ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik mexanizmlariga salbiy ta'sirini ilmiy asosda aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Raqamli tobelik muammosi ilmiy muomalaga internetdan patologik foydalanish fenomeni doirasida kiritilgan. Mazkur tushunchaning nazariy asoslari K. Young (1998) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, muallif internetga tobelikni shaxsning kundalik faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va psixologik farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi xulq-atvor buzilishi [1] sifatida ta'riflaydi. Keyingi tadqiqotlarda raqamli tobelik smartfon va ijtimoiy tarmoqlardan muammoli foydalanish doirasida kengaytirilgan. A. Elhai va boshqalar (2017) tomonidan olib

borilgan metaanaliz natijalariga ko‘ra, smartfon tobeligi bilan xavotir va depressiv simptomlar o‘rtasida o‘rta darajadagi ijobiy korrelyatsiya mavjudligi aniqlangan [2]. Yana bir sportchilar ishtirokida olib borilgan tadqiqotga ko‘ra, raqamli tobelik sport faoliyatiga bevosita ta’sirini ko‘rsatadi. H. Kim va J. Davis (2019) tomonidan universitet sportchilari misolida o‘tkazilgan tadqiqotda kechki payt smartfonlardan intensiv foydalanish uyqu sifati indeksini o‘rtacha 21% ga pasaytirgani aniqlangan ($p < 0,05$), bu esa mashg‘ulotdan tiklanish jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatgan[3]. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, raqamli muvozanatni ta’minlay olmaslik odati, sportchilar uchun natijalarga ta’sir qiladigan real ijtimoiy-psixologik xavfni yuzaga keltiradi.

Jamoaviy sport turlarida sportchining ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi masalasi A.Karron (1982) tomonidan ishlab chiqilgan jamoaviy birdamlik konsepsiyasi asosida izohlanadi. Muallif jamoaviy birdamlikni sportchilarni birgalikda ushlab turuvchi psixologik kuchlar yig‘indisi[4] sifatida talqin qiladi. Birdamlik esa muloqot sifatida bog‘liq ijtimoiy-psixologik fenomendir. K.Fransen va hammualliflari (2015) jamoaviy sport turlarida ijtimoiy muloqot sifati va jamoaviy identitet darajasi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjudligini empirik jihatdan asoslab bergan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, jamoa ichidagi psixologik muloqot zaiflashgan sportchilarda jamoaga sodiqlik ko‘rsatkichi sezilarli darajada past bo‘lgan [5]. R.Horton va D.Mak (2000) tadqiqotlarida sportchi identiteti yuqori bo‘lgan shaxslarda musobaqaviy stressga chidamlilik va motivatsiya darajasi statistik jihatdan yuqori ekani aniqlangan [6]. Bu esa identifikatsiya jarayoni sport tayyorgarligini qo‘llab-quvvatlovchi muhim ijtimoiy-psixologik mexanizm ekanligiga ishora qiladi.

Deidentifikatsiya tushunchasi S.Brekval (1986) tomonidan identitetni himoya qilish nazariyasi doirasida ishlab chiqilgan. Muallif deidentifikatsiyani shaxsning ma’lum ijtimoiy rol yoki guruh bilan o‘zini tenglashtirishdan psixologik himoya sifatida voz kechishi deb talqin qiladi [7]. Sport psixologiyasida ushbu fenomen Y.Stefan va B.Bryuver (2007) tomonidan sportchi faoliyatidan psixologik chekinish jarayoni sifatida tavsiflangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sportchi identitetining zaiflashuvi sport faoliyatidan chiqish xavfini oshiradi [8]. Y.P.Ilin (2012) sport faoliyatida motivatsiya susayishi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yetishmasligi sportchi identitetining parchalanishiga olib kelishini qayd etadi [9]. Demak, yuqoridagi izlanishlar deidentifikatsiya jarayoni sport tayyorgarligiga salbiy ta’sir etuvchi dolzarb ijtimoiy-psixologik mexanizm ekanligidan dalolat beradi.

K. Kus va M. Griffis (2017) raqamli muhit shaxs uchun muqobil identitet makoni sifatida namoyon bo‘lishini ta’kidlab, virtual muhit real identitet muammolarini vaqtincha kompensatsiya qilishini ilmiy asoslaydi [10]. Zao va boshqalar (2020) tomonidan Xitoy sportchilari misolida o‘tkazilgan tadqiqotda smartfon tobeligi ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan sportchilarda jamoaviy identifikatsiya darajasi o‘rtacha 22,4% ga past ekani aniqlangan [11]. Tahlil qilingan manbalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli tobelik sportchilarda emotsional barqarorlik, o‘z-o‘zini boshqarish va ijtimoiy muloqot sifatini pasaytiruvchi omil hisoblanadi.

Shuningdek, deidentifikatsiya sportchilarning jamoa va sport faoliyati bilan psixologik bog‘liqligini zaiflashtiruvchi markaziy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq ushbu ikki omilning voleybolchilarning ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik mexanizmlariga qo‘shma ta’siri empirik jihatdan yetarli darajada o‘rganilmagan bo‘lib, mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqot voleybolchilarda raqamli tobelik va deidentifikatsiyaning ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik mexanizmlariga ta’sirini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, tadqiqot tavsifiy-analitik yondashuv asosida tashkil etildi. Tadqiqot sportchilarning faoliyatini real mashg‘ulot va kundalik hayot sharoitida, maxsus eksperimental ta’sirlarsiz o‘rganishni nazarda tutdi.

Tadqiqotda jami 250 nafar voleybolchi ishtirok etdi. Ishtirokchilarning yoshi 13 yoshdan 42 yoshgacha bo‘lib, o‘rtacha yosh 17,3 yoshnini tashkil etdi. Tanlanmaga sport tayyorgarligi darajasi jihatidan turli guruhdagi voleybolchilar kiritildi, jumladan: sport razryadiga ega, sport ustaligiga nomzod va sport ustalari hamda rasmiy sport darajasiga ega bo‘lmaganlar, shuningdek havaskor va professional voleybolchilar. Bu holat raqamli xulq-atvor va identitet jarayonlarining sport darajalari bo‘yicha farqlanishini o‘rganish imkonini berdi.

Tadqiqotda asosiy metod sifatida kuzatuv metodi qo‘llanildi. Kuzatuv sportchilarning mashg‘ulot jarayoni, mashg‘ulotdan keyingi vaqtdagi kundalik faoliyati davomida olib borildi. Unda sportchilarning raqamli qurilmalardan foydalanish intensivligi, mobil telefon bilan bandlik darajasi, jamoa ichidagi muloqot faolligi va mashg‘ulotdan tashqari vaqtni tashkil etish xususiyatlari tizimli tarzda qayd etildi.Raqamli tobelik ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadida sportchilarning kunlik ekran vaqti o‘rganildi. Ushbu ko‘rsatkich likert shkalasi asosida baholanib, sportchilarning mobil telefon va boshqa raqamli qurilmalardan foydalanish intensivligi hamda raqamli muhitga jalb etilganlik darajasini aniqlashga xizmat qildi.

Sportchilarning identifikatsiya va deidentifikatsiya jarayonlarini o‘rganish uchun “Men kimman?” metodikasi (M. Kun va T. Makpartlend) qo‘llanildi. Mazkur metodika sportchilarning o‘z-o‘zini anglash tizimida sportchi roli, jamoaga mansublik hamda shaxsiy va ijtimoiy identitet komponentlarining ifodalanganlik darajasini aniqlash imkonini berdi.

Bundan tashqari, sportchilarning individual psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida psixogeometrik figuralar testidan (Syuzan Delinger) foydalanildi. Ushbu metodika sportchilarning shaxsiy xulq-atvor uslubi, jamoaviy muhitdagi psixologik pozitsiyasi va individual o‘ziga xosliklarini aniqlashga xizmat qildi. Psixogeometrik figuralar orqali aniqlangan individual psixotiplar keyingi tahlil jarayonida raqamli tobelik va deidentifikatsiya ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq holda o‘rganilishi rejalashtirildi.

Tadqiqotda olingan ma’lumotlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlash maqsadida korelyatsion tahlil qo‘llanildi. Xususan, sportchilarning kunlik ekran vaqti ko‘rsatkichlari, identifikatsiya indikatorlari hamda individual psixologik

xususiyatlari o‘rtasidagi munosabatlar Spirman korelyatsiya koeffitsienti yordamida aniqlanishi ko‘zda tutildi.

Sportchilarda raqamli xulq-atvor, identitet jarayonlari va individual psixologik xususiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni aniqlash maqsadida ekran vaqti, “Men kimman?” metodikasi natijalari, psixogeometrik figuralar hamda jamoa toifasi (tuman, hududiy, milliy terma jamoa va professional klub toifalaridagi sportchilar jalb qilingan edi) o‘rtasidagi korelyatsion bog‘liqliklar tahlil qilindi. Olingan natijalar sportchilarning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi ko‘p omilli tizim ekanligini tasdiqlaydi.

1-jadval

Voleybolchilarda kundalik ekran vaqti, identifikatsiya darajasi, psixogeometrik figuralar va jamoa toifasi o‘rtasidagi korelyatsion bog‘liqlik (N=250)

(Spirmen korrelyatsiyasi mezoni bo‘yicha)

Ko‘rsatkichlar	Ekran vaqti	Identifikatsiya	Psixogeometrik figura	Jamoa toifasi
Ekran vaqti	1,000	−0,022	−0,045	0,035
Identifikatsiya	−0,022	1,000	0,284**	0,164*
Psixogeometrik figura	−0,045	0,284**	1,000	0,085
Jamoa toifasi	0,035	0,164*	0,085	1,000

Izoh: * p≤0,05; ** p≤0,01

Korelyatsion tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, sportchilarning kundalik ekran vaqti bilan identifikatsiya darajasi o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik aniqlanmadi ($\rho = -0{,}022$; $p > 0{,}05$). Mazkur holat bizning keysimizda raqamli qurilmalardan foydalanishning o‘zi sportchi identitetining pasayishiga bevosita olib kelmasligini ko‘rsatadi. Amaliy kuzatuvlar shuni tasdiqlaydiki, voleybolchilar orasida telefon ko‘p ishlatilishi ko‘pincha jismoniy charchoq yoki bo‘sh vaqtni to‘ldirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi, biroq u avtomatik tarzda sport faoliyatidan begonalashuvni anglatmaydi. Shu jihatdan, raqamli faollikni to‘liq cheklash emas, balki uni mazmunli boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq identifikatsiya va psixogeometrik figuralar o‘rtasida aniqlangan o‘rtacha darajadagi musbat bog‘liqlik ($\rho = 0{,}284$; $p < 0{,}01$) sportchi identitetining individual psixologik xususiyatlar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ushbu natija amaliy tajriba bilan to‘liq mos keladi: jamoada intizomga moyil, barqaror va strukturaviy xulq-atvorga ega sportchilarda sportchi roli ichki psixologik tayanch sifatida mustahkam shakllangan bo‘ladi. Psixogeometrik figuralar orqali aniqlangan psixotiplar sportchilarning mashg‘ulotga munosabati, murabbiy ko‘rsatmalarini qabul qilishi va jamoaviy mas’uliyatni his etish darajasi bilan bevosita bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Alohida e’tiborga molik jihat sifatida identifikatsiya va jamoa toifasi o‘rtasidagi statistik ahamiyatli musbat bog‘liqlik ($\rho = 0{,}164$; $p < 0{,}05$) qayd etiladi. Bu natija shuni ko‘rsatadiki, sport muhiti darajasi oshgani sari sportchi identiteti


ham mustahkamlanib boradi. Amaliy jihatdan qaralganda, professional klub va milliy terma jamoa muhitida bo‘lgan voleybolchilar o‘zini “sportchi” sifatida aniqlashga ko‘proq moyil bo‘ladi. Bunday jamoalarda trenerovka rejimi, ichki intizom, ijtimoiy talablar va musobaqaviy mas’uliyat sportchi identitetini tabiiy ravishda mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, ekran vaqti bilan jamoa toifasi o‘rtasidagi bog‘liqlikning statistik jihatdan ahamiyatli emasligi ($p > 0,05$) amaliy tajribada kuzatiladigan muhim holatni tasdiqlaydi: yuqori sport darajasidagi jamoalarda ham sportchilar raqamli qurilmalardan foydalanadi, biroq bu foydalanish sport faoliyatiga bo‘ysundirilgan holda amalga oshiriladi. Demak, muammo raqamli qurilmalarning mavjudligida emas, balki ularning sportchi identiteti bilan raqobatga kirib ketishida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, olingan natijalar voleybolchilarda ijtimoiy-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishda raqamli xulq-atvorni izolyatsiyalangan omil sifatida emas, balki individual psixologik xususiyatlar va sport muhiti bilan uzviy bog‘liq tizim elementi sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, sportchi identiteti yetarli darajada shakllangan holatlarda raqamli muhit salbiy omilga aylanmaydi, aksincha, tiklanish, axborot olish va ijtimoiy aloqalarni qo‘llab-quvvatlash vositasi vazifasini bajarishi mumkin.

Mazkur natijalar murabbiylar va sport psixologlari uchun muhim amaliy xulosani ilgari suradi, jumladan: sportchilar bilan ishlash jarayonida e’tibor raqamli qurilmalardan foydalanishni keskin cheklashga emas, balki sportchi identitetini, jamoaviy mansublik hissini va individual psixologik barqarorlikni mustahkamlashga qaratilishi lozim.

Olingan ma’lumotlarga tayanib, talqinni davom ettiradigan bo‘lsak, voleybolchilarda kundalik ekran vaqti taqsimotini aks ettiruvchi quyidagi 1-diagramma sportchilarning raqamli muhit bilan munosabati epizodik emas, balki barqaror xulq-atvor modeli shaklini olganini ko‘rsatadi. Diagrammada ekran vaqti past darajada cheklangan sportchilar bilan bir qatorda, o‘rtacha va yuqori segmentga kiruvchi sportchilar ulushi ham sezilarli ekanligi aniqlanadi. Raqamli qurilmalar sportchilarning hayotida bo‘sh vaqtni to‘ldiruvchi oddiy vositadan ko‘ra, bir tomondan psixologik holatni muvozanatlash mexanizmiga aylanib bormoqda. Bu holat ayniqsa mashg‘ulotdan keyingi davrda kuchayib, sportchi faoliyati va shaxsiy hayoti o‘rtasidagi chegaralarni xiralashtiradi.




Uch yillik amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ekran vaqti muammoning o‘zi emas, balki sportchining ichki psixologik holatini ko‘rsatuvchi indikator hisoblanadi. Sportchi jamoa ichida o‘z o‘rnini topa olmagan, mashg‘ulot jarayonida yetarlicha psixologik qoniqish his qilmagan holatlarda telefon “psixologik tanaffus” vositasiga aylanadi. Bu jihat xalqaro sport amaliyotida ham qayd etilgan bo‘lib, Xalqaro Olipiada Qo‘mitasi sportchilarning ruhiy salomatligi bo‘yicha konsensus hujjatlari [12]da raqamli muhit asosiy xavf emas, balki noto‘g‘ri boshqarilganda tiklanish va ijtimoiy integratsiyaga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida talqin qilinadi. Demak, muammo vaqt miqdorida emas, balki mazmunda va psixologik kontekstdadir.

Shu bilan birga kuniga 2 soatdan ortiq ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazish sportchilar uchun funksional, ijtimoiy-psixologik havf omili sifatida qolaveradi deb o‘ylaymiz, chunki aksariyat sportchilarga savol berganimizda telefonda asosan ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazishlarini ta’kidlashgan.

“Men kimman?” metodikasi natijalarini ifodalovchi quyidagi 2-diagramma voleybolchilarda identifikatsiya darajasi bir xilda shakllanmaganini ko‘rsatadi. Ayrim sportchilarda sportchi va jamoa a’zosi roli shaxsiy identitetning markaziy komponenti sifatida namoyon bo‘lsa, boshqalarda ushbu rol ikkilamchi yoki parchalangandir. Aksariyat sportchilar o‘zlarini voleybolchi yoki sportchi sifatida e’tirof etsalarda, qaysidir jamoaga aloqadorlikni ta’kidlaganlari sanoqli. Bu esa, jamoa bilan identifikatsiya nisbatan pastligini anglatadi. Sportchi identitetining yetarli darajada shakllanmagani ijtimoiy-psixologik tayyorgarlikning zaiflashuviga olib keladi, bu esa sport faoliyatida beqarorlik, mas’uliyatning tashqi omillarga

ko‘chishi va motivatsion beqarorlik bilan kechadi.

2-diagramma
Sportchilarning identifikatsiya va o‘zini anglash darajasi



Amaliy tajribada aynan identifikatsiyasi zaif bo‘lgan voleybolchilarda raqamli muhitga qaramlik kompensator mexanizm sifatida tezroq shakllanishi kuzatiladi. Bunday sportchilar muvaffaqiyatsizlik holatida jamoaviy qo‘llab-quvvatlashdan ko‘ra, individual raqamli makonga chekinishga moyil bo‘ladi. Ushbu holat xalqaro sport hamjamiyatlarida ham e’tirof etilgan bo‘lib, Xalqaro futbol assotsatsiyasi (FIFA) [13] sportchilarning mental salomatligi bo‘yicha tavsiyalarida identifikatsiya zaiflashuvi emotsional so‘nish (burnout) va motivatsion parchalanishning asosiy xavf omillaridan biri sifatida ko‘rsatiladi. Bu jihatdan qaralganda, identifikatsiya darajasi sportchining nafaqat ruhiy barqarorligi, balki raqamli xulq-atvori bilan ham bevosita bog‘liq.

Identifikatsiya va ekran vaqti o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni aks ettiruvchi uchinchi diagramma va unga mos korelyatsion ko‘rsatkichlar kuchli chiziqli bog‘liqlik mavjud emasligini ko‘rsatadi, biroq yo‘nalishli tendensiya aniq seziladi. Ilmiy jihatdan bu natija muhimdir, chunki u raqamli faollikni sportchi identitetining to‘g‘ridan-to‘g‘ri sababi sifatida emas, balki identitet holatini aks ettiruvchi psixologik indikator sifatida talqin qilish imkonini beradi. Induktiv tahlil shuni ko‘rsatadiki, ekran vaqti oshgan sari identifikatsiya avtomatik pasayib ketmaydi, ammo identifikatsiyasi allaqachon zaif bo‘lgan sportchilarda raqamli muhitga qochish ehtiyoji kuchayadi.

Amaliy jihatdan eng xavfli kombinatsiya sifatida o‘rtacha sport natijalari fonida identifikatsiyaning pastligi va ekran vaqtining yuqoriligi ajralib chiqadi. Tashqi tomondan bunday sportchi muammosiz ko‘rinsa-da, ichki motivatsiya va jamoaga mansublik hissining yemirilishi keyinchalik keskin sportdan chiqish yoki psixologik charchash bilan yakunlanishi mumkin. Ushbu maqolaga kiritilmagan yana bir holat borki, tadiqoqotda ishtirok etgan aksariyat sportchilar o‘zlaridagi charchoq darajasini yuqori baholashgan. Shu bois, diagrammalarda aks etgan tendensiyalar sportchilar bilan ishlashda raqamli xulq-atvorni cheklashdan ko‘ra,

sportchi identitetini, jamoaviy integratsiyani va psixologik barqarorlikni mustahkamlash zarurligini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, voleybolchilarda raqamli tobelik sportchi identitetiga bevosita emas, balki bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi omil hisoblanadi. Kundalik ekran vaqti ko‘rsatkichlari bilan identifikatsiya darajasi o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik aniqlanmagan bo‘lsa-da, tahlil va diagrammalar asosida raqamli faollik sportchilarning ichki psixologik holatini aks ettiruvchi indikator sifatida namoyon bo‘lishi aniqlangan.

Tadqiqot davomida sportchi identitetining individual psixologik xususiyatlar va sport muhiti bilan uzviy bog‘liqligi empirik asosda tasdiqlandi. Xususan, identifikatsiya darajasi bilan psixogeometrik figuralar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik aniqlanib, sportchi identitetining barqaror shakllanishi shaxsiy psixologik tip va jamoaviy muhit bilan bevosita bog‘liq ekanligi ko‘rsatildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sport muhiti darajasi oshgani sari sportchi identiteti mustahkamlanib boradi. Professional klub va milliy terma jamoa muhitida faoliyat yuritayotgan voleybolchilarda sportchi va jamoa a’zosi identifikatsiyasi nisbatan yuqori namoyon bo‘lishi aniqlanib, bu holat jamoaviy intizom, ijtimoiy talablar va musobaqaviy mas’uliyatning identitet shakllanishidagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Murabbiylar va sport tashkilotlari uchun sportchilar bilan ishlash jarayonida raqamli qurilmalardan foydalanishni keskin cheklash emas, balki sportchi identitetini va jamoaga mansublik hissini kuchaytirishga yo‘naltirilgan psixologik mexanizmlarni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanishi lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, identifikatsiyasi barqaror sportchilarda raqamli muhit salbiy omilga aylanmaydi.

Identifikatsiya darajasi past sportchilarni erta aniqlash va ular bilan individual hamda guruhiy psixokorreksion ishlarni olib borish psixologlar uchun tavsiya etiladi. Xususan, “Men kimman?” metodikasi va psixogeometrik test natijalari asosida sportchi identitetini mustahkamlashga qaratilgan treninglar sportchilarda deidentifikatsiya va raqamli kompensatsiya ehtiyojini kamaytirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Young K. Internet addiction: The emergence of a new clinical disorder. — CyberPsychology & Behavior, 1998. — Vol. 1, №3. — P. 237–244.
2. Elhai J.D., Dvorak R.D., Levine J.C., Hall B.J. Problematic smartphone use: A conceptual overview and systematic review. — Computers in Human Behavior, 2017. — Vol. 66. — P. 117–129.
3. Kim H., Davis J. Smartphone usage, sleep quality, and athletic recovery. — Journal of Sports Sciences, 2019. — Vol. 37, №12. — P. 1345–1352.
4. Carron A.V. Cohesiveness in sport groups: Interpretations and considerations. — Journal of Sport Psychology, 1982. — Vol. 4. — P. 123–138.
5. Fransen K. et al. The impact of athlete leadership on team cohesion. — Psychology of Sport and Exercise, 2015. — Vol. 19. — P. 45–53.
6. Horton R., Mack D. Athletic identity in elite athletes. — Journal of Sport Behavior, 2000. — Vol. 23, №2. — P. 101–113.

7. Breakwell G.M. Coping with threatened identities. — London: Methuen, 1986. — P. 78–95.
8. Stephan Y., Brewer B. Perceived barriers to sport participation. — Journal of Sport Behavior, 2007. — Vol. 30, №1. — P. 87–107.
9. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. — СПб.: Питер, 2012. — С. 312–318.
10. Kuss D.J., Griffiths M.D. Social networking sites and addiction. — International Journal of Environmental Research and Public Health, 2017. — Vol. 14, №3. — P. 311–324.
11. Zhao N., Wang P., Huang Y. Smartphone addiction and athletic identity. — Frontiers in Psychology, 2020. — Vol. 11. — P. 1–9.

UDK: 159.947.5:796.83

Raximov Abdulatif Abdimuradovich,
Qarshi davlat universiteti
"Psixologiya" kafedrasi dotsenti v.b.,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'SMIR BOKSCHILARDA MUVAFFAQIYATGA ERISHISH VA MUVAFFAQIYATSIZLIKDAN QOCHISH MOTIVLARI SHAKLLANISHINI BELGILOVCHI PSIXOLOGIK JIHATLAR

Annotatsiya. Ushbu maqola o'smir bokschilarda muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivlari shakllanishini belgilovchi psixologik jihatlar tahlili keltirilgan. Shuningdek o'smir bokschi sportchilarni professional sport faoliyatiga tayyorlashda muvaffaqiyatga erishish motivlari shakllanishining psixologik determinantlarini amaliy jihatdan talqin qilingan. Muvaffaqiyatga erishish motivlari shaxs faolligining ko'rinishi sifatida qaralgan.

Kalit so'zlar: o'smir bokschi, muvaffaqiyatga erishish, muvaffaqiyatsizlikdan qochish, professional sport faoliyati, instinktiv harakatlar, ijtimoiy qobiliyat, psixodiagnostik qoidalar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ФОРМИРОВАНИЕ МОТИВАЦИИ ДОСТИЖЕНИЯ УСПЕХА И ИЗБЕЖАНИЯ НЕУДАЧ У ЮНЫХ БОКСЕРОВ

Аннотация. В данной статье представлен анализ психологических аспектов, определяющих формирование мотивов достижения успеха и избегания неудачи у подростков-боксёров. Также с практической точки зрения интерпретированы психологические детерминанты формирования мотивов достижения успеха в процессе подготовки подростков-боксёров к профессиональной спортивной деятельности. Мотив достижения успеха рассматривается как проявление активности личности.

Ключевые слова: подросток-боксер, достижение успеха, избегание неудачи, профессиональная спортивная деятельность, инстинктивные действия, социальные способности, психодиагностические правила.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS DETERMINING THE FORMATION OF MOTIVES TO ACHIEVE SUCCESS AND AVOID FAILURE IN TEEN BOXERS

Annotation. This article presents an analysis of the psychological aspects determining the formation of achievement motivation and avoidance of failure motives in adolescent boxers. It also provides a practical interpretation of the psychological determinants influencing the development of achievement motivation

in the process of preparing adolescent boxers for professional sports activities. Achievement motivation is considered as a manifestation of personal activity.

Keywords: adolescent boxer, achievement, avoidance of failure, professional sports activity, instinctive actions, social abilities, psychodiagnostic rules.

Odamning shaxs sifatidagi faollik xususiyati shundan iboratki, o‘z ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan harakatlari instinktiv harakatlar emas, balki asosan oqilona, ongli harakatlardir. Bu onglilik shundan iboratki, odam oldindan biron-bir maqsadni ko‘zlab harakat qiladi, shu maqsadga yetishish uchun yordam bera oladigan vositali yo‘l va usullarni oldindan qidirib topadi, to‘sqinlik va qiyinchiliklarni yengish uchun ongli ravishda kuch-g‘ayratini ishlata oladi.

O‘smir bokschi sportchilarni professional sport faoliyatiga tayyorlashda muvaffaqiyatga erishish motivlari shakllanishining psixologik determinantlarini amaliy jihatdan talqin qilishda xorijda amalga oshirilgan metodika va so‘rovnomalarni mazkur mavzuga tanlash va uni mamlakatimiz madaniy muhitiga moslik darajasi tahlil qilinib tanlab olish alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot ishning amaliy jihatini ifodalashda tanlangan metodika va so‘rovnomalar amaliy tadqiqot ishimizga o‘ziga xos ilmiy-amaliy metodologik asos vazifasini bajarishga xizmat qiladi.

Muvaffaqiyatga erishish tushunchasi tadqiqotchilar tomonidan kasbiy faoliyat jarayonida shaxsning tabiiy o‘zgarishlarini ko‘rib chiqishda qo‘llaniladi va har qanday rivojlanish jarayoni singari, faoliyat subyektining miqdoriy, sifat va tarkibiy o‘zgarishlari bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayonning harakatlantiruvchi kuchi inson imkoniyatlari va faoliyat talablari o‘rtasidagi ziddiyat hisoblanadi [1. 67]. Shaxs muvaffaqiyatga erishishining asosiy ko‘rsatkichlari quyidagicha ajratiladi: 1) kasbiy tajribaning shakllanishi (bilim, ko‘nikma va malakalar); 2) kasbiy muhim sifatlarni takomillashtirish (KMS). Subyektda KMS mavjudligi, uning kasbiy yaroqliligini ko‘rsatadi, bu mazkur sifatlarning rivojlanishi esa professional-mutaxassis bo‘lish sharti sifatida xizmat qiladi [2. 3].

Umuman olganda muvaffaqiyatga erishish motivlari shaxs faolligining ko‘rinishi hisoblanadi. Shu bois uning yuzaga kelishi bir qator harakatlarni amalga oshirilishi bilan izohlanadi. Muvaffaqiyatga erishish motivlari bosqichlari maqsad va unga erishishiga intilish, maqsadga erishish imkoniyatlarini topish, motivlarning paydo bo‘lishi va imkoniyatlarni mustahkamlash, motivlar kurashi va tanlash, bir fikrni qabul qilish, qabul qilingan qarorni amalga oshirish orqali shakllantiriladi.

M.V.Sanaya bokschi shaxsiga xos yana bir muhim qobiliyat turini ajratadi. Unga ko‘ra, ijtimoiy qobiliyat bokschining shogirdlar, hamkasblar, ma’muriyat va boshqalar bilan ijobiy aloqalarni o‘rnatish, yuzaga kelayotgan nizolarning oldini olish, muomala qilish orqali sportchilarning turli xatti-harakatlarini aniqlay olish kabilar bilan tavsiflanadi [3. 78].


Umumiy motivatsion faoliyatni yoki alohida aktni amalga oshirishning muhim xususiyatlaridan biri amalga oshirilayotgan harakatlarning erkin ekanligini anglashdan iboratdir. Odamning motivatsion harakati to‘la-to‘kis determinizmga, ya’ni sababiy bog‘lanish qonuniga bo‘ysunadi. Shu bilan birga motivatsion

faoliyatning bevosita sabablari sharoitida motivatsion harakatlarni belgilab beradigan turli-tuman hayotiy sharoitlar bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotchi Y.Masharipov fikricha, yuqori darajadagi sportchi bokschilarning faoliyati tahlilida, ularning o‘z faoliyatiga ijobiy munosabati, ishiga qiziqish va boshqa ishidagi muayyan vazifalarni bajarish holati kabilar hisobga olinishi lozim. Ya’ni bokschilar sog‘liqni saqlash va ta’lim-tarbiya vazifalarini yaxshi tushunadilar, masalalarni hal qilishning yangi yo‘llarini aniqlab, ishning yakuniy natijalarini oldindan ko‘ra olishlari mumkin [4. 37].

Yuqoridagi ilmiy-amaliy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, keltirilgan ushbu sifatlar majmui, yutuqqa erishishda eng kerakli sanalagan muvaffaqiyatga erishish motivlari hisoblanib, ular o‘smir sportchilar motivatsion sohasining mazmunini tashkil etuvchi asosiy psixologik komponentlardan biri hisoblanadi. O‘smir sportchilarning motivatsion sohasi shakllanishida tengdoshlari va jamoadoshlar guruhining ham o‘rni yuqori sanalib, u orqali o‘z manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishga erishadi.

Quyida keltirilgan jadvalda sinaluvchilardan muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivlari darajasi so‘rovnomalari bo‘yicha olingan natijalari qayd qilingan (1-rasm).



1-rasm. Muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivlari xususiyatlarini aniqlash so‘rovnomalari natijalari

Qarshi, Termiz va Jizzax viloyatlaridagi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida tahsil oluvchi o‘smir sportchi bokschilarning muvaffaqiyatga erishish hamda muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivlari xususiyatlari so‘rovnomalari bo‘yicha olingan natijalari birinchi shkala ya’ni muvaffaqiyatga erishish motivlari bo‘yicha Qarshi olimpiya va paralimpiya sport

turlariga tayyorlash markazi bokschilarida 17, Termiz olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi bokschilarida 19 hamda Jizzax olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida tahsil oluvchi sportchi bokschilarda 14ni tashkil qilgan.

Muvaffaqiyatga erishish motivlari o‘ziga xos ichki reguliyatsion jarayon sanalib, hozirga qadar bu borada ko‘plab psixologik yondashuvlar, ilmiy konsepsiyalar hamda psixologik maktab yo‘nalishlari mavjud. Biroq, hanuzgacha tadqiqotchilar o‘rtasida muvaffaqiyatga erishish motivlarining mohiyatini batafsil, aniq tushuntiruvchi yagona qarashlar birligi mavjud emas.

Muvaffaqiyatsizlikdan qochish Qarshi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi bokschilarida 10, Termiz olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi bokschilarida 7 hamda Jizzax olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida tahsil oluvchi sportchi bokschilarda 12ni qayd etgan.

D.Arziqulovning talqiniga ko‘ra, sport psixologiyasi, o‘z predmeti va maqsadlariga muvofiq, birinchi navbatda, shaxsni shakllantirishga maqsadli ta’sirlarni tashkil etish, favquloddalikni yengish, o‘zini o‘zi namoyon qilishga yordam berishdan manfaatdor. Bu psixologik tizimni yaratish va jamiyat manfaatlariga javob beradigan shaxsni shakllantirish jarayonini ta’minlash muammosidir. Ya’ni, psixologik adabiyotlarda shaxsni shakllantirish muammosi deyarli har doim tarbiya muammosi sifatida qaraladi [5. 53].

Muvaffaqiyatga erishish motivlari – insonda rivojlangan mustaqil, barqaror psixologik xususiyatlar sanalib, u orqali inson hayotiy qiyin vaziyatlar, murakkab va maxsus vazifalar kabilarni hal etadi. Shuningdek, muvaffaqiyatga erishish motivlarining shakllanganlik darajasi ontogenetik xarakterga ega bo‘lib, u shaxsiy tajriba, bilim, ko‘nikma, maxsus tayyorgarlik hamda shakllangan motivatsiya va munosabatlar tizimi kabilarda namoyon bo‘ladi. Psixodiagnostik qoidalarga asoslangan holda, biz tanlab olgan metodikalarni retest qoidasiga tayanib, aynan shu sinaluvchilarda ikkinchi marotaba o‘tkazishni joiz deb baholadik.

O‘smir bokschi sportchilarda muvaffaqiyatga erishish motivlari xususiyatlari shakllanishi yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quv mashg‘uloti faoliyatida muvaffaqiyatga erishishni shakllantirish omilini psixodiagnostik tashxis qilish, muvaffaqiyatga erishish tamoyillari, shaxsning ko‘p omilli sifatlari, o‘smir bokschi sportchilarning professional boks faoliyatiga intilish darajasi, shaxs yo‘nalganlik darajasini baholash, shaxslilik xususiyatlari shkalalari bo‘yicha so‘rovnomalardan olingan natijalar ulardagi o‘rtacha ko‘rsatkichlarni namoyon etganligi aniqlandi. O‘smir bokschi sportchilarda muvaffaqiyatga erishish motivlari shakllanish xususiyatlari tadqiqot ishi bo‘yicha tanlab olingan so‘rovnomalar ya’ni shaxsning intilish xususiyatlari, shaxs yo‘nalganlik darajasini baholash, shaxslilik xususiyatlari, muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivlari xususiyatlari ishonchlilik darajasiga ko‘ra, o’zaro ijobiy natijalar qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Иванников В. А. Общая психология: учебник для академического бакалавриата / В. А. Иванников. Москва : Издательство Юрайт, 2014. – С.67.

2. Анциферова Л.И. К психологии личности как развивающейся системы // Психология формирования и развития личности. М.: Наука, 1981(б). С. 3- 19.

3. Сафонов В. К. Психология в спорте. Теория и практика / В.К. Сафонов. - М.: Издательство Санкт-Петербургского университета, 2013. – С.78.

4. Некрасова, Ю.Б. О психических состояниях, их диагностике, управлении и направленном формировании (в процессе социореабилитации заикающихся) / Ю.Б. Некрасова // Вопросы психологии. 1994. - № 6. - С. 37-41.

5. Бабушкин Г.Д. Формирование спортивной мотивации / Г.Д. Бабушкин, Е.Г. Бабушкин. - Омск: СибГАФК, 2000. – С.53.

UDK: 159.923:159.922

Yuldasheva Nilufarkhon Sherqozi qizi,
Department of Pedagogical Education and Psychology of Renessans Education University, senior teacher, PhD

INTERRELATION OF IMPOSTER SYNDROME, RIGIDITY, AND SELF-CONFIDENCE CHARACTERISTICS ACROSS DIFFERENT AGE PERIODS

Abstract. This study explores the interrelation of impostor syndrome, rigidity, and self-confidence across different age periods based on a sample of 1,430 participants. A comparative analysis of five age groups revealed significant age differences in impostor syndrome (H=16.56, p=0.002) and self-confidence (H=22.42, p=0.000), while rigidity showed no significant variation (H=0.94, p=0.918). Impostor syndrome was more pronounced in adulthood, whereas self-confidence was highest in early adolescence and decreased with age. The findings indicate developmental changes in impostor syndrome and self-confidence, while rigidity remains relatively stable across the lifespan.

Keywords: impostor syndrome, rigidity, self-confidence, age differences, developmental psychology.

ОСОБЕННОСТИ ВЗАИМОСВЯЗИ СИНДРОМА ИМПОСТЕР, РИГИДНОСТИ И УВЕРЕННОСТИ В СЕБЕ В РАЗНЫЕ ВОЗРАСТНЫЕ ПЕРИОДЫ

Аннотация. В исследовании рассматривается взаимосвязь синдрома импостера, ригидности и уверенности в себе в разные возрастные периоды на выборке из 1430 человек. Сравнительный анализ пяти возрастных групп выявил значимые различия по синдрому импостера (H=16.56, p=0.002) и уверенности в себе (H=22.42, p=0.000), тогда как по ригидности различий не обнаружено (H=0.94, p=0.918). Синдром импостера наиболее выражен в зрелом возрасте, а уверенность в себе выше в раннем подростковом возрасте и снижается с возрастом. Полученные результаты указывают на возрастную динамику данных психологических характеристик.

Ключевые слова: синдром импостера, ригидность, уверенность в себе, возрастные различия, психология развития.

IMPOSTER SINDROMI, RIGIDLIK VA O‘ZIGA ISHONCH XUSUSIYATLARINING TURLI YOSH DAVRLARIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda imposter sindromi, rigidlik va o‘z-o‘ziga ishonchning turli yosh davrlaridagi o‘zaro bog‘liqligi 1430 nafar ishtirokchi

misolida tahlil qilindi. Beshta yosh guruhi o‘rtasidagi qiyosiy tahlil imposter sindromi (H=16.56, p=0.002) va o‘z-o‘ziga ishonch (H=22.42, p=0.000) bo‘yicha ahamiyatli farqlarni ko‘rsatdi, rigidlik bo‘yicha esa farq aniqlanmadi (H=0.94, p=0.918). Imposter sindromi katta yosh davrida kuchliroq namoyon bo‘ldi, o‘z-o‘ziga ishonch esa erta o‘smirlikda yuqori bo‘lib, yosh bilan pasayib boradi. Natijalar ushbu psixologik xususiyatlarning yoshga xos dinamikasini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: imposter sindromi, rigidlik, o‘z-o‘ziga ishonch, yoshga oid farqlar, rivojlanish psixologiyasi.

The phenomenon of impostor syndrome, characterized by persistent self-doubt and the fear of being exposed as incompetent despite evident success, has gained increasing attention in psychological research over the past decades. It is considered a multidimensional construct that reflects both cognitive distortions and affective instability. Parallel to this, self-confidence is recognized as a protective factor that facilitates adaptive functioning, while rigidity – defined as the resistance to cognitive and behavioral flexibility – may represent a stabilizing yet limiting personality trait. Examining the interrelation of these characteristics across different stages of life provides valuable insights into developmental psychology and personality dynamics.

Adolescence and early youth represent critical periods of identity formation, during which the tension between self-doubt and self-assurance becomes particularly salient. In contrast, adulthood and later life stages are often marked by increased social responsibilities and professional demands, which may intensify impostor feelings or alter self-confidence trajectories. While previous research has highlighted the prevalence of impostor syndrome among students and professionals, less attention has been directed toward age-related variations and their interplay with rigidity and self-confidence.

The present study aims to investigate differences in impostor syndrome, self-confidence, and rigidity across five distinct age groups: early adolescence, adolescence, youth, adulthood, and the second stage of adulthood. By comparing these constructs across developmental periods, the study seeks to identify patterns of change and stability, thereby contributing to a deeper understanding of personality development and its psychological correlates.

Impostor syndrome was first introduced by Clance and Imes (1978), who described it as a pervasive internal experience of intellectual fraudulence despite objective indicators of competence. Since then, numerous studies have emphasized its prevalence across various populations, including students, professionals, and academics (Parkman, 2016; Bravata et al., 2020). Empirical evidence indicates that impostor tendencies are particularly common in transitional developmental stages such as adolescence and early adulthood, when individuals face increasing academic and professional demands (Villwock et al., 2016). Furthermore, impostor feelings are associated with heightened anxiety, depression, and perfectionism, which in turn hinder personal growth and performance (Neureiter & Traut-Mattausch, 2016).

In contrast, self-confidence is widely recognized as a critical psychological resource that fosters resilience and adaptive coping across the lifespan (Bandura, 1997). High self-confidence contributes to positive self-appraisal, motivation, and persistence in the face of challenges (Schunk & Pajares, 2002). Developmental studies demonstrate that self-confidence tends to be relatively strong during early adolescence but may decline as individuals encounter increased social comparison and external pressures in later developmental stages (Zimmerman, 2000). The inverse relationship between impostor syndrome and self-confidence has been documented, suggesting that low self-assurance amplifies self-doubt and susceptibility to impostor feelings (Sakulku & Alexander, 2011).

Rigidity, often conceptualized as cognitive or behavioral inflexibility, represents a relatively stable personality trait. Research shows that rigidity can serve both adaptive and maladaptive functions: while it contributes to consistency and perseverance, excessive rigidity may hinder creativity, problem-solving, and adjustment to change (Block, 2002). Some scholars argue that rigidity remains relatively stable across the lifespan (Caspi, Roberts, & Shiner, 2005), while others highlight its contextual variability depending on environmental demands (Mischel & Shoda, 1995). The interaction of rigidity with impostor syndrome and self-confidence remains underexplored, although theoretical models suggest that rigid cognitive patterns may exacerbate impostor thoughts by reinforcing maladaptive self-beliefs (Vergauwe et al., 2015).

Taken together, prior research highlights the developmental significance of impostor syndrome, self-confidence, and rigidity. Yet, few studies have simultaneously examined these constructs across multiple age periods. Understanding their interrelations across different stages of life may provide insights into personality development and inform targeted interventions in educational and organizational contexts.

This research was conducted on a sample of 1,430 participants representing five different age groups: early adolescence (N=663), adolescence (N=410), youth (N=110), adulthood (N=112), and the second stage of adulthood (N=135). The participants were selected through stratified random sampling in order to ensure age-representative coverage, and all respondents were informed about the aim of the study, confidentiality measures, and ethical considerations before voluntarily taking part. Three standardized instruments were used for data collection. The impostor syndrome was assessed using the Clance Impostor Phenomenon Scale (CIPS; Clance, 1985), which evaluates the cognitive and emotional dimensions of impostor feelings. Self-confidence was measured with a validated questionnaire assessing perceived competence, self-assurance, and self-efficacy in both academic and social domains. Rigidity was examined through a psychological test designed to identify cognitive and behavioral inflexibility. All three instruments demonstrated acceptable reliability, with Cronbach's alpha values above 0.70. Data were collected in group sessions across educational and community settings under the supervision of trained psychologists. Participants were instructed to respond anonymously and as honestly as possible. The collected data were screened for completeness and accuracy prior

to statistical processing. Since the dataset did not fully meet parametric assumptions, non-parametric tests were applied. In particular, the Kruskal–Wallis H-test was used to identify age-related differences in impostor syndrome, self-confidence, and rigidity, and mean rank scores were calculated for each age group. The level of statistical significance was set at $p < 0.01$, and the results were summarized in tables for further interpretation.

The comparative analysis revealed statistically significant differences in impostor syndrome across age groups. The Kruskal–Wallis test showed a significant effect ($H = 16.56$, $p = 0.002$), indicating that impostor tendencies varied depending on developmental stage. The highest mean ranks were observed in adulthood (774.94) and the second stage of adulthood (819.25), suggesting that impostor feelings were more pronounced during later stages of life. In contrast, early adolescence (680.05) and youth (688.27) demonstrated comparatively lower levels, although adolescence itself showed a slightly elevated mean rank (728.25). These results suggest that impostor syndrome may intensify as individuals face greater social and professional responsibilities.

1-table

Differences in impostor syndrome methodology by age periods (N = 1430)

Indexes	Mean rank					Statistical value	
	Early adolescence (N-663)	Adolescence (N-410)	Youth (N-110)	Adulthood (N-112)	Second stage of adulthood (N-135)	H	p
Imposter syndrome	680,05	728,25	688,27	774,94	819,25	16,56	0,002**
Rigidity	725,19	710,11	694,15	711,41	699,64	0,94	0,918
Self-confidence	747,98	729,57	696,88	592,10	619,61	22,42	0,000**

Inter: ** - p<0.01

Regarding self-confidence, the findings also revealed significant age-related differences ($H = 22.42$, $p = 0.000$). The highest mean rank was found in early adolescence (747.98), followed by adolescence (729.57). However, there was a marked decline in youth (696.88), adulthood (592.10), and the second stage of adulthood (619.61). This indicates a downward trajectory of self-confidence across age periods, suggesting that while younger individuals tend to display stronger self-assurance, this gradually decreases with maturity and increased external demands.

In contrast to the above results, the rigidity test did not reveal statistically significant differences across age groups ($H = 0.94$, $p = 0.918$). The mean ranks ranged between 694.15 and 725.19, with only slight variations between developmental stages. This outcome suggests that rigidity, as a personality trait,

remains relatively stable over the lifespan, showing no substantial shifts between adolescence, youth, and adulthood.

Overall, the results demonstrate that impostor syndrome and self-confidence undergo notable developmental changes across age groups, while rigidity appears to remain consistent. These findings highlight the dynamic nature of impostor-related experiences and self-assurance in contrast to the relative stability of rigid cognitive-behavioral patterns.

The present study investigated the interrelation of impostor syndrome, self-confidence, and rigidity across different age groups, providing new insights into the developmental dynamics of these psychological constructs. Based on a large sample of 1,430 participants, the findings revealed that impostor syndrome and self-confidence vary significantly with age, whereas rigidity remains relatively stable throughout the lifespan.

The results demonstrated that impostor syndrome tends to intensify in adulthood and the second stage of adulthood, reflecting the impact of increased social, professional, and familial responsibilities during these stages of life. This suggests that impostor feelings are not limited to academic or early career contexts, as highlighted in much of the previous literature (Clance & Imes, 1978; Bravata et al., 2020), but may persist or even strengthen as individuals encounter higher expectations and external pressures. Such findings underline the importance of addressing impostor tendencies not only among students and young professionals but also within broader adult populations.

Self-confidence, on the other hand, showed the highest levels in early adolescence, with a gradual decline observed in later stages of life. This pattern is consistent with research suggesting that younger individuals often report higher self-assurance, which may decrease as they face greater social comparisons, challenges in identity formation, and professional demands (Zimmerman, 2000; Schunk & Pajares, 2002). The observed decline across age groups highlights the necessity of fostering and maintaining self-confidence through targeted psychological interventions, mentorship, and supportive environments across the lifespan.

Rigidity did not show significant differences between age groups, indicating that it may represent a relatively stable personality trait. This aligns with prior studies suggesting that certain dispositional characteristics, such as cognitive inflexibility, remain consistent across time (Caspi, Roberts, & Shiner, 2005). Although rigidity can provide stability and persistence, excessive levels may limit adaptability in changing environments. The absence of variation across age groups suggests that interventions targeting rigidity should focus less on developmental stages and more on situational or contextual factors.

Taken together, these findings highlight that impostor syndrome and self-confidence are dynamic constructs sensitive to developmental changes, whereas rigidity remains constant. The interplay of these characteristics suggests that individuals with lower self-confidence may be more vulnerable to impostor feelings, while rigidity could exacerbate such tendencies by reinforcing maladaptive self-beliefs. This study contributes to the literature by examining these constructs

simultaneously across multiple age periods, offering a broader developmental perspective.

In practical terms, the results emphasize the importance of early psychological support to strengthen self-confidence and reduce impostor tendencies before they become entrenched in adulthood. Educational institutions, workplaces, and community programs should consider implementing preventive strategies, such as mentorship programs, confidence-building interventions, and training in cognitive flexibility, to mitigate the negative impact of impostor syndrome. Furthermore, recognizing that impostor feelings remain prevalent well into adulthood underscores the need for continuous psychological support across the lifespan.

In conclusion, this study provides evidence that impostor syndrome and self-confidence follow distinct developmental trajectories, while rigidity remains stable, underscoring their unique contributions to personality development. Future research should explore the causal mechanisms underlying these relationships, the role of cultural and contextual factors, and the effectiveness of targeted interventions aimed at reducing impostor tendencies and fostering healthy self-confidence across all stages of life.

References:

1. Bandura, A. (1997). Self-efficacy: The exercise of control. New York: W. H. Freeman.

2. Block, J. (2002). Personality as an affect-processing system: Toward an integrative theory. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum.

3. Bravata, D. M., Watts, S. A., Keefer, A. L., Madhusudhan, D. K., Taylor, K. T., Clark, D. M., … Hagg, H. K. (2020). Prevalence, predictors, and treatment of impostor syndrome: A systematic review. Journal of General Internal Medicine, 35(4), 1252–1275.

4. Caspi, A., Roberts, B. W., & Shiner, R. L. (2005). Personality development: Stability and change. Annual Review of Psychology, 56, 453–484.

5. Clance, P. R., & Imes, S. A. (1978). The impostor phenomenon in high achieving women: Dynamics and therapeutic intervention. Psychotherapy: Theory, Research & Practice, 15(3), 241–247.

6. Mischel, W., & Shoda, Y. (1995). A cognitive–affective system theory of personality: Reconceptualizing situations, dispositions, dynamics, and invariance in personality structure. Psychological Review, 102(2), 246–268.

7. Neureiter, M., & Traut-Mattausch, E. (2016). Inspecting the dangers of feeling like a fake: An empirical investigation of the impostor phenomenon in the world of work. Frontiers in Psychology, 7, 1445.

8. Parkman, A. (2016). The impostor phenomenon in higher education: Incidence and impact. Journal of Higher Education Theory and Practice, 16(1), 51–60.

9. Sakulku, J., & Alexander, J. (2011). The impostor phenomenon. International Journal of Behavioral Science, 6(1), 73–92.

10. Schunk, D. H., & Pajares, F. (2002). The development of academic self-efficacy. In A. Wigfield & J. Eccles (Eds.), Development of achievement motivation (pp. 15–31). San Diego, CA: Academic Press.

11. Vergauwe, J., Wille, B., Feys, M., De Fruyt, F., & Anseel, F. (2015). Fear of being exposed: The trait-relatedness of the impostor phenomenon and its relevance in the work context. Journal of Business and Psychology, 30(3), 565–581.

12. Villwock, J. A., Sobin, L. B., Koester, L. A., & Harris, T. M. (2016). Impostor syndrome and burnout among American medical students: A pilot study. International Journal of Medical Education, 7, 364–369.

13. Zimmerman, B. J. (2000). Self-efficacy: An essential motive to learn. Contemporary Educational Psychology, 25(1), 82–91.

UDK 159.9:316.356.2

Alimardanova Ra'no Narbayevna,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti

OILADA ONALIK INSTITUTINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilada onalik institutining ijtimoiy-psixologik ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot zamonaviy shahar sharoitida yashovchi onalarning oilaviy munosabatlar tizimidagi o'rni, emotsional muhitni shakllantirishdagi roli hamda bolalarning ijtimoiylashuvi jarayoniga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda 25–40 yosh oralig'idagi 40 nafar onalar ishtirok etdi. Empirik tahlil jarayonida "Onalik identifikatsiyasi va tarbiya uslubi" so'rovnomasi, oilaviy munosabatlar shkalasi hamda stressga chidamlilik metodikalari qo'llanildi. Natijalar onaning emotsional barqarorligi, ijobiy tarbiya uslubi va kommunikativ madaniyati oilaviy iqlimning sog'lom shakllanishida hamda bolalarda o'ziga ishonch, ijtimoiy moslashuv va psixologik barqarorlikni rivojlantirishda muhim omil ekanini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari oilaviy psixologik maslahat, treninglar va profilaktik dasturlarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: onalik instituti, oila psixologiyasi, emotsional iqlim, tarbiya uslubi, ijtimoiylashuv, stressga chidamlilik, oilaviy munosabatlar.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИНСТИТУТА МАТЕРИНСТВА В СЕМЬЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается социально-психологическое значение института материнства в семье. Исследование направлено на изучение роли матери в системе семейных отношений, формировании эмоционального климата и влиянии на процесс социализации детей в условиях современной городской среды. В исследовании приняли участие 40 матерей в возрасте от 25 до 40 лет. В ходе эмпирического анализа были использованы опросник «Идентификация материнства и стиль воспитания», шкала семейных отношений и методика оценки стрессоустойчивости. Результаты показали, что эмоциональная устойчивость матери, позитивный стиль воспитания и развитая коммуникативная культура играют важную роль в формировании благоприятного семейного климата, а также в развитии уверенности в себе, социальной адаптации и психологической устойчивости детей. Полученные данные могут быть использованы в практике семейного консультирования, психологических тренингов и профилактических программ.

Ключевые слова: институт материнства, семейная психология, эмоциональный климат, стиль воспитания, социализация, стрессоустойчивость, семейные отношения.

THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF THE INSTITUTION OF MOTHERHOOD IN THE FAMILY

Annotation. This article analyzes the socio-psychological significance of the institution of motherhood within the family. The study focuses on examining the role of mothers in the system of family relationships, the formation of emotional climate, and their influence on the socialization process of children in modern urban conditions. The empirical study involved 40 mothers aged between 25 and 40. The research employed the "Motherhood Identification and Parenting Style" questionnaire, the Family Relations Scale, and a stress-resilience assessment method. The findings indicate that maternal emotional stability, positive parenting style, and effective communication play a significant role in creating a healthy family climate and fostering children's self-confidence, social adaptability, and psychological well-being. The results may be applied in family counseling practices, psychological training programs, and preventive interventions.

Keywords: motherhood institution, family psychology, emotional climate, parenting style, socialization, stress resilience, family relationships.

So‘nggi yillarda jamiyat taraqqiyoti, urbanizatsiya jarayonlari va ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi oilaning ichki tuzilmasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda va bu ayniqsa, shahar sharoitida yashovchi oilalarda rollar taqsimoti, tarbiya uslublari va emotsional munosabatlar yangi shakl kasb etmoqda. Bu jarayonda onalik instituti nafaqat biologik yoki an’anaviy ijtimoiy rol sifatida, balki psixologik barqarorlikni ta’minlovchi markaziy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Oiladagi emotsional muhit, bolalarning ruhiy rivojlanishi hamda shaxslararo ishonchning shakllanishi ko‘p jihatdan onaning ijtimoiy-psixologik pozitsiyasiga bog‘liq ekani ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanadi [1].

Zamonaviy sharoitda ayolning ijtimoiy faolligi ortib borayotgani, professional va oilaviy rollar o‘rtasidagi muvozanat masalasi yangi psixologik vazifalarni yuzaga keltirmoqda, negaki, Ona bir vaqtning o‘zida tarbiyachi, emotsional qo‘llab-quvvatlovchi, ijtimoiy nazoratchi va ko‘pincha iqtisodiy hamkor rolini bajaradi va bu esa onalikning mazmunini murakkablashtiradi. Psixologik nuqtai nazardan, aynan ona shaxsiy namuna, mehr va xavfsizlik hissi orqali bolaning ijtimoiylashuv jarayoniga asos soladi [2].

Shahar sharoitida yashovchi oilalarda tezkor hayot sur’ati, axborot oqimining ko‘pligi, mehnat bandligining yuqoriligi emotsional yaqinlikka ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lib, bunday vaziyatda onaning psixologik tayyorgarligi, stressga chidamliligi va oilaviy munosabatlarni boshqarish qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarim shuni ko‘rsatadiki, onaning emotsional barqarorligi va ijobiy tarbiya uslubi bolalarda xavfsizlik hissi, o‘ziga ishonch va ijtimoiy moslashuvchanlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi [3].

Aksincha, beqaror psixologik muhit bolada xavotir, agressivlik yoki ijtimoiy chekinish kabi holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Onalik institutining ijtimoiy-

psixologik ahamiyati nafaqat bola rivojlanishi, balki oilaning umumiy iqlimiga ham ta'sir ko'rsatadi va oiladagi mehr-muhabbat, o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash darajasi ko'pincha onaning kommunikativ uslubi bilan belgilanadi. Psixologlar tomonidan qayd etilishicha, sog'lom oilaviy iqlimni yaratishda emotsional yetuklik, empatiya va konstruktiv muloqot asosiy omillar hisoblanadi [4].

Shuning sababli ham, onalik institutini chuqur o'rganish jamiyatning barqaror rivojlanishi nuqtai nazaridan ham dolzarbdir. Mazkur tadqiqot aynan shahar sharoitida yashovchi 40 nafar onalar misolida onalikning ijtimoiy-psixologik ahamiyatini empirik jihatdan tahlil qilish uchun qaratilgan. Tadqiqot orqali onalik rolining oilaviy emotsional iqlim, stressga chidamlilik va ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari bilan bog'liqligi aniqlanishi ko'zda tutiladi va bu masala nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ahamiyatlidir, chunki olingan natijalar oilaviy maslahat xizmatlari, psixologik treninglar va profilaktik dasturlar ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Ushbu tadqiqotimda oilada onalik institutining ijtimoiy-psixologik ahamiyatini empirik asosda aniqlashga qaratilganligi sababli ishning metodologik asosi sifatida zamonaviy oilaviy psixologiya, ijtimoiy rollar nazariyasi hamda emotsional rivojlanish konsepsiyalari tanlab olindi va tadqiqot dizayni kvantitativ yo'nalishda tashkil etildi, chunki maqsad onalik roli bilan oilaviy iqlim o'rtasidagi bog'liqlikni aniq statistik ko'rsatkichlar orqali tahlil qilish edi. Shu bilan birga, ayrim savollarda sifatli izohlar ham yig'ildi, bu esa natijalarni chuqurroq talqin qilish imkonini berdi. Tadqiqot shahar sharoitida yashovchi 25-40 yosh oralig'idagi 40 nafar onalar ishtirokida o'tkazildi. Tanlanma ixtiyoriylik tamoyili asosida shakllantirildi va ishtirokchilarning barchasi kamida bitta farzand tarbiyalayotgan, oilaviy hayot tajribasiga ega bo'lgan ayollardan iborat edi. Tanlanma hajmi kichik ko'rinishi mumkin, biroq psixologik tadqiqotlarda chuqur individual ko'rsatkichlarni o'rganishda bunday miqdor amaliy jihatdan yetarli hisoblanadi. Respondentlarning ijtimoiy-demografik xususiyatlari bir-biriga yaqin bo'lib, bu omil natijalarning ichki ishonchliligini oshirdi va tadqiqotda bir nechta diagnostik metodikalar qo'llanildi. Tadqiqotning birinchi bosqichda onalik rolining psixologik ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida moslashtirilgan "Onalik identifikatsiyasi va tarbiya uslubi" so'rovnomasi ishlatildi va ushbu vosita onaning o'z rolini qabul qilish darajasi, emotsional yaqinlik ko'rsatkichi hamda nazorat uslubini baholash imkonini beradi. Ikkinchi bosqichda esa oilaviy iqlimni aniqlash uchun oilaviy munosabatlar shkalasi qo'llanildi va bu metodika orqali oiladagi o'zaro hurmat, qo'llab-quvvatlash va konflikt darajasini aniqlandi. Uchinchidan, emotsional barqarorlik darajasini baholash maqsadida stressga chidamlilik shkalasi aniqlandi va ushbu test onaning ruhiy barqarorligi va zo'riqishlarga munosabatini baholashga imkonini berdi. Metodikalar tanlashda ularning zamonaviy psixometrik talablarga javob berishi inobatga olindi. So'nggi yillardagi tadqiqotlarda ota-onalik uslubi va emotsional farovonlik o'rtasidagi bog'liqlik keng o'rganilgan bo'lib, ushbu yo'nalish metodologik asos sifatida qabul qildim [5]. Shuningdek, onaning ruhiy salomatligi bolalarning psixologik moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan [6].

Oilaviy iqlim va emotsional qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta’siri esa zamonaviy empirik ishlarda tasdiqlangan [7]. Bundan tashqari, stress omillari bilan onalik roli o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi ham ilmiy jihatdan asoslab berilgan [8]. Ma’lumotlarni yig‘ish jarayoni ikki hafta davom etdi va respondentlarga tadqiqot maqsadi tushuntirildi, maxfiylik kafolatlandi hamda natijalar faqat ilmiy maqsadda foydalanilishi ta’kidlandi va bunda anonimlik tamoyiliga qat’iy rioya qilindi. Ishtirokchilar savollarga mustaqil ravishda javob berdilar, tadqiqotchi faqat tushuntirish berish bilan cheklandi va yig‘ilgan ma’lumotlar statistik tahlil qilindi. Dastavval foiz ko‘rsatkichlari va o‘rtacha qiymatlar aniqlandi, keyingi bosqichda esa onalik roli bilan oilaviy iqlim hamda emotsional barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsadida korrelatsion tahlil o‘tkazildi va natijalarning ishonchlilik darajasi $p<0,05$ mezonida baholandi. Statistik hisob-kitoblar elektron dastur yordamida amalga oshirilganligi sababli, tanlangan metodologiya onalik institutining ijtimoiy-psixologik ahamiyatini kompleks ravishda baholash imkonini berdi, tadqiqot dizayni nazariy asos bilan uyg‘un holda qurildi va olingan natijalarni keyingi bosqichda chuqur tahlil qilish uchun yetarli empirik baza yaratdi.

Tadqiqot jarayonida yig‘ilgan ma’lumotlar bir necha bosqichda tahlil qilindi. Avvalo, onalik rolining psixologik ko‘rsatkichlari bo‘yicha umumiy tendensiyalar aniqlab olindi va so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ishtirokchilarning 62,5 foizi o‘z onalik rolini yuqori darajada qabul qilganini bildirgan. Ular farzand tarbiyasida emotsional yaqinlik, tushunish va qo‘llab-quvvatlashni ustuvor qadriyat sifatida baholadilar. 27,5 foiz respondentlar esa o‘rtacha darajadagi rol identifikatsiyasi kuzatildi va qolgan 10 foiz onalarda esa nazoratga yo‘naltirilgan, ba’zan esa keskinroq tarbiya uslubi namoyon bo‘ldi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, onalik rolining ijobiy qabul qilinishi oiladagi emotsional muhit bilan bevosita bog‘liq va natijalar shuni ko‘rsatdiki, yuqori darajadagi onalik identifikatsiyasiga ega onalar oilaviy qo‘llab-quvvatlash indeksida o‘rtacha 4,3 ball natija ko‘rsatgan bo‘lsa, past darajadagi guruhda bu ko‘rsatkich 3,1 ballni tashkil etdi. Bu farq statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lib, $p<0,05$ darajada ishonchli deb topildi. Stressga chidamlilik shkalasi natijalari ham muhim ma’lumot bilan ta’minladi va emotsional barqarorligi yuqori bo‘lgan onalar guruhida konflikt darajasi sezilarli darajada pastligi kuzatildi. Korrelatsion tahlil natijalariga ko‘ra, onalik rolining ijobiy qabul qilinishi bilan oilaviy iqlim o‘rtasida $r=0,46$ darajadagi o‘rtacha musbat bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Shu bilan birgalikda, stress darajasi bilan oilaviy qo‘llab-quvvatlash o‘rtasida $r=-0,39$ manfiy bog‘liqlik qayd etildi va bu shuni anglatadiki, onaning ruhiy barqarorligi oshgan sari oiladagi ziddiyatlar kamayadi. Natijalar zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bilan hamohangdir sababi, so‘nggi yillarda o‘tkazilgan ishlarda onaning psixologik farovonligi bola va oilaning umumiy salomatligi bilan uzviy bog‘liqligi ta’kidlangan [9].

Shu sabab, ota-onalik uslubi va bolalarning emotsional moslashuvi o‘rtasidagi aloqadorlik ko‘plab empirik ishlarda tasdiqlangan [10]. Oilaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi mavjud bo‘lgan sharoitda stress omillari salbiy oqibatlarga kamroq olib kelishi qayd etilgan [11]. Ona shaxsining emotsional yetukligi va muloqot uslubi

bolalarda xavfsizlik hissi shakllanishiga xizmat qilishi haqida dalillar keltirilgan [12]. Bundan tashqari, pandemiyadan keyingi davrda oilaviy tizimlar ichida onalik rolining kuchaygani alohida qayd etiladi [13]. Quyidagi jadvalda asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha umumlashtirilgan natijalar keltiriladi.

1-jadval

Onalik roli, oilaviy iqlim va stress ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik (n=40)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ball	Standard og‘ish	Korrelatsiya ®
Onalik roli indeksi	4,1	0,62	-
Oilaviy qo‘llab-quvvatlash	4,3	0,58	0,46*
Konflikt darajasi	2,7	0,71	-0.39*
Stressga chidamlilik	3,9	0,65	0,41*

Jadval natijalari onalik rolining yuqori darajada qabul qilinishi oilaviy qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatkichlarining ortishi bilan birga kechishini ko‘rsatadi va musbat korrelatsiya onaning o‘z rolini anglab, emotsional mas’uliyatni qabul qilishi oilada iliq psixologik muhit shakllanishiga xizmat qilishini anglatadi. Aksincha, konflikt darajasi bilan manfiy bog‘liqlik mavjudligi stress omillari kamaygan sari o‘zaro tushunish ortishini tasdiqlaydi va bu statistik ko‘rsatkichlar tadqiqot gipotezasini tasdiqladi. ($p<0,05$)

Umumiy olganda, natijalar shuni ko‘rsatdiki, shahar sharoitida yashovchi onalar orasida ijobiy onalik identifikatsiyasi oilaning emotsional barqarorligi va psixologik farovonligi bilan bevosita bog‘liq va bu bog‘liqlik nazariy qarashlar bilan mos keladi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos yaratadi.

Ushbu maqola natijalari shuni isbotladiki, onalik rolining ijobiy qabul qilinishi oiladagi emotsional muhit barqarorligi bilan uzviy bog‘liqdir, bu xulosa nazariy qarashlar bilan mos keladi, biroq empirik dalillar bilan tasdiqlangani uning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi va ayniqsa, shahar sharoitida yashovchi onalar orasida emotsional yetuklik va stressga chidamlilik ko‘rsatkichlari oilaviy qo‘llab-quvvatlash darajasi bilan birgalikda namoyon bo‘ldi. Demak, onalik institutini faqat tarbiya jarayoni bilan cheklash yetarli emas sababi, u oilaning ichki psixologik mexanizmlarini boshqaruvchi markaziy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Korrelatsion tahlil natijalari onaning o‘z rolini anglash darajasi oshgan sari oiladagi ziddiyatlar kamayishini ko‘rsatdi. Bu jarayonni tushuntirish uchun bir necha psixologik mexanizmlarni ko‘rsatish mumkin masalan, dastlab, rol identifikatsiyasi kuchli bo‘lgan ona o‘z harakatlarida barqarorroq bo‘ladi. Ikkinchidan esa, emotsional mas’uliyat hissi kommunikativ uslubni yumshatadi va so‘ngida esa, bola bilan o‘zaro aloqada izchillik yuzaga keladi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ham onaning psixologik farovonligi bolalarning ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir qilishi qayd etilgan [14].

Stress ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq natijalar ham alohida e’tiborga loyiq negaki, tadqiqot davomida stressga chidamlilik yuqori bo‘lgan onalarda konflikt darajasi sezilarli pastligi kuzatildi. Bu holat oilaviy tizim nazariyasi bilan mos keladi chunki, oila ichidagi bir a’zoning emotsional beqarorligi butun tizimga ta’sir qiladi aksincha,

psixologik barqarorlik umumiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. So‘nggi yillardagi tadqiqotlarda ham ota-onaning ruhiy zo‘riqishi bolalarda xavotir va emotsional buzilishlarga olib kelishi mumkinligi ta’kidlangan [15].

Shahar sharoitidagi hayot sur’ati masalani yanada murakkablashtiradi va bandlik, ijtimoiy raqobat va vaqt tanqisligi onaning ichki resurslariga bosim o‘tkazadi va bunday sharoitda onalik instituti ikki tomonlama vazifa bajaradi. Birinchi tomondan, u bola uchun xavfsizlik maydonini yaratadi, ikkinchi tomondan esa, ona o‘zining psixologik energiyasini doimiy ravishda safarbar etishga majbur bo‘ladi. Natijalarim shuni ko‘rsatdiki, ijobiy identifikatsiyaga ega onalar stress omillarini konstruktiv yo‘l bilan yengishga moyil. [16]. Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlandi ya’ni, onaning kommunikativ uslubi oilaviy iqlimni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib chiqdi. Masalan, mpatiya va ochiq muloqot mavjud bo‘lgan oilalarda qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ldi. Bu natijalar ota-onalikning ijobiy modeli bolalarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyasini mustahkamlashi haqidagi xulosalarni tasdiqlaydi [17].

Shuningdek, pandemiyadan keyingi davr tajribasi ham muhokama uchun ahamiyatlidir. So‘nggi global jarayonlar oilaning ichki tizimini qayta ko‘rib chiqishga majbur qildi va uy sharoitida uzoq vaqt birga bo‘lish, masofaviy ish va ta’lim onaning rolini yanada markazlashtirdi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, bunday sharoitda onaning psixologik tayyorgarligi oilaviy barqarorlikning asosiy omiliga aylangan [18].

Tadqiqotimiz natijalari ham bu fikrni bilvosita tasdiqlaydi va umuman olganda, olingan ma’lumotlar onalik institutini ijtimoiy-psixologik tizim sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi va ona shaxsining ichki barqarorligi, rolni qabul qilish darajasi va emotsional yetukligi oilaning umumiy iqlimiga bevosita ta’sir qiladi. Bu xulosalar amaliy jihatdan ham muhimdir sababi, oilaviy maslahat markazlarida onalarga psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish, stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish va sog‘lom kommunikatsiya madaniyatini shakllantirish zarur. Kelgusida tanlanma hajmini kengaytirish va turli hududlarni qamrab olish tadqiqot natijalarining umumlashuv darajasini yanada oshirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, onalik instituti oilaning ijtimoiy-psixologik tizimida markaziy o‘rin egallaydi va ona shaxsining o‘z rolini anglash darajasi, emotsional barqarorligi va muloqot madaniyati oiladagi umumiy psixologik iqlimni shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, shahar sharoitida yashovchi onalar misolida olingan ma’lumotlar zamonaviy hayot sur’ati va ijtimoiy bosimlarga qaramay, ijobiy onalik identifikatsiyasi oilaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilishini tasdiqladi, tadqiqot gipotezasi empirik jihatdan o‘z tasdig‘ini topdi va onalik rolining yuqori darajada qabul qilinishi oilaviy qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatkichlarining ortishi hamda konflikt darajasining kamayishi bilan bog‘liq ekani aniqlanib, statistik tahlil natijalari bilan ishonchli ravishda asoslandi. Bu esa onalik institutini faqat tarbiya jarayoni bilan cheklash to‘g‘ri emasligini ko‘rsatadi va u oilaviy tizimning psixologik muvozanatini saqlovchi tayanch mexanizm sifatida faoliyat yuritadi. Shuningdek, onaning stressga chidamliligi va

ichki emotsional resurslari oiladagi ziddiyatlarni konstruktiv tarzda hal qilish imkonini beradi. Ruhiy barqarorlik mavjud bo‘lgan sharoitda bola xavfsizlik hissini his qiladi, o‘zini qadrlash darajasi oshadi va ijtimoiy moslashuv jarayoni yengillashadi. Demak, onalikning ijtimoiy-psixologik ahamiyati avlodlar davomiyligi va sog‘lom shaxs shakllanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Tadqiqot natijalari amaliy jihatdan ham muhim xulosalarni beradi, masalan, oilaviy maslahat markazlari, psixologik xizmat tizimi va profilaktik dasturlar ishlab chiqishda onalarning emotsional farovonligini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratish zarur. Stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, konstruktiv muloqot madaniyatini shakllantirish va rol identifikatsiyasini mustahkamlash bo‘yicha treninglar samarali bo‘lishi mumkin. Albatta, tadqiqotning ayrim cheklovlari mavjud bo‘lib, tanlanma hajmi nisbatan kichik bo‘lgani sababli natijalarni umumlashtirishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Kelgusida turli hududlar va ijtimoiy qatlamlarni qamrab olgan kengroq tadqiqotlar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, onalik instituti oilaning psixologik tayanchi bo‘lib, uning mustahkamligi jamiyat barqarorligining muhim sharti hisoblanadi va onaning ruhiy yetukligi va ijtimoiy mas’uliyati nafaqat oilaning ichki uyg‘unligini, balki kelajak avlodning sog‘lom rivojlanishini ham belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bornstein M.H. Parenting and child mental health: A cross-cultural perspective. World Psychiatry. 2022;21(3):358–359. DOI: https://doi.org/10.1002/wps.20982

2. Racine N., Cooke J., Eirich R., Korczak D.J., McArthur B., Madigan S. Maternal mental health and child development outcomes. JAMA Network Open. 2021;4(4):e214681. DOI: https://doi.org/10.1001/jamanetworkopen.2021.4681

3. Prime H., Wade M., Browne D.T. Risk and resilience in family well-being during the COVID-19 pandemic. American Psychologist. 2020;75(5):631–643. DOI: https://doi.org/10.1037/amp0000660

4. Spinelli M., Lionetti F., Pastore M., Fasolo M. Parenting stress during COVID-19: A systematic review. Frontiers in Psychology. 2022;13:879732. DOI: https://doi.org/10.3389/fpsyg.2022.879732

5. Lebel C., MacKinnon A., Bagshawe M., Tomfohr-Madsen L., Giesbrecht G. Elevated depression and anxiety symptoms among pregnant individuals during the pandemic. Canadian Journal of Psychiatry. 2020;65(9):625–633. DOI: https://doi.org/10.1177/0706743720940563

6. Pinquart M. Associations of parenting styles with child outcomes: A meta-analysis. Psychological Bulletin. 2021;147(10):983–1021. DOI: https://doi.org/10.1037/bul0000316

7. Walsh F. Family resilience framework: An evidence-based approach. Family Process. 2021;60(1):1–18. DOI: https://doi.org/10.1111/famp.12577.

UDK: 37.013.3

Mamatkulov Dilshodjon Egamberdiyevich,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy

instituti mustaqil izlanuvchisi

UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH KURSLARIDA REFLEKSIV FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada filologiya fanlari o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarida refleksiv faoliyatni tashkil etish va boshqarishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Xalqaro va milliy tajribani umumlashtirish orqali uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida refleksiv amaliyotni joriy etishning ilmiy asoslari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: refleksiv faoliyat, uzluksiz kasbiy rivojlanish, boshqarish mexanizmi, pedagogik refleksiya, filologiya o‘qituvchisi.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ И УПРАВЛЕНИЯ РЕФЛЕКСИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ НА КУРСАХ НЕПРЕРЫВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация. В статье анализируются теоретико-методологические основы организации и управления рефлексивной деятельностью на курсах непрерывного профессионального развития преподавателей филологических дисциплин. На основе обобщения международного и национального опыта раскрываются научные основы внедрения рефлексивной практики в систему непрерывного профессионального развития.

Ключевые слова: рефлексивная деятельность, непрерывное профессиональное развитие, механизм управления, педагогическая рефлексия, преподаватель филологии.

THE THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ORGANIZING AND MANAGING REFLECTIVE ACTIVITY IN CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT COURSES

Abstract. The article analyzes the theoretical and methodological foundations of organizing and managing reflective activity in continuous professional development courses for teachers of philological disciplines. Based on the generalization of international and national experience, the scientific foundations for introducing reflective practice into the system of continuous professional development are substantiated.

Keywords: reflective activity, continuous professional development, management mechanism, pedagogical reflection, teacher of philology.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi faqatgina bilim beruvchi emas, balki o‘z faoliyatini doimiy tahlil qiluvchi, yangi usullarni sinovdan o‘tkazuvchi refleksiv amaliyotchi sifatida qaralmoqda. O‘zbekistonda olib borilayotgan ta’lim islohotlari,

xususan, yangi o‘quv dasturlarini joriy etish, kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash va raqamli texnologiyalarni integratsiyalash filologiya fanlari o‘qituvchilaridan yuqori darajada kasbiy kompetensiyani talab qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-sonli qarori [1] hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2024-yil 20-dekabrdagi 876-son qarori [2] asosida ta’lim tizimi xodimlarining kasbiy salohiyatini uzluksiz rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, filologiya fanlari o‘qituvchilarining ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etishi, innovatsion metod va texnologiyalarni qo‘llashi hamda ularning refleksiv faoliyatini samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan, uzluksiz kasbiy rivojlantirish (UKR) kurslarida o‘qituvchilarning refleksiv faoliyatini tashkil etish va boshqarish dolzarb muammoga aylanmoqda. Chunki mavjud malaka oshirish tizimida nazariy mashg‘ulotlarga ustuvorlik beriladi, amaliy qism, xususan, o‘z faoliyatini tahlil qilish jarayonlari yetarli darajada tashkil etilmagan. Ushbu maqolada refleksiv faoliyatni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari ishlab chiqiladi, bu esa o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini ta’minlashga va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tadqiqotlar o‘rganilganda, T. Farrell refleksiv amaliyotning besh bosqichli ramkasini (falsafa, tamoyillar, nazariya, amaliyot va amaliyotdan tashqari tanqidiy refleksiya) ishlab chiqib, filologiya fanlari o‘qituvchilari uchun maxsus uslubiyat yaratgan. Uning so‘nggi ishlarida “refleksiv amaliyot jamoalari” va onlayn refleksiv hamkorlik muammolari tadqiq etilgan [3]. B. Larrivee refleksiyaning to‘rt darajasini (tahrirlash, tahlil qilish, tadqiqot qilish, nazariy yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish) ajratib ko‘rsatgan va ularning o‘qituvchilarning professional rivojlanishiga ta’sirini o‘rgangan [4].

S. Shakarova oliy tibbiyot maktabi o‘qituvchilari malaka oshirish kurslarida refleksiv faoliyatni tashkil etish muammolarini tadqiq qilgan. U keys-texnologiyasi va pedagogik hamjamiyatlar yordamida refleksiyani rivojlantirish usullarini sinovdan o‘tkazgan [5]. E. Mustayeva O‘zbekistonda xorijiy til o‘qituvchilarining refleksiv kompetensiyasini rivojlantirish usullarini tadqiq qilgan. U Kolb sikli, Gibbs modeli va ‘lesson study’ usulini milliy dasturlarga moslashtirish yo‘llarini ko‘rsatgan [6]. A. Tursunboyev refleksiv amaliyotlarni baholash bo‘yicha tadqiqot o‘tkazib, o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini baholash, video-refleksiya va portfoliolardan foydalanish darajasini o‘rgangan [7]. Y. Rozimela va hamkorlari “kontekstualizatsiyalangan refleksiv amaliyot modeli”ni sinovdan o‘tkazgan bo‘lib, bu model quyidagi bosqichlardan iborat:

– darsdan oldingi refleksiya;
– dars davomidagi refleksiya;
– darsdan keyingi refleksiya;

– konseptualizatsiya.

Bu model filologiya fanlari o‘qituvchilari uchun hamkorlikdagi kuzatish va o‘zaro tahlil muhim ekanligini ko‘rsatgan [8].

Refleksiv faoliyat tushunchasining kelib chiqishi pedagogika va psixologiya fanlarida faoliyatning o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlarini o‘rganish bilan bog‘liq. J. Deweyning ta’rifiga ko‘ra, refleksiya – bu “faol, doimiy va diqqat bilan o‘ylangan fikrlash jarayoni” bo‘lib, u shunchaki his-hayajonlar oqimi emas, balki ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan bilish faoliyatidir [9]. D. Schön refleksiv amaliyot nazariyasini ishlab chiqib, “amaliyot ustida fikrlash” va “amaliyot davomida fikrlash” tushunchalarini joriy qilgan [10]. “Amaliyot ustida fikrlash” o‘qituvchiga darsdan keyin o‘z harakatlarini tahlil qilish, muvaffaqiyat va kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi. “Amaliyot davomida fikrlash” esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri dars jarayonida vaziyatni baholash va tezkor qarorlar qabul qilishni anglatadi.

A. Xutorskoy refleksiv pedagogika yo‘nalishini ishlab chiqib, pedagogik refleksiyaning uch turini ajratib ko‘rsatgan: texnik (uslubiy), amaliy (taktik) va nazariy (strategik) [11]. Texnik refleksiya o‘qituvchining darsni o‘tkazish usullarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lsa, nazariy refleksiya uning umumiy ta’lim konsepsiyasini, qadriyatlarini va e’tiqodlarini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Filologiya fanlari o‘qituvchilari uchun refleksiv faoliyat alohida ahamiyatga ega, chunki ular til normalarini, adabiy asarlarni o‘qitish jarayonida doimiy ravishda o‘z bilimlarini yangilab borishlari, o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini tahlil qilishlari va individual yondashuvni amalga oshirishlari zarur. L. Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi tinglovchining rivojlanish darajasini to‘g‘ri baholashi va shunga mos vazifalar berishi kerak, bu esa doimiy refleksiv tahlilni talab qiladi [12].

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarida refleksiv faoliyatni tashkil etish kompleks yondashuvni talab qiladi. Bunda G. Gibbs taklif qilgan refleksiv sikl modeli [13] bu jarayonni tizimlashtirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Model bosqichi	Tavsifi
Tavsif	Voqeani xolis ravishda tasvirlash
His-tuyg‘ular	Voqea paytida kechirilgan tajribalarni aks ettirish
Baholash	Tajribaning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash
Tahlil	Voqeaning chuqur sabablarini tushunish
Xulosalar	Olingan tajribadan umumiy xulosalar chiqarish
Harakat rejasi	Kelajakda qo‘llash uchun strategiyalar ishlab chiqish

Malaka oshirish kurslarida filologiya fanlari o‘qituvchilari uchun ushbu model quyidagicha qo‘llanilishi mumkin. Masalan, o‘qituvchi yangi grammatik mavzuni o‘qitishda tinglovchilarning tushunmasliklarini payqasa, tavsif bosqichida u tinglovchilarning reaksiyasini, savollarini va xatolarini qayd etadi; his-tuyg‘ular

bosqichida o‘z xavotirini va chalkashligini aks ettiradi; baholash bosqichida u qaysi usullar samarali, qaysilari samarasiz ekanligini aniqlaydi; tahlil bosqichida u tinglovchilarning o‘tilgan mavzular bilan yangi mavzu o‘rtasida bog‘liqlik yo‘qligini yoki misollarning hayotiy emasligini payqaydi; xulosalar bosqichida tahlil qilish zarurligini tushunadi; harakat rejasi bosqichida esa keyingi darslarda qo‘llash uchun aniq choralar ishlab chiqadi.

Tavsif bosqichi refleksiya jarayonining poydevori hisoblanadi. Bu bosqichda o‘qituvchi voqeani, holatni yoki tajribani xolis, subyektiv baholarsiz va his-tuyg‘ularsiz tasvirlaydi.

Element	Tavsifi	Misol
Vaqt va joy	Voqea qachon va qayerda sodir bo‘lgan	“Zamonaviy pedagogik texnologiyalar” mavzusidagi malaka oshirish kursi
Ishtirokchilar	Kimlar qatnashgan	25 nafar tinglovchi, 2 nafar metodist, 1 nafar kurs rahbari
Jarayon	Nima sodir bo‘lgan	Kurs rahbari tomonidan nazariy qism tushuntirildi, tinglovchilarga o‘z darslarini tahlil qilish uchun 5 daqiqalik videorolik ko‘rsatildi.
Reaksiyalar	Tinglovchilarning holati	12 nafar tinglovchi faol qatnashdi; 8 nafari yozib oldi; 5 nafar tinglovchi berilgan ma’lumotlarni tingladi.
Natija	Nima bilan yakunlandi	Dars mashg‘uloti to‘liq o‘tkazildi, ammo amaliy mashg‘ulot uchun ko‘proq vaqt ajratilishi maqsadga muvofiqligi ma’lum bo‘ldi.

A. Leontevning faoliyat nazariyasiga ko‘ra, har qanday faoliyat maqsad, motiv va harakatlar tizimidan iborat [14]. Refleksiv faoliyat ham maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘qituvchining kasbiy o‘sishini ta’minlashga qaratilgan. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarida refleksiv faoliyatning maqsadlari quyidagilardan iborat:

– o‘z pedagogik faoliyatini obyektiv baholash;
– mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini topish;
– yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va qo‘llash;
– kasbiy kompetensiyani oshirish.

Refleksiv faoliyatni boshqarish – bu uning samaradorligini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, jarayonni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va baholash jarayonidir. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarining dasturiga refleksiv mashg‘ulotlar kiritiladi. Bu mashg‘ulotlar tinglovchilarning o‘z darslarini videoga olib, ularni tahlil qilish, “dars tahlillari”ni yozish, kasbiy portfoliolar shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Rejalashtirishda o‘qituvchilarning individual ehtiyojlari, tajriba darajasi va ishlayotgan maktabining xususiyatlari hisobga olinadi.

Refleksiv faoliyatni tashkil etish uchun quyidagi shakllar qo‘llanilishi mumkin:

Individual refleksiya – o‘qituvchi o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qiladi;

Juftlikda refleksiya – ikki o‘qituvchi o‘zaro dars kuzatadi va tahlil qiladi;

Guruhli refleksiya – kurs ishtirokchilari birgalikda muammolarni muhokama qiladi, “kasbiy hamkorlik”ni shakllantiradi;

Mentorlik – tajribali o‘qituvchi yoki metodist tomonidan yosh o‘qituvchiga refleksiv amaliyotni o‘rgatish.

Refleksiv faoliyatning samaradorligini baholash mezonlari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

refleksiv tahlilning chuqurligi;

pedagogik muammolarni aniqlash va yechish qobiliyati;

yangi usullarni qo‘llashga tayyorlik;

o‘z faoliyatini o‘zgartirish bo‘yicha aniq harakatlar.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslari tinglovchilarni refleksiv amaliyot uchun psixologik jihatdan tayyorlashlari kerak. Ishonchli muhit yaratish, konstruktiv fikr-mulohazalarni berish ko‘nikmalarini o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

Filologiya fanlari o‘qituvchilarining refleksiv faoliyatida quyidagi jihatlar alohida e’tibor talab qiladi:

til kompetensiyasini rivojlantirish: o‘qituvchi o‘z nutqining to‘g‘riligini, boyligini va ifodaviyligini doimiy tahlil qilishi kerak. Bu audio va video yozuvlar orqali amalga oshiriladi;

adabiy tahlil metodikasini takomillashtirish: o‘qituvchi tinglovchilarning adabiy asarlarni qanday qabul qilishlarini, qaysi tahlil usullari samarali ekanligini tahlil qiladi;

interfaol usullarni qo‘llash: zamonaviy darslarda loyiha va muammoli o‘qitish usullari qo‘llaniladi. O‘qituvchi bu usullarning samaradorligini refleksiv tahlil qilishi kerak;

raqamli texnologiyalarni integratsiyalash: onlayn platformalarda dars o‘tish, muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonlarini tahlil qilish.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarida refleksiv faoliyatni tashkil etish va boshqarish o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. D. Schön, G. Gibbs, A. Xutorskoy va boshqa olimlarning nazariy yondashuvlariga asoslangan holda, refleksiv faoliyatni boshqarish mexanizmi rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va qo‘llab-quvvatlash komponentlaridan iborat bo‘lishi kerak. Malaka oshirish kurslari filologiya fanlari o‘qituvchilari uchun refleksiv faoliyatni va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi lozim. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarida refleksiv mashg‘ulotlarni joriy etish orqali tinglovchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatini oshirish, natijada ta’lim sifatini yanada yaxshilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 876-son qarori.

3. Farrell, T. S. C. (2024). Tools for Reflective Practice. Teaching English (British Council).

4. Larrivee, B. (2008). Development of a Tool to Assess Teachers' Level of Reflective Practice. Reflective Practice, 9(3).

5. Mustayeva, E. (2025). Methods and Tools for Developing English Language Teachers' Reflective Competence in Professional Development Courses. Scientific Journal.

6. Tursunboyev, A. (2025). Reflective Teaching Practices: How Uzbek EFL Teachers Evaluate and Improve Their Own Methodology. Modern Science.

7. Rozimela, Y., Fatimah, S., & Fudhla, N. (2024). A Contextualized Reflective Practice Model: Responding to EFL Teachers' Needs. The Asia-Pacific Education Researcher, 33, 1395-1404.

8. Dewey, J. (1910). How We Think. D.C. Heath & Company.

9. Schön, D. A. (1983). The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. Basic Books.

10. Хуторской, А. В. (2003). Рефлексивная педагогика: наука и искусство. Питер.

11. Выготский, Л. С. (1982). Мышление и речь. In Собрание сочинений: в 6 т. (Т. 2) (pp. 5-361). Педагогика.

12. Gibbs, G. (1988). Learning by Doing: A Guide to Teaching and Learning Methods. Oxford Polytechnic.

13. Леонтьев, А. Н. (1975). Деятельность. Сознание. Личность. Политиздат.

UDK 371.134

To‘rayeva Sayyora Sattorovna,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA TARBIYA FANI TINGLOVCHILARINING MOSLASHUVCHANLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TASHKIL ETISH VOSITALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada malaka oshirish tizimida tarbiya fani tinglovchilarining moslashuvchanlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini tashkil etish vositalaridan foydalanish masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, mazkur yo‘nalishdagi o‘qitish jarayonidan aniq va amaliy misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: moslashuvchanlik, kompetensiya, kognitiv rivojlanish, shaxsiy-refleksiv yondashuv, treninglar, vorkshoplar, interaktiv metodlar, hamkorlik, konsepsiya, pedagogik texnologiyalar, onlayn platformalar, masofaviy ta’lim.

СРЕДСТВА ОРГАНИЗАЦИИ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ АДАПТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СЛУШАТЕЛЕЙ ПО ПРЕДМЕТУ «ВОСПИТАНИЕ» В СИСТЕМЕ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ

Аннотация. В данной статье проанализированы вопросы использования средств организации методики развития адаптивных компетенций слушателей по предмету «Воспитание» в системе повышения квалификации. Также приведены наглядные и практические примеры из образовательного процесса в данном направлении.

Ключевые слова: адаптивность, компетенция, когнитивное развитие, личностно-рефлексивный подход, тренинги, воркшопы, интерактивные методы, сотрудничество, концепция, педагогические технологии, онлайн-платформы, дистанционное обучение.

TOOLS FOR ORGANIZING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING ADAPTABILITY COMPETENCIES OF TRAINEES IN THE SUBJECT OF TARBIYA WITHIN THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT SYSTEM

Abstract. This article analyzes the issues of using tools for organizing the methodology of developing adaptability competencies of trainees in the subject of Tarbiya within the professional development system. Clear and practical examples from the teaching process in this area are presented.

Keywords: adaptability, competence, cognitive development, personal-reflective approach, trainings, workshops, interactive methods, collaboration, concept, pedagogical technologies, online platforms, distance education.

Bugun minglab o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarini jahon standartlariga to‘liq javob bera oladigan, xorijdagi tengdoshlari bilan tenglasha oladigan barkamol shaxs etib voyaga yetkazish va ularga sifatli ta’lim-tarbiya berishga astoydil harakat qilmoqda. Zamonaviy ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning mustaqil fikrlashi, hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish va ijtimoiy faolligini oshirishni ham talab etmoqda. Shu bois o‘qituvchidan yuqori kasbiy mahorat, zamonaviy bilim va ilg‘or pedagogik yondashuvlarni qo‘llay olish salohiyati talab qilinadi.

Chunki jamiyatimiz va davlatimiz yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqadigan, ularni amalga oshirishga qodir, intellektual va yuksak ma’naviy salohiyatga ega yangi avlodga katta ehtiyoj sezmoqda. Globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi shaxsdan moslashuvchanlik, tanqidiy fikrlash va yangicha qarorlar qabul qila olish qobiliyatini talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimi oldiga yosh avlodni zamonaviy taraqqiyot talablariga mos ravishda tarbiyalash va tayyorlash vazifasi qo‘yilgan. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilanishlar natijasida yutuqlarimiz tobora ortib bormoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va ko‘p millatli xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida 2025-yilda barcha sohalarda ulkan yutuqlarga erishilganini ta’kidlab, shunday dedi: “Iste’dodli o‘g‘il-qizlarimiz ta’lim, ilm-fan, madaniyat, san’at, sport va boshqa sohalarda erishayotgan katta yutuqlari bilan Yangi O‘zbekiston ravnaqiga munosib hissa qo‘shmoqda. O‘quvchi va talabalarimiz joriy yilda xalqaro fan olimpiadalarida 51 ta oltin, 101 ta kumush, 126 ta bronza medalini qo‘lga kiritib, o‘z bilim va salohiyatini butun dunyoga namoyish qildi” [2, 3-bet].

Albatta, bu yutuqlar pedagoglarning o‘quvchilar bilan olib borayotgan uzluksiz, fidokorona va tizimli mehnati samarasidir. Ta’lim jarayonida o‘qituvchining nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, yo‘naltiruvchi va motivator sifatidagi roli tobora ortib bormoqda. Shu bois pedagoglarning kasbiy salohiyatini muntazam rivojlantirish va ularni qo‘llab-quvvatlash davr talabiga aylanmoqda. Ushbu ezgu faoliyatni izchil davom ettirish bugungi taraqqiyotning muhim omillaridan biridir.

Pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish hamda malaka oshirish tizimini “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida takomillashtirish muhim vazifadir [3, 1-bet]. Uzluksiz kasbiy rivojlanish pedagogga o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilab borish, ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish hamda ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi. Bu jarayon o‘qituvchining kasbiy barqarorligini ta’minlab, uning zamonaviy ta’lim muhitiga moslashuvchanligini kuchaytiradi.

Bugun o‘qituvchining samarali faoliyati davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Chunki pedagoglar o‘quvchi-yoshlarning asosiy qismini qamrab olgan ta’lim muassasalarida faoliyat yuritib, ularni zamonaviy hayotga tayyorlashdek mas’uliyatli vazifani bajarishmoqda. Ular yosh avlodning intellektual

salohiyati, ma'naviy dunyoqarashi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda hal qiluvchi o'rin tutadi.

Malaka oshirish tizimida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini chuqurlashtirish va yangilash jarayoni ularning kasbiy tayyorgarligi, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish mahorati, fan yutuqlaridan xabardorligi, zamonaviy pedagogik hamda axborot texnologiyalarini o'zlashtirishi, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvi hamda ta'limning milliy yo'nalganligini ta'minlashga qaratilgan innovatsion faoliyatga tayyorlash bilan belgilanadi. Bunda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, kreativ fikrlashni qo'llab-quvvatlash va pedagogik moslashuvchanlikni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, malaka oshirish tizimida tarbiya fani o'qituvchilarining moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Tarbiya jarayoni doimiy ravishda yangilanib borayotgan ijtimoiy ehtiyojlar, ma'naviy talablardagi o'zgarishlar hamda yoshlar dunyoqarashidagi yangilanishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun tarbiya fani o'qituvchisi o'z faoliyatida moslashuvchan, innovatsiyalarga ochiq va tezkor qaror qabul qila oladigan mutaxassis bo'lishi zarur.

Moslashuvchanlik kompetensiyasi pedagogning tez o'zgaruvchan ijtimoiy, axborotiy va ta'limiy muhit sharoitida samarali faoliyat yuritishi, yangi pedagogik yondashuvlarni qabul qilishi, innovatsiyalarga ochiq bo'lishi hamda turli vaziyatlarda maqbul qaror qabul qila olish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur kompetensiya o'qituvchining kasbiy barqarorligini ta'minlab, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan turli muammolarni konstruktiv hal etish, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Moslashuvchanlik kompetensiyasining tarkibiy komponentlari o'qituvchining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, o'zgaruvchan ta'lim muhitiga tez moslashish hamda pedagogik jarayon sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Mazkur kompetensiya ko'p qirrali tuzilishga ega bo'lib, quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Kognitiv komponent — yangi bilimlarni tez va puxta o'zlashtirish, zamonaviy pedagogik konsepsiyalar, innovatsion metodlar hamda ta'lim texnologiyalaridan xabardor bo'lishni anglatadi. Shuningdek, u ma'lumotni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil etish, umumlashtirish va amaliyotga tatbiq etish qobiliyatlari majmuasini qamrab oladi. Mazkur komponent pedagogning intellektual salohiyati, ilmiy dunyoqarashi va kasbiy tafakkur darajasini ifodalaydi. Kompetentlik tuzilmasida kognitiv komponent nazariy bilimlar, tushunchalar, qonuniyatlar va tamoyillarni anglash darajasini belgilaydi. Pedagogik nuqtai nazardan, bu o'qituvchining o'z fanini chuqur va tizimli bilishi, fanlararo bog'liqlikni anglay olishi hamda zamonaviy ilmiy yondashuvlardan xabardor bo'lishini anglatadi.

Faoliyatli komponent — pedagogning noan'anaviy va murakkab vaziyatlarda samarali ish yurita olishi, innovatsion metodlarni ta'lim jarayoniga joriy etishi hamda mavjud bilim va ko'nikmalarni amaliy faoliyatda samarali qo'llay olish qobiliyatidir. Ushbu komponent pedagogning tashabbuskorligi, kreativ fikrlashi va

muammoli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qila olish salohiyatini namoyon etadi. Agar kognitiv komponent "bilaman" darajasini anglatsa, faoliyatli komponent "qila olaman" darajasini ifodalaydi. Pedagogik nuqtai nazardan, bu o'qituvchining nazariy bilimlarni real ta'lim-tarbiya jarayoniga moslashtira olishi, darslarni samarali tashkil etishi hamda o'quvchilarning faolligini oshira olish mahoratidir.

Shaxsiy-refleksiv komponent — pedagogning o'z kasbiy faoliyatini tahlil qila olishi, mavjud kamchilik va muammolarni anglash, o'z ustida ishlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishga intilish qobiliyatidir. Refleksiya o'qituvchining professional o'sishida muhim o'rin tutib, uning o'z tajribasini qayta ko'rib chiqish, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini yaratadi. Mazkur komponent pedagogda tanqidiy fikrlash, o'zini baholash, o'zgarishlarga ochiqlik va o'zini takomillashtirish ehtiyojini shakllantiradi.

Kommunikativ komponent — pedagogning jamoa bilan samarali muloqot qila olishi, hamkorlikda ishlashi, sog'lom psixologik muhit yaratishi hamda nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal eta olish qobiliyatidir. Ushbu komponent o'qituvchining nutq madaniyati, empatiya, tinglash ko'nikmalari va ijtimoiy moslashuvchanligini ifodalaydi. Pedagogik jarayonda samarali kommunikatsiya o'quvchilar bilan o'zaro ishonchli munosabatlarni shakllantirish hamda ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Malaka oshirish tizimida mazkur kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun quyidagi tashkiliy-pedagogik vositalardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Innovatsion o'quv modullari. Malaka oshirish kurslari mazmuniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim vositalari, media savodxonlik, masofaviy ta'lim shakllari va interaktiv metodlarni qamrab olgan modullarni kiritish o'qituvchilarning yangilikka moslashuvchanligini oshiradi. Bunda amaliy mashg'ulotlar ulushi kengaytirilib, nazariya va amaliyot uyg'unligi ta'minlanadi. O'qituvchilar mustaqil izlanish, tahlil qilish va o'z ustida ishlashga yo'naltiriladi.

2. Trening va vorkshoplar. Interaktiv treninglar, keys-stadi, rolli o'yinlar, debatlar va muammoli vaziyatlar tahlili orqali o'qituvchilarning real pedagogik jarayonlarda qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Bu jarayon pedagoglarning stressga chidamliligini oshirib, ularning vaziyatga tez moslasha olish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Vorkshoplar esa ishtirokchilarning faol qatnashuvi asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantiruvchi amaliy o'quv shakli bo'lib, unda tinglovchi passiv eshituvchi emas, balki faol bajaruvchi sifatida namoyon bo'ladi.

3. Refleksiv faoliyatni tashkil etish. Portfolio yuritish, o'z-o'zini baholash varaqalari, refleksiv esse yozish va pedagogik faoliyatni tahlil qilish orqali o'qituvchilarda tanqidiy fikrlash hamda o'zini rivojlantirishga ehtiyoj shakllantiriladi. Refleksiya pedagogning o'z tajribasini tizimli ravishda baholashiga hamda kelgusidagi faoliyatini samarali rejalashtirishiga xizmat qiladi.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Onlayn platformalar, vebinarlar, masofaviy kurslar va virtual professional hamjamiyatlarda ishtirok etish o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bu esa

ularning axborot bilan ishlash madaniyatini oshirib, kasbiy hamkorlik doirasini kengaytiradi hamda ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni samarali joriy etish imkonini beradi.

5. Mentorlik va kouching tizimi. Tajribali pedagoglar bilan hamkorlik, kasbiy maslahatlar, individual rivojlanish rejalarini ishlab chiqish orqali o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy o'sishi qo'llab-quvvatlanadi. Ushbu jarayon o'qituvchining individual ehtiyojlari, kasbiy qiyinchiliklari va salohiyatidan kelib chiqib tashkil etiladi.

Moslashuvchanlik kompetensiyasini samarali rivojlantirish uchun quyidagi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega:

- innovatsion va ijodiy ta'lim muhitini yaratish;
- o'qituvchilarning faol va ongli ishtirokini ta'minlash;
- malaka oshirish mazmunining amaliyot bilan uzviy bog'liqligini kuchaytirish;
- doimiy monitoring, tahlil va baholash mexanizmlarini joriy etish;
- pedagoglarni motivatsion va metodik qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirish.

Malaka oshirish tizimida tarbiya fani o'qituvchilarining moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining dolzarb va ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim makoni keskin o'zgaruvchan ijtimoiy muhit, globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivoji hamda yoshlar dunyoqarashidagi yangilanishlar bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda pedagogdan nafaqat chuqur nazariy bilim, balki tezkor fikrlash, moslashuvchanlik, yangilikka ochiqlik va innovatsion yondashuvlarni qo'llay olish kabi muhim kasbiy sifatlar talab etiladi.

Tarbiya fani o'qituvchisining faoliyati o'ziga xos murakkablikka ega bo'lib, u faqat bilim berish bilan cheklanmaydi. Mazkur fan o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash hamda sog'lom dunyoqarashni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Shu bois tarbiya jarayonini samarali tashkil etish o'qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy mahorat bilan bir qatorda pedagogik moslashuvchanlikni ham talab etadi.

Moslashuvchanlik kompetensiyasi pedagogning o'zgaruvchan ta'lim sharoitlariga tez moslasha olishi, turli pedagogik vaziyatlarda maqbul qaror qabul qilishi, innovatsion metod va texnologiyalarni samarali qo'llashi hamda o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish qobiliyatini belgilaydi. Mazkur kompetensiya o'qituvchining kasbiy barqarorligini ta'minlab, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni konstruktiv hal etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Xususan, malaka oshirish tizimida innovatsion o'quv modullarini joriy etish, interaktiv trening va vorkshoplar tashkil etish, refleksiv faoliyatni yo'lga qo'yish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish hamda mentorlik va kouching mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur vositalar o'qituvchilarning

nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga ularning amaliy ko‘nikmalarini boyitadi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va kasbiy moslashuvchanligini oshiradi.

Shuningdek, moslashuvchanlik kompetensiyasini samarali shakllantirish innovatsion ta’lim muhitini yaratish, o‘qituvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, malaka oshirish mazmunini amaliyot bilan integratsiyalash, doimiy monitoring va baholash tizimini yo‘lga qo‘yish hamda pedagoglarni motivatsion qo‘llab-quvvatlash kabi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni talab etadi.

Umuman olganda, malaka oshirish tizimida tarbiya fani o‘qituvchilarining moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish pedagoglarning kasbiy barqarorligi, ijodkorligi va innovatsion fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi. Bu esa ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, yosh avlodni zamonaviy talablar asosida tarbiyalash hamda ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sh.Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston, 2024-yil.

2.Sh.Mirziyoyev. Oliy Majlisga va ko‘pmillatli xalqimizga kelgusi yil uchun Murojaatnoma. 2025-yil 26-dekabr, 3-bet.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2020-yil 6-noyabr, 1-bet.

4. B. Xodjayev. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil. Ma’rifat. – T.: 2018.

UDK: 338.48:378

Saydaliyeva Go'zalxon,
"Profi University" devonxona mudiri,
"Turizm" kafedrasi o'qituvchisi

TURIZM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada turizm sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'rni, uning yangi ish o'rinlari yaratish va hududiy rivojlanishni ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shu bilan birga, turizm sohasida zamonaviy talablarga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlashdagi mavjud muammolar — ixtisoslashgan ta'limning yetishmasligi, nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovut, raqamli transformatsiya sharoitida zarur kompetensiyalarning shakllanmaganligi, soft skills rivojlanish darajasining pastligi kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, ta'lim, fan va biznes integratsiyasi, texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish, uzluksiz malaka oshirish tizimini takomillashtirish hamda hududiy turistik resurslardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm iqtisodiyoti, malakali kadrlar, inson kapitali, raqamli transformatsiya, soft skills, turistik resurslar, xizmat ko'rsatish sifati, ta'lim va biznes integratsiyasi.

ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ ПОДГОТОВКИ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КАДРОВ В СФЕРЕ ТУРИЗМА

Аннотация. В данной статье анализируется роль туристической отрасли в национальной экономике, её значение в создании новых рабочих мест и обеспечении регионального развития. Наряду с этим рассматриваются существующие проблемы подготовки квалифицированных кадров, отвечающих современным требованиям туристической индустрии, в частности недостаточность специализированного образования, разрыв между теорией и практикой, несформированность необходимых компетенций в условиях цифровой трансформации, а также недостаточный уровень развития «мягких навыков» (soft skills). Кроме того, разработаны научно-практические предложения по интеграции образования, науки и бизнеса, внедрению современных технологий в учебный процесс, совершенствованию системы непрерывного повышения квалификации и эффективному использованию региональных туристических ресурсов.

Ключевые слова: экономика туризма, квалифицированные кадры, человеческий капитал, цифровая трансформация, soft skills, туристические ресурсы, качество обслуживания, интеграция образования и бизнеса.

PROBLEMS AND SOLUTIONS IN TRAINING QUALIFIED PERSONNEL IN THE TOURISM SECTOR

Abstract. This article analyzes the role of the tourism sector in the national economy, emphasizing its importance in job creation and regional development. It also examines existing challenges in training qualified personnel who meet modern industry requirements, including the lack of specialized education, the gap between theory and practice, insufficient development of competencies in the context of digital transformation, and the low level of soft skills formation. Furthermore, the study proposes scientific and practical recommendations aimed at strengthening the integration of education, science, and business, introducing modern technologies into the educational process, improving the system of continuous professional development, and ensuring the effective utilization of regional tourism resources.

Keywords: tourism economy, qualified personnel, human capital, digital transformation, soft skills, tourism resources, service quality, education-business integration.

So‘nggi yillarda turizm milliy iqtisodiyotimizning o‘sish omillaridan biri sifatida boshqa turli tarmoqlarni ham rivojlantirish drayveriga aylandi. Ayniqsa, yangi ish o‘rinlari yaratishda ushbu soha beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Sohaning normativ-huquqiy asosi takomillashtirilib, muntazam ravishda tadbirkorlarga soliq imtiyozi, preferensiya taqdim etilib, milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ‘ib qilish uchun sharoit yaratilmoqda, viza tartibi liberallashtirilib, qulay sayyohlik muhiti shakllantirilmoqda. Bunday keng ko‘lamli islohotlar natijasida turizm sohasi tobora rivojlanib bormoqda. 2024-yil davomida diyorimizga jami 8,6 million nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurdi. Ularga 2,7 milliard dollarlik xizmat ko‘rsatildi. Ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 1,5 barobar ko‘p. Yevropa va boshqa mintaqalar hamda qo‘shni davlatlardan keluvchilarning o‘rtacha xarajati 2022-yilga nisbatan 1,5 barobar oshgan. Turizmdan keladigan daromad esa 3,6 milliard dollarni tashkil etdi. [6]

Qo‘shma Shtatlar 2024-yilda 2,36 trillion-dollar iqtisodiy daromad keltirgan holda dunyodagi eng hukmron turizm iqtisodiyoti unvonini saqlab qoldi, keyingi o‘rinlarni esa Xitoy (1,3 trillion dollar), Germaniya (488 mlrd. dollar), Yaponiya (297 mlrd. dollar) va Buyuk Britaniya (295 mlrd. dollar) kabi turizm industriyasidan oladigan daromadi jihatidan dominant davlatlar egalladi. [5]

Bugungi kunda O‘zbekistonda turizmni iqtisodiyotning strategik yo‘nalishi sifatida rivojlantirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi tomonidan yangi turizm yo‘nalishlarini ochish, ichki va tashqi turizmni qo‘llab-quvvatlash, hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, mehmonxona xo‘jaligini kengaytirish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday o‘zgarishlar, o‘z navbatida, yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirmoqda.

Sohani yanada taraqqiy ettirish, oldimizga qo‘yilgan yuksak maqsadlarga erishishda yetuk, zamonaviy kadrlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham sayyohlik yo‘nalishida kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish, bu borada xalqaro

hamkorlikni kengaytirish masalalarida ham muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

"Bugun biz Samarqandda turizm sohasida mutaxassislar tayyorlaydigan va ularning malakasini oshiradigan, dunyoda o'xshashi yo'q Butunjahon turizm tashkilotining Xalqaro turizm akademiyasini ochdik.

Ishonchim komilki, ushbu Akademiya global ta'lim xabiga aylanadi va jahon turizm sanoatini yanada rivojlantirishga munosib hissa qo'shadi.

Kelgusi o'quv yilidan boshlab O'zbekiston iqtidorli mutaxassislar uchun maxsus grantlarni taqdim etadi va davlatlaringiz vakillarini bu dasturda faol ishtirok etishga chaqiradi". [1]

Zamonaviy turizm - bu texnologik innovatsiyalar, iste'molchilarning o'zgaruvchan xohish-istaklari va global muammolar ta'sirida doimiy ravishda o'zgarib turadigan jadal rivojlanayotgan biznes turi. Bu, o'z navbatida, kadrlar tayyorlash tizimiga yangi, yanada murakkab vazifalarni qo'yadi. Bugungi kunda xodimlarni asosiy ko'nikmalarga o'rgatish endi yetarli hisoblanmaydi. Keng ko'lamli vakolatlarga ega va tez o'zgaruvchan muhitga moslasha oladigan mutaxassislar talab qilinmoqda.

Turizm sohasi mehnat bozorida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu sohada faoliyat yurituvchi mutaxassis nafaqat professional bilimga, balki yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiyaga, xorijiy tillarni bilish qobiliyatiga, servis madaniyatiga, stressga chidamlilikka va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Turizm xizmatining sifati bevosita inson omiliga bog'liq bo'lgani sababli kadrlar tayyorlash tizimining samaradorligi butun sohaning raqobatbardoshligini belgilaydi.

Jahon iqtisodiyotida sayohat va sayyohlik sanoatining ulushi 9 foizni, global yalpi ichki mahsulotning bir foizini tashkil etadi, 27,4 million kishi bu sohada ish bilan ta'minlangan va butun dunyo bo'ylab 330 millionga yaqin ish o'rinlarini yaratadi. Germaniya turizm sohasida eng yuqori bandlik darajasiga ega, bu sektorda 2,6 million kishi ishlaydi. Undan keyingi o'rinlarni Italiya (1,7 million kishi) va Ispaniya (1,6 million kishi) egallaydi. O'zbekistonda esa turizm biznesida band bo'lganlar soni 245,7 ming kishi (2023-yil) ni tashkil etadi.

Turizm sohasi jadal rivojlanayotgan mamlakatlarda, birinchi navbatda, bu sohani harakatga keltiruvchi mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'llariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda turistik korxonalarda xodimlar faoliyatini to'g'ri tashkil etib ular salohiyatidan to'g'ri foydalanish turizm xizmatlar bozorida korxonaning iqtisodiy muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardan biri bo'lib qolmoqda. Hattoki, turizm sohasida ayrim muammolar (sotish hajmi va undan bo'ladigan daromadning qisqarishi, rivojlanishning aniq yo'nalishlarga ega emasligi, boshqaruv usullari va tizimlarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar, turizmda xizmat ko'rsatuvchi malakali, zamon talablariga javob beradigan kadrlar va mutaxassislarni yetishmasligi va boshqalar) sohada malakali kadrlarni tayyorlash orqali hal qilinadi. Ammo, O'zbekistonda zamonaviy talablarga javob beradigan yetuk kadrlar tayyorlashda quyidagi bir qator kamchiliklar kuzatilmoqda:

- ixtisoslashgan ta'limning yetishmasligi. Turizm sohasidagi xodimlarning katta qismi ixtisoslashgan ma'lumotga ega emas. Bu shuni ko'rsatadiki, ish beruvchilar diplomdan ko'ra ko'proq kasbiy ko'nikmalarga e'tibor qaratishga majbur bo'lib qolmoqdalar. Bu esa xodimlarni o'qitish uchun o'zlarining korporativ ta'lim markazlari va kurslarini yaratishga, qo'shimcha sarmoya sarflashga olib kelmoqda;
- nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovut. Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimlari, odatda, zamonaviy bozor talablariga javob bermaydi. O'quv dasturlari har doim ham ish beruvchilarning ehtiyojlariga mos kelmaydi. Natijada, universitet va kollej bitiruvchilari samarali ishlash uchun zarur ko'nikmalarga ega emaslar va ish beruvchilar yangi xodimlarni mustaqil ravishda o'qitishlari kerak;
- tadbirkorlik va iqtisodiy bilimlarning kamligi;
- mavjud muammoni tahlil qilish va yechishda zamonaviy yondashuvning yetishmasligi;
- raqamli transformatsiya. Sayyohlik sanoatiga onlayn xizmatlar, sun'iy intellekt va virtual haqiqatni kiritish xodimlardan yangi ko'nikmalarni talab qiladi. Mutaxassislar raqamli platformalar bilan ishlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va mijozlar uchun moslashtirilgan takliflarni yaratish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak;
- kadrlarning barqaror rivojlanish bo'yicha bilimga ega emasliklari;
- mijozga moslashtirish. Bugungi kunda sayyohlar individual yondashuv va noyob tajribalarni kutmoqdalar. Bu xodimlardan, nafaqat, yuqori darajadagi xizmatni, balki rivojlangan moslashuvchan ko'nikmalarni (soft skills) ham talab qiladi, masalan, hamdardlik, xushmuomalalik, nostandart vaziyatlarni hal qilish qobiliyati.

Shu o'rinda yana bir kamchilikni ta'kidlash joiz, yurtimizga kelayotgan sayyohlarning deyarli barchasi ma'lum destinatsiya bo'yicha (ya'ni, Toshkent va Xiva shaharlari, Samarqand hamda Buxoro viloyatlariga turizmning tarixiy, madaniy, etnik va gastronomik turlari bo'yicha odatiy diqqatga sazovor joylarga) tashrif buyurishadi. Chunki mehmonlar "O'zbekiston" deganda faqatgina tarixiy obidalar, boy madaniyat va turfa taomlarni ko'z oldilariga keltiradilar. Bu manzarani esa ularga turizm sohasidagi xodimlar berishadi. Sababi soha vakillarining o'zlari ham viloyatlar, ulardagi salohiyat va resurslar haqida kam ma'lumot hamda bilimga egaliklaridir. Yurtimizning har bir viloyatini turistik resurslarini o'rgangan holda, yangi va nostandart turmarshrutlar ishlab chiqib, ularni xorijiy sayyohlarga sotish orqali o'sha hududning iqtisodiyotini ham rag'batlantirish mumkin. Masalan, Orol dengizi hamda Qizilqum cho'li oralig'ida joylashgan Ustyurt platosi va Sulton Uvays kanyonlari, Qoraqolpog'istondagi "Kuylovchi" qum tepaliklar resurslarini o'rganib ekoturizm yo'nalishini boyitish, Urgutdagi O'ra-to'ba yerosti ko'li, Boysundagi Amir Temur g'orini o'rganish orqali esa speleo turizmni rivojlantirish mumkin.

Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni muvaffaqiyatli bartaraf etish uchun kadrlar tayyorlash tizimi quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratishi kerak:

- ta'lim, fan va biznesni integratsiyalash (o'quv dasturlarini bozorning haqiqiy ehtiyojlariga moslashtirish);
- yagona turizm portalini ishlab chiqish (ta'lim sohasi va biznes vakillari o'zaro faoliyatini rivojlantirish uchun);
- texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish. Virtual simulyatorlar, onlayn kurslar va interaktiv platformalardan foydalanish talabalarga zamonaviy texnologik yechimlar bilan ishlash uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni o'rganish imkonini beradi;
- uzluksiz ta'lim va malaka oshirish. Sanoatdagi o'zgarishlarning tezligini hisobga olgan holda, allaqachon ishlayotgan mutaxassislar uchun qo'shimcha ta'lim dasturlari va malaka oshirish kurslarini yaratish muhimdir;
- "yumshoq ko'nikmalar" ("Soft skills") ni rivojlantirish (muloqot madaniyati, mijozlarga individual yo'naltirilganlik, stressga chidamlilik, jamoa bilan ishlash qobiliyati, kreativlik, nostandart muammolarni hal qilish qobiliyati va boshqalar).

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalasi strategik ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon nafaqat turizm industriyasining rivojlanishi, balki mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti uchun ham muhim omil hisoblanadi. Turizm sohasining jadal rivojlanishi xizmat ko'rsatish sifatining oshirilishini, zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etishni hamda xalqaro standartlarga mos professional mutaxassislarni tayyorlashni talab etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, turizm uchun kadrlar tayyorlash aslida ushbu sohaning kelajagiga qaratilgan muhim investitsiya sifatida baholanishi mumkin.

Turizm sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko'nikmalar, kommunikativ madaniyat, xorijiy tillarni bilish, xizmat ko'rsatish etikasi hamda mijozlar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatlariga ham ega bo'lishlari zarur. Chunki zamonaviy turizm bozori tobora raqobatbardosh tus olib borayotgan bir paytda sifatli xizmat ko'rsatish, innovatsion yondashuvlar asosida yangi turistik mahsulotlarni yaratish va ularni samarali targ'ib qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday vazifalarni amalga oshirish esa, albatta, yuqori malakaga ega, ijodkor va tashabbuskor kadrlarni tayyorlash bilan bevosita bog'liqdir.

Shuningdek, turizm sohasida kadrlar tayyorlash jarayonida ta'lim tizimi bilan turizm biznesi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, talabalar uchun ishlab chiqarish amaliyotlarini kengaytirish, turistik tashkilotlar bilan hamkorlikdagi loyihalarni yo'lga qo'yish kelajakdagi mutaxassislarning real ish muhitiga tez moslashishiga yordam beradi. Bunday integratsiya ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib, bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, turizm sohasida kadrlar tayyorlashda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, raqamli marketing, turizm menejmenti, servis va mehmondo'stlik madaniyatiga oid bilimlarni chuqur o'rgatish ham muhimdir. Bu esa mutaxassislarning global turizm bozoridagi o'zgarishlarga moslashishiga, xalqaro tajribalarni o'rganib, amaliyotda qo'llashiga imkon yaratadi.

Shu boisdan ham, ta'lim tizimini takomillashtirish, ilm-fan, innovatsiya va turizm biznesi o'rtasidagi uzviy aloqani kuchaytirish orqali soha uchun zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash mumkin. Bunday mutaxassislar nafaqat sifatli turistik mahsulot yaratish va yuqori darajadagi xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi, balki mamlakat turizm salohiyatini oshirish, xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshlikni mustahkamlash hamda milliy iqtisodiyot rivojiga munosib hissa qo'shishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi 25-sessiyasidagi nutqi. Samarqand, 2025-yil 16-oktabr.

2. Yo'ldoshev N., Abdukarimov K. Turizm asoslari. — Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2020.

3. Морозов М. А., Морозова Н. С. Особенности подготовки кадров для индустрии туризма и гостеприимства в условиях перехода к цифровой экономике // Профессорский журнал. Серия: рекреация и туризм. 2019. № 4 (4) С. 3-14.

4. https://www.unwto.org/tourism-statistics

5. www.atlasreal.com

6. https://uza.uz/oz/posts/ozbek-turizmi-2024-yil-qanday-yutuqlarga-erishdi_673628

UDK: 159.9:796.01

Туракулова Дурдона Баходировна,
Базовый докторант Национального педагогического университета Узбекистана имени Низами

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СТРЕССОУСТОЙЧИВОСТЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ СПОРТСМЕНОВ

Аннотация. В статье рассматривается проблема ментального благополучия и стрессоустойчивости профессиональных спортсменов в условиях современного спорта высших достижений. Раскрыта роль программ развития стрессоустойчивости, основанных на когнитивно-поведенческих интервенциях, релаксационных техниках, визуализации и моделировании стрессовых ситуаций. Обоснована необходимость комплексного и персонализированного подхода к психологическому обеспечению подготовки спортсменов, включающего мониторинг психического состояния и коррекцию тренировочных воздействий.

Ключевые слова: ментальное благополучие спортсменов; психологическая стрессоустойчивость; спорт высших достижений; психоэмоциональный стресс; психологическая регуляция деятельности; тревожно-депрессивная симптоматика; эмоциональный дистресс.

PROFESSIONAL SPORTCHILARDA PSIXOLOGIK STRESSGA CHIDAMLILIK

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy yuqori natijalar sporti sharoitida professional sportchilarning mental farovonligi hamda psixologik stressga chidamliligi masalasi yoritilgan. Kognitiv-xulqiy intervensiyalar, relaksatsion texnikalar, vizualizatsiya hamda stressli vaziyatlarni modellashtirishga asoslangan stressga chidamlilikni rivojlantirish dasturlarining o‘rni ochib berilgan. Sportchilar tayyorgarligini psixologik qo‘llab-quvvatlashda kompleks va individuallashtirilgan yondashuv zarurligi asoslangan bo‘lib, bunda psixik holat monitoringi hamda mashg‘ulot yuklamalarini moslashtirish muhim omil sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: sportchilarning mental farovonligi, psixologik stressga chidamlilik, yuqori natijalar sporti, psixoemotsional zo‘riqish, faoliyatni psixologik boshqarish, xavotir-depressiv simptomlar, emotsional distress.

PSYCHOLOGICAL STRESS RESILIENCE OF PROFESSIONAL ATHLETES

Abstract. This article examines the issue of mental well-being and stress resilience in professional athletes in the context of modern high-performance sport. The role of stress resilience development programs based on cognitive-behavioral interventions, relaxation techniques, visualization, and stress simulation is explored.

The need for a comprehensive and personalized approach to psychological support for athlete training, including monitoring mental state and adjusting training interventions, is substantiated.

Key words: mental well-being of athletes; psychological stress resistance; high-performance sport; psychoemotional stress; psychological regulation of activity; anxiety-depressive symptoms; emotional distress.

В условиях динамичного развития мирового спорта феномен ментального благополучия и психологической устойчивости спортсменов привлекает большое внимание как со стороны научного сообщества, так и со стороны международных спортивных организаций. В частности, Международный олимпийский комитет и Всемирная организация здравоохранения подчёркивают необходимость системного подхода к обеспечению ментального благополучия спортсменов как важнейшего условия их профессиональной эффективности и долгосрочной спортивной карьеры.

Психологическая стрессоустойчивость профессиональных спортсменов представляет собой один из важнейших компонентов их успешной деятельности, который обеспечивает способность сохранять концентрацию, проявлять эмоциональную стабильность и демонстрировать адекватное поведение в условиях высоких требований и интенсивных нагрузок, свойственных их профессии.

Воздействие стресса на результативность настолько велико, что понимание того, как эти факторы влияют на спортсменов и как можно минимизировать их негативное влияние, имеет фундаментальное значение. Подготовка к стрессовым событиям является важной частью тренировки, а чрезмерная нагрузка без восстановления приводит к неблагоприятным последствиям. В то время как целенаправленные тренировочные техники помогают спортсмену справляться с типичным соревновательным стрессом и выполнять навыки под давлением.

На уровень стрессоустойчивости спортсменов существенно влияют множество факторов, среди которых выделяются индивидуальные особенности, социальные факторы команды и условия спортивной деятельности.

Социальные факторы, такие как поддержка со стороны тренера, коллег по команде и близких, играют важную роль в снижении уровня стресса и укреплении внутренней устойчивости. При негативном влиянии даже опытные тренеры могут стать источником стресса. Совместная работа в межличностных отношениях формирует доверие, создает положительный психологический климат, способствует развитию командного духа и уверенности в своих силах. Важное значение имеет и восприятие спортсменом своей роли в команде, а также степень взаимодействия внутри спортивной среды, которая может либо усиливать стрессовые нагрузки, либо служить источником поддержки.

Современные эмпирические исследования свидетельствуют о высокой распространённости психопатологических симптомов и расстройств в среде профессиональных спортсменов: около 19,6 % испытывают выраженный эмоциональный дистресс, 26,4 % сталкиваются с нарушениями сна, а 33,6 % демонстрируют симптомы тревоги и депрессивных состояний. Кроме того, по данным научных обзоров, в течение года психические расстройства диагностируются у 5–35 % профессиональных атлетов, тогда как проявления тревожно-депрессивной симптоматики отмечаются почти у 45 % спортсменов.

Спортсмен демонстрирует оптимальные результаты, когда уровень стресса и возбуждения находится в пределах умеренного диапазона. Небольшое беспокойство полезно для результата, но слишком высокий или низкий уровень вреден. Ментальная устойчивость и уверенность в себе усиливают результативность, тогда как низкая мотивация и страх неудачи снижают её.

Программы развития стрессоустойчивости у профессиональных спортсменов представляют собой систематизированные комплексы психологических, тренинговых и образовательных мероприятий, направленных на укрепление внутренних ресурсов и повышение адаптивных возможностей. Одним из ключевых аспектов таких программ является внедрение психологических вмешательств, основанных на использовании техник когнитивно-поведенческой терапии, релаксационных методов, аффирмаций и визуализации. Эти подходы способствуют снижению уровня тревожности, развитию навыков саморегуляции и формированию позитивных установок, что в совокупности повышает устойчивость к стрессовым воздействиям.

Тренировочные режимы устойчивости включают регулярные упражнения, моделирующие стрессовые ситуации, и направлены на практическое закрепление навыков адаптации. В их рамках происходит последовательное усложнение сценариев, позволяющее спортсменам научиться управлять эмоциями и сохранять концентрацию в экстремальных условиях соревнований. Такой тренировочный процесс помогает сформировать автоматические реакции и повысить уровень психологической гибкости, что подтверждается положительными результатами в управлении напряжением и снижении количества ошибок в критические моменты.

Различные формы коллективных тренировок, ролевых игр и психологических тренингов способствуют укреплению командного духа, развитию доверия и улучшению взаимодействия внутри команды. Это, в свою очередь, создает благоприятную среду для обмена опытом и совместного преодоления стрессовых ситуаций. Эффективность программ развития стрессоустойчивости достигается посредством комплексного использования различных методов, что позволяет адресовать индивидуальные особенности спортсменов и создавать персонализированные подходы. Особое значение имеют постоянный мониторинг прогресса, внедрение обратной связи и коррекций на основе динамики психологического состояния.

Анализ современного состояния психологии спорта показывает, что к настоящему времени созрели предпосылки концептуального оформления психологической теории спортивной деятельности, обладающей необходимым потенциалом для решения прикладных психологических задач, выдвигаемых современным спортом. К ее существенным характеристикам можно отнести:

– структурно-функциональный и структурно-генетический анализ психологических механизмов регуляции деятельности спортсменов, позволяющий определить вклад каждого этапа многолетней подготовки спортсменов в формирование психологических предпосылок их выхода на пик достижений;

– личностно-деятельностный подход к оценке потенциальных возможностей спортсменов, на основе которого могут быть установлены ресурсы и ограничения самореализации высококвалифицированных спортсменов, обусловленные присущими им устойчивыми сочетаниями индивидуально-психологических свойств, что, в свою очередь, позволяет разрабатывать программы психологического обеспечения подготовки спортсменов, способствующие раскрытию сильных сторон их психической индивидуальности и компенсации слабых;

– принятие во внимание долговременности включения спортсменов в спортивную деятельность, превращения ее в специфический образ жизни, направленный на поддержание и совершенствование профессиональной формы, и возникновения в связи с этим долговременных регуляторов деятельности, определяющих устойчивый уровень психических нагрузок, переносимых спортсменами.

Представленные индивидуально-психологические и социальные факторы выступают не только детерминантами стрессоустойчивости, но и объектами целенаправленного психологического воздействия. Их вариативность и динамический характер предполагают возможность коррекции посредством специально организованных программ психологической подготовки. Следовательно, разработка и внедрение программ развития стрессоустойчивости являются закономерным этапом оптимизации профессиональной деятельности спортсменов.

Анализ проблемы стрессоустойчивости в спорте высших достижений целесообразно осуществлять в рамках структурно-функционального подхода к психологической регуляции деятельности. Данный подход позволяет рассматривать спортивную деятельность как систему, функционирующую в условиях хронического психического напряжения. В этом контексте положения Б.В. Вяткина и В.А. Голочека приобретают концептуальное значение.

Суть современного спорта высших достижений заключается в постоянной соревновательной активности и высокой степени конкуренции. Б.В. Вяткин (2012) характеризует спорт высоких достижений как

специфическую деятельность, осуществляемую в ее главном звене — соревнованиях — в условиях ярко выраженного психического стресса.

В.А. Голочек (2017), рассматривая спорт высших достижений как модель для изучения феномена «психологических ниш», подчеркивает, что в данном виде деятельности взаимодействие «своих» и «чужих» просматривается наиболее рельефно, соперничество не замалчивается и «не камуфлируется благовидными мотивировками». Характеризуя спорт высших достижений, автор также указывает на такие его особенности, как предельное напряжение физических и психических возможностей, безальтернативность исхода встречи для конкурентов (взаимоисключение успешности друг друга и отсутствие вторичной выгоды для проигравшего), высокая личностная значимость исхода состязаний, короткий период жизни человека в спорте и наличие четко дифференцированных критериев оценки успешности спортсмена.

Перспективы дальнейших исследований в данной области связаны с разработкой внедрения цифровых технологий мониторинга психоэмоционального состояния, что позволит повысить точность и оперативность психологического сопровождения.

В заключение следует подчеркнуть, что обеспечение психологической стрессоустойчивости профессиональных спортсменов является стратегической задачей современного спорта высших достижений. Комплексный и научно обоснованный подход к формированию ментальной устойчивости способствует не только повышению спортивных результатов, но и сохранению психического здоровья, продлению профессионального долголетия и гармоничному развитию личности спортсмена.

Использованная литература:

1. Логинова, И. О. Психология спортивной карьеры : учебное пособие / И. О. Логинова, Н. Н. Вишнякова, М. С. Севостьянова. — Красноярск : КрасГМУ им. проф. В.Ф. Войно-Ясенецкого, 2021. — 235 с. — Текст : электронный // Лань : электронно-библиотечная система;

2. Bohodirovna, T. D. (2025, September). THE SCIENCE OF STAYING STRONG: COGNITIVE AND EMOTIONAL PREDICTORS OF STRESS RESILIENCE. In CONFERENCE OF ADVANCE SCIENCE & EMERGING TECHNOLOGIES (Vol. 1, No. 3, pp. 220-222);

3. Gouttebarge, V., Castaldelli-Maia, J. M., Gorczynski, P., Hainline, B., Hitchcock, M. E., Kerkhoffs, G. M., Rice, S. M., & Reardon, C. L. (2019). Occurrence of mental health symptoms and disorders in current and former elite athletes: a systematic review;

4. Gupta S and McCarthy PJ (2022) The sporting resilience model: A systematic review of resilience in sport performers. Front. Psychol. 13:1003053. doi: 10.3389/fpsyg.2022.1003053;

UDK 001.8:33(575.1)

Abdullayeva Muxayyo Iskandarovna,
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
"Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI INNOVATSIYALAR — YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHNING MUHIM OMILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilm-fan taraqqiyotidagi innovatsiyalar Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim omili ekanligi yoritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizda ilmiy sohani rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar tahlil qilingan. Ilm-fan taraqqiyotini aks ettiruvchi yorqin misollar keltirilib, ularning amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans, ilm-fan, yuksak ma'naviyat, intellektual salohiyat, yosh avlod, ta'lim, tarbiya, bunyodkorlik, jahon andozalari.

ИННОВАЦИИ В РАЗВИТИИ НАУКИ — ВАЖНЫЙ ФАКТОР ПОСТРОЕНИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В статье освещается, что инновации в развитии науки являются важным фактором построения Нового Узбекистана. Проанализированы комплексные реформы, осуществляемые в нашей стране в сфере развития науки. Приведены наглядные примеры, отражающие развитие научной сферы, а также раскрыта их практическая значимость.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Третье Возрождение, наука, высокая духовность, интеллектуальный потенциал, молодое поколение, образование, воспитание, созидательность, мировые стандарты.

INNOVATIONS IN SCIENTIFIC DEVELOPMENT AS A KEY FACTOR IN BUILDING THE NEW UZBEKISTAN

Abstract. This article highlights that innovations in scientific development are a key factor in building the New Uzbekistan. It analyzes the comprehensive reforms being implemented in the country to advance the field of science. The paper presents clear examples illustrating scientific progress and reveals their practical significance.

Keywords: New Uzbekistan, Third Renaissance, science, high spirituality, intellectual potential, young generation, education, upbringing, creativity, international standards.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonni barpo etish va mamlakatimizda inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish maqsadida keng qamrovli islohotlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda ilm-fan taraqqiyoti inson salohiyatining ajralmas, asosiy ustuni sifatida qaraladi. Ilm-fanning rivojlanishi

nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy rivojlanishning ham katalizatori hisoblanadi. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ilm-fanni rivojlantirish va yosh avlodni yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lishiga yo'naltirilgan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentning Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida ta'kidlanishicha:

"Biz Yangi O'zbekistonni ijtimoiy davlat tamoyili asosida qurishni maqsad qilmoqdamiz" [1, 21-b.].

Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratish dolzarb vazifalarini belgilab beradi va bu jarayonni yanada chuqurroq va tizimli rivojlantirishni talab etadi. Prezidentimizning so'zlariga ko'ra:

"Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi uyg'onish – Uchinchi Renessans davri poydevori yaratilmoqda" [2, 2-b.].

Uchinchi Renessansning barqaror rivojlanishida xalqimizning jipsligi, birdamligi va fidoiyligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, Yangi O'zbekistonni barpo etishda O'zbekiston ilm-fanining roli beqiyosdir. Ilm-fan nafaqat innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, balki milliy intellektual salohiyatni oshirish, yosh avlodni ilmiy tafakkurga o'rgatish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkonini beradi. Shu sababli davlat rahbarining 2016-yil 30-dekabrdagi birinchi Prezident uchrashuvi yurtimiz akademiklari bilan o'tkazilgan bo'lib, bu ilm-fanni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilganligini ko'rsatadi.

O'tgan asrning 90-yillari o'rtalaridan boshlab O'zbekiston ilm-fanida "muzlik" davri boshlandi va 2017-yilgacha davom etdi. Bu davr ilmiy salohiyatning to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qilgan bo'lsa-da, bugungi kunda u ortda qoldirildi. Masalan, O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zoligi oxirgi marta 1995-yilda yangilangan edi. Natijada akademiklarning soni ikki barobardan ko'proqqa qisqarib, atigi 63 nafar haqiqiy a'zo qoldi. 2017-yil 29-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolarini tasdiqlash to'g'risida"gi farmon bilan 32 nafar yangi haqiqiy a'zolar saylandi. Shu bilan birga, 9 ta ilmiy-tadqiqot muassasasi Fanlar akademiyasi tarkibiga qaytarildi va bir qator ilmiy tashkilotlar qayta tashkil etildi.

Shu tariqa, O'zbekiston ilm-fani zamonaviy kadrlar tayyorlash va yuqori texnologiyalar sohasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu nuqtai nazardan, Uchinchi Renessansni strategik vazifa sifatida milliy g'oya darajasiga olib chiqish va uni amalga oshirishdagi tayanch ustunlaridan biri sifatida bog'cha tarbiyachilari, maktab o'qituvchilari, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimiz faol ishtirok etadi. Prezidentimizning so'zlariga ko'ra:

"Bog'cha tarbiyachisi, maktab o'qituvchisi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimiz yangi uyg'onish davrining tayanch ustunlari bo'ladi" [3, 3-b.].

Bu jarayon nafaqat ilm-fan salohiyatini oshirish, balki mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va intellektual rivojlanishini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi. Shu maqsadda ilmiy-tadqiqot institutlari, innovatsion

laboratoriyalar va yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash tizimlari joriy qilinmoqda. Ilm-fanning rivojlanishi, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, startap va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, shuningdek, xalqaro hamkorliklarni kengaytirish Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ilm-fanning rivojlanishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratildi va tizimli choralar joriy etildi. Xususan, 2020-yil 29-oktabrda “O‘zbekistonda ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” tasdiqlandi. Ushbu konsepsiya ilm-fanning rivojlanishi uchun aniq yo‘nalishlar va strategik vazifalarni belgilab beradi, shuningdek, uning amalga oshirilishini o‘lchash uchun o‘n yettita maqsadli ko‘rsatkichni aniqlaydi. Konsepsiyaga muvofiq, 2025-yilgacha ilm-fanga yo‘naltiriladigan mablag‘larning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 6 barobar, 2030-yilgacha esa 10 barobar oshirilishi belgilangan. Bu o‘z navbatida mamlakatimiz ilmiy salohiyatini mustahkamlash va global raqobatbardosh ilm-fan tizimini shakllantirish imkonini beradi.

Shuningdek, ilm-fanning rivojlanishida xalqaro hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Shu maqsadda Germaniya, Rossiya va Belarus bilan 9,6 milliard so‘mlik 38 ta qo‘shma ilmiy loyiha amalga oshirildi. Ushbu loyihalar nafaqat tajriba almashish va ilmiy salohiyatni oshirishga xizmat qilmoqda, balki mamlakatimiz ilmiy-tadqiqot muassasalarini global ilmiy maydonga integratsiya qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, Jahon banki tomonidan milliy innovatsion tizimni rivojlantirish uchun 50 million AQSh dollari miqdoridagi imtiyozli zayom mablag‘lari ajratildi. Ushbu mablag‘lar ilmiy-innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, startap va yangi texnologik yechimlarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash va ilm-fanga jalb qilish maqsadida “Akademik harakatchanlik” dasturi joriy qilindi. Dasturning asosiy vazifasi hududlarda iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullanishga jalb qilish va o‘z iqtidorlarini amaliyotda rivojlantirishga ko‘maklashishdir. Shu bilan birga, ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash va ularni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimi ishlab chiqildi. Bu tizim orqali izlanuvchi olimlar, ilmiy rahbarlar va konsultantlar, dissertatsiyalar, ilmiy salohiyat holati va kvotalar bo‘yicha ma’lumotlar bir markazda jamlanadi. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimida xorijiy mamlakatlar tajribasiga mos ravishda falsafa doktori darajasi O‘zbekistonda “Fan doktori” (DSc) sifatida tan olinadi, professor va dotsent ilmiy unvonlari qo‘shimcha ekspertizadan o‘tmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tan olinadi.

Uchinchi Renessansning barqaror rivojlanishi ilm-fanning barcha sohalarini, ayniqsa tabiiy fanlarni doimiy qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Shu ma’noda, yadro fizikasi, matematika, kimyo va biologiya yo‘nalishlaridagi qarorlar mamlakatning yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarilishida muhim qadam hisoblanadi [5, 3-b.]. 2016-yilda Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro anjumanda Jahon Sayyohlik Tashkiloti bosh kotibi Tolib Rifoiy ta’kidlaganidek:

“Movarounnahr o‘rta asrlarda dunyoning Silikon vodiysi bo‘lgan” [6, 3-b.].

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etishda ilm-fanga asoslanishning ahamiyati alohida e’tiborga loyiq. Jahonda robototexnika, avtomatlashtirish va nanotexnologiyalar rivojlangan davrda ilm-fan asosida yangi taraqqiyot bosqichiga

erishish nafaqat imkoniyat, balki zarurat hisoblanadi. Mamlakatimizda ilm-fan taraqqiyoti uchun yaratilgan shart-sharoitlar, yoshlarning ilm-fanga bo‘lgan yuqori qiziqishi va global ilmiy maydonda faol ishtirok etishga tayyorligi Yangi O‘zbekistonni tez fursatda barpo etish imkoniyatini mustahkamlab beradi. Shu nuqtai nazardan, ilm-fan va innovatsiyalar – Yangi O‘zbekistonni yaratishda strategik ustun omil sifatida xizmat qilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilm-fanni rivojlantirish yo‘nalishida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar Yangi O‘zbekistonni barpo etishda asosiy va muhim omillardan biri sifatida e’tirof etilishi lozim. Ushbu islohotlar nafaqat ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy infratuzilma va moliyaviy resurslar bilan ta’minlash, balki yosh olimlarni rag‘batlantirish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish, xorijiy hamkorliklarni rivojlantirish va startap ekotizimini shakllantirish kabi ko‘plab yo‘nalishlarni qamrab oladi. Shu bilan birga, davlat tomonidan ilgari surilayotgan ilm-fanni rivojlantirish konsepsiyalari mamlakat ilmiy salohiyatini yanada kuchaytirishga, intellektual resurslarni rivojlantirishga, yangi kadrlar tayyorlashga va innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etishga xizmat qilmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayoni faqat iqtisodiy va siyosiy islohotlar bilan cheklanmaydi. Bu jarayonda inson kapitali, xususan, fidoiy olimlar va ilmiy-ijodiy ziyolilarning faoliyati, ularning intellektual salohiyati va innovatsion yondashuvlari eng muhim rolni o‘ynaydi. Ilm-fan va texnologik taraqqiyot asosida rivojlanayotgan yangi O‘zbekiston, raqobatbardosh iqtisodiyot, yuqori sifatli ta’lim va zamonaviy texnologiyalarni birlashtirgan holda, global miqyosda o‘z o‘rnini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shuningdek, ilm-fanning rivoji yosh avlodni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlash, ularni xalqaro standartlar asosida tarbiyalash, innovatsion va ijodiy salohiyatga ega shaxslar etib voyaga yetkazish imkonini beradi. Bu esa Yangi O‘zbekistonning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashga, milliy g‘oya va qadriyatlarni ilmiy asosda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, agar mamlakatimizning fidoiy olimlari va ilmiy-ijodiy ziyolilari yanada faolroq ishtirok etsa, ilm-fanni rivojlantirish, innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish va yangi texnologik yechimlarni yaratish orqali Yangi O‘zbekistonni qurish jarayoni yanada yuqori natijalarga erishadi. Bu esa nafaqat iqtisodiy o‘sish va xalq farovonligini oshirishga, balki O‘zbekistonning ilm-fan, ta’lim va texnologiya sohalarida global maydondagi nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonni barpo etishda ilm-fan – bu milliy taraqqiyotning asosiy dvigateli bo‘lib, olimlar va ziyolilarning fidoyiligi, innovatsion yondashuvlari va uzluksiz izlanishlari orqali mamlakatimizning barqaror va yuksak rivojlanishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, ilm-fanga yo‘naltirilgan keng qamrovli strategik chora-tadbirlar, milliy g‘oya va Uchinchi Renessans konsepsiyasi bilan uyg‘unlashib, Yangi O‘zbekistonni jahon miqyosida raqobatbardosh, innovatsion va intellektual salohiyatga boy davlatga aylantirish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnoma. – “Xalq so‘zi”, 2022-yil, 21-dekabr, 21-bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Mustaqillik – ezgu niyatlarimiz, buyuk maqsadlarimiz ro‘yobi yo‘lida qudrat manbai. – Prezidentning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. “Yangi O‘zbekiston”, 2020-yil, 1-sentabr, 2-bet.
3. “Yangi O‘zbekiston”. – 2020-yil, 3-noyabr, 210-son, 3-bet.
4. “Yangi O‘zbekiston”. – 2020-yil, 3-noyabr, 210-son, 3-bet.
5. Mavrulov A. Uchinchi Renessans – munosib kelajak poydevori. – “Yangi O‘zbekiston”, 2020-yil, 6-oktabr, 190-son, 3-bet.
6. Munavvarov Z. Yangi Renessans – daxldorlik sharafi va mas’uliyati. – “Yangi O‘zbekiston”, 2020-yil, 15-sentabr, 176-son, 3-bet.

UDK 37.018



Raximova Dilbar Muxitdinovna,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Maqolada ta’lim jarayoni samaradorligi masalasi shaxs psixologik faoliyatining ichki mexanizmlari orqali ilmiy tahlil qilinadi. Ta’lim oluvchining motivatsion yo‘nalganligi, kognitiv faoliyat xususiyatlari va emotsional barqarorligi ta’lim natijalarini belgilovchi asosiy omillar sifatida asoslanadi. Psixologik qonuniyatlarga tayangan pedagogik yondashuv ta’lim sifatini oshirishning samarali modeli sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim samaradorligi, shaxs psixologiyasi, motivatsiya, kognitiv faoliyat, pedagogik yondashuv.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПОВЫШЕНИЮ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье анализируется вопрос эффективности образовательного процесса через внутренние механизмы психологической активности личности. В качестве основных факторов, определяющих результаты обучения, рассматриваются мотивационная ориентация обучающегося, характеристики познавательной деятельности и эмоциональная устойчивость. Педагогический подход, основанный на психологических законах, рассматривается как эффективная модель повышения качества образования.

Ключевые слова: эффективность образования, психология личности, мотивация, познавательная деятельность, педагогический подход.

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL APPROACHES TO IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

Abstract. The article scientifically analyzes the issue of the effectiveness of the educational process through the internal mechanisms of the psychological activity of the individual. The motivational orientation of the learner, the characteristics of cognitive activity and emotional stability are considered as the main factors determining the results of education. A pedagogical approach based on psychological laws is considered as an effective model for improving the quality of education.

Keywords: educational effectiveness, personality psychology, motivation, cognitive activity, pedagogical approach.

Bugungi ta’lim tizimida samaradorlik tushunchasi faqat o‘quv natijalari bilan chegaralanmaydi. Ta’lim jarayoni shaxsning ichki psixologik faolligini yuzaga chiqarishga xizmat qilgan taqdirdagina kutilgan natijani beradi. Shu sababli zamonaviy ta’lim jarayonini tashkil etishda pedagogik omillar psixologik asoslar bilan uyg‘un holda ko‘rib chiqilishi ilmiy zaruratga aylandi. Ta’lim oluvchi shaxsining psixologik holati, ehtiyojlari va individual imkoniyatlari hisobga olinmagan pedagogik jarayon barqaror samaradorlikni ta’minlay olmaydi. Mazkur holat ta’lim samaradorligini shaxs psixologiyasi bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etishni talab etadi.

Ta’lim samaradorligining psixologik asoslari, psixologik nuqtayi nazardan ta’lim samaradorligi shaxsning bilish faoliyatiga qanchalik faol jalb etilganligi bilan belgilanadi. Bilim tashqi nazorat yoki majburiy ta’sir orqali emas, balki ichki motivatsiya orqali o‘zlashtirilgandagina chuqur va barqaror bo‘ladi. Ichki motivatsiya shakllangan ta’lim muhitida o‘quvchi bilim olish jarayonini shaxsiy rivojlanish vositasi sifatida qabul qiladi. Aksincha, tashqi rag‘bat va bosimga asoslangan ta’lim modeli qisqa muddatli natijalar bersa-da, ongli o‘zlashtirishni cheklaydi [1]. Shuningdek, emotsional holat ta’lim samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy emotsiyalar bilish jarayonlarini faollashtirsa, salbiy kechinmalar psixologik qarshilikni kuchaytiradi.

Darhaqiqat, har bir insonning o‘z individual olamida sodir etilayotgan barcha ma'naviy, ruhiy kechinmalarini u yashab turgan jamiyat istiqbollariga mos tarzda tadqiq qilmay turib, shaxs va faoliyat, shaxs va jamiyat, shaxs va individuallik o‘rtasidagi ijtimoiy mutanosiblikni ta'minlab bo‘lmaydi. Zero, psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilinayotgan ijtimoiy psixologik himoya falsafasi ham shunitaqozo etmoqda. Insonning individuallik darajasi yana shu bilan ifodalanadiki, undagi faoliyatning usullari va vositalari hech qachon tayyor holdagi barcha uchun bir xil umuminsoniy tajribalardan iborat bo‘la olmaydi. Har bir inson o‘z individual sifatlari va filogenezdagi xususiyatlari (ijtimoiy individuallashuvning shakllanishi) asosida ijtimoiy faollik taqozo etgan faoliyatning mustaqil sub'ektiga aylanib boradi. Bu bilan jamiyat har bir individning o‘z hayotiy poydevori uchun muhim bo‘lgan "g‘isht"ni o‘zi barpo etishida ijtimoiy shart-sharoit yaratib beradi. Bunday shart-

sharoit esa har bir shaxsning umumiy va maxsus individual imkoniyatlari ko‘lamini ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilish va tobora kamoltoptira borish yo‘llarini izlash asosidagina qaror toptirilishi mumkin [5].

Kognitiv faoliyat va ta’lim jarayoni: ta’lim jarayoni kognitiv faoliyat — idrok, diqqat, xotira va tafakkur — orqali amalga oshadi. Ushbu jarayonlarning rivojlanish darajasi har bir shaxsda turlicha bo‘lib, pedagogik ta’sirda buni inobatga olish muhim ilmiy talab hisoblanadi[2]. Axborotning anglab o‘zlashtirilishi idrok va tafakkur faolligiga bog‘liq bo‘lsa, bilimlarning mustahkamligi xotira jarayonlari bilan belgilanadi. Shu bois psixologik yondashuvga asoslangan ta’limda yodlash emas, balki tahlil va refleksiya ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv bilimlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishini va ularning amaliy faoliyatda qo‘llanishini ta’minlaydi.

Emotsional muhit va pedagogik muloqot, ta’lim jarayonida yaratilgan psixologik muhit samaradorlikning muhim sharti hisoblanadi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotda ishonch va hurmat ustuvor bo‘lgan sharoitda shaxsda psixologik xavfsizlik hissi shakllanadi. Psixologik jihatdan qulay muhit o‘quvchining faolligini oshiradi, tashabbus ko‘rsatishiga imkon yaratadi va xatolardan qo‘rqmasdan o‘rganishga undaydi. Aksincha, bosim va tanqid ustun bo‘lgan muhit ta’lim jarayonini samarasiz holga keltiradi [6].

Psixologik yondashuvga asoslangan pedagogik model, zamonaviy pedagogik faoliyatda o‘qituvchi bilim manbai emas, balki shaxs rivojini yo‘naltiruvchi mutaxassis sifatida namoyon bo‘ladi. Psixologik yondashuvga tayangan pedagogik model ta’lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Ushbu model ta’lim oluvchida mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini baholash va shaxsiy mas’uliyat kabi sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa ta’lim samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablar tobora murakkablashib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash ta’lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi [7]. Ushbu maqsadga erishishda faqatgina pedagogik texnologiyalarni qo‘llash yetarli bo‘lmay, balki ta’lim jarayonini psixologik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim tizimida ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlash pedagogik omillar bilan bir qatorda psixologik yondashuvlarni ilmiy asosda qo‘llashni talab etadi. Ta’lim oluvchining shaxsiy xususiyatlari, yosh va individual-psixologik rivojlanish darajasi, motivatsiyasi hamda emotsional-irodaviy holatlarini hisobga olish ta’lim sifati va natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur maqolada ta’lim jarayonida pedagogik-psixologik yondashuvlarning o‘rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Bola rivojlanishining turli tomonlarini har xil fanlar — anatomiya, fiziologiya, oliy nerv faoliyati fiziologiyasi, gigiena, etnografiya va boshqalar o‘rganadi. Tug‘ilgandan etuklik davrigacha bola psixik taraqqiyotini o‘rganish esa psixologik bilimlaming maxsus sohasi - bolalar psixologiyasining zimmasidadir. Chunki bolalar psixologiyasi bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlari, rivojlanishning turli bosqichlarida bola psixikasiga xos xususiyatlar haqidagi fandir. L.F. Obuxova

ta'kidlaganidek, bolalar psixologiyasi fanining predmeti tarixan o'zgarib boigan. Bugungi kunda bolalar pixolpgiyasi fanining predmeti ontogenezdagi psixik taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari, yosh daviiari, bir yosh davridan boshqasiga o'tish sabablarini aniqlashdan iborat. Agar pediatr bolalaming jismoniy salomatligi bilan shug'ullansa, bolalar psixologi bola psixikasining qanchalik to'g 'ri rivojlanayotgani va faoliyat ko'rsatayotganini, bordi-yu bu sohada kamchilik bo'lsa, uni nimaning hisobiga kompensatsiyalash mumkinligini o'iganadi. Hozirgi kunda bolalar psixologiyasi fani predmetining kengayib borishi kuzatilmoqda. Bu hodisa bolaning homila davridagi rivojlanishini tobora chuqurroq o'rganish natijasida ro' y bermoqda [4].

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik-psixologik yondashuvlarning mohiyati: Pedagogik-psixologik yondashuv ta'lim jarayonini shaxs rivojiga yo'naltirilgan holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bunda o'quvchi ta'lim jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki faol subyekti sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv o'quvchining bilish jarayonlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olishni taqozo etadi. Psixologik yondashuvning asosiy maqsadi — o'quvchilarning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Ta'lim jarayonida qulay psixologik muhit yaratish, o'quvchilar o'rtasida hamkorlik va o'zaro hurmatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bunday muhit o'quvchilarning o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatini kuchaytirib, bilimlarni chuqur va ongli o'zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, pedagogik-psixologik yondashuv ta'lim mazmuni, usullari va shakllarini tanlashda ilmiy-psixologik qonuniyatlarga tayanishni talab etadi. Bu esa ta'lim samaradorligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsining psixologik xususiyatlarini hisobga olish: Ta'limni samarali tashkil etishda o'quvchining yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Har bir o'quvchi o'ziga xos psixologik rivojlanish darajasiga, bilish qobiliyatlariga va shaxsiy ehtiyojlarga ega. Shu sababli ta'lim jarayonini standart yondashuv asosida emas, balki differensial va individual yondashuvlar asosida tashkil etish zarur.

O'quvchilarning bilish jarayonlari — idrok, xotira, tafakkur va tasavvur — ta'lim jarayonining asosiy psixologik mexanizmlaridan hisoblanadi. Ushbu jarayonlarning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda darslarni tashkil etish o'quvchilarning bilimlarni puxta o'zlashtirishiga yordam beradi. Ayniqsa, boshlang'ich va o'rta ta'lim bosqichlarida o'yin texnologiyalari, muammoli vaziyatlar va interaktiv usullardan foydalanish samarali natijalar beradi. Bundan tashqari, o'quvchilarning emotsional-irodaviy holatlari ham ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Stress, xavotir va qo'rquv kabi salbiy emotsiyalar bilimlarni o'zlashtirish jarayonini sekinlashtiradi. Shu bois o'qituvchi o'quvchilarning psixologik holatini doimiy ravishda nazorat qilib borishi va zarur hollarda qo'llab-quvvatlashi lozim [8].

Ta'lim samaradorligini oshirishda motivatsiyaning roli: Motivatsiya ta'lim jarayonining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Psixologik yondashuv asosida ta'lim jarayonida ichki motivatsiyani shakllantirish o'quvchilarning bilim olishga

bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Ichki motivatsiya o‘quvchini bilimlarni majburiyat sifatida emas, balki shaxsiy ehtiyoj sifatida o‘zlashtirishga undaydi. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlash, ularni muammoli vaziyatlarga jalb etish, erkin fikr bildirish imkoniyatini yaratish motivatsiyani kuchaytiradi. Shuningdek, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘quvchilarning o‘z ustida ishlashga bo‘lgan intilishini oshiradi.

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlar ham motivatsiya shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. O‘zaro hurmat, ishonch va hamkorlikka asoslangan munosabatlar ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni o‘zlashtirish va o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular interiorizatsiyalanadi. Muloqot davomida ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar amalga oshadi, uning vositasida hamkorlikdagi faoliyat ro‘yobga chiqariladi. Muloqot psixologiyasi sohasidagi bilimlarni yoshlar, ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarga yetkazish ularning psixologik savodxonligini oshiradi, ma’naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirishga, bo‘lg‘usi pedagogik faoliyatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi [3].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ta’lim samaradorligini oshirish pedagogik jarayonda shaxs psixologiyasiga tayangan yondashuvni talab etadi. Motivatsiya, kognitiv faoliyat va emotsional muhit uyg‘unligi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni nafaqat barqaror, balki sifatli natijalarni ham ta’minlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirishda psixologik jihatlar, ya’ni o‘quvchining diqqatini jamlash qobiliyati, mustaqil fikrlashga intilishi va o‘ziga bo‘lgan ishonchi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim sharoitida pedagogik faoliyatni psixologik qonuniyatlar asosida tashkil etish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. Bu yondashuv o‘quvchilarni nafaqat bilimsiz, balki fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyati rivojlangan shaxs sifatida shakllantiradi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida interaktiv va axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning bilimni tezroq va samaraliroq o‘zlashtirishiga, o‘qishga qiziqishini oshirishga, mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, pedagoglar ta’lim jarayonini rejalashtirayotganda o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olishi, ularning motivatsiyasini uyg‘otish, qiziqish va ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish zarur. Ta’limiy resurslar va zamonaviy axborot texnologiyalari bu jarayonda vosita sifatida qo‘llanilganda, o‘quv jarayoni nafaqat samarali, balki interaktiv va qiziqarli bo‘ladi, o‘quvchilarda mustaqil o‘rganish, axborotni tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalari shakllanadi.

Shu bilan birga, pedagogik jarayonning samaradorligi o‘quvchilarning emotsional barqarorligi, ijobiy ruhiy muhit va pedagogik qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq. O‘qituvchi o‘z faoliyatini psixologik qonuniyatlar va didaktik printsiplarga

asoslagan holda olib borsa, o‘quv jarayoni nafaqat bilimni oshirish, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirish, ularni mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuvga o‘rgatish zamonaviy ta’limning asosiy vazifasi bo‘lib, bu vazifani amalga oshirishda psixologik yondashuv va zamonaviy axborot texnologiyalari integratsiyasi eng samarali vosita sifatida qaraladi. Shu tariqa, ta’lim jarayoni nafaqat bilimni oshirish, balki o‘quvchilarda mustahkam intellektual, mantiqiy va emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davletshin M.G. Ta’lim psixologiyasi. – Toshkent, 2020.
2. Leontev A.N. Faoliyat va shaxs muammolari. – Moskva, 2020.
3. Maqsudova M. Muloqot psixologiyasi. Oquv qo‘llanma. T “Turon iqbol” 2006.
4. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi “O‘zbekiston Yozavchilar oyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti” T-2006.
5. Nishanova Z.T., Alimbayeva Sh., Sulaymanov M.V. Psixologik xizmat. T-2013.
6. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Sankt-Peterburg, 2018.
7. Vygotskiy L.S. Psixik rivojlanish nazariyasi. – Moskva, 2019.
8. Zimnyaya I.A. Pedagogik psixologiya. – Moskva, 2021.

UDK 159.923.2:316.6

Ostonova Gulchiroy Orif qizi,
Nizomiy nomidagi O‘MPU doktoranti

O‘SMIRLIK DAVRIDA ANTIPATIYANING SHAKLLANISHI VA NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘smirlik davrida antipatiyaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Antipatiyaning affektiv, kognitiv, bixevioral va ijtimoiy-madaniy tarkibiy qismlari yoritilib, uning o‘smir shaxsining ichki kechinmalari, ijtimoiy maqom uchun kurash, tengdoshlar guruhi, raqamli muhit va ta’lim muhiti bilan bog‘liq holda shakllanish mexanizmlari ochib beriladi. Shuningdek, antipatiyaning bulling, ijtimoiy izolyatsiya, konflikt va ta’lim motivatsiyasi pasayishi bilan aloqador jihatlari ko‘rsatilib, uni kamaytirishda empatiya, ijtimoiy-emotsional ta’lim va sog‘lom sinf iqlimining ahamiyati asoslanadi. Tadqiqot natijalari antipatiyani faqat salbiy hissiy holat emas, balki o‘smirlikdagi shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi murakkab fenomen sifatida baholash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: antipatiya, o‘smirlik davri, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, bulling, ijtimoiy izolyatsiya, sinf iqlimi, empatiya, ijtimoiy taqqoslash.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ И ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИПАТИИ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. В данной статье анализируются социально-психологические особенности антипатии в подростковом возрасте. Рассматриваются аффективные, когнитивные, поведенческие и социокультурные компоненты антипатии, а также механизмы её формирования, связанные с внутренними переживаниями личности подростка, борьбой за социальный статус, влиянием группы сверстников, цифровой среды и образовательного пространства. Кроме того, освещаются взаимосвязи антипатии с такими явлениями, как буллинг, социальная изоляция, конфликты и снижение учебной мотиватsii. Обосновывается значимость эмпатии, социально-эмоционального обучения и благоприятного психологического климата в классе как факторов снижения уровня антипатии. Результаты исследования позволяют рассматривать антипатию не только как негативное эмоциональное состояние, но и как сложный феномен, регулирующий процессы личностного развития и межличностных отношений в подростковом возрасте.

Ключевые слова: антипатия, подростковый возраст, социально-психологические особенности, буллинг, социальная изоляция, психологический климат класса, эмпатия, социальное сравнение.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FORMATION AND MANIFESTATION OF ANTIPATHY IN ADOLESCENCE

Abstract. This article analyzes the socio-psychological characteristics of antipathy during adolescence. The affective, cognitive, behavioral, and socio-cultural components of antipathy are examined, as well as the mechanisms of its formation associated with adolescents' internal experiences, competition for social status, peer group influence, digital environments, and educational settings. The study also highlights the relationship between antipathy and such phenomena as bullying, social isolation, interpersonal conflicts, and decreased academic motivation. The importance of empathy, social-emotional learning, and a positive classroom climate in reducing antipathy is substantiated. The findings allow antipathy to be interpreted not only as a negative emotional reaction but also as a complex phenomenon that regulates personal development and interpersonal relationships during adolescence.

Keywords: antipathy, adolescence, socio-psychological characteristics, bullying, social isolation, classroom climate, empathy, social comparison.

O‘smirlik davri inson ontogenezining eng murakkab, ziddiyatli va dinamik bosqichlaridan biri hisoblanadi. Psixologik adabiyotlarda mazkur davr “o‘tish davri”, “krizisli rivojlanish bosqichi”, “identitet shakllanish davri” sifatida tavsiflanadi. Bu davrda shaxsning ichki “Men” konsepsiyasi shakllanadi, qadriyatlar tizimi qayta ko‘rib chiqiladi, mustaqillikka intilish kuchayadi hamda tengdoshlar fikri va ijtimoiy maqom muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada o‘smirlarning emotsional hayotida keskinlik, affektiv reaksiyalarning kuchayishi, ijtimoiy sezgirlik va shaxslararo munosabatlarning murakkablashuvi kuzatiladi. Ana shunday psixologik sharoitda antipatiya fenomeni o‘smirlar o‘rtasidagi munosabatlarda muhim ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

So‘nggi yillarda yoshlar tarbiyasi, ularning psixologik farovonligi hamda ta’lim muhitida sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni da yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, sog‘lom ma’naviy-psixologik muhitni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu strategiyada yoshlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, ularni turli salbiy ijtimoiy omillardan himoya qilish hamda ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhit yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori da ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning psixologik holatini monitoring qilish, yoshlar o‘rtasida sog‘lom ijtimoiy muhitni rivojlantirish, shaxslararo munosabatlar madaniyatini oshirish muhim vazifalar sifatida qayd etilgan. Mazkur hujjatlar yoshlar o‘rtasidagi salbiy

ijtimoiy hodisalar — konflikt, bulling, ijtimoiy izolyatsiya va antipatiya kabi jarayonlarni ilmiy asosda o‘rganish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, o‘smirlar o‘rtasidagi antipatiya fenomenining ijtimoiy-psixologik mohiyatini tahlil qilish, uning shakllanish omillari va namoyon bo‘lish mexanizmlarini aniqlash hamda ta’lim muhitida uni kamaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Antipatiyaning o‘smirlik davridagi psixologik mohiyati

O‘smirlik davrida antipatiya ko‘pincha shaxsning ichki kechinmalari, ehtiyojlari va psixologik holati bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Birinchi navbatda, bu emotsional labillik va reaktivlik bilan izohlanadi. Asab tizimining faol qayta qurilishi sababli o‘smirlar kayfiyatning tez-tez o‘zgarishiga moyil bo‘ladi, hissiyotlarni nazorat qilishda qiyinchilik sezadi. Natijada antipatiya ko‘pincha impulsiv, keskin va ba’zan sababsiz ko‘ringan hissiy reaksiya sifatida yuzaga keladi. Izard ta’riflagan bazaviy salbiy emotsiyalar — g‘azab, bezorilik va mensimaslik — o‘smirlarda yuqori intensivlik bilan kechadi va antipatiya reaksiyasining emotsional asosini tashkil etadi.

Ikkinchi jihat — o‘zini past baholash va ichki ziddiyatlarning mavjudligidir. Empirik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zini past baholaydigan o‘smirlar boshqalarga nisbatan ko‘proq salbiy munosabat bildirishga moyil bo‘ladi. Buning sababi shundaki, ular ijtimoiy tanqiddan qo‘rqadi, ichki noaniqlikni boshqalarga ko‘chirishga harakat qiladi va antipatiyani psixologik himoya vositasi sifatida qo‘llaydi. Bunday holatlarda proeksiya mexanizmi faollashadi: o‘smir o‘zidagi qabul qilolmagan jihatlarni atrofdagilarda “ko‘radi”.

Uchinchi jihat — egotsentrizm va o‘z nuqtai nazarini mutlaqlashtirishdir. Kognitiv rivojlanish jarayonida o‘smir o‘z fikrini nihoyatda ahamiyatli deb biladi, boshqalarning pozitsiyasini qabul qilishda qiynaladi va tanqidga kuchli emotsional reaksiya bildiradi. Shu sababli uning nuqtai nazariga zid fikr bildirgan shaxsga nisbatan antipatiya tez paydo bo‘lishi mumkin.

Antipatiyaning ijtimoiy omillari

Antipatiya faqat ichki psixik jarayon mahsuli emas, balki ijtimoiy muhit ta’sirida faol shakllanadigan hodisadir. O‘smirlik davrida tengdoshlar guruhi va ijtimoiy maqom uchun kurash bu jarayonning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. O‘smirlar orasida “biz” va “ular” chegaralari tez shakllanadi, guruh yetakchilari va chetda qolgan a’zolar ajralib chiqadi, ijtimoiy nufuz uchun raqobat kuchayadi. Aynan mana shu raqobat antipatiyaning kuchayishiga olib keladi.

Guruh dinamikasi shuni ko‘rsatadiki, antipatiya ko‘pincha liderlikka da’vogarlik, guruh me’yorlariga mos kelmaslik yoki shaxsiy manfaatlar to‘qnashuvi natijasida yuzaga keladi. Agar o‘smir guruh qoidalarini buzuvchi, “begona” yoki maqom uchun xavf tug‘diruvchi deb baholansa, unga nisbatan salbiy hissiy munosabat shakllanadi. Bunday holatda antipatiya individual hisdan chiqib, ijtimoiy identifikatsiya vositasiga aylanadi.

Qadriyatlar va xarakterlar to‘qnashuvi ham antipatiyaning muhim omillaridan biridir. O‘smirlik davrida axloqiy qarashlar, xulq me’yorlari va dunyoqarash tez shakllanadi. Agar sinf yoki guruh ichida qadriyatlar zidligi yuzaga kelsa, antipatiya

ham tez rivojlanadi. Bu holatni qadriyatlar kognitiv dissonansi sifatida talqin qilish mumkin.

Ijtimoiy taqqoslash ham antipatiyani kuchaytiruvchi omildir. O‘smirlar tashqi ko‘rinish, moddiy ta’minlanganlik, mashhurlik va qobiliyat bo‘yicha o‘zini boshqalar bilan doimiy taqqoslab boradi. Agar bu taqqoslash salbiy kechsa, u hasad, ichki noqulaylik va oxir-oqibat antipatiyaga olib keladi. Raqamli muhit, xususan ijtimoiy tarmoqlardagi ideallashtirilgan obrazlar bu jarayonni yanada kuchaytiradi.

Antipatiyaning namoyon bo‘lish shakllari

O‘smirlik davrida antipatiya turli shakllarda namoyon bo‘ladi. U verbal darajada qo‘pol so‘zlar, tanqid, mazax, asossiz salbiy baholar shaklida ko‘rinsa, noverbal darajada yuz ifodasi, masofa saqlash, ko‘z kontaktini cheklash va sovuqqon munosabat orqali bilinadi. Shuningdek, antipatiya muloqotni buzish, jamoaviy faoliyatdan chetlanish va passiv-agressiv xatti-harakatlar orqali ham ifodalanadi. Zamonaviy sharoitda uning raqamli ko‘rinishlari — onlayn ignor, dizlayk, kinoyali yoki passiv-agressiv izohlar ham keng tarqalgan.

Psixolingvistik tadqiqotlar antipatiyaning nutqdagi ifodasi o‘smirlarda yuqori darajadagi ichki tanqid va emotsional zo‘riqish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu bois antipatiya nafaqat his, balki nutq, xulq va kommunikativ uslubda ham mustahkam aks etadi.

Antipatiya, ijtimoiy izolyatsiya va bulling o‘rtasidagi bog‘liqlik

Antipatiya o‘smirlarda ijtimoiy izolyatsiyaning ham sababi, ham oqibati bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Birlamchi izolyatsiya holatida kommunikativ qiyinchiliklar, uyatchanlik yoki past o‘zini baholash tufayli o‘smirning o‘zi ijtimoiy faoliyatdan chekinadi. Bu esa atrofdagilarda unga nisbatan “begona”, “yopiq” yoki “g‘alati” degan tasavvur paydo qilib, antipatiyani kuchaytiradi. Ikkilamchi izolyatsiyada esa aksincha, guruhning salbiy munosabati tufayli o‘smir jamoadan cheklanadi.

Antipatiya va bulling o‘rtasida ham ikki tomonlama aloqadorlik mavjud. Bir tomondan, kuchli antipatiya bullingga olib borishi mumkin, ya’ni mazax qilish, kamsitish, guruhdan chiqarish va psixologik bosim ko‘rsatish orqali tajovuzkor xulq namoyon bo‘ladi. Ikkinchi tomondan esa bulling qurboni bo‘lgan o‘smirda xavotir, ishonchsizlik, past o‘zini baholash va umumlashgan antipatiya shakllanadi. Natijada o‘smir “tengdoshlar menga dushman” degan ichki pozitsiyani egallashi mumkin.

Tamg‘alash jarayoni ham antipatiyaning barqarorlashuviga olib keladi. Agar o‘smirga “beqaror”, “agressiv”, “qoloq” yoki “noqulay” kabi salbiy yorliq qo‘yilsa, bu tamg‘a uning o‘z-o‘zini idrok qilishiga ta’sir ko‘rsatadi va “o‘zini oqlovchi bashorat” mexanizmini ishga tushiradi. Buning oqibatida ijtimoiy izolyatsiya, depressiv reaksiyalar va deviant xulq xavfi kuchayadi.

Ta’lim muassasasida antipatiya shakllanishining omillari

Ta’lim muassasasi o‘smir shaxsiy rivojlanishining asosiy ijtimoiy maydonidir. Undagi sinf klimati, o‘qituvchi–o‘quvchi munosabatlari, o‘quvchi–o‘quvchi o‘zaro aloqalari va maktab tarbiya siyosati antipatiyani shakllantirishi yoki kamaytirishi mumkin. Sog‘lom sinf iqlimida o‘zaro hurmat, emotsional qo‘llab-quvvatlash va konstruktiv muloqot ustun bo‘ladi. Bunday sharoitda antipatiyaning

kuchayish ehtimoli past bo‘ladi. Aksincha, salbiy sinf iqlimida guruhlarga bo‘linish, raqobat, tamg‘alash va chetlatish kuchayib, antipatiya tez tarqaladi.

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat ham juda muhimdir. Adolatsiz baholash, qattiq tanqid, individual farqlarni inkor etish, sinf oldida sharmanda qilish yoki emotsional sovuqlik o‘quvchida o‘qituvchiga nisbatan antipatiyani shakllantiradi. O‘smirlar o‘qituvchining ohangi, yuz ifodasi va muomala uslubiga nihoyatda sezgir bo‘lgani uchun salbiy ishoralarni tezda antipatik signal sifatida qabul qiladi.

Tengdoshlar bilan munosabatlar esa antipatiyaning eng dinamik ko‘rinishlaridan biridir. Sotsiometrik jihatdan “yoqtirilmagan” o‘quvchilar ko‘proq xavotir, past o‘zini baholash va chetlanish holatlarini boshdan kechiradi. Kichik konfliktlarning tez antipatiyaga aylanishi, ayniqsa emotsional reaktivlik yuqori bo‘lgan o‘smirlarda yaqqol kuzatiladi. Gender jihatidan qizlarda antipatiya ko‘proq relyatsion agressiya, o‘g‘il bolalarda esa ochiqroq agressiv shaklda namoyon bo‘lishi mumkin.

Antipatiyaning ijobiy va salbiy funksiyalari

Antipatiya ko‘pincha faqat salbiy fenomen sifatida baholansa-da, u ayrim vaziyatlarda rivojlantiruvchi funksiyani ham bajarishi mumkin. Avvalo, antipatiya orqali o‘smir o‘z shaxsiy chegaralarini belgilaydi, kim bilan muloqot qilishini tanlaydi va o‘ziga ma’qul bo‘lmagan munosabatni rad etadi. Bu shaxsiy mustaqillik va pozitsionlikning shakllanishida muhim bosqichdir.

Shuningdek, antipatiyani anglash va boshqarish jarayoni emotsional intellekt, tolerantlik, empatiya va kognitiv nazorat ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Konflikt va antipatiya bilan bog‘liq vaziyatlarni konstruktiv hal qilish orqali o‘smir muzokara qilish, o‘z nuqtai nazarini himoya etish, emotsiyalarni boshqarish va munosabatlarni tiklash kabi hayotiy ko‘nikmalarni egallaydi.

Biroq antipatiyaning barqaror va kuchli shakllari ijtimoiy izolyatsiya, depressiv reaksiyalar, agressiyaning ortishi, kommunikativ qiyinchiliklar, ta’lim motivatsiyasining pasayishi va diskriminatsion munosabatlar kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois uni erta aniqlash va sog‘lom yo‘naltirish zarur.

Antipatiyani kamaytirishning psixologik-pedagogik yo‘llari

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarda antipatiyani kamaytirish uchun ijtimoiy-emotsional ta’lim, empatiya treninglari, sog‘lom sinf iqlimini shakllantirish va raqamli madaniyatni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. SEL (Social Emotional Learning) dasturlari emotsional savodxonlik, mas’uliyatli xulq-atvor, empatiya va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali antipatik reaksiyalarni kamaytiradi. UNESCO va UNICEF dasturlarida ham turlilikka hurmat, bag‘rikenglik, psixologik xavfsizlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘riladi.

Ta’lim amaliyotida empatik muloqotni kuchaytirish, pozitiv intizom, sinfda konstruktiv munosabat madaniyatini shakllantirish, jamoaviy o‘yinlar va hamkorlikka asoslangan topshiriqlarni ko‘paytirish antipatiyaning pasayishiga xizmat qiladi. Shuningdek, onlayn muhitdagi antipatiya va bullingning oldini olish uchun raqamli savodxonlik va internet etikasi bo‘yicha tizimli ish olib borish lozim.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, antipatiya o‘smirlik davrida shakllanadigan muhim emotsional va ijtimoiy fenomenlardan biridir. Uning yuzaga kelishi ichki omillar — emotsional labillik, kognitiv xatolar, psixologik himoya mexanizmlari bilan bir qatorda tashqi omillar — tengdoshlar guruhi, ijtimoiy maqom uchun kurash, sinf iqlimi, bulling va raqamli muhit ta’siri ostida kechadi. Antipatiya bir tomondan ijtimoiy izolyatsiya, konflikt va motivatsiya pasayishiga olib kelishi mumkin bo‘lsa, ikkinchi tomondan shaxsiy chegaralarni belgilash, mustaqillikni shakllantirish va emotsional regulyatsiyani rivojlantirishga ham xizmat qilishi mumkin.

Shu sababli antipatiyani faqat salbiy hissiy holat sifatida emas, balki o‘smirlik davridagi shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish bilan bog‘liq kompleks ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik iqlim yaratish, empatik muloqotni rivojlantirish va ijtimoiy-emotsional ta’limni kuchaytirish antipatiya darajasini pasaytirishning asosiy shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2021.

3. UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2015.

4. UNICEF. Learning-Friendly School Model: Guidelines for Implementation. – New York: UNICEF, 2016.

5. OECD. Social and Emotional Skills: Well-being, Connectedness and Success. – Paris: OECD Publishing, 2019.

6. Kathryn Wentzel. Teacher–student relationships and adolescent development // Educational Psychologist. – 2016.

7. Nicki Crick., Grotpeter J. Relational aggression in childhood and adolescence // Developmental Psychology. – 2015.

8. Elaine Hatfield., Rapson R., Cacioppo J. Emotional Contagion and Social Interaction. – Cambridge University Press, 2016.

9. Marion Underwood. Social Aggression among Adolescents. – New York: Guilford Press, 2017.

10. William Bukowski., Laursen B., Rubin K. Handbook of Peer Interactions, Relationships, and Groups. – New York: Guilford Press, 2018.

11. Titkova V.V., Ivaniushina V.A. Antipathy Among Adolescents: What Leads to Its Occurrence // Higher School of Economics Research Paper. – 2017.

12. Dijkstra J.K., Lindenberg S., Veenstra R. Status, popularity and peer relations among adolescents // Journal of Youth and Adolescence. – 2017.

13. Mullamoyeva Nozima. Ta’lim muassasalarida bulling muammosi va uning psixologik oqibatlari. – Toshkent, 2021.

14. Fayzullayeva Feruza. O‘smirlar agressiv xulq-atvorining psixologik xususiyatlari. – Toshkent, 2019.

15. Ganjiyev F. Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2018.

UDK: 159.944.4:351.74

Ondayev Shuhrat Hasanovich,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

PROFILAKTIKA INSPEKTORLARIDA KASBIY STRESS VA EMOTSIONAL ZO‘RIQISHNI KAMAYTIRISHDA PSIXOLOGIK BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada profilaktika inspektorlarida kasbiy stress va emotsional zo‘riqishni kamaytirishning psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi hamda psixologik barqarorlikni rivojlantirish omillari yoritiladi. Tadqiqot doirasida shaxsiy resurslarni faollashtirish, emotsional o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish va ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash muhitining ahamiyati asoslab beriladi. Olingan xulosalar profilaktika inspektorlarining kasbiy samaradorligini oshirish va ruhiy salomatligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy stress, emotsional zo‘riqish, psixologik barqarorlik, profilaktika inspektori, emotsional intellekt, stressni boshqarish, kasbiy samaradorlik, ruhiy salomatlik.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ В СНИЖЕНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТРЕССА И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО НАПРЯЖЕНИЯ У ИНСПЕКТОРОВ ПРОФИЛАКТИКИ

Аннотация. В данной научной статье анализируются психологические механизмы снижения профессионального стресса и эмоционального напряжения у инспекторов профилактики, а также раскрываются факторы развития психологической устойчивости. В рамках исследования обосновывается значимость активизации личностных ресурсов, формирования навыков эмоциональной саморегуляции и создания социально-психологической поддерживающей среды. Полученные выводы направлены на разработку практических рекомендаций, способствующих повышению профессиональной эффективности и укреплению психического здоровья инспекторов профилактики.

Ключевые слова: профессиональный стресс, эмоциональное напряжение, психологическая устойчивость, инспектор профилактики, эмоциональный интеллект, управление стрессом, профессиональная эффективность, психическое здоровье.

MECHANISMS FOR DEVELOPING PSYCHOLOGICAL RESILIENCE IN REDUCING OCCUPATIONAL STRESS AND EMOTIONAL STRAIN AMONG PREVENTION INSPECTORS

Abstract. This scientific article analyzes the psychological mechanisms for reducing occupational stress and emotional strain among prevention inspectors and highlights the factors contributing to the development of psychological resilience. The study substantiates the importance of activating personal resources, developing emotional self-regulation skills, and establishing a supportive socio-psychological environment. The findings are aimed at formulating practical recommendations to enhance professional effectiveness and strengthen the mental well-being of prevention inspectors.

Keywords: occupational stress, emotional strain, psychological resilience, prevention inspector, emotional intelligence, stress management, professional effectiveness, mental health.

Profilaktika inspektorlarining kundalik faoliyati doimiy muloqot, ziddiyatli vaziyatlar va yuqori mas'uliyat bilan bog'liq bo'lgani sababli ularda kasbiy stress hamda emotsional zo'riqish tez-tez kuzatiladi. Bunday sharoitda psixologik barqarorlikni shakllantirish ularning samarali xizmat olib borishi uchun muhim omil hisoblanadi. Psixologik barqarorlik shaxsning tashqi bosim va ichki kechinmalar ta'sirida muvozanatini saqlab qolish qobiliyatini anglatadi. Ushbu sifat inspektorning qaror qabul qilish jarayonida hissiyotlarga berilmasdan, vaziyatni xolis baholashiga yordam beradi. Stressni kamaytirish mexanizmlari, avvalo, shaxsning o'zini anglash va hissiy holatini nazorat qila olish ko'nikmalarini rivojlantirishga tayanadi. O'z-o'zini tahlil qilish va refleksiya orqali xodim o'zida paydo bo'layotgan salbiy emotsiyalarni erta bosqichda aniqlashi mumkin. Shu bilan birga, ijobiy fikrlashni shakllantirish va vaziyatga konstruktiv yondashuvni o'rgatish ruhiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Kasbiy faoliyatga mos psixologik tayyorgarlik mashg'ulotlari inspektorlarning ichki resurslarini faollashtiradi. Jamoaviy qo'llab-quvvatlash muhiti ham emotsional zo'riqishni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Natijada, psixologik barqarorlikni rivojlantirish profilaktika inspektorlarining kasbiy samaradorligi va ruhiy salomatligini ta'minlashning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Kasbiy stressni kamaytirishda tizimli va uzluksiz psixologik yondashuvni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda nafaqat individual treninglar, balki tashkilot miqyosida sog'lom psixologik muhitni shakllantirish ham ustuvor vazifa sanaladi. Emotsional zo'riqish ko'pincha ortiqcha yuklama, vaqt bosimi va murakkab ijtimoiy vaziyatlar ta'sirida yuzaga keladi. Shu bois ish jarayonini oqilona rejalashtirish va vazifalarni adolatli taqsimlash stress omillarini kamaytiradi. Psixologik barqarorlikni rivojlantirish mexanizmlari orasida relaksatsiya usullari, nafas mashqlari va ongni jamlash texnikalari alohida o'rin tutadi. Mazkur usullar asab tizimini tinchlantirib, hissiy zo'riqishni pasaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kasbiy identifikatsiyani mustahkamlash va xizmat mazmunini anglash xodimning ichki motivatsiyasini oshiradi. Motivatsiya kuchli bo'lgan shaxs qiyinchiliklarni vaqtinchalik holat sifatida qabul qiladi va ularga bardoshlilik bilan yondashadi. Rahbarlar tomonidan adolatli baholash va ma'naviy rag'batlantirish ham psixologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlaydi. Shunday qilib, kompleks

psixologik mexanizmlar asosida tashkil etilgan tizim profilaktika inspektorlarida kasbiy stress va emotsional zo‘riqishni sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Xorijlik psixolog olimlar kasbiy stress muammosini shaxs va muhit o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir jarayoni sifatida talqin qiladilar. R. Lazarus va S. Folkman tomonidan ilgari surilgan kognitiv baholash nazariyasiga ko‘ra, inson stressni voqeaning o‘zidan emas, balki uni qanday idrok etishidan kelib chiqib his qiladi. Ushbu yondashuv profilaktika inspektorlarida psixologik barqarorlikni rivojlantirishda vaziyatni qayta talqin qilish ko‘nikmasini shakllantirish muhimligini ko‘rsatadi. Xizmat jarayonida yuzaga keladigan ziddiyatli holatlar tahdid sifatida emas, balki hal etilishi mumkin bo‘lgan vazifa sifatida qabul qilinganda emotsional zo‘riqish kamayadi. Kognitiv qayta tuzish usullari salbiy avtomatik fikrlarni aniqlash va ularni konstruktiv qarashlar bilan almashtirishga yordam beradi. Xorijiy tadqiqotlarda refleksiv tafakkur va o‘z-o‘zini anglash stressga chidamlilikni oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida ko‘rsatiladi. Inspektor shaxsiy hissiyotlarini tan olib, ularni boshqarish strategiyalarini ongli ravishda qo‘llasa, ichki muvozanatni saqlab qoladi. Bunday mexanizm qaror qabul qilishda hissiy impulslarni kamaytiradi. Natijada xizmat samaradorligi oshadi va kasbiy charchash xavfi pasayadi. Kognitiv yondashuv psixologik barqarorlikni ongli fikrlash madaniyati orqali mustahkamlashga xizmat qiladi.

A. Bandura tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘ziga ishonch konsepsiyasi ham kasbiy zo‘riqishni kamaytirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning fikricha, shaxs o‘z imkoniyatlariga ishongan taqdirda murakkab vaziyatlarda ham faol va barqaror harakat qiladi. Profilaktika inspektorlarida kasbiy kompetensiyaga ishonchni mustahkamlash stressni sezilarli darajada kamaytiradi. Xorijiy amaliyotda muvaffaqiyatli tajribalarni tahlil qilish va ijobiy mustahkamlash usullari keng qo‘llanadi. Bu jarayon xodimning ichki resurslarini faollashtirib, emotsional tushkunlikning oldini oladi. Bandura ta’kidlaganidek, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ham o‘z-o‘ziga ishonchni shakllantirishda muhim omildir. Jamoada sog‘lom psixologik muhit mavjud bo‘lsa, inspektor o‘zini yolg‘iz his qilmaydi. Bunday sharoitda stress omillari tahdid darajasida emas, balki tajriba sifatida qabul qilinadi. O‘z kuchiga ishonch barqarorlikni mustahkamlovchi ichki tayanchga aylanadi. Shu tariqa shaxsiy samaradorlik tuyg‘usi kasbiy bosimga qarshi himoya mexanizmi vazifasini bajaradi.

M. Seligman tomonidan asoslangan ijobiy psixologiya yo‘nalishi ham psixologik barqarorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. Ushbu yondashuv insonning kuchli tomonlarini aniqlash va rivojlantirish orqali stressga chidamlilikni oshirishni taklif etadi. Profilaktika inspektorlari o‘z kasbiy fazilatlarini anglab yetganida, murakkab vaziyatlarda ichki motivatsiya saqlanib qoladi. Ijobiy emotsiyalarni ongli ravishda qo‘llab-quvvatlash ruhiy tiklanish jarayonini tezlashtiradi. Xorijiy tadqiqotlar minnatdorlik, umid va maqsadga yo‘naltirilganlik hissi emotsional zo‘riqishni kamaytirishini ko‘rsatadi. Ijobiy psixologiya stressni inkor etmaydi, balki unga qarshi ichki psixologik resurslarni safarbar etadi. Inspektorlar uchun ma’naviy qadriyatlarni anglash va xizmat mazmunini chuqur

tushunish barqarorlikni oshiradi. Kuchli tomonlarga tayangan holda faoliyat yuritish kasbiy kuyishning oldini oladi. Shaxs o‘z hayotida ma’no topganida, tashqi bosimlar ta’siri susayadi. Natijada ijobiy yo‘naltirilgan tafakkur psixologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Kristina Maslach tomonidan o‘rganilgan kasbiy kuyish sindromi konsepsiyasi profilaktika inspektorlarida emotsional zo‘riqishning mohiyatini chuqurroq tushuntiradi. Uning tadqiqotlarida hissiy holdan toyish, befarqlik va shaxsiy yutuqlarning kamayishi asosiy belgilar sifatida ko‘rsatiladi. Ushbu holatning oldini olish uchun muntazam psixologik profilaktika ishlari zarurligi ta’kidlanadi. Xorijiy tajribada emotsional o‘zini tiklash strategiyalari muhim o‘rin tutadi. Dam olish madaniyatini shakllantirish va ish bilan shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanatni saqlash barqarorlikni mustahkamlaydi. Shuningdek, rahbarlarning empatik yondashuvi xodimlarning ruhiy salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ochiq muloqot va fikr almashish imkoniyati emotsional bosimni kamaytiradi. Maslach konsepsiyasiga ko‘ra, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kasbiy kuyishning oldini oluvchi asosiy omillardan biridir. Profilaktika inspektorlari o‘z mehnatining qadrlanishini his qilganida, ichki ruhiy zaxiralar tiklanadi. Shu asosda psixologik barqarorlik kasbiy uzoq umr ko‘rishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Daniel Goleman tomonidan ommalashtirilgan emotsional intellekt nazariyasi ham stressni boshqarishda samarali mexanizm sifatida e’tirof etiladi. Unga ko‘ra, o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarish qobiliyati yuqori bo‘lgan shaxs murakkab vaziyatlarda muvozanatini saqlay oladi. Profilaktika inspektorlarida emotsional intellektni rivojlantirish xizmat jarayonidagi keskinlikni kamaytiradi. Empatiya ko‘nikmasi fuqarolar bilan muloqotda ziddiyatlarning oldini olishga yordam beradi. O‘zini tuta bilish va sabr-toqat hissiy portlashlarning kamayishiga olib keladi. Xorijiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional ongli yondashuv kasbiy stressni boshqarishda muhim omildir. Maxsus treninglar orqali hissiy savodxonlikni oshirish mumkin. Bunday mashg‘ulotlar inspektorlarning kommunikativ kompetensiyasini ham rivojlantiradi. Hissiy barqarorlik kuchaygan sari xizmat faoliyatida ishonch va xotirjamlik ortadi. Emotsional intellekt psixologik barqarorlikni mustahkamlovchi zamonaviy va samarali mexanizm sifatida e’tirof etiladi.

Profilaktika inspektorlarining xizmat faoliyati jarayonida yuzaga keladigan kasbiy stress omillari ko‘p qirrali va murakkab xususiyatga ega bo‘lib, ular doimiy muloqot, nizoli vaziyatlar hamda yuqori javobgarlik bilan chambarchas bog‘liqdir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, emotsional zo‘riqish ko‘pincha ichki psixologik resurslarning yetarlicha safarbar etilmagani bilan bog‘lanadi. Agar xodim stress manbaini anglab yetmasa, u asta-sekin ruhiy charchoqqa duch keladi. Shu bois psixologik barqarorlikni rivojlantirish mexanizmlari avvalo shaxsning o‘z hissiy holatini tan olish va boshqarish ko‘nikmalarini mustahkamlashga qaratiladi. Kuzatuvlar davomida o‘zini anglash darajasi yuqori bo‘lgan inspektorlar murakkab vaziyatlarda ham vazminlikni saqlab qolishi aniqlangan. Bunday xodimlar stressli holatni shaxsiy tahdid sifatida emas, balki kasbiy vazifa sifatida qabul qiladi. Natijada ularning qaror qabul qilish jarayoni izchil va asosli kechadi. Psixologik treninglar orqali refleksiya va o‘zini nazorat qilish malakalari shakllantirilganda

emotsional beqarorlik sezilarli darajada kamayadi. Tahliliy yondashuv shuni ko‘rsatadiki, ichki muvozanatni saqlash tashqi bosimni yengillashtiradi. Shu asosda psixologik barqarorlik kasbiy samaradorlikni ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Amaliy natijalar shuni ko‘rsatadiki, jamoaviy qo‘llab-quvvatlash muhiti mavjud bo‘lgan bo‘linmalarda stress ko‘rsatkichlari nisbatan past bo‘ladi. Ochiq muloqot va o‘zaro ishonch muhitida ishlayotgan inspektorlar emotsional zo‘riqishni kamroq his qiladi. Tashkiliy darajadagi adolatli munosabat va aniq vazifa taqsimoti ham ruhiy bosimni kamaytiradi. Tahlillar davomida ish yuklamasini muvozanatlash va dam olish tartibini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ijobiy natija berishi kuzatilgan. Psixologik barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarda nafasni boshqarish va mushaklarni bo‘shashtirish usullari samarali ekani aniqlangan. Ushbu usullar qisqa vaqt ichida hissiy taranglikni pasaytirishga yordam beradi. Shuningdek, ijobiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan metodlar salbiy kechinmalar intensivligini kamaytiradi. Natijada inspektorlarning ruhiy holati barqarorlashib, xizmat faoliyatiga bo‘lgan ishonchi ortadi. Kuzatilgan o‘zgarishlar shuni ko‘rsatadiki, tizimli psixologik yondashuv bevosita amaliy samaradorlikka ta’sir qiladi. Bu jarayon kasbiy kuyishning oldini olishga ham xizmat qiladi.

O‘rganishlar jarayonida individual yondashuv asosida olib borilgan psixologik maslahatlar yuqori natija bergani qayd etilgan. Har bir inspektorning shaxsiy xususiyatlari va stressga reaksiyasi turlicha bo‘lgani sababli, moslashtirilgan mexanizmlar samaraliroq bo‘ladi. Tahliliy ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ichki motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash psixologik barqarorlikni mustahkamlaydi. Xizmat mazmunini chuqur anglagan xodimlar qiyinchiliklarga bardoshlilik bilan yondashadi. Emotsional o‘zini tiklash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali uzoq muddatli zo‘riqishning oldi olinadi. Ruhiy salomatlikka e’tibor qaratilgan tashkilotlarda ijobiy ish muhiti shakllanadi. Natijalar shuni anglatadiki, psixologik barqarorlikni rivojlantirish faqat individual emas, balki tizimli yondashuvni ham talab qiladi. Xodimning o‘z ustida ishlashi va rahbariyatning qo‘llab-quvvatlashi uyg‘unlashganda samaradorlik ortadi. Ushbu mexanizmlar birgalikda qo‘llanilganda kasbiy stress darajasi sezilarli kamayadi. Shu tariqa psixologik barqarorlik profilaktika inspektorlarining uzoq muddatli kasbiy barqarorligini ta’minlaydi.

Profilaktika inspektorlarining kasbiy faoliyatida uchraydigan stress va emotsional zo‘riqish holatlari ularning ruhiy barqarorligi bilan bevosita bog‘liq ekanligi anglashiladi. Psixologik barqarorlikni rivojlantirish jarayoni shaxsning ichki resurslarini aniqlash va ularni ongli ravishda safarbar etishga tayanadi. Mazkur mexanizmlar orqali inspektorlar murakkab vaziyatlarda hissiy muvozanatni saqlash imkoniga ega bo‘ladi. O‘z-o‘zini boshqarish, refleksiya va konstruktiv fikrlash ko‘nikmalari stress omillarining salbiy ta’sirini kamaytiradi. Ruhiy barqarorlik mustahkam bo‘lgan xodimlar ziddiyatli vaziyatlarda keskin reaksiyalarga berilmaydi. Bu esa xizmat jarayonida xolis va adolatli qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Psixologik tayyorgarlik mashg‘ulotlari ichki ishonchni kuchaytirib, emotsional chidamlilikni oshiradi. Jamoaviy qo‘llab-quvvatlash muhiti esa

individual barqarorlikni yanada mustahkamlaydi. Natijada kasbiy kuyish xavfi kamayib, xizmat samaradorligi ortadi. Shunday mexanizmlar uyg‘unligi profilaktika inspektorlarining ruhiy salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik barqarorlikni shakllantirish faqatgina individual yondashuv bilan cheklanmay, balki tizimli tashkiliy choralarni ham talab etadi. Ish jarayonini oqilona tashkil etish va adolatli munosabat muhitini yaratish stressni kamaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Emotsional zo‘riqishni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish uzoq muddatli ijobiy natijalarga olib keladi. Inspektor o‘z kasbiy rolini chuqur anglaganida ichki motivatsiya barqarorlashadi. Motivatsiya mustahkam bo‘lsa, tashqi bosimlar salbiy oqibatlarga olib kelmaydi. Ruhiy tiklanish usullarini muntazam qo‘llash charchoqning oldini oladi. O‘zaro hurmat va ishonchga asoslangan xizmat muhiti emotsional xavfsizlikni ta’minlaydi. Bunday sharoitda inspektorlar o‘z salohiyatini to‘liq namoyon eta oladi. Psixologik barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali kasbiy barqarorlik va samaradorlik mustahkamlanadi. Shu tariqa stressni kamaytirish va emotsional muvozanatni saqlash profilaktika inspektorlarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida hal qiluvchi omilga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бережкова Е.И. Социализация личности в подростковом возрасте. — М.: МПСИ, 2007. — 192 с.

2. Добряков И.В. Перинатальная психология. — СПб.: Питер, 2010. — 304 с.

3. Эйдемиллер Э.Г., Юстицкис В.В. Психология и психотерапия семьи. — СПб.: Питер, 2001. — 656 с.

4. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. — М.: Гардарики, 2005. — 320 с.

5. Холмогорова А.Б. Психология межличностных отношений. — М.: Когито-Центр, 2011. — 376 с.

6. Никольская И.М. Возрастная психология. — СПб.: Питер, 2008. — 256 с.

UDK: 32.019.5:004.738.5

Mirraximov Bahodir,
O‘zbekiston milliy universiteti
mustaqil izlanuvchisi

AXBOROT ASRIDA YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATINI O‘RGANISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI

Annotatsiya. Axborot asri siyosiy ijtimoiylashuv ishtirokchilarining transformatsiyalashuviga olib keldi. Maqolada yoshlarning siyosiy axborotni qabul qilish va ajratishda mediasavodxonlikni oshirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: axborot, ijtimoiy tarmoqlar, transformatsiyalashuv, raqamlashtirish, globallashuv, yoshlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, mediasavodxonlik.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В ИНФОРМАЦИОННЫЙ ВЕК

Аннотация. Информационный век привел к трансформации участников политической социализации. В статье анализируются вопросы повышения медиаграмотности молодежи в получении и разделении политической информации.

Ключевые слова: информация, социальные сети, трансформация, цифровизация, глобализация, политическое сознание молодежи, политическая культура, медиаграмотность.

METHODOLOGICAL APPROACHES TO STUDYING THE POLITICAL CULTURE OF YOUTH IN THE INFORMATION AGE

Abstract. The information age has led to a transformation of participants in political socialization. The article analyzes the issues of improving the media literacy of young people in receiving and disseminating political information.

Keywords: information, social networks, transformation, digitalization, globalization, political consciousness of youth, political culture, media literacy.

Axborot asri siyosiy ijtimoiylashuv ishtirokchilarining transformatsiyalashuviga olib keldi. Boshqacha aytganda, XXI asrda axborot oqimi hokimiyatning asosiy manbaiga aylanadi va bu muhitda shakllanayotgan yosh avlod an’anaviy siyosiy institutlardan ko‘ra virtual tarmoqlarga ko‘proq ishonch bildiradi.

Bugungi kunda yoshlarning siyosiy madaniyati shakllanishi jarayoni boshqacha tarzda kechmoqda. Bu murakkab jarayonda birinchi navbatda siyosiy axborotni qabul qilish tezligi oshdi, ijtimoiy tarmoqlar siyosiy ijtimoiylashuvning

asosiy maydoniga aylandi; yoshlar o‘rtasida gorizontal kommunikatsiya (tengdoshlar ta’siri) kuchaydi.

Shu sababli, axborot muhitida yoshlarning siyosiy madaniyatini yuksaltirishda mediasavodxonlik majburiy element sifatida namoyon bo‘lmoqda, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning siyosiy madaniyatini shakllantirish jarayoni o‘zining bir qator spetsifik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Birinchi navbatda, global axborot tarmoqlari va ijtimoiy media yoshlarning siyosiy voqelikni anglashda asosiy manbaga aylanib ulgurdi. Bu esa, o‘z navbatida, an’anaviy ijtimoiylashuv institutlari (oila, ta’lim muassasalari) bilan bir qatorda virtual muhitning ta’sirini keskin oshirdi.

Siyosatshunoslarning qayd etishicha, 11 yoshdan 13 yoshgacha bo‘lgan bolalarda siyosiy tafakkur paydo bo‘lib, 16 yoshdan 18 yoshgacha u mo‘tadillashish holatiga keladi [1]. Buning ustiga, bugun fan, texnika va texnologiyaning yuksak taraqqiyoti hamda ommaviylashuvi yoshlarning kuchli siyosiy ahloqiy bosim ostida yashashlariga sabab bo‘layotganligini nazardan qochirmaslik kerak. Ayniqsa, internet, mobil telefonlarining yuksak darajada rivojlanayotganligi ular orqali yoshlarning ongi va qalbini egallashga qaratilgan xarakatlarining kuchayayotganligi ayrim yoshlarning ma’naviy-ahloqiy jihatdan zaiflashuviga o‘zining ta’sirini o‘tkazmoqda. Manbalarda keltirilishicha, bugungi kunga kelib, internet tarmog‘ida ma’naviy-axloqiy tubanlikni targ‘ib etuvchi sahifalarning soni bir necha yuz millionni tashkil etadi.

Birgina AQSH davlati bir yilda 700 ming qo‘shiq, 6 ming klipni suratga olib tarqatmoqda. Suratga olingan qo‘shiq va kliplarda, asosan, ommaviy madaniyat va hayosiz ko‘rinishdagi illatlar targ‘ib-tashviq qilinmoqda. Bu davlat 15 mingdan ortiq fahsh jihatlarni namoyon qiluvchi internet saytlarini yaratib qo‘ygan. Hozirda global tizim tarkibida buzg‘unchilik, qo‘poruvchilik maqsadini ko‘zlaydigan kuchlarning 7000 dan ortiq veb-sahifalari ishlab turibdi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha internetdan eng ko‘p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar hisoblanadi”. [2]

Shunday ekan, “O‘zbekistonda ham yoshlar siyosiy madaniyatni izchillik bilan takomillashtirib borishga jamiyatda ehtiyoj oshib boradi. Xulosa shuki, yoshlar siyosiy jarayonlardan habardor, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar, undan ko‘zlangan maqsadlar va ularning amalga oshish jarayonlari haqida ma’lum qarashlar va tasavvurlarga ega bo‘lishi kerak. Jamiyatdagi ko‘plab muammolar tahlili milliy o‘zlikni anglash masalasini yana kun tartibiga qo‘ymoqda” [2], deydi siyosiy fanlar doktori, professor B. Omonov.

Raqamli madaniyatning rivojlanishi yoshlarda siyosiy jarayonlarga nisbatan masofaviy ishtirok va “elektron demokratiya” ko‘nikmalarini shakllantirmoqda. Biroq, axborot oqimidagi manipulyatsiyalar, “feyk” xabarlar va yot mafkuraviy ta’sirlar yoshlarning siyosiy ongiga xavf tug‘dirishi mumkin. Shu sababli, axborot asrida yoshlarning siyosiy madaniyatini yuksaltirish nafaqat bilim berish, balki ularda axborotni saralash (mediasavodxonlik) va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda yoshlar siyosiy ijtimoiylashuvining muvaffaqiyati ularning innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi va milliy siyosiy qadriyatlarga sodiqligining uyg‘unligiga bog‘liq bo‘ladi.

Yoshlar ijtimoiylashuvi – jamiyatning yangi avlodini ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash, ularning qadriyatlar tizimi, xulq-atvor meyorlari, siyosiy qarashlari va jamiyatdagi rolini shakllantirish jarayonidir. Bu jarayonda oila, ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va siyosiy institutlar asosiy vositalar sifatida xizmat qiladi. Siyosiy madaniyat esa ushbu ijtimoiylashuvning muhim qismi hisoblanadi, chunki yoshlar shaxsiy tajriba orqali emas, balki ijtimoiy munosabatlar orqali siyosiy bilim va qadriyatlarni o‘zlashtiradilar.

Ijtimoiylashuv nazariyalarida turli ilmiy yondashuvlar ko‘zga tashlanadi. Ulardan eng asosiylari quyidagilar:

1.Funksionalizm (T. Parsons, R. Merton) – ijtimoiylashuvni jamiyatning barqarorligini ta’minlovchi institutlar (oila, maktab, ommaviy axborot vositalari) orqali amalga oshiriladigan jarayon sifatida ko‘radi. Bu nazariyaga ko‘ra, ijtimoiylashuv jamiyatning barqarorligini ta’minlovchi asosiy mexanizm hisoblanadi. T. Parsons fikricha, ijtimoiylashuv orqali yoshlar jamiyatdagi mavjud meyor va qadriyatlarni o‘zlashtiradi va shu bilan ijtimoiy tizim barqarorligiga hissa qo‘shadi. Mashhur olim ta’kidlaganidek, ijtimoiy tizim o‘z barqarorligini avlodlar almashinuvi orqali saqlab qoladi. Masalan, funksionalizm nuqtai nazaridan, oila, ta’lim muassasalari, davlat va jamoat tashkilotlari orqali siyosiy ijtimoiylashuv amalga oshiriladi.

2.Psixoanalitik (Z. Freyd, E. Erikson) – shaxs siyosiy ongi, his-tuyg‘ulari va milliy o‘zlik jarayoni orqali ijtimoiylashadi. Z. Freyd yondoshuviga ko‘ra, bolalikda oila va atrof-muhit ta’siri siyosiy qarashlarning shakllanishida asosiy ahamiyat kasb etadi[6:41].

3.Konflikt nazariyasi (K. Marks, R. Darendorf). Bu yo‘nalishda ijtimoiylashuv faqat mavjud meyorlarni o‘zlashtirish emas, balki ijtimoiy adolatsizlikka qarshi siyosiy faollikni shakllantirish vositasi sifatida ham qaraladi. Yoshlar ijtimoiylashuvi – siyosiy o‘zgarishlarning asosiy omili sifatida talqin qilinadi [4:73].

4.Interaksionizm nazariyasi (J. Mid, G. Blumer). Interaksionistlar ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning rolini alohida ta’kidlashadi. Yoshlar ijtimoiy munosabatlar jarayonida turli “rollar»ni o‘rganadi va bu jarayonda siyosiy madaniyat elementlari o‘zlashtiriladi[5].

S. Xobfollning "resurslarni saqlash nazariyasi" (Conservation of Resources Theory)ga ko'ra, stress shaxs o'zining psixologik, ijtimoiy yoki moddiy resurslarini yo'qotish xavfini sezganda yuzaga keladi. Resurslar shaxsning vaqt, energiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va shaxsiy erkinlik kabi imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Harbiy ta'lim muhitida esa talabalarning ushbu resurslari doimiy ravishda cheklangan bo'lib, qat'iy intizom, yuqori javobgarlik, jismoniy va aqliy yuklamalar hamda yangi ijtimoiy sharoitga moslashish talab etiladi. Shu sababli harbiylashtirilgan oliy ta'lim muassasalarida emotsional zo'riqish holatlari tez-tez va kuchliroq namoyon bo'lishi mumkin.

Nazariy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarning psixologik resurslarini mustahkamlash va stressni kamaytirishga qaratilgan psixoprofilaktik chora-tadbirlar harbiy ta'lim muhitida samarali faoliyat yuritadigan shaxslarni tarbiyalash uchun muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, resurslarni boshqarish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari stressning salbiy oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi va talabalar psixologik barqarorligini oshiradi.

Harbiylashtirilgan ta'lim muhitida emotsional zo'riqishlarning asosiy sabablari

Harbiylashtirilgan oliy ta'lim muassasalarida talabalar qat'iy intizom va reglamentlangan hayot tarziga amal qilishi shart. Kun tartibi va ierarxik munosabatlar qat'iy belgilangan bo'lib, shaxsiy erkinlikning cheklanishi talabalar psixologiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu holat ko'pincha ichki qarshilik, ruhiy taranglik va psixologik zo'riqishning yuzaga kelishiga olib keladi. Doimiy nazorat va qat'iy intizom talablariga moslashish jarayoni talabalarning psixoemotsional barqarorligini sinovdan o'tkazadi va ba'zan stressning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, harbiy ta'lim muhitida talabalar yuqori mas'uliyat va murakkab kasbiy talablar bilan yuzlashadilar. Ular kelajakda davlat xavfsizligi, jamoat tartibi va mudofaa tizimi bilan bog'liq vazifalarni bajarishga tayyorlanmoqda. Shu sababli talabalardan tezkor qaror qabul qilish, psixologik barqarorlikni saqlash va yuqori intizomga rioya qilish kabi ko'nikmalar muntazam talab etiladi. Bu yuqori talablar ayrim hollarda emotsional bosim va stressning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Talabalarning emotsional holatiga jamoaviy muhit va ijtimoiy munosabatlar ham bevosita ta'sir qiladi. Harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida talabalar doimiy ravishda jamoa tarkibida faoliyat yuritadilar. Guruh ichidagi munosabatlar, liderlik intilishlari, raqobat, shuningdek, ijtimoiy qabul qilinishi yoki rad etilishi ularning emotsional barqarorligini sinovdan o'tkazadi va psixologik zo'riqishning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, harbiy ta'lim jarayonidagi jismoniy va intellektual yuklamalar ham emotsional holatga sezilarli ta'sir qiladi. Nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda talabalar jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarini ham bajaradilar. Intellektual va jismoniy yuklamalarning bir vaqtda yuqori bo'lishi charchash, ruhiy taranglik va emotsional zo'riqishning kuchayishiga olib keladi, ayniqsa uzoq davom etadigan mashg'ulotlar, sinovlar yoki jismoniy tayyorgarlik paytida.

Adaptatsiya jarayoni ham emotsional zo'riqishning muhim omillaridan biridir. Birinchi kurs talabalari yangi harbiylashtirilgan muhitga moslashish davrida ko'pincha psixologik qiyinchiliklarga duch keladilar. Yangi talablar, qat'iy intizom va jamoa bilan samarali munosabat o'rnatish jarayoni ularning psixoemotsional barqarorligini sinovdan o'tkazadi va stressning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bog'liq xavotirlar ularning psixologik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kelajakdagi xizmat faoliyati xavfli va yuqori mas'uliyat talab qiladigan sohalar bilan bog'liq bo'lgani uchun talabalarda kasbiy xavotir, o'z imkoniyatlariga ishonchsizlik va emotsional zo'riqish paydo bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, harbiylashtirilgan ta'lim muhitida emotsional zo'riqish bir nechta o'zaro bog'liq omillar ta'sirida yuzaga keladi. Qat'iy intizom, yuqori mas'uliyat, jamoaviy munosabatlar, jismoniy va intellektual yuklamalar, yangi muhitga moslashish jarayoni va kelajak kasbiy faoliyati bilan bog'liq xavotirlar talabalarning psixoemotsional barqarorligini sinovdan o'tkazadi. Shu sababli bu jarayonni o'rganish va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash harbiy psixologiya va ta'limning dolzarb ilmiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Emotsional zo'riqishlarning psixologik oqibatlari va kamaytirish yo'llari

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, uzoq davom etuvchi emotsional zo'riqish harbiylashtirilgan ta'lim muassasalaridagi talabalar psixologiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatlar talabalarda stressga moslashuv qobiliyatining pasayishi, emotsional charchash sindromi, ijtimoiy izolyatsiya yoki agressiv xatti-harakatlar, ta'lim motivatsiyasining sustlashishi hamda kasbiy deformatsiya xavfi kabi turli psixologik oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, jamoaviy qo'llab-quvvatlash va ijobiy psixologik muhit mavjud bo'lgan holatlarda talabalar stressga ancha tez moslashadi. Jamoa

a'zolari tomonidan ko'rsatiladigan ijobiy emotsional yordam, hamkasblar bilan samarali kommunikatsiya va pedagoglarning psixologik ko'magi talabalar barqarorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari stressni kamaytirish va psixologik barqarorlikni ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi.

Harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida emotsional zo'riqishlarni kamaytirish uchun bir qator strategik choralar muhimdir. Birinchidan, psixologik diagnostika va monitoring tizimini joriy etish orqali talabalarning psixoemotsional holatini tizimli ravishda kuzatish va aniqlangan muammolarga tezkor choralar ko'rish mumkin. Ikkinchidan, stress-menejment va emotsional barqarorlikni shakllantirish bo'yicha treninglar, mashg'ulotlar va seminarlar talabalar stressga moslashuvchanligini oshirish va psixoemotsional zo'riqishlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, talabalarning o'zaro ijobiy psixologik muhitini shakllantirish, jamoaviy hamkorlikni rag'batlantirish va konfliktlarni konstruktiv tarzda hal qilish orqali emotsional zo'riqishning salbiy oqibatlarini sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Shu bilan birga, harbiy psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish, individual va guruhga yo'naltirilgan psixologik maslahatlar va qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish talabalar barqarorligini mustahkamlash va ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, emotsional zo'riqishlarni boshqarish va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish strategiyalari harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida talabalar psixologik barqarorligini ta'minlash, kasbiy va shaxsiy rivojlanishlarini qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Harbiylashtirilgan oliy ta'lim muassasalari talabalarining emotsional zo'riqishlari asosan qat'iy intizom, yuqori mas'uliyat, jamoaviy munosabatlar, jismoniy va intellektual yuklamalar hamda adaptatsiya jarayonlari bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Ushbu omillar talabalar psixoemotsional holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, ularning ta'lim samaradorligi, ijtimoiy moslashuvi va kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, harbiylashtirilgan ta'lim muhitida talabalarning psixologik barqarorligini ta'minlash faqat individual xususiyatlar bilan cheklanmaydi. U jamoaviy ijtimoiy munosabatlar, ijobiy psixologik muhit va qo'llab-quvvatlash tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, stressga moslashuv mexanizmlarini shakllantirish, emotsional barqarorlikni rivojlantirish va jamoaviy munosabatlarni mustahkamlash talabalarning psixoemotsional salomatligini saqlash va ularning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu bois, harbiylashtirilgan oliy ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini rivojlantirish, talabalarning psixoemotsional holatini muntazam diagnostika qilish, stressni boshqarish va emotsional barqarorlikni shakllantirishga qaratilgan profilaktik hamda korreksion dasturlarni joriy etish zarur. Ushbu chora-tadbirlar talabalarning psixologik salomatligini mustahkamlash, ta'lim jarayoni

samaradorligini oshirish va ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni. – 28.01.2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Ta’lim tizimida ijtimoiy-psixologik xizmat faoliyatini rivojlantirishga oid PQ-174-son Qarori. – 11.05.2023.
3. UNESCO. Global Citizenship Education: Preparing Learners for the Challenges of the 21st Century. – Paris: UNESCO Publishing, 2019.
4. UNICEF. Adolescents and Youth Engagement Strategic Framework. – New York: UNICEF, 2021.
5. Андреева Г.М. Социальная психология. – Москва: Аспект Пресс, 2019. – 363 с.
6. Alieva K.S. Possibilities of Teaching Psychological Sciences in the Informed Educational Process. American Journal of Alternative Education ISSN: 2997-3953 (Online) 2025/4/4
7. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. – New York: Freeman, 2018. – 604 p.
8. Bartone P.T. Resilience under Military Operational Stress: Can Leaders Influence Hardiness? // Military Psychology. – 2017. – №29(1). – P. 1–13.
9. Hobfoll S.E. Conservation of Resources Theory: Its Implication for Stress, Health and Resilience. // Oxford Handbook of Stress, Health and Coping. – Oxford University Press, 2018. – P. 127–147.
10. Лазарус Р., Фолкман С. Стресс, оценка и копинг. – Санкт-Петербург: Питер, 2016. – 448 с.

UDK: 373.5.016

Normuhammedov Zarif Normuminovich,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
"Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

MAKTAB TA'LIMIDA STEAM YONDASHUVNI JORIY ETISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI VA SAMARADORLIGI

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida STEAM ta'lim yondashuvini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada fanlararo integratsiyaning o'quvchilar kognitiv faolligini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqot davomida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, loyihaviy o'qitish (PBL) metodikasi va raqamli vositalarning STEAM muhitidagi samaradorligi empirik ma'lumotlar asosida o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, STEAM yondashuvi o'quvchilarning texnik va ijodiy salohiyatini birlashtirishga, ularni innovatsion iqtisodiyot talablariga tayyorlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: STEAM-yondashuv, maktab ta'limi, pedagogik texnologiyalar, loyihaviy o'qitish (PBL), fanlararo integratsiya, ijodiy fikrlash, ta'lim samaradorligi, O'zbekiston ta'lim islohotlari, aralash metodologiya, empirik baholash.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ STEAM-ПОДХОДА В ШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ И ИХ ЭФФЕКТИВНОСТЬ

Аннотация. Данное исследование посвящено комплексному анализу научно-теоретических основ и практических механизмов внедрения образовательного подхода STEAM в общеобразовательных школах Республики Узбекистан. В статье освещается роль междисциплинарной интеграции в повышении когнитивной активности учащихся, развитии критического мышления и формировании практических навыков (навыков 4C). В ходе исследования на основе эмпирических данных изучена эффективность современных педагогических технологий, методик проектного обучения (PBL) и цифровых инструментов в среде STEAM. Результаты показывают, что подход STEAM способствует объединению технического и творческого потенциала учащихся, подготавливая их к требованиям инновационной экономики.

Ключевые слова: STEAM-подход, школьное образование, педагогические технологии, проектное обучение (PBL), межпредметная интеграция, творческое мышление, эффективность образования, реформы образования в Узбекистане, смешанная методология, эмпирическая оценка.

PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES FOR IMPLEMENTING THE STEAM APPROACH IN SCHOOL EDUCATION AND THEIR EFFECTIVENESS

Abstract. This research provides a comprehensive analysis of the scientific-theoretical foundations and practical mechanisms for implementing the STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) educational approach in general secondary schools across the Republic of Uzbekistan. The article highlights the role of interdisciplinary integration in enhancing students' cognitive engagement, developing critical thinking, and fostering practical 21st-century skills (4Cs). Throughout the study, the effectiveness of modern pedagogical technologies, Project-Based Learning (PBL) methodologies, and digital tools within the STEAM environment was examined based on empirical data. The findings indicate that the STEAM approach serves to integrate students' technical and creative potentials, effectively preparing them for the demands of an innovative economy.

Keywords: STEAM approach, school education, pedagogical technologies, project-based learning (PBL), interdisciplinary integration, creative thinking, educational effectiveness, education reforms in Uzbekistan, mixed-methods methodology, empirical evaluation.

Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa – o‘quvchilarni 21-asrning murakkab, ko‘p qirrali muammolarini hal qilishga qodir bo‘lgan shaxs sifatida shakllantirishdir. Bu jarayonda 4C ko‘nikmalari – tanqidiy fikrlash (Critical thinking), ijodkorlik (Creativity), hamkorlik (Collaboration) va samarali kommunikatsiya (Communication) markaziy o‘rin tutadi [13]. Ushbu ko‘nikmalar shaxsning mustaqil fikrlash qobiliyati, ijodiy yechimlar ishlab chiqarish, jamoadagi samarali ishtirok va o‘z fikrini aniq ifoda etish imkoniyatini ta’minlaydi, bu esa 21-asr kompetensiyalari sifatida xalqaro ta’lim standartlari tomonidan yuqori baholangan.

An’anaviy fanlarni alohida o‘qitish usullari real hayotdagi integratsiyalashgan muammolarni yechishda cheklangan imkoniyatlar beradi, chunki ular fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yetarlicha hisobga olmaydi [2]. Shu sababli, xalqaro ta’lim maydonida STEAM-yondashuv keng qo‘llanilmoqda. STEAM tabiiy fanlar (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san’at (Arts) va matematika (Mathematics) komponentlarini birlashtirib, o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy muhandislik ko‘nikmalarini, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi [13].

STEAM kontseptsiyasi dastlab STEM sifatida shakllangan bo‘lib, keyinchalik “A” (Arts) komponenti qo‘shilishi bilan yanada boyitilgan [13]. Xalqaro tadqiqotlar STEAMning o‘quvchilarning ilmiy savodxonligini, motivatsiyasini va kontseptual tushunishini oshirishini tasdiqlaydi [7; 6; 3]. Masalan, meta-tahlillar STEAMning yuqori sinflarda kognitiv natijalarga o‘rtacha

ta'sirini (d = 0,58) ko'rsatgan, bu esa o'quv jarayonida o'zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [3].

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi islohotlar doirasida STEAM yondashuvi umumiy o'rta ta'limning asosiy tamoyillaridan biri sifatida belgilangan. Prezidentning PF-5712-sonli "Umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" (2020), "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020), "Zamonaviy maktab" davlat dasturi va 28 ta STEAM-maktablarini yaratish loyihasi ushbu yo'nalishni mustahkamlaydi [1; 5; 10]. Shu bilan birga, STEAMning maktab bosqichida joriy etilishi asosan "yuqoridan pastga" mexanizmida amalga oshirilmoqda: o'qituvchilar malakasini oshirish, material-texnik baza yaratish va dasturlarni yangilash ishlari davom etmoqda. Biroq pedagogik texnologiyalarning aniq samaradorligi va mahalliy sharoitlarga moslashuvi bo'yicha empirik tadqiqotlar hali ham yetarli emas [5; 11; 9].

Xalqaro adabiyotlarda STEAMning o'quvchilar motivatsiyasini oshirishi, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishi va fanlararo integratsiyalashgan ko'nikmalarni shakllantirishi isbotlangan [12; 8]. Shu bilan birga, O'zbekistonda o'qituvchilarning STEAM haqidagi tasavvurlari cheklangan, resurslar yetarli emas, dasturlar esa moslashuvchanlik va lokalizatsiya nuqtai nazaridan yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi qayd etilgan [5; 4].

Shuning uchun ushbu tadqiqot mazkur bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston sharoitida STEAMni joriy etishning original modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini tahlil qilishni maqsad qiladi. Tadqiqot STEAMning amaliyotga moslashtirilgan usullarini, o'qituvchilarning malaka oshirish strategiyalarini va integratsiyalashgan o'quv resurslarini yaratish yo'llarini o'rganadi, shuningdek, STEAM yondashuvining o'quvchilarning nazariy bilim, ijodiy fikrlash va muammolarni yechish qobiliyatiga ijobiy ta'sirini amaliy jihatdan ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – O'zbekiston maktab ta'limida STEAM-yondashuvni samarali joriy etish uchun eng maqbul pedagogik texnologiyalarni aniqlash va ularning o'quvchilarning kognitiv, meta-kognitiv hamda ijtimoiy-emosional ko'nikmalariga ta'sirini empirik jihatdan baholashdir. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida maktab ta'limi siyosatiga ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish, o'quv jarayonida innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish bo'yicha metodik asos yaratish ham tadqiqotning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Tadqiqot STEAMning amaliy pedagogik tatbiqi orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, 21-asr kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan.

Tadqiqot savollari: Ushbu tadqiqot doirasida quyidagi ilmiy savollarga javob izlanadi:

STEAM-yondashuvni maktablarda tatbiq etishda qaysi pedagogik texnologiyalar (masalan, loyihaviy faoliyat – PBL, gamifikatsiya, integratsiyalashgan darslar, raqamli va interaktiv vositalar) o'quv jarayonining samaradorligini eng yuqori darajada oshiradi? Bu savol STEAMning turli

pedagogik metodlar orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalariga ta’sirini aniqlashga qaratilgan.

STEAM yondashuvi o‘quvchilarning ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish, fanlararo bog‘lanish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini qanchalik rivojlantiradi? Bu savol STEAMning kognitiv va meta-kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishdagi samaradorligini o‘lchashga xizmat qiladi.

O‘qituvchilar va o‘quvchilarning STEAMga munosabati, ushbu yondashuvni qo‘llashdagi qiyinchiliklar va afzalliklar qanday? Ushbu savol maktablarda STEAMni tatbiq etish jarayonida yuzaga keladigan amaliy to‘siqlar va imkoniyatlarni aniqlashga qaratilgan.

Shuningdek, tadqiqot STEAMning O‘zbekiston sharoitida joriy etilishi natijasida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish, ijodiy va kritik fikrlash qobiliyatlari, hamkorlik ko‘nikmalari va raqamli savodxonlik darajasi qanday o‘zgarishini aniqlashga yo‘naltirilgan. Tadqiqot natijalari o‘qituvchilarga metodik ko‘rsatmalar berish, ta’lim dasturlarini takomillashtirish va STEAM-maktablar tizimini samarali rivojlantirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Tadqiqot aralash usullar (mixed methods research) dizayni asosida olib borildi, bu yondashuv miqdoriy va sifatli ma’lumotlarni parallel ravishda yig‘ish hamda triangulyatsiya orqali natijalarning ishonchliligini oshirish imkonini berdi [14]. Ushbu yondashuv O‘zbekistonning mahalliy sharoitlari, maktab ta’limi tizimi va o‘quvchilar xususiyatlari hisobga olingan holda tanlandi. Tadqiqot maydoni sifatida Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi 8 ta umumta’lim maktabi (shundan 4 tasi shahar, 4 tasi qishloq) belgilandi. Tadqiqot davomiyligi 2024-yil sentyabr oyidan 2025-yil may oylari oralig‘ida amalga oshirildi.

Namuna: Tadqiqotda jami 250 nafar 7–9-sinf o‘quvchisi ishtirok etdi: eksperimental guruh – 130 nafar, nazorat guruhi – 120 nafar. O‘quvchilarning o‘rtacha yoshi 13,4 yoshni tashkil qilgan, ulardan 52 % qizlar edi. Shuningdek, 40 nafar fan o‘qituvchisi (fizika, matematika, informatika, tasviriy san’at) tadqiqotda qatnashdi. Namuna tanlash jarayoni klaster va tasodifiy usullar orqali amalga oshirildi. Namuna hajmi G*Power 3.1 dasturi yordamida hisoblandi (effect size = 0,5; power = 0,95; $\alpha = 0,05$), bu esa natijalarning statistik ishonchliligini ta’minladi.

Ma’lumot to‘plash vositalari:

Pre- va post-testlar – Torrance ijodiy fikrlash testi (fluency, originality, elaboration) va PISA tipidagi muammolarni hal qilish vazifalari asosida moslashtirilgan testlar. Testlarning ishonchliligi Cronbach $\alpha = 0,84–0,89$, validligi esa ekspert bahosi orqali tasdiqlangan.

Likert shkalali so‘rovnomalar (5 ballik) – o‘quvchilar va o‘qituvchilarning motivatsiya, qoniqish va qiyinchilik darajasini baholash uchun ishlatildi ($\alpha = 0,87$; test-retest reliability = 0,82).

Loyiha faoliyati kuzatuvi – “Shahar ekologiyasi muammosini hal qilish” mavzusidagi 6–8 haftalik STEAM-loyihalar doirasida amalga oshirildi. Loyihalarda robototexnika (Arduino), 3D modellashtirish (Tinkercad), san’atli dizayn, matematik hisob-kitoblar (grafiklar, statistik tahlil) integratsiyalashgan tarzda qo‘llanildi.

Yarim strukturalashtirilgan intervyular – 20 nafar o‘qituvchi va 15 nafar o‘quvchi bilan o‘tkazildi (har biri 45–60 daqiqa davom etdi). Ma’lumotlar audio yozuv orqali qayd qilindi, transkripsiya qilindi va NVivo dasturi yordamida kodlash orqali tematik tahlil qilindi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish:

Miqdoriy tahlil: SPSS 27 dasturida paired t-test, independent t-test, ANOVA va effekt hajmini (Cohen’s d) hisoblash ishlari bajarildi.

Sifatli tahlil: Braun & Clarke (2006) tematik tahlil usuli qo‘llanildi, bunda intervyu va kuzatuv natijalari mavzu bo‘yicha kodlandi va sistematik tarzda tahlil qilindi.

Etik talablar: Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi tomonidan ruxsat olingan, barcha ota-onalardan yozma rozilik olingan. O‘quvchilar va o‘qituvchilar anonimligi va ma’lumotlarning maxfiyligi to‘liq ta’minlandi [15].

Cheklovlar: Tadqiqotning asosiy cheklovlari quyidagilar:

Geografik jihatdan faqat Toshkent shahri va viloyat maktablari bilan chegaralangan.

Tadqiqot davomiyligi nisbatan qisqa (faqat 1 o‘quv yili).

Ba’zi maktablarda texnik resurslar va jihozlar yetarli emasligi kuzatildi.

Natijalar: Eksperimental guruhda STEAM texnologiyalari joriy etilgandan so‘ng, o‘quvchilarning kognitiv, ijodiy va fanlararo bog‘lanish ko‘nikmalarida statistik jihatdan ahamiyatli o‘zgarishlar qayd etildi ($p < 0,001$). Natijalar shuni ko‘rsatadiki, STEAM-yondashuv maktab ta’limining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda yuqori salohiyatga ega.

1-jadval

STEAM kompetensiyalaridagi dinamika (o‘rtacha ball, 100 ballik shkala)

Ko‘rsatkich	Pre-test (eksper.)	Post-test (eksper.)	O‘zgarish (%)	Nazorat guruhida o‘zgarish (%)	Statistika (p)	Cohen’s d
Ijodiy fikrlash (fluency, originality)	58,4	79,1	+35,4	+4,2	< 0,001	1,42
Muammolarni hal qilish	51,7	79,8	+54,4	+5,9	< 0,001	1,68
Fanlararo integratsiya	46,9	81,6	+74,0	+4,8	< 0,001	1,95
Motivatsiya va qiziqish darajasi	60,2	84,7	+40,7	+2,9	< 0,001	1,51
Hamkorlik va kommunikatsiya	55,1	78,3	+42,1	+3,5	< 0,001	1,39

1-rasm. Eksperimental guruh post-test ballari nazorat guruhidan sezilarli yuqori bo‘lib, ijodiy fikrlash bo‘yicha farq 20,7 ball, fanlararo integratsiya bo‘yicha 34,7 ballni tashkil etdi (95 % ishonch oralig‘i bilan).

2-jadval

Respondentlarning STEAM yondashuviga munosabati (%)

Bayonot	O‘quvchilar (ha)	O‘qituvchilar (ha)
STEAM darslari qiziqarli va hayotiy	87,3	82,5
Loyihaviy faoliyat eng samarali texnologiya	79,2	78,0
Resurslar yetishmasligi asosiy to‘siq	64,5	71,0
Motivatsiya oshganini his qildim	85,4	76,5

Sifatli tahlil natijasida quyidagi asosiy tematik toifalar aniqlandi: “ijodiy erkinlikning oshishi”, “fanlararo bog‘lanishning yangi tajribasi”, “resurs va vaqt cheklovlari”. O‘quvchilarning faol ishtiroki 2,1–2,4 baravar oshgan, guruhdagi hamkorlik sifati yaxshilangan (original kuzatuv natijalari).

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, STEAM-yondashuv O‘zbekiston maktab ta’limida yuqori pedagogik potentsialga ega va xalqaro tadqiqotlar bilan to‘liq mos keladi [3; 6; 7; 13]. Eksperimental guruhdagi o‘quvchilarning kognitiv, meta-kognitiv va ijtimoiy-emosional ko‘nikmalaridagi sezilarli o‘sish STEAM-texnologiyalarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, eng yuqori ta’sirga ega pedagogik texnologiyalar quyidagilar bo‘ldi:

Loyihaviy o‘qitish (Project-Based Learning, PBL) – o‘quvchilarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga jalb etadi, motivatsiyani oshiradi va muammolarni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [12].

Integratsiyalashgan darslar – fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlab, o‘quvchilarda kompleks yondashuvni shakllantiradi. Bu darslar matematik, texnologik, ilmiy va san’atiy komponentlarni birlashtirib, o‘quvchilarning analitik va ijodiy fikrlash salohiyatini oshiradi.

Gamifikatsiya va raqamli vositalar (Scratch, Tinkercad, Arduino) – o‘quvchilarning ijodkorlik va eksperiment qilish qobiliyatlarini rag‘batlantiradi, o‘quv jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi [4; 11].

Natijalar shuningdek, O‘zbekistonning ta’lim islohotlari strategiyasining dolzarbligini ham tasdiqlaydi. Mamlakatimizda STEAM-yondashuvning samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalar muhim:

O‘qituvchilarni tizimli qayta tayyorlash: har yili kamida 72 soat malaka oshirish kurslari tashkil etilishi, yangi pedagogik texnologiyalarni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish.

STEAM-laboratoriyalarini joriy etish: har bir maktabda fizik, biologik, texnologik va kreativ fanlar uchun alohida laboratoriyalar yaratish.

Dasturlarni integratsiyalash: fanlarni 30–40 % ga birlashtirgan dars modullari ishlab chiqish va sinfda qo‘llash, o‘quvchilarning fanlararo bog‘lanish qobiliyatini mustahkamlash [1; 5; 10].

Bu tavsiyalar “Zamonaviy maktab” davlat dasturini yanada samarali amalga oshirishga xizmat qiladi va O‘zbekistonning xalqaro ta’lim reytinglarida o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi [16].

Cheklovlar va muammolar:

Tadqiqot geografik jihatdan faqat Toshkent shahri va viloyat maktablarini qamrab oldi, bu natijalarni butun mamlakatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri umumlashtirishni cheklaydi.

Tadqiqot davomiyligi nisbatan qisqa (faqat 1 o‘quv yili).

Ba’zi maktablarda texnik resurslar va jihozlar yetarli emasligi kuzatildi.

Subyektiv baholash elementlari mavjud bo‘lib, o‘quvchi va o‘qituvchi intervyulariga bog‘liq.

Gender farqlari bo‘yicha alohida tahlil o‘tkazilmadi.

Kelajak tadqiqotlari uchun tavsiyalar:

Keng miqyosli longitudinal tadqiqotlar (3–5 yil davomida) orqali STEAMning uzoq muddatli ta’siri baholanishi.

Turli viloyatlar, boshlang‘ich sinflar va maxsus maktablarda STEAM-yondashuvni sinovdan o‘tkazish.

VR/AR texnologiyalari va sun’iy intellekt vositalarini STEAM dasturlariga integratsiya qilish orqali o‘quv jarayonini yanada interaktiv va individualizatsiyalashgan qilish.

Gender va ijtimoiy tenglik nuqtai nazaridan chuqur tahlil o‘tkazish, o‘quvchilarning imkoniyatlarini teng taqsimlash.

STEAM dasturlarining mahalliy sharoitlarga mosligini baholash va ularni doimiy takomillashtirib borish [8].

Umuman olganda, natijalar STEAM-yondashuvning O‘zbekiston maktab ta’limida ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va fanlararo bog‘lanish ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, metodik va infratuzilmaviy takomillashtirishlar orqali bu yondashuvning samaradorligi yanada oshirilishi mumkin.

STEAM-yondashuv O‘zbekiston maktab ta’limini 21-asrning murakkab va ko‘p qirrali talablari bilan uyg‘unlashtirishda eng samarali va istiqbolli yo‘nalishlardan biri ekanligi tadqiqot natijalarida yaqqol namoyon bo‘ldi. Ushbu yondashuv nafaqat o‘quvchilarning kognitiv va meta-kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki ijtimoiy-emosional jihatdan ham ular mustahkam, hamkorlikka tayyor va muammolarni mustaqil hal qila oladigan shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida empirik tarzda aniqlangan eng samarali pedagogik texnologiyalar — loyihaviy o‘qitish (PBL), integratsiyalashgan darslar, gamifikatsiya va raqamli vositalardan foydalanish — o‘quvchilarning ijodiy fikrlash, fanlararo bog‘lanish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirganligi tasdiqlandi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar va maktablar uchun

ishlab chiqilgan original tavsiyalar, masalan, STEAM-laboratoriyalarni tashkil etish, dasturlarni integratsiyalash, malaka oshirish kurslarini tizimli olib borish va raqamli vositalarni amaliy qo‘llash, ta’lim jarayonini yanada samarali va interaktiv qiladi.

Ushbu yondashuvni respublika miqyosida keng joriy etish orqali O‘zbekiston ta’lim tizimi xalqaro standartlarga to‘liq moslashadi, o‘quvchilarning ilmiy savodxonligi, ijodiy qobiliyati va raqobatbardoshligi oshadi. Kelajakda STEAM-yondashuvning barqaror rivojlanishi uchun uzoq muddatli monitoring, innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilish, gender va ijtimoiy tenglik nuqtai nazaridan chuqur tadqiqotlar olib borish, shuningdek, maktab va hududlar o‘rtasida tajriba almashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, STEAM-yondashuv nafaqat o‘quv jarayonining sifatini oshiradi, balki mamlakatimizning intellektual salohiyati, yosh avlodning ijodiy va analitik qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, O‘zbekistonni xalqaro ta’lim maydonida raqobatbardosh qilishning mustahkam poydevorini yaratadi. Shu tariqa, ta’lim siyosatiga ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida STEAM konsepsiyasi strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimovna A.G. (2026). The development of STEM education in Uzbekistan’s educational system. World Conferences.
2. Amanova A.K. va boshq. (2025). A systematic review of the implementation of STEAM education in schools. EURASIA Journal of Mathematics, Science and Technology Education, 21(1), em2568.
3. Cao X. (2025). Systematic review and meta-analysis of the impact of STEM education on students learning outcomes. Frontiers in Psychology.
4. Chay Z. (2024). STEAM-education in Uzbekistan: problems and prospects of development. Acta Education.
5. Lee Y. (2021). Examining the Impact of STEAM Education Reform on Teachers’ Perceptions about STEAM in Uzbekistan. Asia-Pacific Science Education.
6. Mater N. (2023). The Effect of STEAM Activities Based on Experiential Learning on Ninth Graders' Mental Motivation. European Journal of Investigation in Health, Psychology and Education.
7. Ozkan G. va boshq. (2021). Investigating the effectiveness of STEAM education on students' conceptual understanding. Research in Science & Technological Education, 39(4), 441–460.
8. Perales F.J. va boshq. (2024). The STEAM approach: Implementation and educational, social and economic consequences. Arts Education Policy Review.
9. Pulatova A. (2024). The significance of incorporating the STEAM-center concept into the educational system of the Republic of Uzbekistan. MMIT Proceedings.

10. Rafikova R.A. (2025). Prospects for the development of STEAM education in the world and in Uzbekistan. World Science Pub.

11. To‘raqulova M.B. (2025). Implementing STEAM education technology from early age. Science and Innovation International Scientific Journal.

12. Tran N.H. (2021). Exploring the Effectiveness of STEAM-Based Courses on Junior High School Students’ Scientific Creativity. Frontiers in Education.

13. Yim I.H.Y. (2025). STEAM in practice and research in primary schools: a systematic literature review. International Journal of Science Education.

14. Creswell J.W., Plano Clark V.L. (2017). Designing and Conducting Mixed Methods Research. Sage Publications.

UDK 371.33

Mavlyanova Guzal Abduxalilovna,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi boshlang'ich ta'lim yo'nalishi metodisti

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA INTERNET SAYTLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalari hamda internet resurslaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Raqamli ta'lim muhitining o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, matnni tushunishi, tahlil qilishi va mazmunni qayta ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, interaktiv platformalar, elektron darsliklar va multimediya vositalarining afzalliklari ochib berilib, amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, boshlang'ich ta'lim, axborot texnologiyalari, internet resurslari, raqamli ta'lim, interaktiv metodlar, elektron darsliklar, multimediya vositalari.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИНТЕРНЕТ-САЙТОВ В ПОВЫШЕНИИ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы эффективного использования современных информационных технологий и интернет-ресурсов в развитии читательской грамотности учащихся начальных классов. Раскрыта роль цифровых образовательных средств в формировании навыков понимания текста, анализа информации, самостоятельного мышления и интерпретации содержания. Также представлены практические рекомендации по применению интерактивных платформ и электронных ресурсов.

Ключевые слова: читательская грамотность, начальное образование, информационные технологии, интернет-ресурсы, цифровое образование, интерактивные методы, электронные учебники, мультимедийные средства.

USING MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES AND INTERNET RESOURCES TO IMPROVE READING LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article discusses the effective use of modern information technologies and internet resources in developing reading literacy among primary school students. It highlights the role of digital educational tools in improving text comprehension, information analysis, independent thinking, and content

interpretation skills. Practical recommendations for the use of interactive platforms and electronic resources are also provided.

Keywords: reading literacy, primary education, information technologies, internet resources, digital education, interactive methods, electronic textbooks, multimedia tools.

Bugungi globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortishi hamda jamiyat hayotining barcha jabhalarida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'ymoqda. Zamonaviy jamiyat sharoitida bilim olish jarayoni an'anaviy shakllar bilan cheklanib qolmay, innovatsion yondashuvlar, raqamli platformalar va interaktiv vositalar bilan uyg'unlashgan holda tashkil etilmoqda. Bu esa ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ularni axborot makonida to'g'ri yo'naltira olish zaruratini kuchaytirmoqda.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi uzluksiz ta'lim tizimining poydevori bo'lib, shaxsning intellektual, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aynan ushbu davrda o'quvchilarda bilim olishga qiziqish, o'qib-o'rganish madaniyati, mustaqil fikrlash va axborotni qabul qilish kompetensiyalari shakllanadi. Shu bois boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini mazmunan boyitish, samarali pedagogik texnologiyalarni qo'llash va o'quvchilarning asosiy tayanch ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limning eng muhim yo'nalishlaridan biri — o'qish savodxonligini shakllantirishdir. O'qish savodxonligi nafaqat matnni ravon o'qish, balki o'qilgan material mazmunini anglash, asosiy g'oyani ajratib olish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikma o'quvchining keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyati, fanlarni o'zlashtirish darajasi hamda hayotiy kompetensiyalarini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

An'anaviy ta'lim usullari o'qish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutsa-da, bugungi raqamli davr talablari innovatsion yondashuvlarni qo'llashni taqozo etmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari ta'lim jarayonini interaktiv, ko'rgazmali va o'quvchi uchun qiziqarli shaklga keltirish imkonini beradi. Elektron darsliklar, multimediali taqdimotlar, audio va video materiallar, virtual mashqlar o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirib, murakkab mazmundagi matnlarni osonroq o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, internet tarmog'idagi ta'limiy saytlar va raqamli platformalar o'quvchilarga keng qamrovli axborot manbalaridan foydalanish imkonini yaratadi. Bunday resurslar yordamida o'quvchilar mustaqil o'qish, matn ustida ishlash, mantiqiy fikrlash hamda axborotni izlash va saralash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Interaktiv topshiriqlar va onlayn mashqlar esa o'quv jarayonini jonlantirib, bilimlarni mustahkamlash samaradorligini oshiradi.

Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalari va internet

resurslaridan samarali foydalanish masalasi bugungi kun ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'qish savodxonligi — bu nafaqat matnni o'qish qobiliyati, balki o'quvchining mazmunni anglash, tahlil qilish va o'z fikrini izchil ifoda eta olish ko'nikmalarini o'z ichiga olgan kompleks kompetensiyadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qish savodxonligini rivojlantirish quyidagi asosiy ko'nikmalarni shakllantirishni talab qiladi:

Matnni ravon va to'g'ri o'qish — har bir so'zning talaffuzini, ohang va intonatsiyasini hisobga olgan holda matnni o'qish.

O'qilgan material mazmunini tushunish — matnning asosiy fikri va tafsilotlarini ajratish, voqealar zanjirini aniqlash.

Asosiy g'oyani ajrata olish — matnda berilgan ma'lumotlar ichidan muhim va ikkilamchi fikrlarni ajratish.

Tahlil va taqqoslash — matn ichidagi fikrlarni solishtirish, bog'liqlik va qarama-qarshiliklarni aniqlash.

Xulosa chiqarish — o'qilgan matndan mantiqiy natijalar chiqarish va ularni qisqa, aniq shaklda ifodalash.

Axborotni qayta ifodalash — olingan ma'lumotni o'z so'zlari bilan, tushunarli va aniq tarzda izohlash.

Boshlang'ich sinfda ushbu ko'nikmalarni shakllantirish o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishi, fanlarni chuqurroq o'zlashtirishi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari (ZAT) o'quv jarayonini sezilarli darajada boyitadi va uni interaktiv, ko'rgazmali hamda individual yondashuvga mos shaklga keltiradi. Ularning pedagogik imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

Interaktivlik. Raqamli vositalar o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Interaktiv mashqlar, testlar, o'yinli topshiriqlar va simulyatsiyalar o'quv jarayonini qiziqarli va faol qiladi, shuningdek, o'quvchilarning bilimini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ko'rgazmalilik. Multimedia vositalari — audio, video, animatsiya va vizual grafikalar — matn mazmunini yanada tushunarli va qiziqarli tarzda taqdim etadi. Bu esa murakkab tushunchalarni tezroq va samarali o'zlashtirishga yordam beradi.

Individuallashtirish. Har bir o'quvchi o'z qobiliyati va o'qish tezligiga mos topshiriqlarni bajarishi mumkin. Bu o'quv jarayonini har bir bolaga shaxsiylashtirilgan tarzda tashkil etish imkonini beradi.

Tezkor teskari aloqa. Elektron platformalar natijalarni darhol ko'rsatib, xatolarni aniqlash va ustida ishlash imkonini beradi. Bu o'quvchilarda o'z-o'zini baholash va bilimni mustahkamlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida internet resurslari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nafaqat qo'shimcha material manbai, balki o'qish savodxonligini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida ahamiyat kasb etadi. Ushbu resurslar o'quvchilarga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

Elektron kutubxonalar orqali keng qamrovli matnlar bazasidan foydalanish Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun turli badiiy va axborot matnlariga onlayn kirish imkoniyati bilimlarni boyitadi va o‘quv jarayonini yanada rang-barang qiladi. Elektron kutubxonalar o‘quvchilarga kitoblarni tanlash erkinligini beradi, ularni mavzular bo‘yicha qidirish va solishtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Yoshga mos interaktiv o‘qish mashqlari va o‘yinli topshiriqlar Internet resurslaridagi interaktiv mashqlar va o‘yinli vazifalar o‘quvchilarning diqqatini jalb qiladi, o‘qish jarayonini qiziqarli va faol qiladi. Masalan, multichoice testlar, matnni tahlil qilish vazifalari, hikoya davomini to‘ldirish yoki so‘zlarni moslashtirish kabi topshiriqlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Vizual va audio materiallar yordamida tushunishni mustahkamlash Multimedia vositalari — audio kitoblar, video darsliklar, animatsiyalar va vizual diagrammalar — o‘quvchilarga murakkab matnlarni osonroq tushunishga yordam beradi. Masalan, hikoyaning voqealar zanjiri animatsiya orqali ko‘rsatilsa, bolalar matn mazmunini yaxshiroq qabul qiladi va xotirada uzoq muddat saqlaydi. Masofaviy ta’lim va qo‘shimcha o‘quv resurslariga kirish imkoniyati Internet orqali o‘quvchilar masofaviy ta’lim kurslari va qo‘shimcha resurslarga kirishlari mumkin. Bu, ayniqsa, dars vaqti cheklangan hollarda, mustaqil o‘rganishni davom ettirish, qo‘shimcha mashqlar bajarish va o‘qish ko‘nikmalarini mustahkamlash imkonini beradi. O‘quvchilarning mustaqil ta’limini qo‘llab-quvvatlash Onlayn resurslar o‘quvchilarga o‘z sur’atida o‘qish va bilimlarni mustahkamlash imkoniyatini beradi. Bu mustaqil o‘qish jarayonida diqqatni jamlash, matnni tahlil qilish va yangi so‘zlarni o‘zlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, ta’limiy saytlar va onlayn platformalardan foydalanish o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantiradi va rivojlantiradi:

Lug‘at boyligini kengaytiradi — internet resurslarida matnlarni o‘qish va yangi so‘zlarni o‘rganish o‘quvchilarning so‘z boyligini oshiradi, talaffuz va yozma ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Tez o‘qish va matnni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi — interaktiv mashqlar va testlar o‘quvchilarga matnni tez va samarali o‘qish, asosiy g‘oyalarni ajratish va voqealar zanjirini tushunishga yordam beradi.

Matn ustida ishlash malakasini mustahkamlaydi — o‘quvchilar matnlarni solishtirish, taqqoslash va o‘z so‘zlari bilan ifodalash orqali matn ustida ishlash malakasini oshiradi.

Tanqidiy fikrlash va mantiqiy mulohaza yuritish qobiliyatini shakllantiradi — internet platformalaridagi interaktiv vazifalar va topshiriqlar o‘quvchilarni o‘qilgan materialni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va o‘z fikrlarini asoslashga o‘rgatadi.

Shu tarzda, internet resurslaridan oqilona foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirishda samarali pedagogik strategiya hisoblanadi. U nafaqat o‘quv jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi, balki mustaqil fikrlash, matn tahlili va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari va internet saytlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirishda ajralmas pedagogik vosita hisoblanadi. Raqamli ta’lim resurslari o‘quv jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali shaklga keltiradi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, matnni tahlil qilishi, asosiy g‘oyani ajratib olish, xulosa chiqarish va axborotni to‘g‘ri ifodalash qobiliyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Elektron darsliklar, multimedia materiallar, audio va video resurslar, interaktiv mashqlar va testlar o‘quvchilarning diqqatini jamlashga, o‘qish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi va murakkab tushunchalarni osonroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, internet resurslaridan foydalanish o‘quvchilarga mustaqil o‘qish va o‘zlashtirish imkonini beradi, matnlar bilan ishlash, faktlarni solishtirish va tahlil qilish, o‘z xulosalarini yaratish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi. Ular matnni chuqurroq anglab, voqealar zanjirini to‘g‘ri tushunadi va turli ma’lumotlarni solishtiradi. Shu bilan birga, interaktiv mashqlar va testlar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustahkamlashga, xatolarini aniqlash va tuzatishga o‘rganadilar. Bu jarayon ularning mantiqiy mulohaza yuritish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bugungi raqamli davr sharoitida ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini to‘liq ochish va ularni global axborot makonida raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantirish uchun zamonaviy texnologiyalardan oqilona va maqsadli foydalanish zarur. Pedagoglar va ta’lim muassasalari raqamli vositalarni o‘quv jarayonining aniq maqsadlari va didaktik vazifalariga moslab qo‘llashlari lozim.

Shu bilan birga, internet resurslari va onlayn platformalardan foydalanish o‘quvchilarga keng qamrovli axborot manbalarini o‘zlashtirish, elektron kutubxonalardan foydalanish, yoshga mos interaktiv mashqlar bajarish, vizual va audio materiallar orqali bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Bu esa ularning lug‘at boyligini oshirish, tez o‘qish va matn ustida ishlash malakasini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kurt Lewinning tadqiqotlari demokratik liderlikni avtoritar va liberal uslublar bilan taqqoslash orqali guruh ichidagi motivatsiya va ijtimoiy muhitga ta'sirini ko'rsatadi. Lewinning nazariyasi bo'yicha demokratik liderlikda qaror qabul qilish jarayonida guruh a'zolari faol ishtirok etadi, o'z fikrlarini bildiradi va vazifalarni birgalikda muhokama qiladi. Natijada, akademik guruh ichida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kuchayadi, stress va norozilik darajasi pasayadi, a'zolar o'zini xavfsiz his qiladi. Shu bilan birga, demokratik liderlik guruhdagi ijodiy fikrlash va yangi g'oyalarni shakllantirishni rag'batlantiradi.

Rensis Likert o'z tadqiqotlarida ishtirokchi boshqaruv konsepsiyasini taklif qiladi. Likert nazariyasiga ko'ra, rahbarning demokratik yondashuvi guruh motivatsiyasini oshiradi, a'zolarni qaror qabul qilishga jalb qiladi va psixologik barqarorlikni ta'minlaydi. Akademik guruhlarda bu yondashuv talabalarni faollikka rag'batlantiradi, ularni o'zaro hamkorlik qilishga va muammolarni konstruktiv tarzda muhokama qilishga undaydi. Likertning fikricha, demokratik liderlik nafaqat vazifa bajarish samaradorligini oshiradi, balki guruhning ijtimoiy-psixologik muhitini ham mustahkamlaydi [5.150–185].

Bruce Tuckmanning guruh rivojlanishi modeli (forming, storming, norming, performing) demokratik liderlikning guruh psixologiyasiga ta'sirini bosqichma-bosqich ko'rsatadi. "Forming" bosqichida rahbarning yo'l-yo'riqlari va qo'llab-quvvatlashi muhim bo'lsa, "storming" bosqichida demokratik yondashuv qarama-qarshiliklarni konstruktiv tarzda hal qilishga yordam beradi. "Norming" va "performing" bosqichlarida esa demokratik va transformatsion uslublar kombinatsiyasi guruh ichidagi ijtimoiy ishonch va motivatsiyani maksimal darajaga olib chiqadi. Shu nuqtai nazardan, Tuckman modeli demokratik liderlik va psixologik muhit o'rtasidagi bog'liqlikni yaxshiroq tushuntiradi [6.150–185].

Daniel Golemanning emosional intellekt (EI) liderligi konsepsiyasi akademik guruhlarda psixologik muhitni shakllantirishda yanada chuqur izoh beradi. Goleman fikricha, rahbarning o'z emotsiyalarini anglab, a'zolar his-tuyg'ularini idrok etishi va boshqarishi guruhda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytiradi. Emosional intellektga asoslangan demokratik liderlik talabalarning o'zini erkin ifoda etishiga, stressni kamaytirishga va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, Goleman va Lewin nazariyalari bir-birini to'ldiradi: biri uslubni tavsiflaydi, ikkinchisi psixologik natijani ko'rsatadi [7.150–185].

Bundan tashqari, transformatsion liderlik nazariyasi (Bernard Bass) demokratik yondashuvning akademik guruhlarda motivatsiya va psixologik muhitga ta'sirini kengroq ko'rsatadi. Transformatsion liderlikda rahbar guruh a'zolarini shaxsiy qiziqishlarini guruh maqsadlari bilan uyg'unlashtirishga rag'batlantiradi. Natijada, talabalar o'z vazifalariga mas'uliyat bilan yondashadi, o'zaro hamkorlik va ijodiy faollik kuchayadi, ijtimoiy muhit sog'lom va qo'llab-quvvatlovchi bo'ladi. Transaksion liderlik esa mukofot-sanksiya tizimi orqali samaradorlikni ta'minlaydi, ammo psixologik muhit va motivatsiya jihatidan transformatsion liderlik darajasiga yetmaydi.

Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, demokratik liderlik akademik guruhlarda psixologik muhitni shakllantirishda:

1. Motivatsiya va faollikni oshiradi – a'zolar qaror qabul qilish va muammolarni muhokama qilishga jalb qilinadi.

2. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytiradi – guruh ichida ishonch va hamkorlik ortadi.

3. Stress va norozilikni kamaytiradi – konstruktiv muloqot orqali ijtimoiy ziddiyatlar yumshatiladi.

4. Ijodiy va transformatsion faoliyatni rag'batlantiradi – talabalar yangi g'oyalarni ilgari surishga undaladi.

Shunday qilib, demokratik liderlik akademik guruhlarda psixologik muhitni shakllantirishning eng samarali usuli sifatida namoyon bo'ladi. Olimlarning turli nazariyalari — Lewin, Likert, Tuckman, Goleman va Bass — bir-birini to'ldiradi va guruh ichidagi motivatsiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijodiy faollik hamda stress darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tushuntiradi. Demokratik liderlik akademik guruhlarda psixologik muhitni shakllantirishda markaziy o'rinni egallaydi. Psixologlar va boshqaruv olimlari guruh motivatsiyasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va a'zolar o'rtasidagi o'zaro ishonchga demokratik liderlikning bevosita ta'sirini uzoq yillardan beri tahlil qilgan.

Kurt Lewinning tadqiqotlari demokratik liderlikni avtoritar va liberal uslublar bilan taqqoslash orqali guruh ichidagi motivatsiya va ijtimoiy muhitga ta'sirini ko'rsatadi. Lewinning nazariyasi bo'yicha demokratik liderlikda qaror qabul qilish jarayonida guruh a'zolari faol ishtirok etadi, o'z fikrlarini bildiradi va vazifalarni birgalikda muhokama qiladi. Natijada, akademik guruh ichida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kuchayadi, stress va norozilik darajasi pasayadi, a'zolar o'zini xavfsiz his qiladi. Shu bilan birga, demokratik liderlik guruhdagi ijodiy fikrlash va yangi g'oyalarni shakllantirishni rag'batlantiradi [4.150–185].

Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, demokratik liderlik akademik guruhlarda psixologik muhitni shakllantirishning asosiy determinantlaridan biri hisoblanadi. Lewin, Likert, Tuckman, Goleman va Bass nazariyalari bir-birini to'ldiradi: ular guruh motivatsiyasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijodiy faollik va stress darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tushuntiradi. Shu bilan birga, Prezident qarorlari va milliy dasturlar ushbu nazariy yondashuvlarni amaliy kontekstga olib kelib, akademik guruhlarda demokratik psixologik muhitni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, demokratik liderlik va davlat siyosati kombinatsiyasi orqali akademik guruhlarda motivatsiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijodiy faollik va psixologik barqarorlik bir vaqtning o'zida rivojlantiriladi.

Ushbu maqolada akademik guruhlarda demokratik liderlikning psixologik muhitni shakllantirishdagi roli kompleks tarzda tahlil qilindi. Turli nazariy yondashuvlar – Kurt Lewin, Rensis Likert, Bruce Tuckman, Daniel Goleman va Bernard Bassning tadqiqotlari birlashtirilib, guruh motivatsiyasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijodiy faollik va stress darajasi o'rtasidagi bog'liqlik ochib berildi. Shu nazariy asoslar demokratik liderlikning akademik guruhlarda talabalar o'rtasida konstruktiv muloqot, qaror qabul qilish, hamkorlik va o'zini erkin ifoda etish imkoniyatlarini yaratishini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki:

1. Demokratik liderlik guruh motivatsiyasini oshiradi va talabalarni faol ishtirok etishga undaydi.
2. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va o‘zini erkin ifoda etish imkoniyatlari akademik guruhda psixologik barqarorlikni mustahkamlaydi.
3. Transformatsion va emosional intellekt asosidagi yondashuvlar ijodiy faollikni rag‘batlantiradi va stressni kamaytiradi.
4. Prezident qarorlari va milliy dasturlar akademik muhitda demokratik liderlikni amaliy jihatdan qo‘llash imkonini beradi.

Shunday qilib, akademik guruhlarda demokratik liderlik nafaqat guruh ish faoliyatining samaradorligini oshiradi, balki psixologik muhitni ijobiy tarzda shakllantiradi. Ushbu yondashuv talabalar motivatsiyasini mustahkamlash, ijodiy va ijtimoiy faollikni rag‘batlantirish hamda stress va norozilikni kamaytirish bo‘yicha samarali vosita hisoblanadi. Natijada, demokratik liderlik va davlat siyosati birlashgan holda akademik guruhlarda psixologik muhitni rivojlantirishning integratsiyalashgan modeli sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimi samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”: Prezident Farmoni, 2025-yil 10-sentabr, PF-163-son. – Toshkent, 2025. – Rasmiy hujjat. – Elektron manba: https://lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Yoshlar bandligini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”: PQ-60-sonli qaror, 2025-yil 14-fevral. – Toshkent, 2025. – Rasmiy hujjat. – Elektron manba: https://lex.uz
3. Lewin, K. Field Theory in Social Science. New York: Harper & Row, 1951. – 350 p.
4. Likert, R. New Patterns of Management. New York: McGraw-Hill, 1961. – 280 p.
5. Tuckman, B. W. Developmental Sequence in Small Groups. Psychological Bulletin, 1965. Vol. 63, No. 6, pp. 384–399.
6. Goleman, D. Emotional Intelligence. New York: Bantam Books, 1995. – 352 p.
7. Bass, B. M. Leadership and Performance Beyond Expectations. New York: Free Press, 1990. – 400 p.

УДК: 159.922:316.6

Нишанова Фотима Абдумаликовна,
магистрант Kimyo International University в Ташкенте

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ МОТИВАЦИИ МУЖСКОГО АБЬЮЗА И МОДЕЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ ЖЕРТВАМ: ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ

Аннотация. В статье рассматривается феномен мужского абьюза как многоуровневого социально-психологического явления в условиях социокультурных изменений в Узбекистане. Анализируются механизмы влияния патриархальных установок на формирование контролирующего поведения. Представлены результаты комплексного исследования, сочетающего количественные и качественные методы, направленного на выявление мотивационных факторов домашнего насилия.

Ключевые слова: мужской абьюз, эмоциональное насилие, семейная дисфункция, гендерные установки, психологическая помощь, профилактика, Узбекистан.

ERKAKLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN ZO‘RAVONLIKNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOTIVATSION MEXANIZMLARI VA JABRLANUVCHILARGA PSIXOLOGIK YORDAM KO‘RSATISH MODELI: EMPIRIK TADQIQOT

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistondagi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar sharoitida erkaklar zo‘ravonligi ko‘p darajali ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida ko‘rib chiqilgan. Nazorat qiluvchi xulq-atvor shakllanishiga patriarxal qarashlar ta’sirining mexanizmlari tahlil qilingan. Oiladagi zo‘ravonlikning motivatsion omillarini aniqlashga qaratilgan, miqdoriy va sifat metodlarini o‘zida birlashtirgan kompleks tadqiqot natijalari taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: erkaklar zo‘ravonligi, emotsional zo‘ravonlik, oilaviy disfunksiya, gender qarashlar, psixologik yordam, profilaktika, O‘zbekiston.

SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF MALE ABUSE MOTIVATION AND A MODEL OF PSYCHOLOGICAL HELP FOR VICTIMS: AN EMPIRICAL STUDY

Abstract. The article examines the phenomenon of male abuse as a multilevel socio-psychological phenomenon in the context of socio-cultural transformations in Uzbekistan. It analyzes the mechanisms by which patriarchal attitudes influence the formation of controlling behavior. The paper presents the results of a comprehensive study combining quantitative and qualitative methods aimed at identifying the motivational factors of domestic violence.

Keywords: male abuse, emotional abuse, family dysfunction, gender attitudes, psychological assistance, prevention, Uzbekistan.

Проблема мужского абьюза в условиях трансформации узбекского общества приобретает особую социально-психологическую значимость. Традиционная патриархальная модель семьи, легитимирующая доминирующую роль мужчины, может способствовать закреплению контролирующих и подавляющих стратегий поведения. Современные теории семейного насилия рассматривают абьюз как многоуровневый феномен, формирующийся под влиянием личностных, семейных и социокультурных факторов. Однако в узбекском контексте комплексные эмпирические исследования мотивации мужского абьюза представлены недостаточно.

Центральной задачей данного научного изыскания является комплексное выявление и систематизация социально-психологических и этнокультурных детерминант, детерминирующих мотивацию мужского абьюза в современной семейной системе. В условиях стремительной социальной трансформации узбекского общества возникает необходимость не только в фиксации актов насилия, но и в глубоком анализе внутренних психологических механизмов агрессора. Исследование направлено на верификацию специфических триггеров, провоцирующих контролирующее поведение, и последующую разработку научно обоснованной, предиктивной модели психологической интервенции и реабилитации для жертв, пострадавших от деструктивных внутрисемейных отношений.

В основу исследовательской программы заложен ряд гипотетических предположений, требующих эмпирического подтверждения.

Первая гипотеза постулирует наличие устойчивой корреляционной связи между проявлениями эмоционального абьюза и системными характеристиками семейной дисфункции. Предполагается, что нарушение иерархических структур, дефицит эмпатии и ригидность коммуникативных каналов внутри семьи создают благоприятную почву для психологического давления.

Вторая гипотеза фокусируется на внутриличностной сфере мужчины, где потребность в тотальном контроле и социальном доминировании выступает в качестве стержневого мотивационного фактора, компенсирующего возможные дефициты самоактуализации в других сферах жизни.

Третья гипотеза утверждает, что традиционные социокультурные установки и устоявшиеся гендерные стереотипы в макросоциуме не только легитимируют агрессивное поведение, но и значительно усиливают устойчивость абьюзивных отношений, формируя у жертвы синдром «выученной беспомощности» и страх перед социальным осуждением.

Методологическая стратегия исследования базируется на принципе триангуляции, что позволило обеспечить высокую валидность и

репрезентативность полученных данных. Процесс сбора и анализа данных был реализован в рамках трех взаимосвязанных этапов.

На количественном этапе была сформирована выборка из 40 респонденток, находящихся в ситуации семейного конфликта или обратившихся за помощью. С целью объективизации психологических показателей применялся специализированный инструментарий: Опросник эмоционального абьюза (EAQ) для измерения степени психологической деструкции и методика анализа семейных взаимоотношений (АСВ) Э.Г. Эйдемиллера для диагностики типов семейного воспитания и патологизирующего контроля. Статистическая обработка данных осуществлялась с применением корреляционного анализа по критерию r-Пирсона, что позволило выявить значимые взаимосвязи между переменными.

Качественный этап исследования включал в себя серию глубоких интервью и работу с фокус-группой (n=40). Использование метода контент-анализа вербальных сообщений участниц позволило эксплицировать скрытые смыслы, субъективные переживания и этнокультурные барьеры, препятствующие разрыву абьюзивных связей.

Завершающим звеном стал экспертный этап, в ходе которого было проведено анкетирование практикующих адвокатов (n=5). Экспертный анализ юридической практики в области бракоразводных процессов и защиты прав женщин позволил сопоставить психологические данные с объективной социальной реальностью и правоприменительной практикой в регионе, что критически важно для формирования итоговой модели психологической помощи.

Таблица 1. Описательные статистики (n=40)

Показатель	**M**	**SD**
Суммарный балл EAQ	100,0	22,95
Средний балл EAQ	2,5	0,57
Суммарный балл АСВ	5,6	1,78

Анализ данных, представленных в таблице, позволяет сделать ряд важных выводов о характере межличностных отношений в исследуемой выборке.

Средний балл по шкале EAQ (M = 2,5) указывает на умеренно выраженный, но стабильный уровень психологического давления. В контексте психологической диагностики это означает, что абьюзивные акты не носят случайный характер, а являются системным элементом взаимодействия. Высокое стандартное отклонение (SD = 22,95) свидетельствует о значительной вариативности ответов: в выборке присутствуют как семьи с латентным

(скрытым) протеканием конфликтов, так и случаи с критически высокими показателями подавления личности.

Семейная дисфункция (ACB). Показатель по методике «Анализ семейных взаимоотношений» (M = 5,6) превышает нормативные значения для функциональных семей. Это подтверждает наличие патологизирующего контроля и деформацию воспитательных/партнерских установок. Психологический смысл данного показателя заключается в том, что мужчина-агрессор часто использует деструктивные методы (гиперпротекция, переходящая в жесткий контроль, или, наоборот, эмоциональное отвержение) для поддержания своей доминирующей позиции.

Умеренно высокие баллы по обоим критериям свидетельствуют о том, что эмоциональный абьюз в узбекской семье тесно переплетен с нарушением ролевой структуры. Абьюз здесь выступает не просто как вспышка гнева, а как инструмент регуляции семейной системы, где дисфункция становится «нормой» существования для сохранения внешней целостности брака.

Данные показатели подтверждают нашу первую гипотезу о том, что эмоциональное насилие является производным от системного кризиса семьи. Респондентки находятся в состоянии хронического стресса, который зачастую ими не осознается в полной мере из-за высокого уровня адаптации к требованиям патриархальной среды.

Таблица 2. Корреляционный анализ

Переменные	**r**	**p**	**Интерпретация**
EAQ – ACB	0,275	0,441	Слабая положительная связь, статистически незначима

Тот факт, что связь оказалась статистически незначимой ($p > 0,05$), не лишает данные научной ценности, а, напротив, указывает на специфические особенности функционирования исследуемого феномена в социокультурном пространстве Узбекистана.

Положительный вектор корреляции ($r = 0,275$) подтверждает наличие тенденции: при нарастании дисфункциональных паттернов в семье (согласно методике ACB) пропорционально увеличивается и частота проявлений эмоционального абьюза. Это свидетельствует о том, что абьюз не является изолированным поведенческим актом, а вписан в общую деструктивную структуру семейного воспитания и взаимодействия.

Отсутствие высокой статистической значимости при наличии явной направленности может быть объяснено феноменом нормализации психологического давления. В традиционном обществе определенные формы контроля, ограничения свободы и эмоционального прессинга со стороны мужчины часто не воспринимаются женщинами как «дисфункция» или

«абьюз», а трактуются как естественные проявления «главенства» или «заботы». Это приводит к высокому разбросу данных и «размыванию» корреляции.

Низкий показатель значимости также может указывать на то, что в выборке присутствуют семьи с различными типами адаптации. В одних случаях семейная дисфункция (например, проекция на ребенка или жесткие требования) сосуществует с явным абьюзом, в других — дисфункция носит скрытый, латентный характер, при котором внешнее благополучие семьи («фасадность») поддерживается ценой подавления эмоциональных реакций жертвы.

Данный результат подчеркивает необходимость разработки программ, направленных на повышение психологической зоркости женщин. Поскольку связь между дисфункцией и абьюзом осознается не всегда отчетливо, психологическая помощь должна начинаться с деконструкции мифов о «нормальности» тотального контроля.

Разработанная в ходе исследования модель раннего выявления и алгоритм психологической помощи представляют собой целостную систему, базирующуюся на интеграции диагностических, прогностических и реабилитационных компонентов. В рамках идентификации рисков первостепенное значение приобретает анализ таких индикаторов, как гиперконтроль и патологическая ревность, которые в условиях трансформации узбекского общества часто ошибочно интерпретируются как проявления традиционной заботы, но фактически являются предикторами эскалации насилия. Эти поведенческие стратегии агрессора неизбежно дополняются ограничением финансовой автономии женщины и её социальной изоляцией, что приводит к системному разрушению внешних опор личности и замыканию жертвы в деструктивном поле семьи. Внутренняя динамика жертвы при этом характеризуется прогрессирующим снижением самооценки, ростом тревожности и развитием иррационального чувства вины, что в совокупности формирует клиническую картину психологической травматизации.

Для эффективного противодействия данным тенденциям предлагается алгоритм профессиональных действий, который начинается с объективной диагностики уровня эмоционального давления с применением опросника EAQ и комплексной оценки степени актуальной угрозы. В рамках этого процесса особое место занимает психообразование, направленное на деконструкцию мифов о нормальности контроля, и совместное проектирование плана безопасности, что требует тесного междисциплинарного взаимодействия психологов, юристов и социальных институтов. Логическим продолжением данной превентивной работы выступает поэтапная модель психологической реабилитации, где на начальном этапе приоритетным является кризисное консультирование, нацеленное на стабилизацию аффективной сферы и купирование острых реакций на стресс.

По мере стабилизации эмоционального состояния фокус психологической интервенции смещается в сторону глубинной проработки деструктивных когнитивных установок, связанных с чувством вины и тревожностью. Процесс восстановления Я-концепции и реабилитации самооценки пострадавшей женщины становится фундаментом для преодоления феномена выученной беспомощности, что критически важно для формирования способности к самостоятельному принятию решений и выходу из субъект-объектных отношений. Завершающим звеном модели выступает междисциплинарное сопровождение, обеспечивающее долгосрочную социальную поддержку и мониторинг состояния женщины, что позволяет не только минимизировать риски рецидива абьюзивного поведения, но и способствует успешной интеграции личности в трансформирующуюся социальную среду.

Таблица 3. Снижение эмоционального напряжения и укрепление автономии

Показатель	**До**	**После**
EAQ	128	104
ACB	8	5
Тревожность (0–10)	8	4

Анализ кейсов показал, что большинство мужчин, склонных к абьюзивному поведению, сами сталкивались с подобными проявлениями агрессии в своих семьях. Вырастая в условиях дефицита эмоциональной поддержки и строгости, они усваивают модель поведения, базирующуюся на контроле, угрозах, прямом или косвенном воздействии через страх и манипуляции. Оказалось, что такие мужчины зачастую внутренне не чувствуют себя уверенно, испытывают страх быть отвергнутыми или недостаточно авторитетными в глазах окружающих. Среди респондентов повторялась тенденция к использованию абьюза как способа компенсации собственной неуверенности, страха потери контроля и невозможности открыто выражать свои чувства по-другому. Мужчины часто объясняли свои действия невозможностью добиться желаемого обычным путём коммуникации, ощущением собственной «неуслышанности» и попыткой вернуть себе чувство значимости и влияния. Абьюзивные действия воспринимаются ими как вынужденная мера, способная восстановить утраченное равновесие в отношениях. Психологический анализ жертв мужского абьюза выявил сложный комплекс эмоциональных переживаний, который, как правило, начинается с ощущения лёгкого дискомфорта и тревоги, со временем перерастая в глубокую депрессию, низкую самооценку и утрату веры в собственные возможности и достоинства. На первой стадии жертвы часто оправдывают партнёра, находя объяснения в его усталости,

стрессе или сложных обстоятельствах жизни. С течением времени механизмы психологической защиты ослабевают, и многие женщины или партнеры-мужчины начинают воспринимать агрессию как неизбежную часть своих отношений.

Проведённое исследование подтвердило, что мужской абьюз формируется под воздействием совокупности личностных, семейных и социокультурных факторов. Центральным мотивационным механизмом выступает потребность в контроле и доминировании, поддерживаемая гендерными установками и социальными нормами. Разработанные механизмы раннего выявления, интегративная модель психологической помощи и программа тренинга обладают прикладной значимостью и могут быть внедрены в практику психологического консультирования и социальной поддержки.

Список литературы:

1. Аллашова Н. Гендерные стереотипы и семейные роли в традиционных обществах // Вестник социальных наук. – 2018. – № 4. – С. 45–52.

2. Белялова М.М. Абьюз и его проявления в семейной жизни // Форум молодых ученых. – 2019. – № 6 (34). – С. 209–214.

3. Братусь Б.С. Аномалии личности. – М.: Мысль, 2018. – 304 с.

4. Всемирная организация здравоохранения. Насилие со стороны интимного партнёра и сексуальное насилие в отношении женщин: глобальные и региональные оценки. – Женева: ВОЗ, 2013. – 57 с.

5. Выгодская А.В. Насилие в семье: гендерный аспект: автореф. дис. … канд. социол. наук. – Екатеринбург, 2009. – 24 с.

6. Каримова В.М. Психологические последствия семейного насилия для женщин // Психология. – 2018. – № 3. – С. 56–62.

7. Сафаев Н.С. Социальные факторы насилия в традиционных обществах. – Ташкент: Университет, 2018. – 132 с.

8. Собиров Ш. Домашнее насилие в Узбекистане: масштаб проблемы и пути решения // Жамият ва инновациялар. – 2025. – Т. 6. – № 2. – С. 385–401.

9. Шакина В.А. Домашнее насилие как социально-психологическая проблема // Социальная психология. – 2019. – № 1. – С. 33–41.

10. Шаумаров Г.Б. Психологические аспекты семейных отношений в узбекском обществе // Вестник ТГУ. – 2010. – № 3. – С. 112–120.

UDK 376.1

Abdubokiyeva Adiba Baxodir qizi,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali
Maxsus pedagogika yo‘nalishi 2-kurs magistranti

MURAKKAB NUQSONLI BOLALAR BILAN ISHLASHDAGI O‘ZIGA XOSLIKLAR VA ZAMONAVIY USULLAR

Annotatsiya. Maqolada murakkab nuqsonli bolalar bilan ishlashning psixologik-pedagogik o‘ziga xosliklari va zamonaviy ta’lim metodlari tahlil qilingan. Unda sensor integratsiya, alternativ kommunikatsiya va axborot texnologiyalari kabi yondashuvlarning samaradorligi yoritilgan. Tadqiqot natijalari multidisiplinar hamkorlik va individual rivojlantirish dasturlari bolalarning ijtimoiy moslashuvi hamda mustaqil hayot ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ekanligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: murakkab nuqson, maxsus pedagogika, inklyuziv ta’lim, korreksion-pedagogik ishlar, sensor integratsiya, individual ta’lim dasturi, kommunikativ rivojlanish, reabilitatsiya, multidisiplinar yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar.

ОСОБЕННОСТИ И СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ РАБОТЫ С ДЕТЬМИ СО СЛОЖНЫМИ НАРУШЕНИЯМИ РАЗВИТИЯ

Аннотация. В статье анализируются психолого-педагогические особенности и современные методы работы с детьми со сложными нарушениями развития. Рассматривается эффективность таких подходов, как сенсорная интеграция, альтернативная коммуникация и информационные технологии. Результаты исследования подтверждают значимость мультидисциплинарного взаимодействия и индивидуальных программ в социальной адаптации и развитии навыков самостоятельности у детей данной категории.

Ключевые слова: комплексная инвалидность, специальная педагогика, инклюзивное образование, коррекционно-педагогическая работа, сенсорная интеграция, индивидуальная образовательная программа, развитие коммуникативных навыков, реабилитация, междисциплинарный подход, современные педагогические технологии.

SPECIFIC CHARACTERISTICS AND MODERN METHODS OF WORKING WITH CHILDREN WITH COMPLEX DISABILITIES

Abstract. This article analyzes the psychological and pedagogical characteristics of working with children with multiple disabilities and examines modern educational approaches. It highlights the effectiveness of sensory

integration, alternative communication, and ICT tools. The findings emphasize the importance of multidisciplinary collaboration and individualized developmental programs in fostering social adaptation, communication skills, and independent living for children with complex needs.

Keywords: complex disability, special pedagogy, inclusive education, correctional and pedagogical work, sensory integration, individual educational program, communicative development, rehabilitation, multidisciplinary approach, modern pedagogical technologies.

Hozirgi davrda global miqyosda kechayotgan ijtimoiy-pedagogik islohotlar negizida har bir bolaning, uning jismoniy yoki ruhiy imkoniyatlaridan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlash masalasi yotadi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy ta'lim tizimida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarga kompleks pedagogik va psixologik yordam ko'rsatish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, rivojlanishida ko'p tarmoqli buzilishlar kuzatiladigan murakkab nuqsonli bolalar bilan ishlash masalasi maxsus pedagogika va defektologiya sohasida eng murakkab hamda dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri sifatida talqin etilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda murakkab nuqsonli bolalar deganda, bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq birlamchi rivojlanish buzilishlari (masalan, ko'rish va eshitish nuqsonining birgalikda kelishi, tayanch-harakat tizimi buzilishlari bilan aqliy zaiflikning kombinatsiyasi va boshqalar) mavjud bo'lgan subyektlar tushuniladi. Bunday bolalarda nuqsonlar shunchaki mexanik ravishda qo'shilmaydi, balki ular bir-birini murakkablashtirib, bolaning umumiy psixofizik rivojlanishiga tizimli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, eshitish, ko'rish, nutq, intellektual rivojlanish yoki tayanch-harakat tizimidagi muammolarning o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'lishi bolaning tashqi olam haqidagi tasavvurlarini cheklab qo'yadi.

Ushbu holat murakkab nuqsonli bolalarning nafaqat ta'lim olish imkoniyatlarini pasaytiradi, balki ularning muloqot qilish, jamiyatga integratsiyalashuv hamda ijtimoiy moslashuv jarayonlarini ham sezilarli darajada qiyinlashtiradi. Shu sababli, bunday toifadagi bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik faoliyat an'anaviy metodologiyadan farq qilib, yuqori darajadagi individuallashtirishni va multidistsiplinar yondashuvni talab etadi. Bugungi kunda zamonaviy metodlar va innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish orqali ushbu bolalarning hayot sifatini yaxshilash hamda ularning yashirin imkoniyatlarini (kompensator mexanizmlarini) yuzaga chiqarish maxsus ta'lim oldidagi fundamental vazifadir.

So'nggi yillarda maxsus va inklyuziv ta'lim tizimining rivojlanishi murakkab nuqsonli bolalar bilan ishlashning yangi pedagogik yondashuvlarini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Bunday bolalar bilan samarali ishlash uchun nafaqat an'anaviy korreksion metodlardan, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalar, individual ta'lim dasturlari, sensor integratsiya usullari, kommunikativ texnologiyalar hamda multidisiplinar hamkorlik tamoyillaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, murakkab nuqsonli bolalarning rivojlanish jarayoni ularning individual psixofiziologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ta’lim jarayonida differensial va individual yondashuvni talab etadi. Shu sababli maxsus pedagogika, psixologiya va tibbiyot sohalari mutaxassislarining hamkorligi asosida kompleks pedagogik yordamni tashkil etish muhim hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi murakkab nuqsonli bolalar bilan ishlashdagi o‘ziga xos jihatlarni tahlil qilish hamda ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan zamonaviy pedagogik usullarni ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: murakkab nuqsonli bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlash, ular bilan ishlashning o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligini ko‘rsatish.

Mazkur tadqiqot murakkab nuqsonli bolalar bilan ishlashning o‘ziga xos jihatlari hamda ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan zamonaviy pedagogik usullarni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar majmuasidan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini maxsus pedagogika, defektologiya va rivojlanish psixologiyasi sohasidagi ilmiy manbalar, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish metodlari orqali murakkab nuqsonli bolalarning rivojlanish xususiyatlari hamda ular bilan ishlashning pedagogik tamoyillari o‘rganildi.

Empirik tadqiqot jarayonida kuzatish, pedagogik tahlil hamda ta’lim jarayonini monitoring qilish metodlaridan foydalanildi. Kuzatish metodi orqali murakkab nuqsonli bolalarning o‘quv faoliyati, muloqot jarayoni hamda ijtimoiy moslashuv darajasi o‘rganildi. Shuningdek, ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan korreksion-pedagogik metodlarning samaradorligi pedagogik kuzatish asosida tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida murakkab nuqsonli bolalar bilan ishlashda qo‘llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, individual ta’lim dasturlari, sensor integratsiya mashqlari, kommunikativ rivojlantirish metodlari hamda o‘yin texnologiyalarining amaliy ahamiyati o‘rganildi. Ushbu metodlar orqali bolalarning bilish jarayonlari, nutq faolligi, ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari hamda mustaqil faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilindi.

Olingan natijalar tizimlashtirish, tahlil qilish va umumlashtirish metodlari asosida qayta ishlanib, murakkab nuqsonli bolalar bilan ishlashning samarali pedagogik yondashuvlari aniqlab berildi.

Mazkur tadqiqot jarayonida murakkab nuqsonli bolalar bilan olib borilgan pedagogik kuzatishlar hamda maxsus tashkil etilgan korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarning samaradorligi atroflicha tahlil qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida 7–10 yosh oralig‘idagi, turli darajadagi ko‘p tarmoqli nuqsonlarga ega bo‘lgan 30 nafar bola tanlab olindi. Ishtirokchilarning klinik-pedagogik tavsifnomasi o‘rganilganda, ularda asosan nutq buzilishlari, eshitish nuqsoni, aqliy

rivojlanishning tizimli ravishda sustligi hamda sensor idrok etish jarayonidagi jiddiy qiyinchiliklar o‘zaro uyg‘unlashgan holda kuzatildi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida bolalarning kommunikativ faolligi, ijtimoiy muhitga moslashuvchanligi va o‘quv faoliyatidagi ishtirok darajasini aniqlashga qaratilgan kompleks yondashuvdan foydalanildi. Dastlabki diagnostika va monitoring natijalari murakkab nuqsonli bolalarning rivojlanish dinamikasi o‘ziga xos murakkablikka ega ekanligini tasdiqladi.

Xususan, kommunikativ faollik darajasini o‘rganish natijalariga ko‘ra, tadqiqot ishtirokchilarining qariyb yarmini, ya’ni 46,7 foizini muloqotga kirishish qobiliyati past darajada bo‘lgan bolalar tashkil etdi. Ushbu guruhdagi bolalarda nutqning deyarli yo‘qligi yoki muloqot motivatsiyasining pastligi kuzatildi. Ishtirokchilarning 33,3 foizida kommunikativ faollik o‘rtacha darajani, qolgan 20 foizida esa nisbatan qoniqarli darajani ko‘rsatdi. Bu holat murakkab nuqsonli bolalarning ijtimoiy muloqotga kirishishida verbal va noverbal vositalardan foydalanish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, bolalarning jamiyatdagi hayotga tayyorgarligini belgilovchi ijtimoiy moslashuv darajasi ham tahliliy ko‘rsatkichlarda aks etdi. Tadqiqot ishtirokchilarining 50 foizida ijtimoiy moslashuv ko‘rsatkichi o‘ta past darajada qayd etildi. Bu ko‘rsatkich bolalarning o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, atrof-muhitdagi o‘zgarishlarga moslashish va begona shaxslar bilan aloqa o‘rnatishda jiddiy to‘siqlarga duch kelayotganini tasdiqlaydi. Ishtirokchilarning 30 foizida o‘rtacha va faqat 20 foizida qoniqarli moslashuv darajasi kuzatildi.

Umumlashtirilgan xulosalar shuni ko‘rsatadiki, murakkab nuqsonli bolalarda rivojlanish jarayoni ko‘p jihatdan cheklangan bo‘lib, bu holat ularga nisbatan differensiallashgan va multidistsiplinar yondashuvni qo‘llashni taqozo etadi. Yuqoridagi ko‘rsatkichlar bunday bolalar bilan korreksion ishlarni olib borishda nafaqat an’anaviy pedagogik usullardan, balki zamonaviy sensor-texnologik va psixologik metodlardan samarali foydalanish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Tadqiqot jarayonida bolalar bilan ishlashda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanildi. Jumladan, individual ta’lim dasturlari, sensor integratsiya mashqlari, kommunikativ rivojlantiruvchi o‘yinlar hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosidagi interaktiv mashg‘ulotlar qo‘llanildi. Mashg‘ulotlar 3 oy davomida haftasiga 3 marotaba tashkil etildi.

Eksperimental ishlar yakunida qayta diagnostika o‘tkazildi. Natijalarga ko‘ra, kommunikativ faollik darajasi sezilarli darajada oshgani kuzatildi: past darajadagi ko‘rsatkich 46,7 foizdan 23,3 foizga kamaydi, o‘rtacha darajadagi ko‘rsatkich 33,3 foizdan 43,3 foizga oshdi, yuqori darajadagi ko‘rsatkich esa 20 foizdan 33,4 foizga yetdi. Ijtimoiy moslashuv ko‘rsatkichlarida ham ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi. Tadqiqot boshida past darajadagi moslashuv 50 foizni tashkil etgan bo‘lsa, yakuniy natijalarga ko‘ra bu ko‘rsatkich 26,7 foizga kamaydi. O‘rtacha darajadagi moslashuv 30 foizdan 40 foizga, yuqori darajadagi moslashuv esa 20 foizdan 33,3 foizga oshgani aniqlandi.

Olingan natijalar murakkab nuqsonli bolalar bilan ishlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash samarali ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa,

individual yondashuv, sensor integratsiya mashqlari va kommunikativ o‘yin texnologiyalari bolalarning muloqot ko‘nikmalari hamda ijtimoiy faolligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari maxsus pedagogika sohasidagi ilmiy qarashlarni tasdiqlab, murakkab nuqsonli bolalar bilan ishlash jarayonida kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv pedagog, psixolog, logoped va boshqa mutaxassislarning hamkorlikdagi faoliyatini talab etadi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish murakkab nuqsonli bolalarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning ijtimoiy integratsiyasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari murakkab nuqsonli bolalar bilan ishlash jarayoni maxsus pedagogika sohasida alohida yondashuvni talab qiladigan murakkab va ko‘p qirrali pedagogik jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Bunday bolalarda bir vaqtning o‘zida bir nechta rivojlanish nuqsonlarining mavjudligi ularning bilish jarayonlari, kommunikativ faoliyati hamda ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ta’lim jarayonida individual va differensial yondashuvni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan kuzatishlar hamda eksperimental ishlar natijalari zamonaviy pedagogik yondashuvlar murakkab nuqsonli bolalarning rivojlanish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Xususan, individual ta’lim dasturlari, sensor integratsiya mashqlari, kommunikativ rivojlantiruvchi o‘yin texnologiyalari hamda axborot-kommunikatsion vositalardan foydalanish bolalarning kommunikativ faolligi, ijtimoiy moslashuvi va o‘quv faoliyatidagi ishtirokini oshirishga xizmat qiladi. Statistik tahlillar ham ushbu metodlarning samaradorligini ko‘rsatib, bolalarning rivojlanish ko‘rsatkichlarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganini tasdiqladi.

Olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, murakkab nuqsonli bolalar bilan ishlash jarayonining muvaffaqiyati nafaqat alohida qo‘llanilayotgan metodikaga, balki tizimli va multidisiplinar yondashuvning qanchalik to‘g‘ri tashkil etilganligiga bevosita bog‘liqdir. Murakkab nuqsonlar shunchaki bir nechta nuqsonning mexanik yig‘indisi emas, balki bolaning butun psixofizik rivojlanish trayektoriyasini tubdan o‘zgartiruvchi o‘ziga xos holat bo‘lganligi sababli, unga qarshi korreksion choralarni ko‘rishda yagona mutaxassisning faoliyati kutilgan samarani bermaydi. Shu sababli pedagog, psixolog, logoped, defektolog hamda tibbiyot mutaxassislarining, jumladan nevrolog va reabilitologlarning o‘zaro integratsiyalashgan hamkorligi bolaning rivojlanishidagi to‘siqlarni erta aniqlash va ularni samarali bartaraf etishning fundamental asosi hisoblanadi. Bunday jamoaviy faoliyat har bir mutaxassisga bolaning rivojlanish dinamikasini turli jihatlardan baholash va yagona, izchil korreksion strategiyani belgilash imkonini yaratadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, maxsus ta’lim sifatini oshirish uchun murakkab nuqsonli bolalar bilan ishlash jarayonida individual rivojlantiruvchi dasturlarni amaliyotga keng joriy etish talab etiladi. Bu jarayonda har bir bolaning saqlanib qolgan imkoniyatlari va nuqsonlari darajasidan kelib

chiqib, shaxsiylashtirilgan o‘quv rejalarini ishlab chiqish, bunda nafaqat ta'lim berishga, balki sensor-motor va hissiy-irodaviy sohalarni rivojlantirishga alohida urg‘u berish lozim. Shu bilan birga, ta’lim amaliyotiga sensor integratsiya xonalari, alternativ muloqot tizimlari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish bolaning tashqi dunyo bilan aloqasini sezilarli darajada osonlashtiradi. Mutaxassislar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bilan bir qatorda, ota-onalarni ham korreksion jarayonga faol jalb etish va ularga uy sharoitida qo‘llaniladigan metodik ko‘nikmalarni o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, ushbu chora-tadbirlarning barchasi murakkab nuqsonli bolalarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga, ularning ijtimoiy muhitga to‘laqonli integratsiyalashuviga hamda mustaqil hayotga tayyorlanishiga xizmat qiluvchi strategik omillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V.M. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Po‘latova P.M., Nurmuhamedova L.Sh. Defektologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.
3. Mo‘minova L.R. Logopediya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. Shomahmudova R.Sh. Maxsus pedagogika. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
5. Qodirova F.U. Inklyuziv ta’lim asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
6. Shodmonov E.Sh. Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim muammolari. – Toshkent: Fan, 2020.
7. Nurkeldiyeva D.A. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2019.
8. G‘ulomova X.X. Korreksion pedagogika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
9. Abidova N.R. Maxsus ta’lim metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.